

1998  
1998

MALIK ABDUSAMATOV

# FORS TILI





ملک عبدالصمدوف

زبان فارسی

برای دانشجویان آموزشگاه های عالی

انتشارات "شرق"


تاشکند - ۲۰۰۷

MALIK ABDUSAMATOV

# FORS TILI

*Oliy o'quv yurtlari talabalari  
uchun darslik*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan  
uchinchi nashri



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2007



Mas'ul muharrir:  
akademik ALIBEK RUSTAMOV

Forscha matnlarning maxsus muharriri:  
MUHAMMAD HUSAYN OBIDINIY

ویراستار متن فارسی:  
محمد حسین عابدینی

**Abdusamatov M.**

**Fors tili.** Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: akademik A.Rustamov. T.: "Sharq", 2007. —448 b.

**BBK 81.2Fors ya 73**

ISBN 978-9943-00-186-2

© "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2007



## **FORS TILI DARSLIGINING UCHINCHI NASHRIGA IZOH**

Ushbu «Fors tili» darsligi ilgari ikki marta nashr etilgan (1971, 1977- yillar) «Fors tili» darsligining uchinchi nashridir. Oʻtgan 35 yil davomida mazkur darslik Respublikamizning barcha fors tili oʻqitiladigan oliy oʻquv yurtlarida, maktab va litseylarda boshqa darslik boʻlmaganligi tufayli asosiy darslik sifatida foydalanib kelindi.

Hozirgi kunda ushbu darslik, birinchidan, noyob kitoblar sirasiga kirib qolgan boʻlib, undan foydalanish ancha qiyinchiliklar tugʻdirib kelmoqda. Ikkinchidan, darslikka kiritilgan matnlar va mashqlar zamon talabiga javob bermay qoldi. Endilikda yangi pedagogik taʼlim asosida uni qayta koʻrib chiqib, zamon talabiga javob beradigan darajada oʻzgartirishlar kiritishni zamon taqozo etmoqda.

Darslikning ushbu nashrida yangi pedagogik texnologiyaga suyangan holda, talabalarning mustaqil ishlashdagi faoliyatini oshirish maqsadida turli xarakterdagi mashqlar berildiki, ularni bajarishda talabalardan ancha bilim va fikr yuritish talab qilinadi.

Darslikda talabalarning maʼnaviy va maʼrifiy bilimlarini takomillashtirish maqsadida, fors tilida Eronning mashhur klassik va hozirgi zamon adiblari, shoir va allomalari, Eron xalqining bayramlari, urf-odatlarini, geografiyasi, iqtisodi va turmush tarzi haqida maʼlumotlar berildi.

Bu mavzularni qamrab olgan matnlar til oʻrganish materiali boʻlishi bilan birga talabalarning Eron haqidagi bilim doiralarini kengaytirib borishga yordam beradi.



## SO‘ZBOSHI

Ushbu darslik Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti eron bo‘limi talabalari, oliy o‘quv yurtlarining til va adabiyot fakultetlari talabalari, shuningdek, tarix fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, bu darslikdan fors tili o‘qitiladigan akademik litsey va maktab o‘quvchilari, fors tili o‘qituvchlari, shu sohani o‘rganuvchi ilmiy xodimlar, aspirantlar, fors tiliga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Fors tili darsligi Sharqshunoslik instituti eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida tomonidan tuzilgan hamda pedagogika universitetlari o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun yaratilgan «Fors tili» dasturlari hamda muallifning ko‘p yillar davomida universitetlarning sharq va filologiya fakultetlarida fors tili o‘qitish tajribasi asosida yozildi.

Mazkur darslikni tuzishda Respublikamiz hamda Rossiya Federatsiyasi eronshunoslarining fors tili bo‘yicha tuzgan darslik va grammatikalari, ilmiy ishlari, maqola va tadqiqotlari hamda o‘zbek tiliga oid ko‘pgina asarlar va metodik qo‘llanmalar asos qilib olindi.

Bu darslik hozirgi adabiy fors tili va uning grammatik normalarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni eski fors tilining ayrim xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida, klassik fors adabiyotidan namunalar hamda folklor xarakteridagi materiallardan parchalar ham keltirildi va eski fors tiliga xos ba’zi grammatik formalarga izoh berib o‘tildi. Bu hol talabalarga klassik fors tilida yozilgan asarlarni o‘qish va ularning mazmunini tushunish imkonini beradi.

Darslik talabalarni fors tilida yozilgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni, badiiy, ilmiy, maishiy asarlarni, klassik fors adabiyotidan murakkab bo‘lmagan namunalarni o‘qishga, ularni lug‘at yordamida

o'zbek tiliga tarjima qilishga, o'tilgan grammatik va leksik materiallar asosida jumlar tuzishga o'rgatadi.

Darslikda talabalarning og'zaki nutqini o'stirib borishga ham alohida ahamiyat berilgan. Buning uchun darslikda maxsus mashqlar, suhbat tariqasida matnlar, dialoglar, matn yuzasidan savol-javoblar, so'zlab berish uchun matnlar va hikoyalar keltirilgan.

Shunday qilib, darslik talabalarni so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, o'z fikrlarini fors tilida ifoda etish, o'tilgan leksik va grammatik materiallar asosida murakkab bo'lmagan mavzularda suhbatlasha olish, o'zga nutqini eshitib tushinish kabi malakalarga o'rgatadi.

Darslikda berilgan mashqlar maqsad va tuzilishi jihatdan turlicha bo'lib, ular o'tilgan grammatik va leksik materiallarni o'zlashtirish va mustahkamlashni maqsad qilib qo'yadi. Shu bilan birga mashqlarni bajarishda talabalarni chuqur o'ylashga va mustaqil fikrlashga majbur qiladi.

Kurs oxirida talabalar 2300 so'z va so'z birikmalarini o'zlashtirishlari va ulardan o'z faoliyatlarida hayotning turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan mavzularda ishlata olishlari kerak.

Darslik uch asosiy qismdan iborat.

1. Kirish qismi, fonetika va grafika.
2. Fors tilining grammatik qurilishi va leksikasi.
3. Ilovalar.

Darslikning kirish qismida fors tili va uning cron tillari orasida tutgan o'rni, fors tilining taraqqiyot davrlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Fonetika bo'limida fors tili unli tovushlari sistemasi, ularning tavsifi va talaffuzi, undosh tovushlar talaffuzi, diftonglar, transkripsiya, urg'u va bo'g'in haqida fikr yuritiladi.

Grafik qismida arab-fors alfaviti, harflarning yozilishi va o'qilishi xususiyatlari hamda fors yozuvi haqida tushuncha beriladi. Fonetika qismining har bir mavzusi bo'yicha tovush va so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun fonetik mashqlar beriladi. Bu mashqlarni baland ovoz bilan talaffuz qilish va ularni o'zbek tilidagi ekvivalenti bilan qiyoslab o'rganish tavsiya etiladi. Imkoniyat boricha bu tovushlarni magnitafon lentasiga yozib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Darsning grafik qismida harf va harf birikmalarini o'zlashtirish uchun turli mashq va topshiriqlar beriladi. Arab-fors yozuvi bir-muncha murakkab bo'lganligi sababli, harf shakllarini diqqat bilan o'rganish va ularni qayta-qayta ko'chirib yozish kerak. Bunda nuqtalarning o'rni va miqdoriga alohida ahamiyat berish kerak.

Fors tilining grammatik qurilishi va leksikasi darslikning asosiy qismini tashkil qiladi. Shuning uchun fors tili grammatik qurilishining asosiy qoidalari hamda ko'p ishlatiladigan leksik tarkibi turli matnlarda bayon etilgan. Darslik 38 darsdan iborat

bo'lib, har bir dars muayyan leksik va grammatik materialni o'z ichiga oladi. Darolar bir prinsipda tuzilgan bo'lib, avval dars matni, so'ng matnda uchragan notanish so'zlar lug'ati, keyin grammatik va leksik izoh va nihoyat, leksik va grammatik materiallarni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan turli xarakterdagi mashqlar beriladi.

Dars matni yangi leksik va grammatik materiallarni o'rganish va o'zlashtirish uchun asosiy o'quv materiali hisoblanadi. Har bir dars, avvalo, shu darsdagi grammatik qoidalar va so'zlarni o'zlashtirishni nazarda tutsa, ikkinchidan, o'tgan darsdagi grammatik qoidalar va so'zlarni takrorlab borishni maqsad qilib qo'yadi.

Dars matnlari dastlabki darolar alohida gaplardan, dialog shaklidagi matnlardan yoki hikoyalardan iboratdir. Keyinchalik matn materiallari murakkablashib boradi va ma'lum mavzuga bag'ishlangan matnlar va hozirgi eron yozuvchlari asarlaridan parchalar beriladi.

Grammatik qoidalar va so'zlar oson va ko'p ishlatiladigan qoida va so'zlardan asta-sekin murakkab grammatik qoidalar hamda so'z va so'z birikmalariga o'tish asosida tuzilgan.

Talabalarning dars matnidagi leksik va grammatik materiallarni o'zlashtirishlariga erishish, ularning og'zaki nutq malakalarini oshirish maqsadida, har bir dars oxirida o'zbekchadan forshaga yoki forshadan o'zbekchaga tarjima qilish uchun gaplar va matnlar berildi. So'zlashish uchun dialoglar va so'zlab berish uchun hikoya va latifalar keltirildi. Bundan tashqari, grammatik qoidalarni o'zlashtirish uchun grammatik mashqlar ham topshiriq sifatida ilova qilindi. Har bir dars oxirida mustaqil o'qish, grammatik tahlil va boshqa turli mashqlar uchun qo'shimcha material sifatida maqollar, hikmatli so'zlar, hikoya va latifalar hamda gazeta va jurnallardan olingan turli mavzudagi matnlar keltirildi.

Talabalarni mustaqil ravishda tarjima qilishga va ularni lug'at bilan ishlashga hamda zarur bo'lgan so'zlarni umumiy lug'atdan qidirib topishga o'rgatish maqsadida 26-darsdan boshlab dars matnlarida uchragan notanish so'zlar lug'ati matn ostida berilmadi va ularni kitob oxirida keltirilgan umumiy lug'atdan yoki boshqa lug'atlardan qidirib topish havola qilindi.

Kitob oxirida ilovalar ham berildi. Birinchi ilovada for tilidagi sodda fe'llar va ularning hozirgi zamon negizi hamda o'zbekcha tarjimasi keltirildi. Bu hol talabalarni fe'l negizlarini o'zlashtirishlarini osonlashtiradi, kerak bo'lgan fe'lni tezda qidirib topish imkonini beradi.

Ikkinchi ilovada Eronda yil hisobi haqida ma'lumot berilib eron, arab va yevropa kalendarlari va ularda oylarning nomlari keltirilgan. Shu bilan birga, abjad hisobi, hijriy va milodiy yillar haqida ma'lumot berilgan.

Uchinchi ilova turli kalligrafik mashqlardan iboratdir. Ma'lumki, fors yozuvida chiroyli va kalligrafiya qoidalari asosida yozish nihoyat katta ahamiyatga egadir. Shu maqsadda kitobda nasta'liq xati bilan yozilgan bir necha namunalar berildi. Talabalar bu namunalar asosida muntazam ravishda, kalligrafik qoidalarga rioya qilgan holda har kuni 1–2 soatdan mashq qilishlari va shu asosda o'z yozuvlarini tuzata borishlari hamda chiroyli yozishga o'rganib borishlari tavsiya qilinadi.

To'rtinchi ilovada o'tgan grammatik materiallarni o'z ichiga olgan va mustaqil o'qish uchun mo'ljallangan maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, latifa va hikoyalr hamda klassik va hozirgi zamon fors adabiyoti namunalari keltirildi.

Kitob oxirida forcha-o'zbekcha hamda o'zbekcha-forscha lug'at ilova qilindi. Bu lug'at alfavit tartibida tuzilgan bo'lib, matn va mashqlarda hamda mustaqil o'qish uchun ajratilgan matn materiallarida uchragan notanish so'zlarni o'z ichiga oladi.

Fors tilida **yo** larning vazifalari va ularni talaffuzi turlicha bo'lganligi sababli ularning o'zlashtirishni osonlashtirish maqsadida kitob oxirida **yo** larning vazifalari va talaffuzilari alohida jadvalda ilova sifatida keltirildi.

Mazkur darslikda tovushlarning transkripsiyasi uchun o'zbek tiliga moslashtirilagan lotin alfaviti asos qilib olingan. Faqat affrikat **ج** tovushi uchun **j** harfi qoldirilib, sirg'alovchi **ج** tovushi uchun **j**: belgisi qabul qilindi. Masalan: **مجلة** *majalle* (jurnal), **مژده** *moj:de* (xushxabar).

Bundan tashqari, **ق** (*qof*) uchun **q**, **ع** (*ayn*) va **ء** (*hamza*) uchun ' (apostrof) belgilari shartli ravishda transkripsiyaga kiritiladi.

Ushbu darslikning qo'lyozmasi Toshkent davlat Sharqshunoslik institutining ilmiy kengashida va institutning eron-afg'on filologiyasi kafedrasining majlisida keng muhokama qilinib nashrga tavsiya etildi.

Muhokamada qatnashgan va o'zlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bayon etgan, mazkur kitobning yuzaga chiqishiga yordamlashgan barcha mutaxassislarga muallif samimiy minnatdorchilik bildiradi.

Mazkur «Fors tili» darsligi o'zbek tilida yaratilgan birinchi darsliklar jumlasidan bo'lgani uchun, unda ayrim nuqson va kamchiliklarning bo'lishi tabiiydir. Ushbu darslik yuzasidan bildirilgan barcha fikr va mulohazalar, tanqid va maslahatlar katta mamnuniyat bilan qabul qilinadi.



## KIRISH

Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tilidir. Fors adabiy tilining tayanch dialekti — Tehron dialektidir. Fors tili o‘zaro qarindosh bo‘lgan boshqa tillar bilan birgalikda hind — yevropa tillariga mansub bo‘lgan eroniy tillar guruhiga kiradi.

Eroniy tillar ba’zi bir fonetik va grammatik hususiyatlariga ko‘ra g‘arbiy va sharqiy guruh eroniy tillariga bo‘linadilar.

1. G‘arbiy guruh eroniy tillariga fors, tojik, beluch, kurd va Kaspiy bo‘yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolsh, tot) va boshqa tillar kiradi.

2. Sharqiy guruh eroniy tillariga afg‘on (pushtu), osetin, yag‘nob va pomir tillari (shug‘non, voxon, sanglichi, yazg‘ulom, ishkashim, zeboki, munjon) va boshqa tillar kiradi.

Eroniy tillar o‘zlarining grammatik qurilishi va leksik tarkibi jihatidan bir-biridan ancha farq qiladilar.

Hozirgi fors tili o‘z yozuviga ega bo‘lgan eng qadimiy tillardan biridir. Qadimiy fors tili eramizdan avvalgi VI asrda Ahamoniylar sulolasining rasmiy tili hisoblanib kelgan. Bu tilda yozilgan ahamoniylarning bir qancha yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgandir. Fors tilining tarixiy taraqqiyot yo‘li uch asosiy davrga bo‘linadi:

1. Qadimgi fors tili (eramizdan avvalgi VI—III asrlar).

2. O‘rta davr fors tili (eramizdan avvalgi III va eramizning VII asrlari).

3. Yangi ya’ni hozirgi fors tili (IX asrdan shu kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi).

Har bir davr yagona umumxalq tilining asosiy va eng muhim taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi. Har bir davr tilining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari, lug‘aviy o‘zgarishlari va ma’lum yozuv sistemasi bo‘lgan.

Qadimgi va oʻrta davr fors tili oʻlik til hisoblanib, uning grammatik qurilishi va lugʻat tarkibi haqida bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklar orqaligina maʼlumotga ega boʻlish mumkin.

Qadimgi va oʻrta davr fors tilining grammatik qurilishi va leksik tarkibini oʻrganish hozirgi fors tili va boshqa eroniy tillarni tarixiy taraqqiyot yoʻllarini bilish, ularni qiyosiy oʻrganish uchun katta ahamiyat kasb etadi (bu masala boʻyicha qarang: «И.М. Оранский. Введение в иранскую филологию. М., 1960»).

Maʼlumki, VII asrda arablar Eron, Oʻrta Osiyo va ularga qoʻshni boʻlgan bir necha mamlakatlarni zabt etadilar. Arablar bu mamlakatlarda islom dini bilan bir qatorda, oʻz madaniyati, tili va yozuvini keng xalq ommasiga tarqata boshlaydilar. Natijada islom dini, arab yozuvi, arab tili bu yerlarda mustahkam oʻrnashib oladi va rivoj topadi. VII asrning oxiriga kelib mahalliy xalqlardan chiqqan olimlar arab tilida diniy, falsafiy hamda adabiyot, huquq va tibbiyotga oid asarlar yoza boshladilar.

Ilmiy va adabiy kitoblarni boshqa tillardan arab tiliga tarjima qilish keng avj oladi. Eron, Oʻrta Osiyo va Sharqning boshqa xalqlari orasida arab tilida sheʼr bitgan shoirlar, arab tilida ijod etgan olimlar paydo boʻla boshlaydi. Kun sayin ularning soni ortib boradi. Madrasalarda oʻqish arab tilida olib boriladi. Maʼmuriy idoralarda va shaxsiy yozishmalarda ham arab tili keng qoʻllaniladi. Yozuvda arab alifbosi mustahkam oʻrnashib oladi.

Arablar bosib olgan butun territoriyada qariyb ikki asr mobaynida arab tili adabiyotda va ilm-fanda hukmronlik qiladi.

Arablar Oʻrta Osiyo va Eron xalqlariga oʻz tili va madaniyatini majburiy ravishda singdirish va mahalliy xalqlar tilini aloqadan siqib chiqarishga qanchalik harakat qilgan boʻlsalar ham, bunga erisha olmadilar. Oʻrta Osiyo va Eron xalqlari oʻz davlat va til mustaqilligini saqlab qoldilar.

IX asrda Eron va Oʻrta Osiyo xalqlari oʻz davlat mustaqilligi uchun olib borgan kurashda gʻolib chiqdilar va arab xalifaligi hukmronligidan ozod boʻlib, oʻzlarining markazlashgan Somoniylar davlatini vujudga keltirdilar.

Somoniylar dariy yoki forsiy nomi bilan atalgan mahalliy tilni oʻzlarining davlat va adabiy tili deb eʼlon qildilar. Dariy tili qadimgi va oʻrta davr fors tilining tarixiy taraqqiyoti davomi sifatida shakllandi va arab soʻzlari hisobiga oʻz leksik tarkibini boyitdi. Shunday qilib, IX asrdan boshlab fors tili tarixida III davr — yangi fors tili



davri boshlandi. Dariy tili tez sur'at bilan taraqqiy etdi va ko'p sohalardan arab tilini siqib chiqarib, tez vaqt ichida fan va adabiyot uchun asosiy til bo'lib qoldi.

Somoniylar davlatining markazi Buxoro shahri bo'lib, bu shahar ilmfan, ma'rifat va shariyat markaziga aylandi. Bu davrning eng mashhur shoir va olimlari, san'atkor va mutaffakirlari Buxoroga to'plandilar va ijod qildilar. Somoniylar hukmronligi davrida adabiyot va san'at, ilm va ma'rifat tez sur'atlar bilan taraqqiy etdi va madaniyat gullab yashnadi.

IX asrdan XV asrgacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo va Eron xalqlarining tarixida ilm va madaniyat, adabiyot va she'riyat yuksak darajaga ko'tarilgan davr bo'ldi. Bu davrda, bir tomondan, ijtimoiy fanlar — tarix, falsafa, mantiq va adabiyot keng rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tabiiy fanlar — matematika, astronomiya, meditsina fanlari taraqqiy etib, bu sohada olib borilgan katta ilmiy tadqiqotlar asosida o'lmas asarlar yaratildi. Bu asarlarni yaratgan Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy kabi olimlarning nomlari jahonga mashhurdir.

Somoniylar davlati barpo bo'lishidan boshlangan besh asrlik davr eron va tojik xalqlari adabiyotining, xususan she'riyatning kamolot cho'qqisiga ko'tarilgan davri bo'ldi. Bu davrda dariy (forsiy) tilida insoniyatning ma'naviy boyliklari xazinasiga katta xissa qo'shgan, o'zining o'lmas asarlari bilan jahon kitobxonlarini maftun etgan Abu Abdullo Rudakiyning lirik she'rlari, Abulqosim Firdavsiyning mashhur «Shohnoma» asari, Umar Xayyomning ruboiylari, Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari, Amir Xusrav Dehlaviyning «Hamsa»si, Shamsiddin Muhammad Hofizning g'azallari, Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang»i va boshqa bir qancha shoir va olimlarning asarlari yaratildi.

Ma'lumki, eron va tojik xalqlari o'zlarining uzoq tarixiy taraqqiyotlari davrida doim o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Bu xalqlar hatto bir necha asrlar davomida bir davlat territoriyasida bo'lgan holda, birga yashab, birga ijod etganlar. Shu tarixiy shart-sharoitlar natijasida Eron va tojik xalqlari madaniyati, adabiyoti va til qurilishida birlik va umumiylik vujudga kelgan. Eronshunos olimlarning fikriga ko'ra XV asrga qadar dariy tili eron va tojik xalqlari uchun mushtarak adabiy til bo'lgan. XV asrdan so'ng turli tarixiy sharoitlarga ko'ra fors va tojik tillari orasida ayrim tafovutlar paydo bo'la boshlaydi va davr o'tishi bilan ular orasidagi

farq oshib bordi. Shuning uchun IX–XV asrlar davomida fors-tojik adabiyoti bir butun adabiyot sifatida rivojlanganligi sababli, bu davrda dariy tilida ijod etgan shoirlar fors-tojik klassik shoirlari va ularning asarlari fors-tojik klassik asarlari deb ataladi. Bu borada mashhur eronshunos olim Y.E. Bertels shunday degan: «. . . Klassik til deb ataluvchi tilda, yaʼni dariy yoki forsiy tilida yaratilgan ulkan adabiy merosga har qanday holda ham har ikki xalqning haqi bordir va bu adabiyotni ulardan biriga mansub etishga urinish ikkinchisiga nisbatan adolatsizlik boʻlur edi».

Forsiy tili oʻzining ohangdorligi, sinonimlarga boyligi va soʻzlarning osonlik bilan vazn hamda qofiyaga tushishi sababli koʻpgina mamlakat shoir va olimlarini oʻziga jalb qiladi va qisqa davr ichida Oʻrta Osiyoning butun territoriyasiga, Ozarbayjon va Hindistongacha yoyilib, forsiy tilda bu mamlakatlar xalqlari tomonidan boy adabiy va ilmiy asarlar yaratildi. Koʻpgina oʻzbek shoirlari hatto XIX asrning oxiriga qadar oʻz sheʼr va asarlarini oʻzbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham yozganliklari maʼlumdir.

Shu kunlarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida saqlanib kelayotgan minglab eron, tojik, oʻzbek, hind, oʻzarbayjon va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan forsiy tilda yozib qoldirilgan minglab tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, falsafa, huquq, til va adabiyotga oid qoʻlyozmalar va yuzlab shoirlarning devon va tazkiralari fikrimizning dalili boʻla oladi.

Fors tili IX asrdan to shu kungacha bosib oʻtgan tarixiy taraqqiyot davrida ancha oʻzgarishlarga uchradi.

Bu oʻzgarishlar, birinchidan, fors-tojik klassik adabiyotida keng isteʼmol qilingan ayrim soʻzlarning hozirgi fors tilida ishlatilmay qolishi yoki ular maʼnosining oʻzgarishida koʻrinisa, ikkinchidan, hozirgi fors soʻz yasovchi elementlar asosida yasalgan yangi soʻzlar hisobiga boyishida namoyon boʻladi. Shu bilan birga fors tili grammatik qurilishida ham ayrim oʻzgarishlar roʻy berdi. Yaʼni baʼzi grammatik kategoriyalarning shakli va vazifalari birmuncha oʻzgardi.

Hozirgi fors tilining lugʻat tarkibida arabcha soʻzlar va arab elementlari nihoyatda koʻpdir. Bundan tashqari, fors tiliga birmuncha arab grammatik va grafik elementlari ham kirib kelgan. Bularning hammasi fors tili grammatik qoidalariga boʻysungan holda ishlatiladi.

## FONETIKA

### Unlilar tavsifi

Hozirgi fors adabiy tiliga 6 ta unli fonema bordir: **o, i, u, a, o', e**.

Fors tili unli fonemalari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Paydo bo'lish o'rniga ko'ra:

a) til oldi – i, e, a;

b) til orqa – o, u, o';

2. Tilning tanglayga tomon ko'tarilish darajasiga ko'ra:

a) yuqori ko'tarilish – i, u;

b) o'rta ko'tarilish – e, o';

c) quyi ko'tarilish – o, a;

3. Labning ishtirokiga ko'ra:

a) lablangan – o, u, o';

b) lablanmagan – a, e, i;

4. Tovushlarning cho'ziq-qisqaligiga ko'ra:

a) cho'ziq unlilar – o, i, u;

b) qisqa unlilar – a, e, o';

Fors unli tovushlarining talaffuzidagi cho'ziqlik va qisqalik urg'usiz ochiq bo'g'inda juda aniq ko'rinadi. Bu holatda qisqa unlilar juda qisqa va cho'ziq unlilar esa o'z cho'ziqliklarini to'la saqlaganlari holda talaffuz qilinadilar.

#### Qisqa unlilar

کتاب *ketob* – kitob

بهار *bahor* – bahor

شتر *sho'to'r* – tuya

#### Cho'ziq unlilar

دیوار *divor* – devor

کوزه *kuze* – ko'za

تاریک *torik* – qorong'i

Bu misollarda so'zlardagi **e, a, o'** qisqa unlilari juda qisqa talaffuz etilsa, **u, i, o**, cho'ziq unlilari esa to'liq holda cho'zib talaffuz etiladi.

Fors tilidagi cho'ziq unilarning cho'ziq talaffuz etilishi urg'u bilan bog'liq emas. Ularga urg'u tushishi bilan ortiqcha cho'ziqlik hosil bo'lmaydi va shu bilan birga, urg'usiz holatda ham o'z cho'ziqlik xususiyatlarini yo'qotmaydilar.

Fors tilidagi cho'ziq unililar doimo o'zbek tilidagi unli tovushlarga nisbatan cho'ziqroq va aniqroq talaffuz qilinadi.

### Fors tilida unli tovushlar jadvali

Paydo bo'lish o'rniga ko'ra	Lablanmagan	Lablangan
	Til oldi	Til orqa
Tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra		
Yuqori ko'tarilish	i – cho'ziq	u – cho'ziq
O'rta ko'tarilish	e – qisqa	o' – qisqa
Quyi ko'tarilish	a – qisqa	o – cho'ziq

o – cho'ziq, til orqa, quyi ko'tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovushni hosil qilishda og'iz keng ochilib, lablar dumaloqlashadi. Til orqaga tortilib, biroz ko'tariladi. o – tovushini to'g'ri talaffuz etish uchun o'zbek tilidagi o unli tovushini a tovushiga moyilroq talaffuz qilish kerak.

Forscha o unli tovushi **uzoq, bosh** kabi o'zbek so'zlardagi o tovushiga yaqinlashib boradi. O'zbek tilidagi o unli tovushi ba'zi bir so'zlarda (**ota, bola** kabi) qisqa a tovushi kabi talaffuz qilinadi. Fors tilida bu holni ko'rmaymiz. Masalan:

آب *ob* – suv

مادر *modar* – ona

بادام *bodom* – bodom

خانه *xone* – uy

بوم *bom* – tom

آفتاب *oftob* – oftob

i – cho'ziq, til oldi, yuqori ko'tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovush o'zbek tilidagi iy tovushlar birikmasiga to'g'ri keladi. Masalan: **kiyik, qariyb, siyrak, Sa'diy** so'zlaridagi iy kabi.

O'zbek tilidagi i unli tovushi ba'zi so'zlarda qattiq ы kabi (qishloq, qirg'iz kabi) hamda r, z, l tovushlari oldidan juda qisqa (bir, biz kabi) talaffuz qilinadi. Lekin bu holni forscha cho'ziq unli i talaffuzida ko'rmaymiz. Forscha i unlisi har doim cho'ziq va yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan:

شیر *shir* – sut

ماهی *mohi* – baliq

مريض *mariz* – kasal

ایران *iron* – Eron

ریسمان *rismon* – arqon, ip

بینی *bini* – burun

**u** – cho‘ziq, til orqa, yuqori ko‘tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovush o‘zbek tilidagi **u** tovushidan o‘zining cho‘ziqligi bilan farq qiladi. Bu tovush o‘zbekcha **suv, yozuv** so‘zlaridagi **u** tovushining talaffuziga o‘xshaydi. O‘zbek tilidagi **u** tovushi ba‘zi hollarda **i** unli tovushiga yaqinlashib boradi (**urush, yutuq** kabi), lekin forscha **u** unlisida bu holni uchratmaymiz. Fors tilidagi **u** doimo cho‘ziq va to‘la talaffuz etiladi. Masalan:

طوفان *tufon* – bo‘ron  
 كادو *kadu* – qovoq  
 دوست *dust* – do‘st

روزنامه *ruznome* – gazeta  
 بوی *buy* – hid  
 مور *mur* – chumoli

**a** – qisqa, til oldi, quyi ko‘tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovushni talaffuz etganda og‘iz keng ochiladi, tilning uchi biroz ko‘tariladi. Forscha **a** tovushini **mana, kaklik, aka, ana, gal** kabi o‘zbek so‘zlaridagi **a** tovushiga solishtirib, to‘g‘ri talaffuz qilish mumkin. Bu tovush o‘zbek tilidagi **e** va **a** tovushlari orasidagi tovushga to‘g‘ri keladi. Masalan:

زبان *zabon* – til  
 در *dar* – eshik  
 دست *dast* – qo‘l

بد *bad* – yomon  
 سفر *safar* – safar  
 ابر *abr* – bulut

**e** – qisqa, til oldi, o‘rta ko‘tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovush o‘zbek tilidagi **e** tovushidan asosan o‘zining qisqaligi bilan farq qiladi. Ba‘zan bu tovush urg‘usiz ochiq bo‘g‘inda juda qisqarib, sezilmay ketish darajasiga yetadi. Forscha **e** tovushi yopiq bo‘g‘inli holatda **sevdi, keldi, mendan** kabi o‘zbek so‘zlaridagi **e** tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan:

دل *del* – dil, yurak  
 امروز *emruz* – bugun  
 كتاب *ketob* – kitob

نامه *nome* – xat  
 زمستان *zemeston* – qish  
 لباس *lebos* – kiyim

**o‘** – qisqa, til orqa, o‘rta ko‘tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovush ham o‘zbek tilidagi **o‘** dan asosan o‘zining qisqaligi bilan farq qiladi. Forscha **o‘** tovushi **e** tovushi kabi urg‘usiz ochiq bo‘g‘inli so‘zlarda juda qisqarib ketadi. Masalan:

بلبل *bo‘lbo‘l* – bulbul  
 سرخ *so‘rx* – qizil  
 اردک *o‘rdak* – o‘rdak

گل *go‘l* – gul  
 شتر *sho‘to‘r* – tuya  
 مرغ *mo‘rg‘* – tovuq, qush

## Diftonglar

Fors tilida ikkita diftong tovushi bor. Bular: **ey** va **o'u**. Bu diftonglarning o'zbek tilida ekvivalenti yo'q. Shuning uchun ularni boshqa tillardagi shu kabi tovushlar bilan taqqoslab, ularni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganish mumkin. Bu diftonglarni talaffuz qilganda, ularni ayirib, ikki bo'g'inga bo'lib emas, balki birga qo'shib, bir bo'g'inda talaffuz qilish kerak. Diftonglarda birinchi harf ikkinchisiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi.

1. **ey** diftongi – o'zbek tilidagi undov so'zi **ey** yoki inglizcha **may**, **day** so'zlaridagi diftong tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan:

میل *meyl* – mayl, xohish

حيوان *heyvon* – hayvon

ميدان *meydon* – maydon

ايوان *eyvon* – ayvon

می *mey* – may

میمون *meymun* – maymun

2. **o'u** diftongini ruscha **sous** so'zidagi **o'u** unli birikmasi yoki inglischada **now** diftongiga solishtirib, to'g'ri talaffuz qilish mumkin. Masalan:

نو *no 'u* – yangi

نوبت *no 'ubat* – navbat

برو *bero 'u* – bor, ket

دولت *do 'ulat* – davlat

روغن *ro 'ug'an* – yog'

توليد *to 'lid* – ishlab chiqarish

**Izoh.** Fors tilidagi diftongli so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tili leksikonida ham mavjuddir. Lekin bu diftong tovushlar o'zbek tilida o'z diftonglik xususiyatlarini yo'qotib, **ey** diftongi **ay** kabi, **o'u** diftongi esa **av** deb talaffuz etiladi. Masalan:

میمون *meymun* – maymun,

دولت *do 'ulat* – davlat,

ميدان *meydon* – maydon,

نوبت *no 'ubat* – navbat

1 - **mas'haq**. Quyidagi so'zlarni o'qing. Cho'ziq unli talaffuziga ahamiyat bering.

آب *ob* – suv

آسمان *osmon* – osmon

ناک *nok* – nok

بادام *bodom* – bodom

بازار *bozor* – bozor

کوه *kuh* – tog'

مور *mur* – chumoli

کوتاه *kutoh* – qisqa

دوتار *dutor* – dutor

رو *ru* – yuz

تیر *tir* – o'q

سیب *sib* – olma

سیر *sir* – chesnok

بیمار *bimor* – kasal

زيبا *zibo* – chiroyli

2- **mashq.** Quyidagi soʻzlarni oʻqing. Qisqa unlilar talaffuziga ahamiyat bering va ularni aniqlang.

قلم *qalam* – ruchka

بهار *bahor* – bahor

مادر *modar* – ona

پدر *pedar* – ota

تهران *tehran* – Tehron (shahri)

مداد *medod* – qalam

نامه *nome* – xat

اداره *edore* – idora

مرغ *mo'rg* – tovuq

امید *o'mid* – umid

گریه *go'rbe* – mushuk

شتر *sho'to'r* – tuyay

3- **mashq.** Quyidagi soʻzlarni oʻqing. Diftonglarni aniqlang va ularning talaffuziga ahamiyat bering.

نو *no'u* – yangi

نوروز *no'uruz* – navroʻz

دور *do'ur* – davr

نوکر *no'ukar* – xizmatkor

مورد *mo'ured* – mavrid

عید *eyd* – hayit, bayram

خیلی *xeyli* – juda

حیوان *heyvon* – hayvon

بین *beyn* – ora, orasida

سیر *seyr* – sayl

## Undoshlar tavsifi

Fors tilidagi undosh fonemalar quyidagicha tavsif etiladi:

1) hosil boʻlish usuliga koʻra: portlovchi, sirgʻaluvchi, affrikat fonemalarga va burun, yon, titroq tovushlarga;

2) hosil boʻlish oʻrniga koʻra: lab-lab, lab-tish, til oldi, til oʻrta, til orqa, chuqur til orqa va boʻgʻiz tovushlarga;

3) ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra: shovqinlilar va sonorlarga boʻlinadilar.

Fors adabiy tilida 23 ta undosh tovush bordir. Ular:

1. **p** – jarangsiz, portlovchi, lab-lab tovush. Oʻzbek tilidagi **p** tovushi kabi talaffuz etiladi:

پوشاک *pushok* – kiyim توپ *tup* – koptok پنبه *pambe* – paxta

2. **b** – jarangli, portlovchi, lab-lab tovush. Oʻzbek tilidagi **b** tovushi kabi talaffuz etiladi:

بز *bo'z* – echki تبر *tabar* – bolta شب *shab* – tun, kechasi

**Izoh.** Bu tovush soʻz oxirida kelganda ham oʻz jarangli xususiyatini yoʻqotmaydi. Masalan: کتاب *ketob* – kitob, کباب *kabob* – kabob kabi.

3. **t** – jarangsiz, portlovchi, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi **t** tovushi kabi talaffuz etiladi:

تاریک *torik* – qorong‘u

آتش *otash* – olov

دست *dast* – qo‘l

4. **d** – jarangli, portlovchi, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi **d** tovushi kabi talaffuz etiladi:

در *dar* – eshik

مرد *mard* – kishi

دندان *dandon* – tish

Forscha **d** tovushi barcha holatlarda ham o‘z jaranglilikini yo‘qotmaydi.

5. **k** – jarangsiz, portlovchi, til orqa tovushi. O‘zbek tilidagi **k** tovushi kabi talaffuz etiladi:

کار *kor* – ish

شکر *shakar* – shakar

ناک *nok* – nok

Forscha **k** tovushi qisqa unlilar oldida kelganda, o‘zbekcha **k** tovushiga nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi.

6. **g** – jarangli, portlovchi, til orqa tovush. O‘zbek tilidagi **g** tovushi kabi talaffuz etiladi:

سگ *sag* – it

گرگ *go‘rg* – bo‘ri

گچ *gach* – bo‘r

7. **ch** – jarangsiz, affrikat, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi **ch** tovushi kabi talaffuz etiladi:

چشم *cheshm* – ko‘z

چاقو *choqu* – pichoq

بچه *bache* – bola

8. **j** – jarangli, affrikat, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi jarangli, affrikat, til oldi undosh tovushi **j** kabi talaffuz qilinadi:

جوراب *jurob* – paypoq

مجله *majalle* – jurnal

خارجی *xoreji* – chet ellik



O'zbek tilida **j** belgisi bilan affrikat **j** tovushi va sirg'aluvchi **j** tovushi ifoda etiladi. Masalan: jahon, jurnal. Fors tilida bu ikki tovush turli harflar bilan berilgani uchun biz ham ularni ikki belgi bilan ifodalashga qaror qildik. Shunday qilib transkripsiyada affrikat tovush uchun **j** belgisini qoldirib sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun **j**: belgisini ishlatdik. Qiyos qiling:

جامه jome – kiyim

پنجره panjare – deraza

پنج panj – besh

ژونن j:uan – iyun

ژاله j:ole – shudring

پژمرده paj:orde – so'ligan

9. **f** – jarangsiz, sirg'aluvchi, lab-tish tovush. Bu tovush o'zbek tilidagi **f** tovushi kabi talaffuz etiladi. Lekin o'zbek tilidagi **f** tovushi lab-lab tovush bo'lib, fors tilidagi **f** esa lab-tish tovushdir:

فرودگاه fo'rudgoh – aeroport

ظرف zarf – idish

تفنگ to'fang – miltiq

Fors tilida bu tovush, jonli o'zbek tilida uchraganidek, hech qachon **p** kabi talaffuz etilmaydi.

10. **v** – jarangli, sirg'aluvchi, lab-tish tovush. Bu tovush ham o'zbek tilidagi lab-lab tovushidan o'zining lab-tish tovushligi bilan farq qiladi:

ورزش varzesh – sport

نویسنده navisande – yozuvchi

کشور keshvar – mamlakat

11. **s** – jarangsiz, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **s** tovushi kabi talaffuz etiladi:

سیب sib – olma

درس dars – dars

مگس magas – pashsha

12. **z** – jarangli, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **z** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

زمین zamin – yer, tuproq

مرز marz – chegara

زاغ zog'a – qarg'a

13. **x** – jarangsiz, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovush. O‘zbek tilidagi **x** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

خیابان *xiyobon* – ko‘cha

میخ *mix* – mix

دختر *do‘xtar* – qiz, qiz bola

14. **g‘** – jarangli, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovushi. O‘zbek tilidagi **g‘** tovushi kabi talaffuz etiladi:

غدا *g‘azo* – ovqat, taom

زاغ *zog‘* – qarg‘a

ارمغان *armag‘on* – sovg‘a

15. **q** - tovushi fors tilida o‘zbek tilidagi **q** tovushidan butunlay farq qiladi. O‘zbek tilidagi **q** tovushi jarangsiz, portlovchi, chuqur til orqa tovush bo‘lsa, fors tilida **q** tovushi jarangli, sirg‘aluvchan, chuqur til orqa tovushidir.

Ko‘pgina eronshunoslarning fikricha, fors tilida aslida **q** tovushi bo‘lmasdan, bu tovush fors tiliga boshqa tillardan kirgan so‘zlarda uchraydi. Shuning uchun ham **q** tovushini forslar **g‘** tovushiga yaqinroq tarzda talaffuz qiladilar. Masalan, ikki ma‘noga ega bo‘lgan **غالب** *g‘oleb* va **قالب** *qoleb* so‘zlarning birinchi harfi deyarli bir xil talaffuz qilinadi. Lekin Tehron dialektidan boshqa dialektlarda hamda boshqa eroniy tillarda **q** bilan **g‘** tovushlari orasida ma‘lum farq borligini kuzatish mumkin.

**q** va **g‘** tovushlari fors alfavitida alohida ikki harf bilan ifoda etiladi. So‘zda agar bir harf o‘rnida ikkinchi harf ishlatilsa, so‘zning ma‘nosi butunlay o‘zgarib ketadi. Shuning uchun biz fors tili yozuvini o‘zlashtirishni osonlashtirish maqsadida fors tilidagi **ق** ni o‘zbek tilida **q** harfi bilan shartli ravishda ifodalashni ma‘qul topdik:

قلم *qalam* – ruchka

قاشق *qosho‘q* – qoshiq

دقیقه *daqiqe* – daqiqa, minut

Ba‘zan forscha **q** tovushi jarangsizlarga yondashib, o‘zbek tilidagi **q** yoki **x** tovushlariga yaqinroq talaffuz etiladi. Masalan: **maq-sad** (talaffuzda **maqsad**), vaqt (talaffuzda **vaxt**) kabi. **غ** *g‘* va **ق** *q* tovushlarining talaffuziga ahamiyat bering:

غریب *g‘arib* – g‘arib (odam)      قریب *qarib* – yaqin, qarib

غدا *g'azo* ovqat                      قضا *qazo* – yozmish, taqdir, qazo  
غیر *g'eyr* boshqa, bo'lak              قیر *qir* – asfalt

16. **sh** – jarangsiz, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **sh** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

شهر *shahr* – shahar  
كشتى *keshti* – kema  
بالش *bolesh* – yostiqlik

17. **j**: – jarangli, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **j** tovushi kabi talaffuz etiladi:

ژنده *j:ande* – yirtiq-yamoq, juldur  
دژ *dej*: – qal'a  
مژده *mo'j:de* – xushxabar

18. **h** – jarangsiz, sirg'aluvchi, bo'g'iz tovush. O'zbek tilidagi **h** tovushi kabi va ba'zan undan ham yumshoqroq talaffuz qilinadi:

ماه *moh* – oy  
مهمان *mehmon* – mehmon  
همسايه *hamsoye* – qo'shni

19. **m** – jarangli, lab-lab, burun tovush. O'zbek tilidagi **m** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

ماهی *mohi* – baliq  
پشم *pashm* – jun  
بام *bom* – tom

20. **n** – jarangli, burun, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **n** tovushi kabi talaffuz etiladi:

باران *boron* – yomg'ir  
نقره *no'qre* – kumush  
مهندس *mo'handes* – injener, muhandis

21. **l** – jarangli, yon, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **l** tovushi kabi va ba'zan undan ham yumshoqroq talaffuz etiladi:

لباس *lebos* – kiyim  
پل *po'l* – ko'priq  
علم *'elm* – ilm

22. **r** – jarangli, titroq, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi **r** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

مور *mur* – chumoli  
خار *xar* – eshak  
ستاره *setore* – yulduz

23. **y** – jarangsiz, sirg‘aluvchi, til o‘rta tovush. O‘zbek tilidagi **y** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

یک *yek* – bir  
سایه *soye* – soya  
چای *choy* – choy

24. **ayn** (transkripsiyada ‘) harfi arab tilidan kirgan so‘zlarda uchraydigan maxsus tovushni ifoda etadi.

Arab tilida **ayn** jarangli, portlovchi, bo‘g‘iz tovush bo‘lib, fors tilida bu tovush o‘zining artikulyatsion xususiyatlarini birmuncha yo‘qotgan holda ishlatiladi va faqat arab tilidan kirgan so‘zlardagina uchraydi.

Shu vaqtga qadar **ayn** ni fors tilida fonema yoki fonema emasligi haqida eronshunoslar orasida qat’iy bir fikr yo‘q. Yu. A. Rubinchik o‘zining «Современный персидский язык» kitobida **ayn** ning ayrim fonetik xususiyatlariga hamda uning ma‘noni farqlashdagi vazifasiga ko‘ra fonemalar qatoriga kiritadi. Sh.G. Gaprindashvili va Dj.Sh.Giunashvili o‘zlarining «Фонетика персидского языка» kitobida bu fikrni tasdiqlab, **ayn** ni fors tilida jarangli, portlovchi, bo‘g‘iz tovushi degan xulosaga keladilar. Boshqa ba’zi olimlar esa uni hech qanday tovush bildirmaydigan orfografik belgi tarzida tahlil qiladilar.

Hozirgi zamon adabiy fors tilida ع **ayn** quyidagi hususiyatlarga egadir:

1). Ma‘noni farqlash uchun xizmat qiladi:

من <i>man</i> – men	منع <i>man’</i> – man etish
زر <i>zar</i> – zar, oltin	زرع <i>zar’</i> – ekin
فر <i>far</i> – hashamat	فرع <i>far’</i> – o‘sish, ko‘payish

2). So‘z boshida kelganda, bu harfga taalluqli bo‘lgan satr osti va satr usti belgilari talaffuz etiladi:

علم *'elm* – ilm

عمر *'omr* – umr

عقرب *'aqrab* – chayon

3). Soʻz orasida yoki soʻz oxirida unli tovushdan soʻng kelganda, oʻz oldidagi unliga taʻsir qilib, uni choʻzibroq talaffuz qilishga ishora qiladi:

تعليم *ta'lim* (talaffuzda **ta**alim)

دفاع *defo* ' (talaffuzda **de**foo)

تعطيل *ta'til* (talaffuzda **ta**atil)

ارتجاع *ertejo* ' (talaffuzda **erte**joo)

4). Soʻz oxirida undosh tovush bilan yondashib kelganda, **ayn** boshqa hollarga nisbatan aniqroq talaffuz etiladi va oʻzidan oldingi undoshga taʻsir qilib, uni kuchliroq tovush bilan talaffuz qilishga undaydi:

نفع *naf*' – foyda

منع *man*' – man qilish

جمع *jam*' – jamgʻarish, yigʻish

## Fors tilidagi undosh tovushlar jadvali

Shoqin va ovoznig ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish o'rniiga ko'ra	Lab-lab tovushlari		Lab-tish tovushlari		Til oldi tovushlari		Til o'rta tovushi		Til orqa tovushlari		Chuqur til orqa tovushlari		Bo'g'iz tovushlari	
			Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangli	Jarangsiz	Jarangsiz
Shoqinilar		Hosil bo'lish usuliga ko'ra	p	b			t	d			k	g		g'		
					f	v	s	z	y					q		h
Sonorlar		Yon tovush					sh	j:								
							ch	j								
Shoqinilar		Surg'aluvchilar														
Sonorlar		Titroq tovush														
Sonorlar		Burun tovushlari		m				n								
Shoqinilar		Affrikatlar														
Shoqinilar		Jarangli yo jarangsizligiga ko'ra														

## Fors tilining ba'zi fonetik xususiyatlari

1. O'zbek tilida jarangli undoshlar ko'pincha so'z oxirida o'z jarangli xususiyatlarini yo'qotib, jarangsiz tovush kabi talaffuz etiladilar. Masalan, **kelib** so'zi **kelip**, **umid** so'zi **umit**, **xarj** so'zi **xarch** tarzida talaffuz qilinadi.

Fors tilida jarangli tovushlar o'z jarangli xususiyatlarini qisman yo'qotsalar ham, o'zbek tilidagi kabi jarangsizlanmaydilar. Masalan, **lab** so'zi **lap**, **g'arb** so'zi **g'arp**, **dard** so'zi **dart** tarzida emas, **lab**, **g'arb**, **dard** holida talaffuz etiladilar.

2. Fors tilida so'z odatda ikki yoki undan ortiq undosh tovush bilan boshlanmaydi. Hatto chet tillardan kirgan so'zlarga ham **e** va **ba'zan a** qisqa unlisini orttirib, fors tili qoidasiga ko'ra yozadilar. Bu qisqa unlilardan biri yo so'z boshidagi ikki undosh orasiga yoki ularning oldiga qo'yiladi. Masalan, **stakan** so'zi forscha **estakon**, **klass** so'zi forscha **kelos**, Fransiya so'zi forscha **Faronse** kabi talaffuz etiladi.

3. Fors tilida unli bilan tamom bo'lgan so'zga unli bilan boshlangan morfologik belgilardan biri qo'shilsa, bu ikki unli orasiga bir undosh qo'shib talaffuz etiladi. Masalan, **doneshju** (talaba) so'ziga ko'plik qo'shimchasi **-on** qo'shilganda, **u** va **o** unilari orasiga bir **y** orttirilib, **doneshjuyon**; **navisande** (yozuvchi) so'ziga bir **g** orttirilib, **navisandegon** tarzida aytiladi va yoziladi.

4. Agar **n** tovushi **b** tovushiga yondashib kelsa, **n** tovushi assimilatitsiyaga uchrab, burun tovushi **m** kabi talaffuz etiladi. Masalan, **shanba** so'zi **shambe**, **panbe** so'zi **pambe** (paxta), **tanbal** so'zi **tambal** tarzida talaffuz qilinadi.

### BO'G'IN

Fors tilida so'zlar bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli bo'lishi mumkin. Fors tilida ham bo'g'in, o'zbek tilidagi kabi, unli yordami bilan hosil bo'ladi. Har bo'g'inda bitta unli bo'lishi shart.

Bo'g'in unli bilan tugasa, ochiq bo'g'in; undosh bilan tugasa, yopiq bo'g'in deyiladi. Masalan:

#### Ochiq bo'g'in

ما mo – biz

سه se – uch

## Yopiq bo'g'in

در *dar* – eshik

راه *roh* – yo'l

Ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarda bo'g'inlar turlicha bo'lishi mumkin.

Birinchi bo'g'in yopiq, ikkinchi bo'g'in ochiq:

تخته *tax-te* – doska

پنبه *pam-be* – paxta

Ikkala bo'g'in ham ochiq:

خانه *xo-ne* – uy

صدا *se-do* – ovoz, tovush

Birinchi bo'g'in ochiq, ikkinchi bo'g'in yopiq:

مداد *me-dod* – qalam

قلم *qa-lam* – ruchka

Ikkala bo'g'in ham yopiq:

آسمان *os-mon* – osmon

بلبل *bo'l-bo'l* – bulbul

Ko'p bo'g'inli so'zlarda ham bo'g'in shu tarzda bo'ladi.

Bulardan tashqari, fors tilida bo'g'inlar uzun va qisqa bo'g'inga bo'linadi. Agar bo'g'in tarkibida cho'ziq unli bo'lsa, uzun bo'g'in, qisqa unli bo'lsa, qisqa bo'g'in deyiladi. Masalan: آب *ob*, دار *dor* – uzun bo'g'in; در *dar*, لب *lab* – qisqa bo'g'indir.

شکار *she-kor* (ov), انسان *en-son* (inson) so'zlarida birinchi bo'g'in qisqa va ikkinchi bo'g'in uzundir.

پادشاه *pod-shoh* (podshoh), آفتاب *of-tob* (oftob) so'zlarida ikkala bo'g'in ham uzun, دفتر *daf-tar*, فرصت *fo'r-sat* (fursat, vaqt) so'zlarida ikkala bo'g'in ham qisqadir.

Fors tilida bo'g'inlarning ochiq yoki yopiq, uzun yoki qisqa bo'lishligi klassik poetik asarlarni o'rganishda, ularni vaznga solib o'qishda katta ahamiyat kasb etadi.



## Urg‘u

Fors tilida urg‘uni to‘g‘ri ishlata bilish so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri o‘qish va ularni to‘g‘ri tushunishga katta yordam beradi.

Fors tilida urg‘u so‘zning oddiy yoki murakkabligi, forsiy yoki xorijiylikidan qat‘i nazar, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. Urg‘u tushgan unli tovush so‘zdagi boshqa unli tovushlarga nisbatan kuchliroq talaffuz etiladi. Masalan:

پسار *pesar* – o‘g‘il bola  
پنجره *panjare* – deraza  
دبیرستان *dabireston* – maktab  
تلویزیون *televizyun* – televizor

Hatto chet tillardan kirgan atoqli otlarda ham urg‘u oxirgi bo‘g‘inga o‘tadi. Masalan:

امریکا *emriko* – Amerika  
تالین *talin* – Tallin  
مسکو *mo‘sko‘u* – Moskva

So‘zga biror qo‘shimcha qo‘shilsa, odatda urg‘u ana shu qo‘shimchaga ko‘chadi. دانش *donesh* (bilim), دانشجو *doneshju* (talaba), كودك *kudak* (bola, go‘dak), كودكستان *kudakeston* (bog‘cha), كودكستانها *kudakestonho* (bog‘chalar) kabi.

**Eslatma.** Quyidagi ikki bo‘g‘inli bog‘lovchi va undalmalarda urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi.

بالکه <i>balke</i> – balki	مگر <i>magar</i> – magar, nahotki
لیکن <i>likan</i> – lekin	ایا <i>oyo</i> – mi
ولی <i>vale</i> – lekin	اگر <i>agar</i> – agar
بله <i>bale</i> – ha	خیلی <i>xeyli</i> – juda, ko‘p
اری <i>ore</i> – ha	اما <i>ammo</i> – ammo

Bulardan tashqari yana bir necha qo‘shimchalar va yuklamalar borki, ular so‘z oxirida kelsalar ham, urg‘u olmaydilar, ya‘ni ularga urg‘u tushmay, urg‘u ulardan oldingi bo‘g‘inda bo‘ladi. Bu hol grammatikaning morfolgiya qismi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun, darslikning morfologiya qismida ma‘lum qoidalar bilan bog‘langan holda izohlanadi.

**1- mashq.** Quyidagi soʻzlarni oʻqing. Ulardagi undosh tovushlarning talaffuzi va boʻgʻin ajralishiga ahamiyat bering.

درس <i>dars</i> – dars	سر <i>sar</i> – bosh
برف <i>barf</i> – qor	گوشت <i>gusht</i> – goʻsht
درخت <i>de-raxt</i> – daraxt	شمشیر <i>sham-shir</i> – qilich
در <i>dar</i> – eshik	شیراز <i>shi-roz</i> – Sheroz (shahar)
دفتر <i>daf-tar</i> – daftar	دژ <i>dej</i> : – qalʼa
کتاب <i>ke-tob</i> – kitob	استراتژی <i>es-te-ro-te-j:i</i> – strategiya
شمع <i>shamʼ</i> – sham	وزیر <i>va-zir</i> – vazir
طوفان <i>tu-fo-n</i> – boʻron	آتش <i>o-tash</i> – olov
پنجره <i>pan-ja-re</i> – deraza	امروز <i>em-ruz</i> – bugun
ارتش <i>ar-tesh</i> – armiya	یتیم <i>ya-tim</i> – yetim
استاد <i>oʻs-tod</i> – ustoz, domla	همسایه <i>ham-so-ye</i> – qoʻshni
باران <i>bo-ron</i> – yomgʻir	گوش <i>gush</i> – quloq

## ALFAVIT

### الفبای فارسی *alefbo-ye forsi*

Forslar VII asrdan boshlab to shu kunga qadar oʻz yozuvlari uchun arab alifboshini qoʻllab kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush tizimini toʻla aks ettirgan arab alfaviti fors tovushlarini toʻla ifodalay olmadi. Bunga sabab, birinchidan, fors tili fonetik sistemasiga tamoman yot boʻlgan birnecha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi boʻlsa, ikkinchidan, fors tilining fonetik xususiyatlarini ifoda etuvchi maxsus tovushlarning arab tili tovushlari tizimida boʻlmasligi va ularni yozuvda ifoda etuvchi harflarning arab alfavitida boʻlmasligidir.

Arab alfaviti 28 harfdan iborat boʻlib, forslar oʻz tovushlariga xos boʻlgan maxsus tovushlarni ifodalash uchun qoʻshimcha ravishda quyidagi 4 ta harfni kiritganlar:

ژ - j:, چ - ch, پ - p, گ - g.

Shunday qilib, arab-fors alfaviti 32 ta harfga yetdi. Bu harflar asosan 16 belgidan iborat boʻlib, ulardan bir nechtasining ost yoki ustiga bir, ikki va uchtadan nuqta qoʻyib, yangi harflar yasashgan. Bu belgilar quyidagilar:

ا ب ح د ر س ص ط ع ف ك ل م و ی ه

Bulardan faqat oltitasi - ال م و ی ه - belgilari yangi harf yasash uchun ishtirok etmaydi. Qolgan 10 ta belgi esa o'zining nuqtali-nuqtasizligiga, nuqtalarning o'rni va miqdoriga ko'ra bir-birlaridan farq qiladilar. Masalan:

1. ب shaklining tagiga bir nuqta qo'ysak, ب b harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak, پ p harfi; ustiga ikki nuqta qo'ysak ت t harfi va ب shaklini cho'ziq emas, yarim doira shaklida yozib, ustiga bir nuqta qo'ysak, ن n harfi hosil bo'ladi.

2. ج shaklining o'zi h tovushini ifoda etadi. Ostiga bir nuqta qo'ysak, ج j harfi; ostiga uch nuqta qo'ysak چ ch harfi; ustiga bir nuqta qo'ysak, خ x harfi hosil bo'ladi.

3. د shaklining o'zi d tovushini ifoda etadi. Ustiga bir nuqta qo'ysak ذ z harfi hosil bo'ladi.

4. ر shaklining o'zi r tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ز z harfi; ustiga uch nuqta qo'ysak ژ j harfi hosil bo'ladi.

5. س shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi. Ustiga uch nuqta qo'ysak, ش sh harfi hosil bo'ladi.

6. ص shaklining o'zi s tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ض z harfi hosil bo'ladi.

7. ط shaklining o'zi t tovushini ifodalaydi. Ustiga bir nuqta qo'ysak, ظ z harfi hosil bo'ladi.

8. ع shaklining o'zi ayn deb atalib, ustiga bir nuqta qo'ysak, غ g harfi hosil bo'ladi.

9. ف shaklining ustiga bir nuqta qo'ysak, ف f harfi; bu shakl doirasini chuqurroq yozib, ustiga ikki nuqta qo'ysak, ق q harfi hosil bo'ladi.

10. ك shaklining o'zi k tovushini ifodalaydi. Ustiga bir chiziq qo'ysak, گ g harfi hosil bo'ladi.

Fors grafikasida nuqtalarning o'rni va miqdori katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, ularni diqqat bilan kuzatish va yozish kerak. Chunki, nuqtalarni noto'g'ri qo'yish so'zni tushunmaslikka olib keladi yoki ma'nosini butunlay o'zgartirib yuboradi.

**Topshiriq.** Quyidagi harflarni daftaringizga ko'chirib yozing va ularni to'g'ri yozishga o'rganing.

ب پ ت ث ن ح ج چ خ د ذ ر ز س ش ص ض ظ ع غ ف ق ك گ.

Agar arab-fors alfavitiga nazar tashlasak, bir tovushni ifodalash uchun fors tilida 2–3–4 harf borligini ko'ramiz. Masalan:

z tovushini ifodalash uchun ظ ض ذ ز

s tovushini ifodalash uchun ص س ش

t tovushini ifodalash uchun ط ت

h tovushini ifodalash uchun ه ح

Yuqoridagi har bir harf arab tilida bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlarni ifoda etadi va ularning har birini o'ziga xos artikulyatsion xususiyatlari bor. Bu tovushlar fors tiliga arab so'zlari bilan birga kirib kelgan. Bu tovushlar fors tili fonetik sistemasida bo'lmagani tufayli ular o'zlarining artikulyatsion xususiyatlarini yo'qotib, fors tili fonetik sistemasiga bo'ysungandirlar. Buning natijasida fors tilida bir tovushni ifodalash uchun bir necha harf paydo bo'lgan. Fors tilida bu harflarni ifoda etgan tovushlar orasida hech qanday farq yo'q. Lekin fors tili lug'at tarkibiga kirgan arab so'zlarida arablar u yoki bu so'zni yozishda qaysi harfni qo'llagan bo'lsalar, forslar ham shu so'zni yozishda o'sha harfni ishlatadilar. Aks holda so'zning ma'nosi tushunarsiz bo'lib qoladi.

**Topshiriq.** Quyidagi harflarni daftaringizga ko'chirib yozing va ularni to'g'ri yozishga o'rganing.

ی yo, ه (ho-ye havvaz) he, و vov, م mim, ل lom, ا alif

Fors alfavitidagi hamma harflar yozuvda bir-birlariga qo'shilish-qo'shilmasligi jihatidan ikki guruhga bo'linadilar.

1. O'zidan oldingi harfga qo'shilib, keyingisiga qo'shilmaydigan harflar.

2. O'zidan oldingi va o'zidan keyingi harflarga qo'shilib yoziladigan harflar.

Birinchi guruh harflari yettita bo'lib, fors grammatikasida ularni *حروف منفصلة* *ho'ruf-e mo'nfasele* (ayrilgan harflar) deyiladi. Ular quyidagilar:

و vov, ژ j:, ز ze, ر re, ذ zol, د dol, ا alif

Bu yetti harfning har biri yozuvda 2 shaklda bo'ladi:

1) yolg'iz yoki o'z oldidagi harf bilan qo'shilmay kelgan shakli:

و ژ ز ر ذ د ا

2) O'zidan oldingi harfga qo'shilib yoziladigan shakli:

ز ژ و ر ذ د ا

**Topshiriq.** حروف منفصله ning yolg'iz va o'zidan oldingi harf bilan qo'shilib yoziladigan shakllarini daftaringizga ko'chirib oling.

Ikkinchi guruh harflari 25 ta bo'lib, fors grammatikasida حروف متصله ho'ruf-e mo'ttasele (qo'shilgan harflar) deb ataladi.

Ikkinchi guruh harflari o'z oldidagi hamda o'z ketidagi harflar bilan qo'shilib yoziladi. Shu sababdan, ikkinchi guruh harflari yozuvda alohida shaklda kelishidan tashqari yana uch shaklda keladilar. Bu harflarning alohida shakli hech qanday o'zgarishsiz, alfavitda qanday berilgan bo'lsa, shunday yoziladi. Masalan:

ب پ ت ث چ ج ح خ س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ك گ ل م ن و ی

**Birinchi shakl.** Birinchi shaklda harf to'la yozilib, o'z oldidagi harf bilan qo'shish uchun harf oldiga bir ilmoq-chiziq chiqariladi. Masalan:

ب پ ت ث چ ج ح خ س ش ص ض ط ظ  
ع غ ف ق ك گ ل م ن و ی

**Topshiriq.** Harflarning so'z oxirida o'z oldidagi harf bilan qo'shilib yozilish shaklini daftaringizga ko'chirib yozing.

Harflarning quyida ko'rsatiladigan ikkinchi va uchinchi shakllarini yaxshi o'zlashtirish uchun ularni ikki qismga bo'lish mumkin:

- 1) satr chizig'idan pastga tushmaydigan harflar;
- 2) satr chizig'idan pastga tushadigan harflar.

Chiziqdan pastga tushmaydigan harflar quyidagilar:

ا ب پ ت ث د ذ ط ظ ك گ ه

Chiziqdan pastga tushadigan harflar:

چ ج ح خ ز ژ س ش ص ض ع غ ف ق ل م ن و ی

**Ikkinchi shakl.** Harfning ikkinchi shaklini, ya'ni so'z boshida kelib, o'z ketidagi harf bilan qo'shiladigan shaklini yasash uchun:

1. ی yo, ن n, ت t, پ p, ب b harflari oldidagi tish (پ) qoldirib, qolgan qismi esa tushirib qoldiriladi. Harf nuqtalari esa shu tishning ost yo ustida qo'yiladi. Masalan:

ت - t, د - s, ن - n, ی - yo, پ - p, ب - b

Ko‘rinib turibdiki, bu olti harf bir-biridan faqat nuqtalarining o‘rni va miqdori bilan farq qiladi.

**Eslatma.** ع yo harfi aslida ikki nuqtali bo‘lib, harfning yolg‘iz shaklida tushib qoladi.

2. Chiziqdan pastga tushgan harflarning bu shaklida ularning chiziqdan pastga tushgan qismi olib tashlanib, o‘z ketidagi harf bilan qo‘shish uchun ilmoq-chiziq orttiriladi. Nuqtalar esa ularning ostiga yoki ustiga qo‘yiladi:

م - m, ل - l, ق - q, ف - f, غ - g', ا - ayn, ض - z, ص - s, ش - sh, س - s,  
خ - x, ه - h, چ - ch, ج - j

3. Qolgan harflar esa ketidagi harf bilan qo‘shish uchun ularga ilmoq-chiziq qo‘shiladi, xolos.

ط - t, ظ - z, ك - k, گ - g, ه - h

**Uchinchi shakl.** Harflarning uchinchi, ya‘ni so‘z o‘rtasida o‘z oldidagi va ketidagi harf bilan qo‘shiladigan shaklini yasash uchun ikkinchi shakl harflariga o‘z oldidagi harfga qo‘shish uchun bir ilmoq-chiziq qo‘shiladi, xolos.

Shunday qilib, so‘z o‘rtasida harfni ikki tomondan qo‘shish uchun oldi va ketiga ilmoq-chiziq qo‘shib yoziladi. Masalan:

ب - b, پ - p, ت - t, س - s, ج - j, چ - ch, ه - h, خ - x, س - s, ش - sh,  
ص - s, ض - z, ط - t, ظ - z, ا - ayn, غ - g', ف - f, ق - q, ك - k, گ - g,  
ل - l, م - m, ن - n, ه - h, ي - yo

Yuqorida ko‘rsatilgan har uch shakldagi harflarning ko‘rinishi birmuncha o‘zgargan bo‘lsa ham, o‘zlarining asosiy belgilarini saqlab qoladilar.

**1- topshiriq.** Quyidagi harf shakllarni bir necha marta ko‘chirib yozing.

م	م	م	م
ه	ه	ه	ه
ی	ی	ی	ی

ع	ع	ع	ع
ح	ح	ح	ح
ص	ص	ص	ص

**2- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 1-tamrinni ko‘chirib yozing va chiroyli yozishga o‘rganing.

## Arab-fors alfaviti

Harfning nomi	Harf ifoda etgan tovushlar	Harflarning yozilishi			
		Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
alif	o, a, e, oʻ	ا	-	-	ا
be	b	ب	ب	ب	ب
pe	p	پ	پ	پ	پ
te	t	ت	ت	ت	ت
se	s	ث	ث	ث	ث
jim	j	ج	ج	ج	ج
chim	ch	چ	چ	چ	چ
he (hoye hoʻtti)	h	ح	ح	ح	ح
xe	x	خ	خ	خ	خ
dol	d	د	-	-	د
zol	z	ذ	-	-	ذ
re	r	ر	-	-	ر
ze	z	ز	-	-	ز
j:e	j:	ژ	-	-	ژ
sin	s	س	س	س	س
shin	sh	ش	ش	ش	ش
sod	s	ص	ص	ص	ص
zod	z	ض	ض	ض	ض
to	t	ظ	ظ	ظ	ظ
zo	z	ظ	ظ	ظ	ظ
ayn	(ʻ)	ع	ع	ع	ع

g'ayn	g'	غ	غ	غ	غ
fe	f	ف	ف	ف	ف
qof	q	ق	ق	ق	ق
kof	k	ك	ك	ك	ك
gof	g	گ	گ	گ	گ
lom	l	ل	ل	ل	ل
mim	m	م	م	م	م
nun	n	ن	ن	ن	ن
vov	v, u, o'u	و	-	-	و
he (hoye havvaz)	h	ه	ه	ه	ه
yo	y, i, ey	ی	ی	ی	ی

**1- topshiriq.** Quyidagi so'zlarni ko'chirib yozing va harflarning yozilishini aniqlang.

бар *bor* – yuk, باز *boz* – lochin, تار *tor* – tor, باغ *bog'* – bog', تیر *tir* – tir, kamon, باد *bod* – shamol, دارو *doru* – dori, مال *mol* – mol, مور *mur* – chumoli, جیب *jib* – cho'ntak, چوب *chub* – cho'p, yog'och, خام *xom* – xom, جام *jom* – jom, ماه *moh* – oy, میخ *mix* – mix, میز *miz* – stol, سود *sud* – foyda, خون *xun* – qon, سیخ *six* – six, نام *nom* – nom, سیر *sir* – to'q, دام *dom* – tuzoq, دود *dud* – tutun, سیم *sim* – sim, سیب *sib* – olma, پیر *pir* – qari, رو *ru* – yuz, گوش *gush* – quloq, تاج *toj* – toj, شاه *shoh* – shoh, نور *nur* – nur, نیم *nim* – yarim, شور *shur* – sho'r, راه *roh* – yo'l, رود *rud* – daryo, روز *ruz* – kun, ریش *rish* – soqol, زاغ *zog'* – qarg'a, фил *fil* – fil, کوه *kuh* – tog', کیف *kif* – portfel, غاز *g'oz* – g'oz, طوطی *tuti* – to'ti, سال *sol* – yil, خاک *xok* – tuproq, خوب *xub* – yaxshi, دیگ *dig* – qozon, دیو *div* – dev, شام *shom* – shom, kechqurun, شیر *shir* – sut, دوش *dush* – elka, هوش *hush* – hush, aql, مار *mor* – ilon, چای *choy* – choy, پول *pul* – pul, یار *yor* – yor, do'st, پاک *pok* – toza, ozoda, زود *zud* – tez, تیغ *tig'* – xanjar, tig', چاق *choq* – semiz, پا *po* – oyoq, دور *dur* – uzoq, olis, غار *g'or* – g'or.

**2- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 2-tamrinni ko'chirib yozing va chiroyli yozishga o'rganing.



# UNLI TOVUSHLARNING YOZUVDA IFODALANISHI

## Qisqa unilarning yozuvda ifodalanishi

(Diakritik belgilar)

Fors tilida qisqa unilar harflarning osti va ustiga qo'yiladigan *harakat* deb ataluvchi diakritik belgilar orqali ifoda etiladi. Harakat qaysi harfning ustiga yoki ostiga qo'yilsa, avval harakat qo'yilgan undosh o'qilib, so'ngra harakat bildirgan tovush talaffuz etiladi.

1. Harf ustiga kichik chiziqcha qo'yish orqali **a** unli tovushi ifoda etiladi. Yozuvda **ـ** belgisi bilan ifoda etilib, fors grammatikasida uni **زبر** **zabar** (ustida, tepasida degan ma'noni bildiradi) deb ataladi. Masalan:

مَنْ *man* – men  
دَرْ *dar* – eshik  
شَب *shab* – kechasi  
قَلَم *qalam* – ruchka  
مَادَر *modar* – ona  
تَابَر *tabar* – bolta  
وَزِير *vazir* – vazir  
مَلَخ *malax* – chigirtka

2. Harf ostiga kichik chiziqcha qo'yilsa **e** unli tovushi ifoda etiladi. Yozuvda **ـِ** belgisi bilan ifoda etilib, fors grammatikasida uni **زیر** *zir* (ostida, tagida degan ma'noni bildiradi) deb ataladi. Masalan:

دِل *del* – yurak  
شِش *shesh* – olti  
كِتَاب *ketob* – kitob  
لِيَّاس *lebos* – kiyim  
زِمِستَان *zemeston* – qish  
شِكَم *shekam* – qorin

3. Harf ustiga kichik vergul shaklidagi belgi qo'yilib, **o'** unli tovushni ifoda etiladi. Yozuvda **ـُ** belgisi bilan ifoda etilib, fors grammatikasida uni **پیش** **pish** (old, oldida degan ma'noni bildiradi) deyiladi. Masalan:

هُنَر *ho'nar* – hunar  
شُتُر *sho'to'r* – tuya  
نَاخُن *noxo'n* – tirnoq

مُرْع mo'rg' – tovuq  
هيزم hizo'm – o'tin  
زغال zo'g'ol – ko'mir

Agar qisqa unilardan biri so'z boshida kelsa, so'z boshida bir **alif** harfi orttirilib, zarur bo'lgan diakritik belgi shu **alif**ning osti yoki ustiga qo'yiladi. Bunda alif butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi vazifasini bajaradi. Masalan:

اگر agar – agar  
أردک o'rdak – o'rdak  
ألاغ o'log' – eshak  
أبر abr – bulut  
إسم esm – ism  
أطاق o'toq – uy, xona  
إدارة edore – idora  
أطراف atrof – atrof

Fors tili leksikasiga kirgan ayn bilan boshlanuvchi arab so'zlarida diakritik belgilar ayn harfining osti yoki ustiga qo'yilgan. Bunda ayn talaffuz etilmay, alif kabi yordamchi vazifani bajaradi. Masalan:

عقل 'aql – aql  
علم 'elm – ilm  
عمر 'o'mr – umr  
ألف 'alaf – o't  
عراق 'eroq – Iroq  
عمو amu – amaki  
عذر o'zr – uzr  
عثمان o'smon – Usmon

4. Undosh tovushdan so'ng unli bo'lmasa, ya'ni bo'g'in yopiq bo'lsa, bo'g'in oxiridagi undosh harf ustiga kichik dumaloq **ـ** belgisi qo'yiladi. Bu belgini fors grammatikasida سکون so'kun (to'xtash, tinchlik ma'nolarini bildiradi) deyiladi. Masalan:

بُلْبُل bo'lbo'l – bulbul, فرزند farzand – farzand so'zlarida so'kun birinchi so'zning ل l harfi ustida, ikkinchi so'zda esa ر r harfining ustida kelib, ulardan so'ng unli tovush yo'qligiga va bo'g'in yopiq ckanligiga ishora qiladi.

## Qisqa unilarning yozuvdagi ifodasi

Tovushlar	Belgilar		Nomi
	So'z boshida	So'z o'rtasida	
a	ع	ا	zabar
e	ع	ا	zir
o'	ع	ا	pish

**Topshiriq.** Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, daftaringizga ko'chirib yozing va ulardagi diakritik belgilarni aniqlang.

پل – ko'prik, طرف – taraf, tomon, صدا – sado, ovoz, ميهن – vatan, دختر – qiz, qiz bola, عطر – atr, مقصد – maqsad, عميق – chuqur, قاشق – qoshiq, انگور – uzum, سبک – yengil, oson, امید – umid, دنيا – dunyo, زبان – jahon, بزرگ – katta, پشیر – pishloq, عرب – arab, نمک – tuz, تیل – meva, ابریشم – ipak, تجارت – savdo-sotiq, چراغ – chiroq, رمضان – ramazon, تکرار – takror, qaytarish, مثال – misol, فردا – erta, ertaga, امروز – bugun, انقلاب – inqilob, دندان – tish, رفیق – o'rtoq, do'st, بلند – baland, عشق – ishq, مهمان – mehmon, استراحت – dam, چشم – ko'z, عظیم – katta, ulug', اینک – kam, oz صحبت – suhbat, فقط – faqat, شمع – sham, ظالم – zolim, ظفر – g'alaba, غم – g'am, گرگ – bo'ri, روباه – tulki, قلم – ruchka, عند – son, miqdor, شمشیر – qilich, خبر – xabar, تعلیم – ta'lim, ساختمان – tuzum, qurilish, تابستان – yoz.

## Cho'ziq unilarning yozuvda ifoda etilishi

Fors tilida cho'ziq unilar, ya'ni **o, u, i** so'zda **ا** – alif, **و** – vov, **ی** – yo harflari bilan ifoda etiladi. Masalan: رو – yuz, نان – non, ماهی – baliq, مور – chumoli, ميز – stol

Agar cho'ziq unilar so'z boshida kelsa, yozuvda cho'ziq unli oldidan bir **ا** – alif orttirilib yoziladi. Shunday qilib, so'z boshida **o** – tovushi uchun ikkita alif, **u** – tovushi uchun **او** va **i** – tovushi uchun **ای** birikmalari yoziladi. Bu birikmalardan faqat ikki alifdan biri ikkinchisining ustiga yotqizilib **ا** shaklida yoziladi. Bu shaklni fors grammatikasida **مده** *madd* yoki **مده** *madda* (cho'zilgan degan ma'noni bildiradi) deyiladi. Masalan:

اب ob – suv

اتش otash – otash, olov

ازاد ozod – ozod

اقتاب oftob – oftob

المان olmon – Germaniya

الو olu – olho'ri

و va ای birikmalari so‘z boshida o‘zgarishsiz qoladi. Masalan:

او – u (kishilik olmoshi)

اوت – avgust

ایران – Eron

اینجا – bu yer, bu yerda

Agar و – vov yoki ی – yo harflari so‘z boshida kelsa, v va y undosh tovushlarini ifodalaydi. Masalan:

وطن vatan – vatan

وزیر vazir – vazir

ورزش varzesh – sport

یاری yor – yor, do‘st

یتیم yatim – yetim

یخ yax – yax

### Cho‘ziq unilarning yozuvdagi ifodasi

Tovushlar	Yozilishi	
	So‘z boshida	So‘z o‘rtasi va oxirida
O	أ	ا (yoki ا)
I	ای	ی (yoki ی)
U	او	و (yoki و)

Arab tilidan kirgan so‘zlarning boshida *ayn* va *alif* harflari birga kelsa, *ayn* talaffuz etilmay, *alif* cho‘ziq unli *o* tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

عادل ‘odel – odil

عاشق ‘osheq – oshiq

عالم ‘olem – olim

عادت ‘odat – odat

عاقل ‘oqel – aqlli

عالی ‘oli – oliy

**1- topshiriq.** Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing, ko‘chirib yozing va cho‘ziq unilarning yozilishini aniqlang.

انار – anor

کبوتر – kabutar

ارد – un

آینده – kelajak

غوک – qurbaqa

ورق – varaq

آسمان – osmon

بینی – burun

طوطی – to‘ti

آرام – tinchlik

قانون – qonun

عالم – olam

دنيا – dunyo

ابرو – qosh

اشپز – oshpaz

وکیل – vakil

الوبالو – olcha

حقوق – huquq

یازده – o'n bir

واردات – import

صابون – sovun

آرزو – orzu

روزنامه – gazeta

سیب – olma

عاجز – ojiz

کوزه – ko'za

ایمان – imon, ishonch

ستولی – stul

جهان – jahon

اسان – oson

فراوان – farovon

شیراز – Shiroz (shahar)

طوفان – bo'ron

دانشیار – o'qituvchi

ترسو – qo'rqq

بخارا – Buxoro (shahar)

بخاری – pechka

**2- topshiriq.** Quyidagi so'zlarga qisqa unlilarni bildiruvchi belgilarni qo'ying va daftaringizga ko'chirib yozing.

دست – qo'l

درس – dars

شش – olti

اداره – idora

اسم – ism

پسر – o'g'il

فرزند – farzand

اردک – o'rdak

شتر – tuya

انقلاب – inqilob

ضيافت – ziyofat

دفتر – daftar

ارتش – armiya

بلبل – bulbul

سفر – safar

مقصد – maqsad

زبان – til

دانشیار – o'qituvchi

پدر – ota

پنجره – deraza

مردم – xalq, omma

**3- topshiriq.** Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing va cho'ziq unlilarning yozilishiga ahamiyat bering.

عاقل – oqil

عاقبت – oqibat

عاجز – ojiz

عامه – omma

**4- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 3 - tamrinni ko'chirib yozing va chiroyli yozishga o'rganing.

## AYRIM HARFLAR VA HARF BIRIKMALARINING YOZILIH VA TALAFFUZI

1. **vov** harfi so'z yo bo'g'in boshida yoki unlidan so'ng kelsa, v undosh tovushi kabi talaffuz qilinadi. Masalan:

وزير – vazir

وطن – vatan

ديوار – devor

جواب – javob

Ba'zan so'z oxirida undoshdan so'ng kelib, v kabi talaffuz etilishi ham mumkin. Masalan:

سرو *sarv* – sarv (daraxti)

عضو *'ozv* – a'zo

2. Ba'zi so'zlarda so'z o'rtasi yo oxirida kelib, diftong *o'u* kabi talaffuz etiladi:

روشن *ro'ushan* – ravshan, yorug'

جو *jo'u* – arpa

نوبت *no'ubat* – navbat

نو *no'u* – yangi

روغن *ro'ug'an* – yog'

دولت *do'ulat* – davlat

3. Ba'zi so'zlarda qisqa unli *o'* tovushini ifoda etadi. Masalan:

تو *to'* – sen (kishilik olmoshi)

خورک *xo'rak* – taom, ovqat

خورشید *xo'rshid* – quyosh

خوردن *xo'rdan* – yemoq

دو *do'* – ikki

دوم *do'vvo'm* – ikkinchi

4. Ba'zi so'zlarda *x* harfi bilan *o'* o'rtasida kelsa, *v* vov butunlay talaffuz etilmaydi. Masalan:

خواهر *xohar* – opa-singil

خواجه *xoje* – hoji

خواهش *xohesh* – istak, xohish

خوارزم *xorazm* – Xorazm

خوان *xon* – dasturxon

خوربار *xorbor* – oziq-ovqat

خواب *xob* – uyqu

خوابتن *xostan* – xohlamoq

استخوان *o'stexon* – suyak

خواندن *xondan* – o'qimoq

خوار *xor* – xor bo'lsin

خوابیدن *xobidan* – uxlamog

5. Boshqa barcha hollarda, ya'ni *o'* alifdan so'ng so'z boshida, undoshdan so'ng so'z o'rtasi va oxirida cho'ziq unli *u* tovushini ifodalaydi. Masalan:

او *u* – u (kishilik olmoshi)

کدو *kadu* – oshqovoq

موش *mush* – sichqon

گردو *gerdu* – yong'oq

طوفان *tufon* – bo'ron

آموزگار *omuzgor* – o'qituvchi

زاتو *zomu* – tizza

دیروز *diruz* – kecha

### ی yo harfi

Yolg'iz holda va so'z oxirida kelganda nuqtasiz, so'z boshida nuqta bilan yoziladi.

### ی yo harfining talaffuzi

1. *y* harfi so'z yo bog'in boshida yoki unlidan so'ng kelganda *y* tovushini ifoda etadi. Masalan:

یک <i>yek</i> – bir	پایتخت <i>poytaxt</i> – poytaxt
بخ <i>yax</i> – yax, muz	همسایه <i>hamsoye</i> – qo‘shni
بیلاق <i>yeyloq</i> – yayloq	نمایش <i>namoyesh</i> – ko‘rsatish, ko‘rik
چای <i>choy</i> – choy	سیاه <i>siyoh</i> – qora

2. Ba‘zi so‘zlarda diftong *ey* ni ifodalaydi. Masalan:

ایوان <i>eyvon</i> – ayvon	بیت <i>beyt</i> – bayt
میل <i>meyl</i> – mayl	میدان <i>meydon</i> – maydon
عیب <i>eyb</i> – ayb	قیچی <i>qeychi</i> – qaychi
میمون <i>meymun</i> – maymun	نی <i>ney</i> – nay

3. B‘azi arab so‘zlarining oxirida kelib, *o* cho‘ziq unlisi kabi talaffuz etiladi. Masalan:

حتى <i>hatto</i> – hatto	عیسی <i>iso</i> – Iso (ism)
موسی <i>muso</i> – Muso (ism)	مستثنی <i>mo‘stasno</i> – mustasno
یحیی <i>yahyo</i> – Yahyo (ism)	سکنى <i>so‘kno</i> – yashash
مرتضى <i>mo‘rtazo</i> – Murtazo (ism)	کبرى <i>ko‘bro</i> – eng katta

Bu *o* yo ni arab grammatikasida *alif maqsura* (qisqartirilgan alif) deyiladi.

4. Qolgan hollarning barchasida, masalan, alifdan so‘ng so‘z boshida, undoshdan so‘ng so‘z o‘rtasi va oxirida cho‘ziq unli *i* tovushini ifoda etadi. Masalan:

این <i>in</i> – bu	سندلی <i>sandali</i> – stul
قالی <i>qoli</i> – gilam	میز <i>miz</i> – stol
ایرانی <i>ironi</i> – eronlik	بینی <i>bini</i> – burun
دیروز <i>diruz</i> – kecha	سفید <i>sefid</i> – oq

5. So‘zda *o* – *yo* harfi oldidan *-zir* belgisi va ketidan *l* – alif harfi kelgan bo‘lsa, *-zir o*–*yo* tovushi ta‘sirida *i* tovushi kabi talaffuz qilinadi. Masalan:

میان <i>miyon</i> – o‘rta	زیاد <i>ziyod</i> – ko‘p, mo‘l
سیاه <i>siyoh</i> – qora	احتیاج <i>ehtiyoj</i> – ehtiyoj
ادبیات <i>adabiyot</i> – adabiyot	سیاست <i>siyosat</i> – siyosat

## ◦ ho-ye havvaz harfi

Soʻz boshida kelganda **ه** shaklida, soʻz oʻrtasida **ه** shaklida, soʻz oxirida **ه** shakllarida yoziladi. Masalan:

هزار *hezor* – ming  
بهار *bahor* – bahor  
خانه *xone* – uy

## ◦ ho-ye havvaz ning talaffuz etilishi

1. Soʻz oxirida undoshdan soʻng doim qisqa unli *e* kabi talaffuz etiladi. Masalan:

نامه *nome* – xat                      شیشه *shishe* – shisha  
اداره *edore* – idora                لاله *lole* – lola  
دوشیزه *dushize* – qiz bola       همیشه *hamishe* – hamisha

2. Bir boʻginli baʼzi soʻzlarda ham *e* tovushini ifoda etadi. Masalan:

که *ke* – kim,                      چه *che* – nima,                      سه *se* – uch.

3. Qolgan hamma hollarda *h* tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

ده *deh* – qishloq                      ماه *moh* – oy  
هلو *hoʻlu* – shaftoli                ورزشگاه *varzeshgoh* – stadion  
تهران *tehran* – Tehron (shahar)    مهندس *moʻhandes* – muhandis  
مهمان *mehmon* – mehmon        میهن *mihan* – vatan

Agar ◦ belgisi *e* tovushini ifoda etsa, fors tili grammatikasida *ه* hay *ho-ye gʻeyr-e malfuz* (talaffuz etilmaydigan *h*), *ه* hay *ho-ye malfuz* (talaffuz etiladigan *h*), deyiladi.

## ل lom bilan ا alif harflarining birikmasi (لا)

Fors tilida *alif* bilan *lom* qoʻshilganda quyidagi shaklda yoziladi: لا *lo*. Masalan:

لاله *lole* – lola                      اصلاح *esloh* – isloh  
لانہ *lone* – in                      استقلال *esteqlol* – mustaqillik  
لازم *lozem* – kerak, lozim        ملاقات *moʻloqot* – uchrashuv



## ک kof va گ gof harflarining ا alif harfi bilan birikmasi

ک kof va گ gof harflarining ا alif harfi bilan birikmasi quyidagi shaklda yoziladi: کا ko va گا go. Masalan:

کار kor – ish

امریکا omriko – Amerika

استحکام estehkom – istehkom

گاو gov – sigir

سیگار sigor – papiros

آموزگار omuzgor – o‘qituvchi

## ک kof yoki گ gof harflarining ل lom bilan birikmasi

ک kof yoki گ gof harflarining ل lom bilan birikmasi quyidagi shaklda yoziladi: کل kl va گل gl. Masalan:

کلاغ kalog‘ – qarg‘a

کلمه kaleme – so‘z

کلید kelid – kalit

مشکل mo‘shkel – qiyin

گل go‘l – gul

گلیم galim – sholcha

گلو galu – tomoq

جنگل jangal – o‘rmon

**1- topshiriq.** Quyidagi so‘zlarni o‘qing, yozilishini o‘rganing va ularni daftaringizga ko‘chirib yozing.

گلستان – Guliston

کیف – portfel

شکایت – shikoyat

ملاقات – uchrashuv

شام – kechki ovqat

بالا – tepa, ust

لک لک – laylak

الوبالو – olcha

شکل – shakl

انگور – uzum

کاخ – saroy

انکار – inkor

طلا – tilla, oltin

کلمه – kalima, so‘z

گلاب – gulob

سلام – salom

کاتب – kotib

شکار – ov

شش – olti

گوشت – go‘sh

مکتوب – xat

دیگ – qozon

کلم – karam

گلشن – gulshan

جلال – Jalol (ism)

کلاه – bosh kiyim

شرط – shart

کوه – tog‘

انقلاب – inqilob

کلاس – sinf

**2- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 4 - tamrinni ko‘chirib yozing va chiroyli yozishga o‘rganing.

## ARAB SATR USTI BELGILARI

Fors tiliga arab harflari bilan bir qatorda arab satr usti belgilari ham kirib kelgandır.

Bu belgilar quyidagilar:

1. **تشديد** *tashdid* (kuchaytirish degan ma'noni bildiradi) yozuvda ة belgisi bilan ifoda etilib, harfni takrorlab (ikkilab o'qish) kerakli-giga ishora qiladi. Bunda avval *tashdid* ostidagi harfni takrorlab, so'ng tashdid ustidagi harakatni talaffuz etish kerak. Misollar:

اول *avval* – birinchi

مجلة *majalle* – jurnal

نقاش *naqqosh* – rassom

شك *shakk* – shak, shubha

تمدن *tamado'n* – madaniyat

وَضْعِيَّت *vaz'iyat* – vaziyat

عطار *attor* – attor

تَبَسُّم *tabasso'm* – tabassum

2. **همزة** *hamza* yozuvda ء belgisi bilan ifoda etiladi. Transkripsiyada *hamza* ُ belgisi bilan ishora etiladi. *Hamza* asosan fors tiliga arab tilidan kirgan so'zlarda va qisman forscha so'zlarda uchraydi. Arab tilida *hamza* portlovchi, bo'g'iz, jarangsiz undosh bo'lib, fors tilida esa butunlay o'z artikulatsion xususiyatlarini yo'qotgan. Arab tilidan kirgan so'zlarda *hamza* belgisi so'z o'rtasida kelganda, odatda ا *alif*, و *vov*, ي *yo* harflari ustiga qo'yiladi. Bu harflar *hamza* ostida hech qanday talaffuz qilinmay, faqat vositachi vazifani bajaradilar. Bulardan ي *yo* harfi so'z o'rtasida kelganda, ي *yo* ning ikki tomondagi harf bilan qo'shiladigan shakli nuqtasiz holda yoziladi:

Vositachi harflar	Hamza belgisining qo'yilishi
ا	ا
و	و
ي	ي

Vositachi harflar quyidagi qoida asosida ishlatiladi:

1) So'zda *hamza* oldida kelgan harf yoki *hamza* ustidagi tovush a, yoki zabarli bo'lsa, vositachi harf shaklida ا *alif* yozilib, *hamza* alifning ustiga qo'yiladi. Masalan:

تاكيد *ta'kid* – ta'kidlash

تأسيس *ta'sis* – ta'sis, ta'sislash

جرات *jur'at* – jur'at etish

2) Soʻzda hamza oldida kelgan harf yoki hamzaning ostidagi tovush *e*, yaʼni *zirli* boʻlsa, vositachi harf shaklida *ى* *yo* yozilib, hamza shu harfning ustiga qoʻyiladi. Masalan:

هَيْت *heyʼat* – hayʼat  
 مَسْأَلَة *masoʼel* – masalalar  
 رَأْس *raʼis* – rais, boshliq

3) Soʻzda hamza oldida kelgan harfning yoki hamzaning harakati *pish* boʻlsa, vositachi harf shaklida *و* vov yozilib, hamza shu harfning ustiga qoʻyiladi. Masalan:

مُؤْمِن *moʼmen* – imonli, musulmon  
 مُؤَلِّف *moʼallef* – muallif, tuzuvchi  
 مَسْئُول *masʼul* – masʼul

Shunday qilib, hamza ostidagi vositachi harflarning qoʻyilishi harakat bildirgan belgilarga (tovushlarga) bogʻliqdir.

### Vositachi belgilarning yozilishi

Diakritik belgilar (Harakatlar)	Vositachi harflar
- <i>zabar</i> dan soʻng	ا
- <i>zir</i> dan soʻng	ى
- <i>pish</i> dan soʻng	و

Agar hamza soʻz oxirida kelsa, hech qanday vositachi belgisiz yoziladi. Masalan:

امضاء *emzoʼ*  
 املاء *emloʼ*

ابتداء *ebtedoʼ*  
 جزء *joʼzʼ*

Fors yozuvida hamza belgisi soʻz oxirida kelganda odatda tushib, qoladi. Masalan:

امضا *emzo*  
 املا *emlo*

ابتدا *ebtedo*  
 جز *joʼz*

Baʼzan bir boʻgʻinli yoki ikki boʻgʻinli hamzali soʻzlarda hamza belgisi yozuvda tushib qolib, vositachi belgi mustaqil harf sifatida oʻqilishi mumkin. Masalan:

رأس *raʼs*  
 رأى *raʼy*

yoki  
 yoki

رأس *ros* – bosh  
 رأى *roy* – fikr, ovoz (saylovda)

شان *sha'n* yoki شان *shon* – sha'n, shavkat  
تاریخ *ta'rix* doim تاریخ *torix* – tarix (vaqt) deb o'qiladi.

Ayrim so'zlarda agar hamza undoshdan so'ng kelgan bo'lsa, uning ketidan qanday unli kelishidan qat'i nazar, hamza *ى* *yo* belgisi ustiga qo'yiladi. Masalan:

مسئله *mas'ale* – masala

مسئول *mas'ul* – mas'ul

Ba'zi so'zlarda vositachi harflarning yozilishi qoidadan mustasno bo'lishi ham mumkin. Masalan:

رئيس *ra'is* – rais

قرائت *qaro'at* – o'qish, qiroat

Hamzaning xususiyatlari quyidagicha:

1) Agar hamza oldidagi bo'g'in ochiq bo'lsa, hamza o'z oldidagi unli tovushga ta'sir qilib, uni cho'zibroq talaffuz etishga va tovushni biroz to'xtatish kerakligiga ishora qiladi.

Hamzaning bu ta'siri aytarli kuchli emas, shuning uchun so'zni tez talaffuz qilganda, ba'zan butunlay sezilmaydi. Masalan:

تاكيد *ta'kid* talaffuzda taakid

تأسيس *ta'sis* talaffuzda taasis

مؤمن *mo'men* talaffuzda mo'o'men

2) Ikki unli orasida hamza hech qanday talaffuz qilinmaydi. Masalan:

رئيس *ra'is* talaffuzda rais

مؤلف *mo'allef* talaffuzda mo'allef

مؤسسة *mo'assase* talaffuzda mo'assase

3) Agar hamza oldidagi tovush undosh bo'lsa, hamza bo'g'in ajratuvchi vazifani bajaradi. Bunda bo'g'in orasida kichik pauza hosil bo'ladi. Masalan:

مسئول *mas'ul* talaffuzda mas/ul

جرات *jo'r'at* talaffuzda jo'r/at

مسئله *mas'ale* talaffuzda mas/ale

4) Agar hamzadan keyin kelgan tovush undosh bo‘lib, hamza so‘kinli bo‘lsa, ya‘ni hamzadan keyin unli kelmasa, hamza jarangli bo‘g‘iz tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan:

رأس *ra's* – bosh

Hamza qo‘yilgan bu so‘zni tez talaffuz qilganda, hamza o‘rniga uning oldidagi tovush biroz cho‘zibroq talaffuz qilinadi.

5) So‘z oxirida hamza butunlay talaffuz qilinmaydi. Masalan:

امضاء *emzo*

ابتداء *ebtedo*

انشاء *ensho*

6) Ba‘zan hamza so‘z oxirida ma‘noni farqlash vazifasini bajaradi. Masalan:

جزء *jo'z* – qism, bo‘lak

جزء *jo'z* – boshqa

Hamza faqat arab so‘zlarida emas, balki ba‘zi fors so‘zlarida ham ishlatiladi.

Fors so‘zlarida hamza quyidagi xususiyatlarga egadir:

1) Cho‘ziq *i* tovushini cho‘ziq *o* yoki *u* tovushlaridan ajratish uchun ishlatiladi. Bu holatda ikki unli tovushni bir-biridan ajratib o‘rtada kichik pauza qilishga ishora qiladi.

Yozuvda hamza belgisi *i* harfi oldidan bir tish orttirilib, uning ustiga qo‘yiladi. Odatda fors so‘zlarida ishlatiladigan hamza belgisi transkripsiyada ifoda etilmaydi. Masalan:

پائين *po-in* – ost, quyi

پائيز *po-iz* – kuz

2) Aniqlanmish *o-e* (ho-ye g‘eyre malfuz) bilan tugagan bo‘lsa, izofa hamza orqali ifoda etiladi. Masalan:

تخته سیاه *taxte-ye siyoh* – qora doska

خانه ما *xone-ye mo* – bizning uy

3) Negizi *o* yoki *i* cho‘ziq unlisi bilan tugagan fe‘lga cho‘ziq *i* unlisi bilan boshlanuvchi shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilganda, ikki unli orasiga hamza belgisi qo‘yiladi. Masalan:

مى انىم *mio-im* – kelamiz

مى انى *mio-i* – kelasan

مى انىد *mio-id* – kelasiz

بفرمانىد *befarmo-id* – buyuring

4) Cho‘ziq unli tovushi bilan tugagan so‘zga bir *ى – i* harfi qo‘shilgan vaqtda, *ى – i* harfi oldidan hamza belgisi qo‘yib yoziladi. Masalan:

نوا *navo* – kuy, navo

بخارا *bo‘xoro* – Buxoro

صدا *sedo* – ovoz

نوائى *navoi* – Navoiy

بخارائى *bo‘xoroi* – buxorolik

صدائى *sedoi* – Sadoiy

Hozirgi zamon fors tilida oxirgi yillarda arabcha hamza belgisini ayrim hollarda *ى yo* belgisi bilan almashtirish ya‘ni hamza o‘rniga *ى yo* yozish jarayoni ketmoqda. Masalan:

پائىن *poin*

نوائى *navoi*

بفرمائىد *befarmo-id*

سياه تخته سياه *taxte-ye siyoh*

پائىن *poyin*

نوائى *navoyi*

بفرمائىد *befarmo-yid*

سياه تخته سياه *taxte-ye siyoh* va hokazo.

Biz ham darslikda shu qonunga amal qilamiz.

### Tanvin belgisi

تتوين *tanvin* belgisi faqat arab tilidan kirgan so‘zlardagina uchraydi. Tanvin yozuvda *ـ* belgisi bilan ifoda etiladi va so‘z oxirida vositachi *ا alif* harfining ustiga qo‘yiladi *ا*. Tanvin belgisi *an* tovush birikmasini bildiradi. Tanvinli so‘zlar fors tilida ravish vazifasida keladi. Masalan:

مثلاً *masalan* – masalan

فوراً *fo‘uran* – tezlik bilan, tezda

خصوصاً *xo‘sususan* – xususan

قبلاً *qablan* – ilgari

اولاً *avvalan* – avvalan, birinchi galda

قصداً *qasdan* – qasdan, ataylab

Tanvinli arab so‘zlari o‘zbek tili lug‘at tarkibida ham ko‘p uchraydi. Masalan: shaklan, mazmunan, masalan kabi.

وصلة *vasla* ( qo‘shish degan ma‘noni bildiradi) ~ belgisi bilan ifoda etilib, arab tilidan kirgan aniqlik artikli ال birikmasining birinchi harfi ا *alif* ustiga qo‘yiladi ال.

Fors tilida *vasla* murakkab so‘zga aylangan ba‘zi arab izofiy birikmalarida yoki aniq otlarda uchraydi. Masalan:

المغرب *al-mag‘reb* – g‘arb  
دار الفنون *dor-o ‘l-fo‘nun* – universitet

## QAMARIY VA SHAMSIY HARFLAR

Arab alfavitidagi harflar حروف قمرى *ho‘ruf-e qamari* (oy harflari) va حروف شمسى *ho‘ruf-e shamsi* (quyosh harflari) deb ataluvchi ikki guruhga bo‘linadilar.

Quyidagi 14 harf حروف شمسى *ho‘ruf-e shamsi* deyiladi:

ت ث ذ د ز ر ش س ص ظ ط ل ن

Qolgan harflar esa حروف قمرى *ho‘ruf-e qamari* deb ataladi.

Agar ال aniqlik artiklidan keyin kelgan so‘zning birinchi harfi حروف شمسى guruhidagi harflarning biri bilan boshlangan bo‘lsa, ال artiklidagi ل *lom* talaffuz etilmay, undan keyin kelgan harf tashdid bilan (ikkilanib) o‘qiladi. Masalan:

السلام *as-salom* – assalom  
نصر الدين *nasr-ad-din* – Nasriddin  
لغات الترك *lo‘g‘ot-at-turk* – turkcha lug‘at

Agar ال aniqlik artiklidan keyin kelgan so‘z حروف قمرى *ho‘ruf-e qamari* guruhidagi harflarning biri bilan boshlangan bo‘lsa, ال artikli o‘z oldiga qo‘shilib kelgan so‘zning tugallangan tovushiga qarab o‘l yoki al tovush birikmalari tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

الخوارزمى *al-xorazmi* – Xorazmiy  
البيرونى *al-biruni* – Beruniy  
بين المللى *beyn-o ‘l-melali* – xalqaro

طويل المدة *tavil-o 'l-mo 'ddat* – uzoq muddatli  
متسوى الحقوق *mo 'tasavi-o 'l-ho 'quq* – teng huquqli

Yozuvda ko‘pincha *vasla* belgisi tushib qoladi va alifning o‘zi yozilib, *vasla* borligi nazarda tutiladi. Masalan:

السلام *as-salom*  
البيرونى *al-biruni*  
دار الفنون *dor-o 'l-fo 'nun* va hokazolar.

**1- topshiriq.** Quyidagi vaslali so‘zlarni o‘qing, ko‘chirib yozing va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganing.

رشيد الدين – Rashididdin  
عبدالله – Abdulla  
فارغ التحصيل – o‘qishni tugatgan, oily ma‘lumotli  
قليل المدة – qisqa muddatli  
خير الدين – Xayriddin  
ضرب المثل – maqol, hikmatli so‘zlar  
فخر الدين – Faxriddin  
دار الحكومة – hukumat uyi  
مظفر الدين – Muzaffariddin  
ميزان الحرارة – termometr  
مجالس النفايس – Majolis-un-nafois (asar nomi)  
حتى الامكان – imkon boricha  
ميزان الاوزان – vaznlar o‘lchovi  
لسان الطير – Lison-ut-tayr (asar nomi)

**2- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 5 - tamrinni ko‘chirib yozing va chiroyli yozishga o‘rganing.

## FORS YOZUVINING AYRIM XUSUSIYATLARI

1. Agar o‘zbek yozuvida xatlar chapdan o‘nga qarab yozilsa, fors yozuvida esa xat o‘ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o‘qiladi.

2. Fors yozuv sistemasida shu vaqtga qadar tinish belgilarini ishlatish haqida biror qoida ishlab chiqilmagan. Oxirgi yillarda fors tiliga ba’zi bir tinish belgilari kirib kelmoqda. Eronda nashr etilayotgan gazeta va jurnallarda, ilmiy va adabiy asarlarda nuqta, vergul (teskari holda), qo‘shirnoq, savol alomati ( ? teskari holda), ko‘p nuqta va qavs kabi tinish belgilarini ko‘p uchratish mumkin. Lekin bu tinish



belgilari ma'lum qoidaga bo'ysungan holda ishlatilmaydi. Ba'zan qo'shtirnoq o'rniga qavs, goh sarlavha yoki atoqli otlarni qavs yoki qo'shtirnoq bilan ajratish hollari uchrab turadi.

3. Arab-fors alfavitida atoqli otlar va gapning boshlanishi uchun maxsus bosh harflar yo'q. Yozuvda atoqli va turdosh otlar uchun bir hajm va shakldagi harflar ishlatiladi.

4. Fors yozuvida *madda* belgisidan boshqa hamma diakritik belgilar odatda tushib qoladi. Masalan:

#### Diakritik belgili holda

مجله  
مظفر الدين

#### Diakritik belgisiz holda

مجله  
مظفر الدين

Diakritik belgilarning, xususan, qisqa unililarning yozuvda ifoda etilmasligi so'zlarni to'g'ri o'qish va yozishni birmuncha qiyinlashtiradi.

5. O'zbek yozuvida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish mumkin. Lekin fors yozuvida so'zlar bo'g'inlarga bo'linsa ham, ularni bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirib bo'lmaydi. Agar satr oxiridagi so'zni shu satrga sig'dirish iloji bo'lmasa, uni butunlay ikkinchi satrga yozish kerak bo'ladi. Qo'l yozmalarda esa ba'zan satrga sig'magan so'zning so'ngi harflarini yuqoriga chiqarib qo'yadilar yoki satrda joy ko'p bo'lsa, joy ochiq qolmasligi uchun so'zning oxirgi harflarini cho'zibroq yozadilar.

**1- topshiriq.** Lug'at daftari tuzing, shu kunga qadar sizga tanish bo'lgan barcha so'zlarni lug'at daftaringizga ko'chirib yozing va kunma-kun ularni yozilishi, ma'nosi va talaffuzini takrorlab boring.

**2- topshiriq.** O'tilgan barcha qoidalarni qaytaring va ularni yaxshi o'zlashtirib oling.

گفتگو

این چیست؟ این کتاب است. این در است. این دفتر است. آن چیست؟ آن میز است.  
 آن تخته است. آن گچ است. این قلم است و آن دیوار است. دیوار سفید است. این کیست؟  
 این کارگر است. این دانشجو است. آن کیست؟ آن شاگرد است. آن دانشیار است.

واژه ها

دوس اول	<i>dars-e avval</i> – birinchi dars	گچ	<i>gach</i> – bo‘r
گفتگو	<i>go‘fto‘gu</i> – so‘zlashish	قلم	<i>qalam</i> – ruchka
این	<i>in</i> – bu	دیوار	<i>divor</i> – devor
آن	<i>on</i> – u	سفید	<i>sefid</i> – oq
چه	<i>che</i> – nima	کارگر	<i>korgar</i> – ishchi
که	<i>ke</i> – kim	سرخ	<i>so‘rx</i> – qizil
در	<i>dar</i> – eshik	دانشجو	<i>doneshju</i> – talaba
کتاب	<i>ketob</i> – kitob	دانشیار	<i>doneshyor</i> – o‘qituvchi
دفتر	<i>daftar</i> – daftar	شاگرد	<i>shogerd</i> – o‘quvchi
میز	<i>miz</i> – stol	خوب	<i>xub</i> – yaxshi
تخته	<i>taxte</i> – taxta, doska	بد	<i>bad</i> – yomon
و	<i>va</i> – va (bog‘lovchi)	واژه ها	<i>voj.‘eho</i> – so‘zlar

GRAMMATIK IZOH

Ot kesimli sodda yig‘iq gap

Kesimi fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalangan gaplar **ot kesimli gap** deyiladi. Ot kesimli sodda yig‘iq gapda ega har doim gap boshida, kesim esa gap oxirida keladi. Masalan:

- in ketob ast* – Bu kitobdir. این کتاب است.
- ahmad shogerd ast* – Ahmad o‘quvchidir. احمد شاگرد است.
- divor sefid ast* – Devor oqdir. دیوار سفید است.

Bu gaplarda *in*, *ahmad va divor* so‘zlari ega bo‘lib, *ahmad shogerd ast*, *sefid ast* birikmalari kesimdir.

این *in* va آن *on* ko‘rsatish olmoshlari

Fors tilida asosan ikkita ko‘rsatish olmoshi bo‘lib, ular *in* bu, shu va *on* u, o‘sha olmoshlaridir. Bulardan *in* olmoshi

soʻzlovchiga nisbatan yaqin boʻlgan predmetlarni va *on* olmoshi soʻzlovchiga nisbatan uzoq boʻlgan predmetlarni koʻrsatish uchun ishlatiladi. Masalan:

- این میز است in miz ast* – Bu stoldir.
- این تخته است in taxte ast* – Bu doskadir.
- آن پنجره است on panjare ast* – U deraza.
- آن دانشجو است on doneshju ast* – U talaba.

### **است ast bogʻlamasi**

1. Fors tilida gapning kesimi ot, sifat yoki boshqa soʻz turkumlari bilan ifodalangan boʻlsa, yaʼni gap ot kesimli gap boʻlsa, kesimlikni ifodalash uchun ular oxiriga *ast bogʻlamasi* qoʻyiladi. *ast bogʻlamasi* oʻzbek tilidagi kesimlik qoʻshimchasi *-dir* ga toʻgʻri keladi. Masalan:

- این دفتر است in daftar ast* – Bu daftardir.
- آن شاگرد است on shogerd ast* – U oʻquvchidir.

2. Oʻzbek tilida kesimlik qoʻshimchasi *-dir* koʻpincha tushib qoladi va yozuvda ifoda etilmaydi. Lekin fors tilida *ast bogʻlamasi* hech vaqt tushib qolmaydi va yozuvda doim ifoda etiladi. Masalan:

- این قلم است in qalam ast* – Bu ruchkadir.
- آن صندلی است on sandali ast* – U stuldir.

3. Talaffuzda *ast bogʻlamasi*ga urgʻu tushmaydi va oʻz oldidagi soʻz bilan qoʻshib talaffuz qilinadi. Kesim vazifasini bajaruvchi soʻz urgʻusi oʻzgarmay oʻz holicha qoladi. Masalan:

- این کتاب است in ketob ast* – Bu kitobdir.
- آن میز است on miz ast* – U stoldir.

Ot kesimli gapda gapning ega va kesim boʻlaklari ikki qismga boʻlinib, kichik pauza bilan ajratib talaffuz qilinadi. Masalan:

- این کلاس روشن است in kelos roʻushan ast* – Bu sinf yorugʻ.
- آن دیوار سفید است on divorcefid ast* – U devor oq.
- احمد شاگرد است ahmad shogerd ast* – Ahmad oʻquvchi.

Gapda tovush gap oxiriga qarab pasayib boradi:

*in ketob ast* – Bu kitobdir.  
*on miz no 'u ast* – U stol yangidir.

## که ke va چه che so'roq olmoshlari

Fors tilida که *ke* – kim? va چه *che* – nima? so'roq olmoshlari mavjud. Bu ikki so'roq olmoshidan که *ke* inson uchun va چه *che* qolgan barcha jonli va jonsiz predmetlar uchun ishlatiladi.

که ke va چه che so'roq olmoshlari *ast* bog'lama bilan birga kelganda که ke va چه che so'roq olmoshlarining oxirgi *e* tovushi *ast* ning *a* tovushi bilan qo'shilib, bir cho'ziq *i* tovushini hosil qiladi.

که + است = کیست *kist*      چه + است = چیست *chist*

Masalan:

*in chist? in dar ast, in miz ast* – Bu nima(dir)? Bu eshik(dir), bu stol(dir).

*in kist? in shogerd ast, in korgar ast* – Bu kim(dir)? Bu o'quvchi(dir). Bu ishchi(dir).

## Sodda yig'iq gapda so'z tarkibi

Bog'lama	Kesimning ot qismi	Ega
است	کتاب	این

**Eslatma.** که so'roq olmoshi ba'zan *ki* shaklida ham ishlatiladi:

این کی *ki omad?* kim keldi?

**1- topshiriq.** Nuqtalar o'rniga bog'lama qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing va ularni ovoz chiqarib o'qing.

این تخته...      این کیست؟ این دانشیار...  
آن در...      آن کیست؟ آن کارگر...  
این گچ...و آن دفتر...      این دانشجو خوب...  
احمد دانشجو...      آن گچ بد...

## 2- topshiriq. Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bu doskadir. U bordir. Bu nima? Bu eshik. U nima? U deraza. U kim? U Ahmad. Ahmad shogirddir. Bo‘r oqdir. Qalam qizildir. Bu nima? Bu ham qalamdir. Bu qalam yaxshi va u qalam yomondir. Bu shogird va u o‘qituvchidir.

3- topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing, so‘ng ularni lotin alfavitida yozing.

این دیوار است. این دیوار سفید است. آن تخته است. تخته سیاه است. این چیست؟ این کتاب است و آن دفتر است. این دانشجو خوب است. آن درید است. آن چیست؟ آن گج است. گج هم سفید است.

4- topshiriq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling va to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganing.

این سیب است. سیب شیرین است.  
آن کلاس است. کلاس روشن است.  
آن دختر است. آن دختر زیباست.  
این درس آسان است. دیوار سفید است.  
احمد کیست؟ احمد شاگرد است.  
محمود کیست؟ محمود کارگر است.

5- topshiriq. Sinfdagi predmetlarning nomini va o‘zingiz bilgan so‘zlarni ishlatib, quyidagi savollarga javob bering.

آن چیست؟  
آن کیست؟

این چیست؟  
این کیست؟

## Ikkinchi dars

## درس دوم

### گفتگو

این چه چیزی است؟ این صندلی است. این مداد است. این کیف است. آن چیست؟ آن کاغذ است. آن دفتر است. آن در است. آن پنجره است. این میز است؟ بله، این میز است. پس آن چیست؟ آن صندلی است. آیا این هم صندلی است؟ نخیر، این صندلی نیست میز است. پس این چیست؟ این مجله است. آیا آن قلم است؟ بله، آن قلم است. آیا تخته سفید است؟ نخیر، تخته سفید نیست، سیاه است. پس این دختر کیست؟ این دختر دانشجو است. آن دختر هم دانشجو است؟ بله، آن دختر هم دانشجو است. آیا آن کتاب است؟ بله، آن کتاب است.

## واژه ها

چیز *chiz* – narsa

چە چیزی *che chiz-i* – nima narsa

کیف *kif* – portfel

کاغذ *kog'az* – qog'oz

پنجره *panjare* – deraza

صندلی *sandali* – stul

مجله *majalle* – jurnal

مداد *medod* – qalam

قلم *qalam* – ruchka

سیاه *siyoh* – qora

پس *pas* – demak, xo'sh, xo'p

دختر *do'xtar* – qiz, qiz bola

بله *bale* – ha

نو *no'u* – yangi

کهنه *ko'hne* – eski

نخیر *naxeyr* – yo'q

## GRAMMATIK IZOH

### So'roq gapning yasalishi

Fors tilida so'roq gap asosan intonatsiya, so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari orqali yasaladi.

#### 1. Intonatsiya orqali so'roq anglashilishi:

این مداد است؟ *in medod ast?* – Bu qalammi?

کیف نو است؟ *kif no'u ast?* – Portfel yangimi?

آن دختر دانشجو است؟ *on do'xtar doneshju ast?* – U qiz talabami?

#### 2. كه va چه che so'roq olmoshlari orqali yasalishi:

این کیست؟ *in kist* – Bu kim(dir)?

این چیست؟ *in chist* – Bu nima(dir)?

#### 3. Ko'pincha gap boshiga آیا oyo, مگر magar -mi so'roq yuklamalarini keltirish orqali yasaladi. Masalan:

این مداد است؟ آیا *oyo in medod ast?* – Bu qalammi?

این کیف سیاه است؟ آیا *oyo in kif siyoh ast?* – Bu portfel qorami?

آن دختر دانشجو است؟ آیا *oyo on do'xtar doneshju ast?* – U qiz talabami?

مگر *magar* yuklamasi so'roq gapda anglashilgan fikrga nisbatan shubha, ishonchsizlik ma'nolarini bildirgan holatda ishlatiladi. Masalan:

این پسر دانشجو است؟ مگر *magar in pesar doneshju ast?* – Bu bola talabami? (Nahotki, bu bola talaba bo'lsa?).

magar emruz do 'shambe ast? – Bugun dushanbami? (Nahotki, bugun dushanba bo'lsa?).

آيا oyo, magar yuklamalari gapning boshqa bo'laklaridan kichik pauza bilan ajralib talaffuz qilinadi. Undan so'ng esa gap so'roq intonatsiyasi bilan o'qiladi. Masalan:

oya, in dar ast? – Bu eshikmi?

magar u korgar ast? – U ishchimi?

1- topshiriq. Quyidagi jummalarni tasdiq va so'roq ma'nosiga qarab talaffuz qiling.

ديوار سفيد است. ديوار سفيد است؟  
آن دختر دانشجو است. آن دختر دانشجو است؟  
این صندلی نو است. این صندلی نو است؟  
احمد شاگرد است. احمد شاگرد است؟  
این مجله است. این مجله است؟

2- topshiriq. آيا oyo, magar so'roq yuklamalarini ishlatib 10ta gap tuzing. Tuzgan jummlaringizni daftaringizga ko'chirib yozing.

### ast bog'lamasining bo'lishsiz shakli

نه-na ast bog'lamasining bo'lishsiz shaklida bog'lamaga inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi va o'zbek tiliga emas so'zi bilan tarjima qilinadi. ast bog'lama bilan na inkor yuklamasi bir-biri bilan qo'shilganda ulardagi a tovushi qo'shilib, bir cho'ziq i unlisini hosil qiladi. Masalan:

$(a+a=i)$  na+ast = nist

in medod nist – Bu qalam emas.

in do'xtar doneshju nist – Bu qiz talaba emas.

on miz no'u nist – U stol yangi emas.

### bale va naxeyr so'zlari haqida

So'roq gapdagi javob ijobiy yo salbiy bo'lishi mumkin.

1. So'roq gapning javobi ijobiy bo'lsa, jumla boshiga tasdiq ma'nosini anglatuvchi bale so'zi qo'yiladi va o'zbek tiliga ha yuklamasi orqali tarjima qilinadi. Masalan:

? *oyo, in majalle ast?* Bu jurnalmi?

. *bale, in majalle ast.* Ha, bu jurnal.

? *oyo, u korgar ast?* U ishchimi?

. *bale, u korgar ast.* Ha, u ishchi.

2. So‘roq gapning javobi salbiy bo‘lsa, gap boshiga inkor ma’nosini anglatuvchi *naxeyr* *noxeyr* so‘zi qo‘yiladi va o‘zbek tiliga *yo‘q* deb tarjima qilinadi. Bu holda inkor so‘zidan tashqari, gap kesimi ham bo‘lishsiz shaklda keladi. Masalan:

. *naxeyr, in daftar nist* – Yo‘q, bu daftar emas.

? *oyo, on ruznome ast?* U gazetami?

. *naxeyr, on ruznome nist, majalle ast* –

Yo‘q, u gazeta emas, jurnaldir.

. *oyo, in do‘xtar pezeshk ast?* *naxeyr, in do‘xtar pezeshk nist, doneshju ast* –

Bu qiz vrachmi? Yo‘q, bu qiz vrach emas, talabadir.

*bale* va *naxeyr* so‘zlari – *oyo* yuklamasi kabi gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqada bo‘lmaydilar. Talaffuzda esa bu yuklamalardan so‘ng kichik pauza hosil qilinib, undan so‘ng gapning boshqa bo‘laklari o‘qiladi.

### **ast bo‘g‘lamasi talaffuzidagi ayrim fonetik xususiyatlar**

Ot kesim tarkibidagi *ast* bog‘lamasi kesimning ot qismida kelgan so‘zning qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra turli fonetik xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Kesim vazifasidagi so‘z cho‘ziq unli bilan tugagan bo‘lsa *ast* bog‘lamasining *a* tovushi tushib qolib, oldidagi so‘z bilan birga, bir so‘z tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

*in doneshjust* – Bu talabadir.

*in sandalist* – Bu stuldir.

*in post* – Bu oyoqdir.



Bu holda *ast* bog‘lamasi to‘la va ba‘zan bog‘lamaning *alif* harfi tushib qolib, qolgan qismi esa oldidagi so‘z bilan qo‘shilgan holda yoziladi:

. او دانشجو است → *u doneshjust* – U talabadir.

. این صندلی است → *in sandalist* – Bu stuldir.

. این پاست → *in post* – Bu oyoqdir.

### 1- topshiriq. Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bu nima? Bu sumka. Bu pechka. Bu stulmi? Ha, bu stuldir. Bu stul yangimi? Yo‘q, bu stul yangi emas, eskidir. U daftarmi? Ha, u daftar. Bu nimadir? Bu jurnal. Bu ham jurnalmi? Ha, bu ham jurnal. Devor oqmi? Ha, devor oq. Bo‘r ham oqdir. U qiz ishchimi? Yo‘q, u qiz ishchi emas, talabadir. Xo‘p, bu nima? Bu qog‘oz. U narsa ham qog‘oz. Doska qizilmi? Yo‘q, doska qizil emas, qora. Bu qalam ham qora. Bu pechkami? Yo‘q, bu pechka emas, eshikdir. U nima? U deraza. Bu gazeta eskimi? Ha, bu gazeta eski. Xo‘p, bu ham gazetami? Yo‘q, bu gazeta emas, jurnal.

### 2- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors alfaviti bilan yozing va tarjima qiling.

in chist? in dar ast. in kog‘az ast. on chist? on panjare ast. on gach ast. taxte siyoh ast. divor sefid ast. oyo, in miz ast? bale, in miz ast. oyo, in ham miz ast? naxeyr, in miz nist, sandali ast. on che chiz ast? on medod ast. medod so‘rx ast. go‘l ham so‘rx ast. pas, in che chiz ast? in bo‘xorist. oyo, in kif no‘u ast? naxeyr, in kif no‘u nist, ko‘hne ast. oyo, on taxte ast? bale, on taxte ast. in kist? in korgar ast. on doneshyor ast. on do‘xtar shogerd ast. oyo, ahmad doneshju ast? bale, ahmad doneshju ast. oyo, in panjare ast? naxeyr, in panjare nist, dar ast.

### 3- topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

این صندلی است؟ بله، این صندلی است. تخته پاک است؟ خیر، تخته پاک نیست. دیوار سفید است. این دختر دانشجو است. این مجله است. این میز است. میز سیاه است. این دختر ایرانی نیست، از یک است. آن دست نیست، پاست. آن مرد کارگر نیست، دانشیار است. این کیف است؟ آن پنجره است؟ بله، این کیف و آن پنجره است.

## گفتگو

اینجا دانشگاه است. این دانشگاه بزرگ است. رفیق سلطانونوف کجاست؟ رفیق سلطانونوف در کلاس است. کلاس بزرگ و روشن است. آن چه چیزی است؟ آن پنجره است. پنجره چطور است؟ پنجره کوچک است. میز چطور است؟ میز بزرگ است. تخته چه رنگی است؟ تخته سیاه است. آیا این مداد سرخ است؟ نخیر، این مداد سرخ نیست، سبز است. این کاغذ چه رنگی است؟ این کاغذ زرد است. آیا این کیف هم زرد است؟ نخیر، این کیف زرد نیست، سیاه است. تخته کجاست؟ تخته در کلاس است. دانشجو کجاست؟ دانشجو هم در کلاس است. میز کجاست؟ میز هم اینجا است. دانشیار کجاست؟ دانشیار در دانشکده است. آن مرد چه کاره است؟ آن مرد نویسنده است. پس آن پسر کیست؟ آن پسر شاگرد است. آیا این کتاب خوب است؟ بله، این کتاب خوب است. این تخته چطور است؟ این تخته بد است. رفیق حسنوف کجاست؟ رفیق حسنوف اینجا است.

## واژه ها

اینجا <i>injo</i> – bu yer, bu yerda, bu yerga	روشن <i>ro 'ushan</i> – yorig', ravshan
آنجا <i>onjo</i> – u yer, u yerda, u yerga	سبز <i>sabz</i> – ko'k
کجا <i>ko 'jo</i> – qayer, qayerda, qayerga	زرد <i>zard</i> – sariq
چطور <i>cheto 'ur</i> – qanday, qanaqa	در <i>dar</i> – eshik
کوچک <i>kuchek</i> – kichik	مرد <i>mard</i> – erkak, erkak kishi
بزرگ <i>bo 'zo 'rg</i> – katta	زن <i>zan</i> – ayol, xotin
قشنگ <i>qashang</i> – chiroyli	چکاره <i>chekore</i> – kim (mutaxassisligi)
رفیق <i>rafiq</i> – o'rtiq	نویسنده <i>navisande</i> – yozuvchi
سلطانونوف <i>so 'ltono 'f</i> – Sultonov	پزشک <i>pezeshk</i> – vrach
دانشگاه <i>doneshgoh</i> – universitet	پسر <i>pesar</i> – o'g'il, o'g'il bola
دانشکده <i>doneshkade</i> – fakultet	فاطمه <i>foteme</i> – Fotima
کلاس <i>kelos</i> – klass, auditoriya	مشهور <i>mashhur</i> – mashhur
ورزشگاه <i>varzeshgoh</i> – stadion	چه رنگی <i>che rangi</i> – qaysi rangda
کهنه <i>ko 'hne</i> – eski	غنی <i>g'ani</i> boy

## So‘roq gapning yasalishi (davomi)

Fors tilida so‘roq gap so‘roq bildiruvchi چطور *cheto‘ur*, چه جور *che jo‘ur*, چه رنگی *che rangi*, چهکاره *chekore*, کجا *ko‘jo kabi* so‘zlar vositasi bilan ham yasalishi mumkin.

1. چطور *cheto‘ur* va چه جور *che jo‘ur* so‘zlari biror shaxsning hol-ahvolini (yaxshi yo yomon, sog‘ yo kasal ekanligini), predmet va hodisaning holatini yoki hajm-qiyofasini (eski yoki yangi, katta yo kichik, chiroyli yo xunuk ekanligini) bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

حال شما چطور است؟ *hol-e sho‘mo cheto‘ur ast?* – Ahvolingiz qanday?

حال من خوب است. *hol-e man xub ast* – Ahvolim yaxshi.

آن صندلی چه جور است؟ *on sandali che jo‘ur ast?* – U stul qanday?

آن صندلی کهنه ست. *on sandali ko‘hne ast* – U stul eskidir.

این در چه جور است؟ *in dar che jo‘ur ast?* – Bu eshik qanaqa?

این در کوچک است. *in dar kuchek ast* – Bu eshik kichikdir.

آن باغ چه جور است؟ *on bog‘ che jo‘ur ast?* – U bog‘ qanday?

آن باغ قشنگ است. *on bog‘ qashang ast* – U bog‘ chiroylidir.

2. چه رنگی *che rangi?* predmetning qaysi rangda ekanligini bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

این مداد چه رنگی است؟ *in medod che rangi ast?* – Bu qalam qaysi rangda?

این مداد سرخ رنگ است. *in medod so‘rx rang ast* – Bu qalam qizildir.

آن کیف چه رنگی است؟ *on kif che rangi ast?* – U portfel qaysi rangda?

آن کیف سیاه است. *on kif siyoh ast* – U portfel qoradir.

Shunday qilib, که *ke* va چه *che* so‘roq olmoshlari predmet va shaxsning o‘zini bilish uchun ishlatilsa, چطور *cheto‘ur* چه جور *che jo‘ur* va چه رنگی *che rangi* shu predmet va shaxsning sifatini, holatini va belgisini bilish uchun ishlatiladi.

3. چهکاره *chekore* biror shaxsning kim bo‘lib ishlashini, uni kasbini, nima ish bilan shug‘ullanishini bilish uchun ishlatiladi. Masalan: \*

احمد چهکاره است؟ *ahmad chekore ast?* – Ahmad kim? Ahmadning kasbi nima?

احمد مهندس است. *ahmad mo‘handes ast* – Ahmad injiner.

؟ است؟ آن زن چکاره است؟ *on zan chekore ast?* – U ayol kim? U ayolning kasbi nima?

. است. آن زن پزشک است. *on zan pezeshk ast* – U ayol vrachdir.

؟ است؟ این مرد چکاره است؟ *in mard chekore ast?* – Bu kishi kim? Bu kishining kasbi nima?

. است. این مرد کارگر است. *in mard korgar ast* – Bu kishi ishchidir.

4. کجا *ko 'jo so'roq olmoshi predmet yoki shaxsning yo'nalishi yoki uning o'rnini bilish uchun ishlatiladi va o'zbek tiliga qayerga? qayerda? qayer? tarzida tarjima qilinadi.*

؟ است؟ قلم کجا است؟ *qalam ko 'jost?* – Ruchka qayerda?

؟ است؟ اینجا کجاست؟ *injo ko 'jo ast?* – Bu yer qayer?

؟ است؟ او کجا می رود؟ *u ko 'jo miravad?* – U qayerga ketyapti?

1- **topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering.

- |                              |                         |
|------------------------------|-------------------------|
| – پنجره چه جور است؟          | – اینجا کجاست؟          |
| – احمد کجاست؟                | – آیا گچ سفید است؟      |
| – پزشک اینجا است؟            | – کلاس چه جور است؟      |
| – آیا این زن دانشیار است؟    | – این کاغذ چه رنگی است؟ |
| – آن چه چیزی است؟            | – آن مرد چکاره است؟     |
| – آیا این کیف سبز رنگ است؟   | – رفیق حسنوف چکاره است؟ |
| – آیا این نویسنده مشهور است؟ | – دیوار چه رنگی است؟    |
| – دانشیار کجاست؟             | – این باغ چه جور است؟   |

2- **topshiriq.** Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bu stol qanday? Bu stol katta. U pechka qanaqa? U pechka eski. Bu kishi (mutaxassisligi bo'yicha) kim? Bu kishi vrachdir. Qog'oz qaysi rangda? Qog'oz oq. Eshik ham oqmi? Yo'q, eshik oq emas, ko'kdir. Bu portfel qaysi rangda? Bu portfel sariq. Auditoriya qanaqa? Auditoriya yorug'dir. Bu yer fakultet. O'qituvchi qayerda? O'qituvchi bu yerda. U ayol (mutaxassisligi bo'yicha) kim? U ayol o'qituvchidir. Bu jurnal qanaqa? Bu jurnal yangi va u jurnal eskidir. Bu og'il bola qanaqa? Bu og'il bola yaxshi. Bu deraza yomon. Doska qayerda? Doska auditoriyada. Stol ham shu yerda. Deraza qaysi rangda? Deraza ko'kdir. Bu qiz chiroyli. Stol sariq emas, qoradir. Bu yozuvchi mashhurmi? Yo'q, bu yozuvchi mashhur emas. Fotima qayerda? Fotima fakultetda.

**3- topshiriq.** Transkripsiyada berilgan gaplarni fors alfaviti bilan yozing va ularni o‘zbekchaga tarjima qiling.

in mard kist? in mard mo‘handis ast. oyo, u korgar ast? naxeyr, u korgar nist, pezeshk ast. in go‘l so‘rx ast? bale, in go‘l so‘rx ast. in film cheto‘ur ast? in film xub ast. medod che rangi ast? medod sabz ast. kelos cheto‘ur ast? kelos bo‘zo‘rg va ro‘ushan ast. oyo, in ketob xub ast? bale, in ketob xub ast. in do‘xtar chekore ast? in do‘xtar doneshju ast. magar, u afsar ast? naxeyr, u afsar nist, mo‘handes ast. gach che rang ast? gach sefid ast. on mard chekore ast? on mard doneshyor ast. oyo, in kog‘az sabz ast? naxeyr, in kog‘az sabz nist, siyoh ast. g‘ulom dar xone ast. farro‘x ko‘jo ast? farro‘x dar kelos ast.

**4- topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘roq olmoshlarini qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

آن دختر..... است؟ بخاری..... است؟ این دانشجو..... است؟ آن مرد..... است؟  
دانشیار..... است؟ آن کیف..... است؟ تخته..... است؟ کلاس..... است؟ پزشک..... است؟ این  
مداد..... است؟ آن..... چیزی است؟ رفیق افتخار..... است؟ گچ..... است؟ فرخ..... است؟  
این کتاب نیست..... است. این دختر شاگرد نیست..... است.

**5- topshiriq.** Quyidagi dialoglarni o‘qing va tarjima qiling.

- اینجا کجاست؟ - اینجا دانشکده است.
- چه دانشکده ای است؟ - دانشکده ی خاور، ناسی است.
- اینجا کجاست؟ - اینجا کتابخانه است.
- کتابخانه چه جور است؟ - کتابخانه بزرگ و غنی است.
- آنجا کجاست؟ - آنجا ورزشگاه است.
- چه ورزشگاهی است؟ - ورزشگاه پخته کار است.
- آن زن چکاره است؟ - آن زن پزشک است.
- درخت چه رنگی است؟ - درخت سبز است.

**To‘rtinchi dars**

**درس چهارم**

### گفتگو

تو کیستی؟ من دانشجو هستم. آن دختر کیست؟ آن دختر پزشک است. شما کیستید؟  
ما همه دانشجو هستیم. تو هم دانشجو هستی؟ خیر، من دانشجو نیستم. من و رفیق  
حسنوف کارگر هستیم. شما کیستید؟ من سرباز هستم و رفیق فرخ مهندس است. تو  
نویسنده هستی؟ بله، من نویسنده هستم. امروز کشیک کیست؟ امروز کشیک رفیق  
سلطانوف است. آیا شما کارگر هستید؟ خیر، من کارگر نیستم، من مهندس هستم. آنها

کارگر نیستند. امروز هوا چطور است؟ امروز هوا گرم است. آن مرد چکاره است؟ آن مرد نویسنده است. تخته پاک کن کجاست؟ تخته پاک کن روی میز است. روی میز دیگر چه چیزی هست؟ روی میز کیف و مداد هم هست. آیا آنجا مجله هم هست؟ بله، آنجا مجله هم هست. در این کلاس تخته نیست، تخته در آن کلاس است. در اینجا کی هست؟ در اینجا من هستم.

### واژه ها

همه <i>hame</i> – <i>hamma</i>	سالم <i>solem</i> – <i>sog‘lom</i>
ما همه <i>mo hame</i> – <i>hammamiz</i>	زیبا <i>zibo</i> – <i>chiroyli</i>
سرباز <i>sarboz</i> – <i>askar</i>	هوا <i>havo</i> – <i>havo</i>
مهندس <i>mo‘handes</i> – <i>injener</i> , <i>muhandis</i>	گرم <i>garm</i> – <i>issiq</i>
کشیك <i>keshik</i> – <i>navbatchi</i>	بیمار <i>bimor</i> – <i>kasal</i>
کی <i>ki</i> – <i>kim</i>	دیگر <i>digar</i> – <i>yana</i> , <i>boshqa</i>
چیز <i>chiz</i> – <i>narsa</i>	روی <i>ru-yi</i> – <i>ustida</i> , <i>ustiga</i>
جوان <i>javon</i> – <i>yosh</i>	تخته پاک کن <i>taxte pok ko‘n</i> – <i>doska</i> <i>artadigan latta</i>

## GRAMMATIK IZOH

### Kishilik olmoshlari ضمائر شخصی *zamoyer-e shaxsi*

Shaxslar	Birlik – مفرد <i>mo‘frad</i>	Ko‘plik – جمع <i>jam‘</i>
I shaxs	من <i>man</i> – Men	ما <i>mo</i> – Biz
II shaxs	تو <i>to</i> – Sen	شما <i>sho‘mo</i> – Siz
III shaxs	او <i>u</i> – U	انها <i>onho</i> – Ular

### Bog‘lamaning tuslanishi (to‘liq shakli)

Ot kesimli gapda eganing qaysi shaxs va sonda kelishiga qarab, kesim ham ega bilan shu shaxs va sonda moslashadi. Bu holda bog‘-lama *ast* III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda o‘z ekvivalenti bo‘lmish *hast* so‘zi bilan almashinadi. Shunday qilib, ot kesim tuslanganda III shaxs birlikdagi *ast* bog‘lamasi o‘z holicha qolib, boshqa hamma shaxslarda shaxs-son qo‘shimchalari *hast* bog‘lamasiga qo‘shiladi.

## Shaxs-son qo‘shimchalari

Shaxslar	Birlik – مفرد <i>mo ‘frad</i>	Ko‘plik – جمع <i>jam’</i>
I shaxs	م - <i>am</i>	یم - <i>im</i>
II shaxs	ی - <i>i</i>	ید - <i>id</i>
III shaxs	--	ند - <i>and</i>

### Bog‘lama bilan qo‘shilgan holda:

مفرد	جمع
هستم <i>hastam</i>	هستیم <i>hastim</i>
هستی <i>hasti</i>	هستید <i>hastid</i>
است <i>ast</i>	هستند <i>hastand</i>

### Ot kesimning tuslanishi

#### مفرد *mo ‘frad*

من دانشجو هستم. *man doneshju hastam* – Men talabaman.

تو دانشجو هستی. *to ‘ doneshju hasti* – Sen talabasan.

او دانشجو است. *u doneshju ast* – U talaba.

#### جمع *jam’*

ما دانشجو هستیم. *mo doneshju hastim* – Biz talabamiz.

شما دانشجو هستید. *sho ‘mo doneshju hastid* – Siz talabasisiz.

آنها دانشجو هستند. *onho doneshju hastand* – Ular talabadirlar.

Ot kesimning tuslanishida bog‘lama هست *hast* mustaqil urg‘uga ega bo‘lib, bu urg‘u shaxs-son qo‘shimchalariga tushadi.

#### مفرد *mo ‘frad*

من کارگر هستم. *man korgar hastam* – Men ishchiman.

تو کارگر هستی. *to ‘ korgar hasti* – Sen ishchisan.

او کارگر است. *u korgar ast* – U ishchi.

#### جمع *jam’*

ما کارگر هستیم. *mo korgar hastim* – Biz ishchimiz.

شما کارگر هستید. *sho ‘mo korgar hastid* – Siz ishchisiz.

آنها کارگر هستند. *onho korgar hastand* – Ular ishchilar.

## Bog'lamaning **كە** ke so'roq olmoshi bilan birga kelgan shaklining tuslanishi

Bog'lamaning bu shakli shaxs-sonda tuslanganda, urg'u shaxs-son qo'shimchalariga emas, **كېست** *kist* birikmasining birinchi bo'g'iniga tushadi.

### مفرد *mo'frad*

من كېستم؟ *man kistam* – Men kimman?

تو كېستی؟ *to' kisti* – Sen kimsan?

او كېست؟ *u kist* – U kim?

### جمع *jam'*

ما كېستیم؟ *mo kistim* – Biz kimmiz?

شما كېستید؟ *sho'mo kistid* – Siz kimsiz?

أنها كېستند؟ *onho kistand* – Ular kimlar?

## Bo'g'lamaning bo'lishsiz shaklda tuslanishi

Bo'g'lamaning bo'lishsiz shaklda tuslanishida shaxs-son qo'shimchalari **نیست** *nist* so'ziga qo'shiladi. Urg'u bu yerda **نیست** *nist* so'zining birinchi bo'g'iniga, ya'ni inkor yuklamasiga tushadi.

### مفرد *mo'frad*

من دانشجو نیستم. *man doneshju nistam* – Men talaba emasman.

تو دانشجو نیستی. *to' doneshju nisti* – Sen talaba emassan.

او دانشجو نیست. *u doneshju nist* – U talaba emas.

### جمع *jam'*

ما دانشجو نیستیم. *mo doneshju nistim* – Biz talaba emasmiz.

شما دانشجو نیستید. *sho'mo doneshju nistid* – Siz talaba emassiz.

أنها دانشجو نیستند. *onho doneshju nistand* – Ular talaba emaslar.

## هست *hast* so'zining mustaqil ma'nosi

**هست** *hast* so'zi mustaqil ma'noni ham anglatadi.

1. Hamma shaxslarda (III shaxs birlikda ham) qo'llanib, borlik, mavjudlik ma'nolarini anglatadi. Qiyoslang:



فرخ ایرانی است. *farro 'x ironi ast* – Farro'x eronlikdir.  
اینجا ایرانی هست؟ *injo ironi hast* – Bu yerda eronlik bormi?  
اینجا کی هست؟ *injo ki hast* – Bu yerda kim bor?

Bu uch jumlada *ast* va *hast* III shaxs birlik shaklida kelgandir, birinchi jumlada *ast* bog'lama bo'lib, ایرانی *ironi* so'zi bilan birga kesim vazifasini bajargan. Ikkinchi va uchinchi jumladlarda esa *hast* ning o'zi kesim vazifasida kelgandir. Misollar:  
در کتابخانه زبان فارسی هست؟ *dar ketobxone ketob-e zabor-e forsi hast?* Kutubxonada fors tili kitobi bormi?  
روی میز چه چیزی هست؟ *ru-ye miz che chiz-i hast?* Stol ustida nima narsa bor?

2. *hast* so'zi mustaqil urg'u olib, gapda bog'lovchi bo'lib emas, o'zi mustaqil kesim bo'lib keladi. Tuslanganda urg'u shaxs-son qo'shimchalariga emas, *hast* so'zining birinchi bo'g'iniga tushadi. Masalan:

#### مفرد *mo 'frad*

من هستم *man hastam* – Men borman.

تو هستی *to 'hasti* – Sen borsan.

او هست *u ast* – U bor.

#### جمع *jam*

ما هستیم *mo hastim* – Biz bormiz.

شما هستید *sho 'mo hastid* – Siz borsiz.

آنها هستند *onho hastand* – Ular borlar.

Mustaqil ma'nodagi *hast* ning bo'lishsiz shaklida *nist* so'zi o'zbek tiliga *yo 'q* deb tarjima qilinadi. *nist* so'zini bog'lovchi yoki mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'z ekanligi gapning mazmuniga qarab belgilanadi. Masalan:

این مداد نیست. *in medod nist* – Bu qalam emas.

روی میز مداد نیست. *ru-yi miz medod nist* – Stol ustida qalam yo'q.

#### مفرد *mo 'frad*

من اینجا نیستم *man injo nistam* – Men bu yerda yo'qman.

تو اینجا نیستی *to 'injo nisti* – Sen bu yerda yo'qsan.

او اینجا نیست *u injo nist* – U bu yerda yo'q.

## جمع

*mo injo nistim* – Biz bu yerda yo‘qimiz.  
*sho ‘mo injo nistid* – Siz bu yerda yo‘qsiz.  
*onho injo nistand* – Ular bu yerda yo‘qlar.

**1- topshiriq.** Quyidagi so‘zlarga bog‘lamaning bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklini qo‘shib tustlang.

*navisande* – yozuvchi, *mo ‘handes* – injener,  
*pezeshk* – doktor, vrach.

**2- topshiriq.** Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bu kimdir? Bu ishchidir. U kimdir? U muallimdir. Sen kimsan? Men talabaman. U qiz ham talabami? Ha, u qiz ham talaba. Ular kimlar? Ular injenerlar. Biz kimmiz? Biz hammamiz talabamiz. Bu o‘rtoq kim? Bu o‘rtoq soldat. O‘rtoq Hasanov, siz ham talabamisiz? Ha, men ham talabaman. O‘rtoq Sultonov ham talabami? Yo‘q, o‘rtoq Sultonov talaba emas, u injener. Ular o‘qituvchilar. Men ishchi emasman. Sen ham ishchi emassan. U ayol vrachmi? Ha, u ayol vrach. Siz muallimmisiz? Yo‘q, men muallim emasman, men yozuvchiman. U qiz ham injenermi? Yo‘q, u qiz injener emas, vrachdir. U ishchidir. Sen bugun navbatchimisan? Ha, men bugun navbatchiman. Bu yerda vrach bormi? Ha, bu yerda vrach bor. U yerda nima bor? U yerda portfel va jurnal bor. Stolning ustida nima bor? Stolning ustida kitob, qalam va qog‘oz bor.

**3- topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga tegishli shaxs-son bog‘lamasini qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

آيا در كلاس درس تخته ....؟	امروز كشيک....؟
خخير، آنجا تخته....	امروز كشيک رفيق حسنوف....؟
آيا اين زن پزشک....؟	شما....؟
بله، اين زن پزشک....	ما دانشيار....؟
اينجا گچ.... گچ آنجا....	آيا اينجا نويسنده....؟
امروز هوا سرد.... گرم....	خخير، نويسنده....؟
روی ميز كيف و مجله....	آيا اين رفيق مهندس....؟
من در دانشکده....	خخير، اين رفيق افسر.... مهندس....
آيا اينجا پزشک....؟	تو کارگر.... و من سرباز....
خخير، اينجا پزشک....	من پزشک.... و رفيق فرخ نويسنده....
او آنجا....	دانشيار کجا....؟
آيا اين كيف کهنه....؟	اسم شما چه....؟

**4- topshiriq.** Quyidagi gaplarni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

من دانشجو هستم. تو دانشجو هستی. ما هر دو دانشجو هستیم. تو پزشک هستی. او هم پزشک است. شما هر دو پزشک هستید. ما کارگر هستیم. مهندس نیستیم. شما هم مهندس نیستید. ما هر سه کارگر هستیم. من از یکم. رفیق خسوف هم از یک است. ما هر دو از یکیم. ایرانی نیستیم. حسن و سلطانوف هر دو اهل تاشکند هستند. آقای وقایی اهل تهران است.

**5- topshiriq.** Quyidagi maqollarni yod oling.

پنج انگشت برابر نیست.  
یار یار است حساب حساب.  
مهمان عزیز است تا سه روز.  
آب آبادانی است.

**6- topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga bog‘lamasini kerakli shaxslarga qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

احمد و حسن هر دو دانشجو ....  
ما همه دانشجو ....  
آنها اهل تهران ....  
من و تو هر دو پزشک ....  
مریم و فاطمه جوان و زیبا ....  
حسن و سلطان هر دو دوست ....

## Beshinchi dars

## درس پنچ

### گفتگو

تو کیستی؟ من پزشکم. تو هم پزشکی؟ نخیر، من پزشک نیستم. من دانشیارم. ان دختر کیست؟ آن دختر دانشجو است. تو هم دانشجویی؟ بله، من هم دانشجویم. آنها کیستند؟ آنها نویسنده اند. شما هم نویسنده اید؟ نخیر، من نویسنده نیستم. من مهندسم. آیا آن مرد شاعر است؟ بله، آن مرد شاعر است. این بنا بلند و قشنگ است. شما کیستید؟ من هنرپیشه ام. شما اهل کجا بید؟ من اهل ایرانم. شما هم ایرانی هستید؟ نخیر، من از یکم. احمد تو کارگری؟ بله، من کارگرم. رفیق فرخ دهقان است. من امروز بیمارم. تو هم بیماری؟ بله، من هم بیمارم ولی رفیق خسوف سالم است. شما سالمید؟ بله، ما سالمیم. شما کیستید؟ ما ادبیات شناسیم ولی آنها زبان شناسند. شما تشنه اید؟ بله، من تشنه ام. آیا آنها سربازند؟ نخیر، آنها سرباز نیستند. تو هنرپیشه ای؟ نخیر، من هنرپیشه نیستم. پس تو کیستی؟ من دانشجویم و رفیق سلطانوف مهندس است.

بنا *bano* – bino, imorat

ایرانی *ironi* – eronlik

شاعر *shoer* – shoir

ادبیات شناس *adabiyotshenos* – adabiyotshunos

بیمار *bimor* – kasal

سالم *solem* – sog'lom

تشنه *tashne* – chanqoq

زبان شناس *zabonshenos* – tilchi

هنرپیشه *ho'narpishe* – artist

## GRAMMATIK IZOH

### Bog'lamaning qisqa shakli

Ot kesim tarkibidagi bog'lama qisqa shaklda ham ishlatiladi. Bunda bog'lamaning qisqa shakli III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda qo'llaniladi. Bog'lamaning qisqa shakli bevosita ot kesimning ot qismiga qo'shib keladi. Bog'lama o'z oldidagi so'zning qanday tovush bilan tugashiga qarab, turli shakllarda yoziladi.

1. Undosh bilan tugagan so'zdan so'ng yoziladigan shakli.

Shaxslar	Birlik – مفرد <i>mo'frad</i>	Ko'plik – جمع <i>jam'</i>
I shaxs	م - <i>am</i>	یم - <i>im</i>
II shaxs	ی - <i>i</i>	ید - <i>id</i>
III shaxs	است - <i>ast</i>	ند - <i>and</i>

Masalan:

مفرد *mo'frad*

من کارگرم *man korgaram* – Men ishchiman.

تو کارگری *to' korgari* – Sen ishchisan.

او کارگر است *u korgar ast* – U ishchi.

جمع *jam'*

ما کارگریم *mo korgarim* – Biz ishchimiz.

شما کارگرید *sho'mo korgarid* – Siz ishchisiz.

آنها کارگرند *onho korgarand* – Ular ishchilar.

Bog'lamaning qisqa shaklida urg'u bog'lama oldidagi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

2. Qisqa unli o – e yoki cho'ziq unli ی – i bilan tugagan so'zlar-dan so'ng yoziladigan shakli.

Shaxslar	Birlik – مفرد <i>mo'frad</i>	Ko'plik – جمع <i>jam'</i>
I shaxs	ام - <i>am</i>	ایم - <i>im</i>
II shaxs	ای - <i>i</i>	اید - <i>id</i>
III shaxs	است - <i>ast</i>	اند - <i>and</i>

Masalan: • – *e* qisqa unlisi bilan tugagan so'zlarda:

#### مفرد *mo'frad*

من نویسنده ام *man navisande-am* – Men yozuvchiman.

تو نویسنده ای *to 'navisande-i* – Sen yozuvchisan.

او نویسنده است *u nanisande ast* – U yozuvchi.

#### جمع *jam'*

ما نویسنده ایم *mo navisande-im* – Biz yozuvchimiz.

شما نویسنده اید *sho 'mo navisande-id* – Siz yozuvchisiz.

آنها نویسنده اند *onho navisande-and* – Ular yozuvchilar.

ی – *i* cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlarda:

#### مفرد *mo'frad*

من ایرانی ام *man ironi-am* – Men eronlikman.

تو ایرانی ای *to 'ironi-i* – Sen eronliksan.

او ایرانی است *u ironi-ast* – U eronlikdir.

#### جمع *jam'*

ما ایرانی ایم *mo ironi-im* – Biz eronlikmiz.

شما ایرانی اید *sho 'mo ironi-id* – Siz eronliksiz.

آنها ایرانی اند *onho ironi-and* – Ular eronliklar.

3. *o* va *u* cho'ziq unlilari bilan tugagan so'zlardan so'ng, yoziladigan shakli.

Shaxslar	Birlik - مفرد <i>mo'frad</i>	Ko'plik - جمع <i>jam'</i>
I shaxs	یم - <i>yam</i>	ییم - <i>yim</i>
II shaxs	یی - <i>iy</i>	یید - <i>id</i>
III shaxs	است - <i>ast</i>	یند - <i>yand</i>

#### مفرد *mo'frad*

من دانشجویم *man doneshjuyam* – Men talabaman.

تو دانشجویی *to 'doneshju-iy* – Sen talabasan.

او دانشجو است *u doneshju ast* – U talaba.

## جمع jam'

ما دانشجویم *mo doneshju-yim* – Biz talabamiz.  
شما دانشجوید *sho 'mo doneshju-yid* – Siz talabasiz.  
آنها دانشجویند *onho doneshjuyand* – Ular talabadirlar.

Oxirgi yillarga qadar II shaxs birlik va I va II shaxs ko'plikda ی harfi o'rnida ء *hamza* belgisi qo'llanilgan. Masalan:

## مفرد mo'frad

من دانشجویم - من دانشجویم  
تو دانشجویی - تو دانشجویی  
او دانشجو است - او دانشجو است

## جمع jam'

ما دانشجوئیم - ما دانشجوئیم  
شما دانشجوئید - شما دانشجوئید  
آنها دانشجویند - آنها دانشجویند

Bog'lamaning bo'lishsiz shakli hamma shaxslarda *nist* so'zi orqali ifoda etiladi. Masalan:

من دانشجو نیستم. *man doneshju nistam* – Men talaba emasman.  
تو نویسنده نیستی. *to 'navisande nisti* – Sen yozuvchi emassan.  
u کارگر نیست. *u korgar nist* – U ishchi emas.

**1- topshiriq.** Quyidagi so'zlarga bog'lamaning qisqa shaklini qo'shib, shaxs va sonda tuslang.

هنرپیشه *ho 'narpishe* – artist      پزشک *pezeshk* – vrach  
سرباز *sarboz* – soldat      بنا *bano* – bino, imorat

**2- topshiriq.** Quyidagi so'zlarni bog'lamaning bo'lishsiz shakli-da tuslang.

مهندس *mo 'handes* – injener, mo'handis      نویسنده *navisande* – yozuvchi  
دانشیار *doneshyor* – o'qituvchi      ایرانی *ironi* – eronlik

**3- topshiriq.** Bog'lamaning qisqa shaklini ishlatib, quyidagi gap-larni tarjima qiling.

Men ishchiman. Sen injenersan. Biz talabamiz. Ular ham talabalaridir. Bu qiz vrach. Siz kimsiz? Men talabaman. Siz ham talabamiz? Yo'q, men talaba emasman, men vrachman. Bu kishi kim? Bu kishi tilchidir. Siz bugun navbatchimisiz? Ha, men bugun navbatchiman. Men kasal emasman, sog'lomman. Biz hammamiz sog'-

lommiz. G'afur G'ulom kim? G'afur G'ulom shoirdir. Uning nomi mashhurdir. Bu kishi ham shoirmi? Yo'q, bu kishi shoir emas, yozuvchidir. Biz adabiyotshunosmiz. Siz artistmisiz? Ha, men artistman. Siz eronlikmisiz? Yo'q, men eronlik emasman, o'zbekman. Bu imorat baland va chiroylidir. U vrach yoshdir. O'rtoq Hasanov yosh va sog'lomdir. Siz qaerdasiz? Men bu yerdaman. Siz ham injenermisiz? Ha, men ham injenerman. Sen tashnamisan? Yo'q, men tashna emasman. Ular kimlar? Ular o'qituvchilardir.

**4- topshiriq.** Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.

ان مرد..... است.	من کارگر.....
او بیمار..... و من سالم.....	دانشیار..... نیست.
دانشیار در دانشکده.....	این..... کیست؟
این روزنامه..... نیست.	این..... است.
ما..... هستیم ولی آنها..... هستند.	شما دانشجو.....؟
آیا آن تخته..... است؟	رفیق حسنوف..... است.
آیا..... مهندسی؟	آیا آن پنجره..... است؟
خیر..... مهندس نیستم.	آیا آن دختر..... است؟
آنها نویسنده.....	..... کجاست؟
آیا..... هم نویسنده اید؟	او در..... است.
بله..... هم نویسنده ام.	ای بیک..... است.
آیا آن دختر..... است؟	ما همه..... هستیم.
تو تشنه..... و من تشنه.....	آیا..... دانشیارید؟
اینجا دانشیار.....	..... مهندسند.
روی میز..... هست.	او امروز..... است.
دیوار..... سفید.....	این بنا..... است.
آنها..... هستند.	این..... نیست.

**5- topshiriq.** Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling va bog'lamaning qisqa shaklini yozilishiga ahamiyat bering.

من دانشجوی دانشگاه خاورشناسی هستیم. آیا تو هم دانشجویی؟ بله، من هم دانشجویم. آنها هم دانشجویند. ما مهندسیم، آنها نویسنده اند. شما پزشکی؟ خیر، من پزشک نیستم. پس، تو کیستی؟ من هنرپیشه ام. آن مرد چکاره است؟ آن مرد دانشیار است. شما هم دانشیارید؟ خیر، من دانشیار نیستم. ما همه دانشجو هستیم. تو پزشکی، او هم پزشک است. شما هر دو پزشکی. این پسر و آن دختر برادر و خواهر هستند. آنها هر دو جوان و سالم هستند. شما سالمید؟ بله، من سالمم. احمد سالم نیست؟ او بیمار است. ما آشنا ایم.

## گفتگو

- اسم شما چیست؟  
 – اسم پدر شما چیست؟  
 – نام خانوادگی شما چیست؟  
 – اسم خواهر شما چیست؟  
 – خواهر شما چکاره است؟  
 – او دانشجوی کدام دانشکده است؟  
 – پدر شما چکاره است؟  
 – مادر شما به چه کاری مشغول است؟  
 – برادر شما دانشجوی کدام دانشکده است؟  
 – شما چکاره اید؟  
 – دانشکده ی شما کجاست؟
- اسم من سلطان است.  
 – اسم پدر من عمر است.  
 – نام خانوادگی من عثمانوف است.  
 – اسم خواهر من فاطمه است.  
 – خواهر من دانشجو است.  
 – او دانشجوی دانشکده ی طب است.  
 – پدر من کارمند علمی است.  
 – مادرم خانه دار است.  
 – برادرم دانشجوی دانشکده ی حقوق است.  
 – من دانشجوی دانشکده زبان و ادبیات هستم.  
 – دانشکده ی ما در خیابان نوایی است.

## واژه ها

- |   |   |
|---|---|
| اسم <i>esm</i> – <i>ism</i>                             | حقوق <i>ho'quq</i> – <i>huquq</i>                                   |
| نام خانوادگی <i>nom-e xonevodegi</i> – <i>familiya</i>  | به چه کاری <i>be che kor-i</i> – <i>nima ish</i>                    |
| پدر <i>pedar</i> – <i>ota</i>                           | خانه داری <i>xonedori</i> – <i>uy bekasi</i>                        |
| مادر <i>modar</i> – <i>ona</i>                          | زرد <i>zard</i> – <i>sariq</i>                                      |
| برادر <i>barodar</i> – <i>aka-uka</i>                   | میهن <i>mihan</i> – <i>vatan</i>                                    |
| برادر بزرگ <i>barodar-e bo'zo'rg</i> – <i>aka</i>       | خیابان <i>xiyobon</i> – <i>ko'cha</i>                               |
| برادر کوچک <i>barodar-e kuchek</i> – <i>uka</i>         | زبان <i>zabon</i> – <i>til</i>                                      |
| خواهر <i>xohar</i> – <i>opa-singil</i>                  | ادبیات <i>adabiyot</i> – <i>adabiyot</i>                            |
| خواهر بزرگ <i>xohar-e bo'zo'rg</i> – <i>opa</i>         | خیلی <i>xeyli</i> – <i>juda</i>                                     |
| خواهر کوچک <i>xohar-e kuchek</i> – <i>singil</i>        | کوشا <i>kusho</i> – <i>tirishqoq</i>                                |
| کارمند علمی <i>kormand-e 'elmi</i> – <i>ilmiy xodim</i> | به خانه داری <i>be xonedori</i> – <i>uy-ro'z-g'or ishlari bilan</i> |
| کدام <i>ko'dom</i> – <i>qaysi</i>                       | پاک <i>pok</i> – <i>toza</i>  |
| طب <i>tebb</i> – <i>tibbiyot, meditsina</i>             | ماشین <i>moshin</i> – <i>mashina</i>                                |
| سرد <i>sard</i> – <i>sovuq</i>                          | کلمه <i>kaleme</i> – <i>so'z</i>                                    |
| تمرین <i>tamrin</i> – <i>mashq</i>                      | ده <i>deh</i> – <i>qishloq</i>                                      |



## GRAMMATIK IZOH

### Izofa اضافة

Fors tilida aniqlovchi bilan aniqlanmish yoki qaratqich bilan qaralmish *izofa* deb ataluvchi urg'usiz *e* tovushi orqali bog'lanadi. Masalan:

ديوار سفيد *divor-e sefid* – oq devor

گل سرخ *go'l-e so'rx* – qizil gul

کتاب دانشجو *ketob-e doneshju* – talabanning kitobi

پدر من *pedar-e man* – mening otam

Fors tili izofiy birikmasida so'z tartibi o'zbek tiliga nisbatan qarama-qarshidir. Agar o'zbek tilida avval aniqlovchi, so'ng aniqlanmish yoxud avval qaratqich, so'ng qaralmish kelsa, fors tilida esa aksincha, avval aniqlanmish, so'ng aniqlovchi yoki avval qaralmish, so'ng qaratqich keladi.

O'zbek tilida	Fors tilida
→aniqlovchi →aniqlanmish:	aniqlovchi←aniqlanmish←
katta stol	میز بزرگ <i>miz-i bo'zo'rg</i>
baland imorat	عمارت بلند <i>emorat-e bo'land</i>
→qaratqich →qaralmish:	qaratqich←qaralmish←
o'qituvchining portfeli	کیف دانشیار <i>kif-e doneshyor</i>
mening do'stim	دوست من <i>dust-e man</i>

Fors tili grammatikasida izofiy birikmadagi aniqlanmish مضاف *mo'zof* va aniqlovchi مضاف الیه *mo'zof-e eleyh* deb nomlanadi. Izofa ko'rsatkichi doimo مضاف *mo'zof* dan so'ng qo'yiladi va مضاف bilan مضاف الیه ni bir-biriga bog'lab, izofiy birikma hosil qiladi. Izofiy birikmadagi so'zlar ajratib o'qilmay, bir butun, umumiy intonatsiya ostida talaffuz etiladi. Odatda izofiy birikma bir butun sintaktik birlik hisoblanadi.

### Izofaning imlosi

1. Undosh bilan tugagan so'zlardan so'ng, izofa *zir* belgisi orqali yozilib, *e* deb talaffuz etiladi. Odatda *.* - *zir* belgisi yozuvda ifoda etilmaydi. Talaffuzda esa doimo saqlanadi. Masalan:

ساعت طلا *soat-e telo* – tilla soat  
زبان فارسی *zabon-e forsi* – fors tili  
تاریخ ازبکستان *torix-e o'zbekiston* – O'zbekiston tarixi  
درس هفتم *dars-e hafto'm* – yettinchi dars  
گلستان سعدی *go'leston-e sa'di* – Sa'diyning “Guliston”i  
خیابان بابری *xiyobon-e bobo'r* – Bobur ko'chasi

2. *e* – *e* qisqa unlisi bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa *ء hamza* belgisi orqali yozilib, *ye* deb talaffuz etilib kelgan. Masalan:

تخته سیاه *taxte-ye siyoh* – qora doska  
خمسه نوابی *xamse-ye navoi* – Navoiyning “Xamsa”si  
نویسنده معروف *navisande-ye ma'ruf* – taniqli yozuvchi  
روزنامه دیواری *ruznome-ye divori* – devoriy gazeta

Hamza belgisi odatda ishora etilmay yozuvda tushib qolgan. Masalan:

تخته سیاه *taxte-ye siyoh* – qora doska  
روزنامه دیواری *ruznome-ye divori* – devoriy gazeta

Oxirgi yillarda Eron orfografiyasiga o'zgartirishlar kiritilib, hamza belgisi o'rninga *yo* harfi yoziladigan bo'ldi. Biz ham shu o'rinda *yo* harfini berib borishga qaror qildik. Masalan:

پنجره ی کوچک *panjare-ye kuchek* – kichik deraza  
خانه ی احمد *xone-ye ahmad* – Ahmadning uyi  
دانشکده ی خاورشناسی *doneshkade-ye xovarshenosi* – sharqshunoslik fakulteti

3. Cho'ziq unlilar bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa *ی-yo* harfi orqali yozilib, *ye* deb talaffuz etiladi. Masalan:

گل بوی *bu-ye go'l* – gulning hidi  
پای میز *po-ye miz* – stolning oyog'i  
دانشجوی دانشکده *doneshju-ye doneshkade* – fakultetning talabasi  
روی زیبا *ru-ye zibo* – chiroyli yuz

**Eslatma.** *ی-i* cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlarda *ی-yo* yozuvda ifoda etilmay, talaffuzda *i* unlisidan so'ng bir *ye* qo'shib o'qiladi. Masalan:

صندلی بزرگ *sandali-ye bo'zo'rg* – katta stul  
ماهی دریا *mohi-ye daryo* – dengiz balig'i  
بینی او *bini-ye u* – uning burni

## Izofaning yozilishi

Undoshdan so'ng	o' - e qisqa unlisidan so'ng	Cho'ziq unlilardan so'ng
De	ى ye	ى ye

**1- topshiriq.** Quyidagi birikmalarni izofa imlosiga rioya qilgan holda fors alfavitida yozing.

barodar-e man, meydon-e biruni, kog'az-e sefid, doneshju-ye doneshkade, doneshyor-e mo, ruznome-ye haqiqati o'zbakeston, esm-e xohar-e man, dars-e chahoro'm, navisande-ye mashhur, orzu-ye delbar, dars-e zabon-e rusi, shohnome-ye ferdo'usi, korgar-e korxone, xone-ye xoharam, po-ye miz, do'st-e u, torix-e iron, sedo-ye bo'lbo'l, ruz-e yakshambe, hamsoye-ye xohar-e man, xiyobon-e shahresabz, kor-e elmi-ye doneshjuyon, xonevodegi-ye mo.

**2- topshiriq.** Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu nima? Bu qizil qalamdir. U nima? U qora doskadir. Qizil qalam stolning ustida. U nima narsa? U devoriy gazeta. Bu kitob Navoiyning devonidir. Bu qaysi ko'cha? Bu Pushkin nomidagi ko'cha. Bu kishi kim? Bu kishi mening otamdir. U ayol mening o'rtog'imning onasidir. Bu qizil gul yaxshi. U qiz bizning universitetning talabasidir. Sharq fakultetining binosi baland. Bizning uyimiz katta va yorug'dir. Sariq papka qayerda? Sariq papka auditoriyada. Sizning opangiz kim? Mening opam vrachdir. Sizning do'stingiz injenerdir. Biz bu fakultetning talabasimiz. Bizning fakultet binosi Navoiy ko'chasida joylashgan. Bu qaysi fakultet? Bu tarix fakulteti.

**3- topshiriq.** Gaplarni izofa birikmasi qoidasiga rioya qilib o'qing va izofa imlosini aniqlang.

خانه ی شما کجاست؟ خانه ی ما در خیابان پوشکین است. اینجا کتابخانه ی دانشکده ی ماست. فرخ دانشجوی دانشکده ی تاریخ است. او دانشجوی خوبی است. نام خانوادگی این دختر عثمانوا است. تخته پاک است. دوست من مهندس است. ما پزشکیم. برادر بزرگ تو چه کاره است؟ برادر بزرگ من کارمند علمی است. شما دانشجوی کدام دانشکده هستید؟ من دانشجوی دانشکده ی طب هستم. مادر شما دانشیار کدام دانشکده است؟ مادر من دانشیار دانشکده ی حقوق است. شهر تاشکند پایتخت ازبکستان است. خانه ی این نویسنده در خیابان مقیمی قرار دارد. پنجره ی این خانه کوچک است. میدان استقلال خیلی قشنگ است.

**4- topshiriq.** Quyidagi izofiy birikmalarni o‘qing va yod oling. So‘ng ularni o‘zbek yozuvida yozing.

‘زبان فارسی‘	‘میدان استقلال‘	‘خیابان نوایی‘	‘دانشگاه خاور شناسی‘
‘جمهوری ازبکستان‘	‘کشور ایران‘	‘فصل بهار‘	‘شاهنامه ی فردوسی‘
‘نویسنده ی مشهور‘	‘صندلی کلاس‘		

**5- topshiriq.** O‘zbek va fors tillari uchun mushtarak bo‘lgan izofiy birikmalarni toping va ularni daftaringizga yozing. Masalan:

‘مناره ی کلان‘ <i>menore-ye kalon</i>	‘دریای عظیم‘ <i>daryo-ye azim</i>
‘شاه زنده‘ <i>shoh-e zende</i>	‘درد بی دوا‘ <i>dard-e bedavo</i>

**6- topshiriq.** Quyidagi gaplarni o‘qing va izofiy birikmalarni aniqlang.

‘خیلی خوب است.‘	– احوال شما چطور است؟
‘سرد است. تابستان گرم است.‘	– هوای تاشکند چطور است؟
‘خیلی کوشا است.‘	– این دانشجو چطور است؟
‘خیلی آسان و شیرین است.‘	– زبان فارسی چطور است؟
‘خیلی سرد است.‘	– هوای مسکو چطور است؟
‘بله، گرم است.‘	– آیا هوای تهران هم تابستان گرم است؟
‘سرد است.‘	– امروز هوا چطور است؟
‘بله، ایرانی است.‘	– آیا این خانم ایرانی است؟
‘خیر، او ایرانی نیست، پاکستانی است.‘	– آیا آن آقا هم ایرانی است؟

**7- topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 6-tamrinni ko‘chirib yozing va chiroyli yozishga o‘rganing.

## Etinchi dars

## درس هفتم

### شهر تاشکند

شهر تاشکند پایتخت جمهوری ازبکستان است. تاشکند یکی از بزرگترین شهرهای آسیای میانه است. جمهوری ازبکستان خیلی ثروتمند است. عمده ترین محصول این جمهوری پنبه است.

در شهر تاشکند فرهنگستان علوم ازبکستان، دانشگاهها، دبیرستانها و سایر آموزشگاه های عالی و متوسطه ی بهیاری موجود است. در این شهر مترو، برج تلویزیون همچنین تعداد زیادی کودکانستان، پارکهای بسیار زیبا، سینما، تاترها و ورزشگاه وجود دارد.

یکی از خیابانهای زیبای تاشکند خیابان نوایی است. موزه ی نوایی، تاتر ملی، اداره نشریات، مرکز تلویزیون، ورزشگاه پخته کار، کاخ هنر و سایر مؤسسات علمی، فنی و فرهنگی در این خیابان قرار دارد.

مناظر دیدنی تاشکند روز به روز زیاد می شود. محله ها، عمارت ها و پارکهای جدید بوجود می آید. این شهر چنان با سرعت تغییر می کند که باعث تعجب مردم دنیاست. هر خارجی که به تاشکند می آید از بزرگی و زیبایی شهر تعجب می کند.

## واژه ها

بزرگترین *bo'zo'rgtarin* – eng katta  
 آسیای میانه *osiyo-ye miyone* – O'rta Osiyo  
 ثروتمند *sarvatmand* – boy  
 عمده ترین *o'mdetarin* – eng asosiy  
 فرهنگستان علوم *farhangeston-e 'olum* – fanlar akademiyasi  
 متوسطه *mo'tavassete* – o'rta  
 آموزشگاه *omuzeshgoh* – o'quv yurti, ta'lim maskani  
 مترو *metro* – metro  
 برج تلویزیون *bo'rij-e televizyo'n* – televizion minora  
 تعداد *te'dod* – miqdor  
 زیاد *ziyod* – ko'p  
 کودکستان *kudakeston* – bolalar bog'chasi  
 سینما *sinemo* – kino  
 تئاتر *te'otr* – teatr  
 موزه *muze* – muzey  
 کاخ هنر *kox-e ho'nar* – san'at saroyi  
 سایر *soyer* – boshqa, bo'lak  
 مؤسسات *mo'assesot* – muassasalar, tashkilotlar  
 فرهنگی *farhangi* – madaniy  
 مناظر *manozer* – (منظره) *manzare* – manzara ning ko'plik shakli )

## manzaralar

انجمن *anjo'man* – uyushma  
 دیدنی *didani* – diqqatga sazovor joylar  
 جدید *jadid* – yangi  
 چنان *cho'non* – shunday, shu darajada  
 با سرعت *bo so'r'at* – tezlik bilan  
 تغییر کردن *tag'yir kardan* – o'zgartirmoq  
 باعث *bois* – sabab  
 تعجب *ta'jo'b* – taajjub, hayron  
 تعجب کردن *ta'jo'b kardan* – ajablanmoq, taajjublanmoq  
 خارجی *xoreji* – chet ellik, xorijiy  
 بزرگی *bo'zo'rgi* – kattalik, ulug'lik  
 زیبایی *ziboyi* – chiroylilik, go'zallik  
 کشاورزی *keshovarzi* – qishloq xo'jaligi

## GRAMMATIK IZOH

### Otlarda son kategoriyasi

Fors tilida otlar ikki son shakliga ega:

- 1) birlik shakli;                      2) ko'plik shakli.

Otlarning ko'plik shakli ularning birlik shakliga **ها-ho** va **ان-on** qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Bulardan **ها-ho** qo'shimchasi odatda jonsiz predmetlarni bildiruvchi otlarga, **ان-on** esa jonli predmetlarni bildiruvchi otlarga qo'shiladi. Masalan:

**ها-ho** qo'shimchasi bilan

کتاب <i>ketob</i> – kitob	کتابها <i>ketobho</i> – kitoblar
روزنامه <i>ruznome</i> – gazeta	روزنامه ها <i>ruznomeho</i> – gazetalar
شهر <i>shahr</i> – shahar	شهرها <i>shahrho</i> – shaharlar
صندلی <i>sandali</i> – stul	صندلی ها <i>sandaliho</i> – stullar

**ان-on** qo'shimchasi bilan

دختر <i>do'xtar</i> – qiz	دختران <i>do'xtaron</i> – qizlar
کارگر <i>korgar</i> – ishchi	کارگران <i>korgaron</i> – ishchilar
گوسفند <i>gusfand</i> – qo'y	گوسفندان <i>gusfandon</i> – qo'ylar
پزشک <i>pezeshk</i> – vrach	پزشکان <i>pezeshkon</i> – vrachlar

**ان-on** ko'plik qo'shimchasi juftlikni anglatuvchi inson a'zosining nomlariga ham qo'shilishi mumkin. Masalan:

چشم <i>cheshm</i> – ko'z	چشمان <i>cheshmon</i> – ko'zlar
لب <i>lab</i> – lab	لبان <i>labon</i> – lablar

Hozirgi zamon fors tilida **ان-on** ko'plik qo'shimchasi o'rnida **ها-ho** ko'plik qo'shimchasini ishlatish hollari ko'p uchraydi. Natijada **ها-ho** ko'plik qo'shimchasi **ان-on** ko'plik qo'shimchasi bilan bir qatorda jonli predmetlarga ham qo'shilib, ulardan ko'plik yasamoqda. Masalan:

دختران <i>do'xtaron</i> → → دخترها <i>do'xtarho</i> – qizlar
کارگران <i>korgaron</i> → → کارگرها <i>korgarho</i> – ishchilar
گوسفندان <i>gusfandon</i> → → گوسفندها <i>gusfandho</i> – qo'ylar

Lekin ba'zi so'zlarda *ان-on* ko'plik qo'shimchasi o'rnida *ها-ho* ko'plik qo'shimchasini ishlatish so'zning ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan:

سر <i>sar</i> – bosh	سران <i>saron</i> – boshliqlar	سرها <i>sarho</i> – boshlar
----------------------	--------------------------------	-----------------------------

## **ان-on ko'plik qo'shimchasining imlosi**

1. Birlik shakldagi so'z *o*, *u*, hamda *i* cho'ziq unlilaridan biri bilan tugagan bo'lsa, son qo'shimchasi *ان-on* oldidan bir *ی-i* ortirilib, *یان-yon* shaklida yoziladi. Masalan:

دانشجو *doneshju* – talaba →→ دانشجویان *doneshjuyon* – talabalar  
 دانا *dono* – donishmand →→ دانایان *donoyon* – donishmandlar  
 ایرانی *ironi* – eronlik →→ ایرانیان *ironiyon* – eronliklar

2. Birlik shakldagi so'z *e-h* qisqa unlisi bilan tugagan bo'lsa, son qo'shimchasi *ان-on* oldidan bir *گ-g* orttirilib, *گان-gon* shaklida qo'shiladi. Yozuvda esa *e-h* harfi tushib qoladi. Masalan:

نویسنده *navisande* – yozuvchi →→ نویسندگان *navisandegon* – yozuvchilar  
 نماینده *namoyande* – namoyanda →→ نمایندگان *namoyandegon* –  
 namoyandalar  
 هنرپیشه *ho'narpishe* – artist →→ هنرپیشگان *ho'narpishegon* – artistlar  
 نویسنده *navisande* – yozuvchi →→ نویسندگان *navisandegon* – yozuvchilar  
 نماینده *namoyande* – namoyanda →→ نمایندگان *namoyandegon* –  
 namoyandalar

هنرپیشه *ho'narpishe* – artist →→ هنرپیشگان *ho'narpishegon* – artistlar

3. *u* tovushi bilan tugagan ba'zi so'zlarga *ان-on* ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, *u* tovishi *o* 'v kabi talaffuz etiladi. Masalan:

ابرو *abru* – qosh →→ ابروان *abro'von* – qoshlar  
 بانو *bonu* – xonim →→ بانوان *bono'von* – xonimlar  
 بازو *bozu* – bilak →→ بازوان *bozo'von* – bilaklar

## **Izofiy zanjir**

Fors tilida aniqlanmish bir necha so'z bilan aniqlanib kelishi mumkin. Masalan:

کتاب دانشیار زبان فارسی *ketob-e doneshyor-e zaban-e forsi* – Fors tili o'qituvchisining kitobi.

نویسنده ی برجسته ی ایران *navisande-ye bar-jaste-ye iron* – Eronning mashhur yozuvchisi.

*emoratho-ye qashang-e toshkand* – Toshkentning chiroyli imoratlari.

Bunday izofiy birikuvni grammatikada *izofiy zanjir* deyiladi.

Izofiy zanjirda aniqlovchi soʻzlar bir-birini aniqlab, izohlab va maʼnosini toʻldirib keladilar hamda oʻzaro izofa koʻrsatkichi orqali bogʻlanadilar. Masalan:

دانشجوی سال اول *doneshju-ye sol-e avval* – Birinchi kurs talabasi  
دانشجوی سال اول دانشگاه *doneshju-ye sol-e avval-e doneshgoh* – Institutning birinchi kurs talabasi

دانشجوی سال اول دانشگاه پزشکی *doneshju-ye sol-e avval-e doneshgoh-e pezheshki* – Tibbiyot institutining birinchi kurs talabasi.

Aniqlanmish bilan aniqlovchi soʻzlar bir-birlari bilan izofa koʻrsatkichi orqali zanjir kabi bogʻlanib keladilar va bir butun izofiy birikmani hosil qiladilar. Izofiy zanjirdagi hamma soʻzlar (oxirgi soʻzdan tashqari) izofa koʻrsatkichini qabul qilib keladilar. Agar birikmada kishilik olmoshlaridan biri boʻlsa, birikma oxiriga qoʻyiladi. Masalan:

کارهای علمی دانشیاران دانشگاه ما *korho-ye 'elmi-ye doneshyoron-e doneshgoh-e mo* – Bizning institut oʻqituvchilarining ilmiy ishlari.

برادر بزرگ دوست شما *barodar-e bo'zo'rg-e dust-e sho'mo* – Sizning akangizni doʻsti.

نار نمایشگاه هنرهای تصویری جمهوری ما *tolor-e namoyeshgoh-e ho'narho-ye tasviri-ye jo'mhuri-ye mo* – Respublikamizning tasviriy sanʼat koʻrgazmalar zali.

### همه *hame* olmoshi haqida

Fors tilida همه *hame* olmoshi gapda izofa bilan va izofasiz oʻqilishi mumkin. Agar همه *hame* olmoshidan keyin kelgan soʻz koʻplik shaklda boʻlsa, همه *hame* izofa bilan, birlik shaklida boʻlsa, izofasiz oʻqiladi. Masalan:

همه ی دانشجویان *hame-ye doneshjuyon* – hamma talabalar  
همه ی کارگران *hame-ye korgaron* – hamma ishchilar  
همه ی ثروتهای کشور *hame-ye sarvatho-ye keshvar* – mamlakatning barcha boyliklari

همه ی ما *hame-ye mo* – Biz hammamiz

همه چیز *hame chiz* – hamma narsa

همه جا *hame jo* – hamma yer



همه *hame* olmoshi ega vazifasida kelgan vaqtda ham همه *hame* olmoshi izofasiz o‘qiladi. Masalan:

همه دانشجویان در کلاس هستند. *Hamma talabalar auditoriyadalar.*

### 1- topshiriq. Quyidagi so‘zlarning ko‘plik shaklini yasang.

پنجره <i>panjare</i> – deraza	نویسنده <i>navisande</i> – yozuvchi
پزشک <i>pezeshk</i> – vrach	نامه <i>nome</i> – xat
جمهوری <i>jo‘mhuri</i> – respublika	خیابان <i>xiyabon</i> – ko‘cha
دانشکده <i>doneshkade</i> – fakultet	آشنا <i>oshno</i> – tanish
شهری <i>shahri</i> – shaharlik	هنرپیشه <i>ho‘narpishe</i> – artist
زبان شناس <i>zabonshenos</i> – tilchi	ثروت <i>sarvat</i> – boyluk

### 2- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Uning opasining ismi Fotima. Toshkent shahrining ko‘chalari va parklari juda chiroyli. O‘zbekiston Respublikasida ko‘p miqdorda kinolar, teatrlar, institutlar, maktablar va bog‘chalar bor. Men filologiya fakultetining birinchi kurs talabasiman. Farruxning fors tili kitobi stolning ustida. O‘zbekiston yoshlari uchun hamma o‘quv yurtlarining eshiklari ochiq. Bu yer “O‘zbekiston ovozi” gazetasi-ning redaksiyasi. Tehron shahri Eron mamlakatining poytaxtidir. U viloyatning asosiy qishloq xo‘jalik mahsuloti paxtadir. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Navoiy ko‘chasida joylashgan-dir. O‘rta Osiyoning chiroyli shaharlaridan biri Toshkent shahridir. (Mening) opamning bog‘ida har xil daraxtlar va gullar bor. Navoiy teatrining binosi juda chiroyli. Bu filologiya fakultetining devoriy gazetasi. Fargona, Samarqand va Buxoro shaharlari O‘zbekiston-ning chiroyli shaharlaridandir.

### 3- topshiriq. Quyidagi birikmalarni fors tiliga tarjima qiling.

O‘zbekiston Milliy universiteti. Sharqshunoslik institutining birinchi kurs talabari. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining binosi. Tojikiston Respublikasining poytaxti. Eron mamlakatining asosiy qishloq xo‘jalik boyligi. Tehronning chiroyli ko‘chalaridan biri. Navoiy teatrining artistlari. O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi. Toshkent shahrining kino va teatrlari. O‘zbekiston Respublikasining asosiy boyluklaridan biri. Bizning institutning sport zali. Sharq fakultetining talaba va o‘qituvchilari. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari.

**4- topshiriq.** Quyidagi izofiy zanjirda keltirilgan izofiy birikmalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rganing va ularni yod oling.

درس زبان فارسی، دانشگاه خاورشناسی دولتی تاشکند، دانشجوی دانشگاه خاورشناسی، جمهوری اسلامی ایران، کتاب درسی زبان فارسی، مردم کشورهای ایران و ازبکستان، پایتخت کشور ایران، احوال دوست من، احوال برادر بزرگ من، تمام ثروتهای کشور ما، انستیتوی خاورشناسی فرهنگستان علوم ازبکستان.

**5- topshiriq.** همه *hame* olmoshi ishtirokida gaplarni tarjima qiling va tarjimangizni o'qing. Bunda همه *hame* olmoshining talaffuziga alohida ahamiyat bering.

Hamma gazeta va jurnallar stolning ustidadir. Bu ko'chadagi hamma imoratlar baland va chiroylidir. Ularning hammasi bizning fakultet talabalari. Biz hammamiz sog'miz. Ularning hammasi ishchidirlar. Xonaning hamma joyi tozadir. Mamlakatni hamma boyliklari xalq uchundir. Hamma talabalar auditoriyada. Talabalarning hammasi tirishqoqdir. Maktabda hamma narsa o'quvchilar uchundir.

## Sakkizinchi dars

## درس هشتم

### گفتگو

- دوست عزیز، سلام علیکم.
- علیکم السلام.
- حالتان چطور است؟
- خدارا شکر، از لطف شما، بد نیست. شما چطورید؟
- متشکرم، من خوبم.
- سلامت هستید؟
- بله، حالم خوب است، متشکرم.
- پدر و مادرتان چطورند؟
- آنها سالم و خوبند.
- پدرتان امروز در خانه است؟
- بله، امروز روز تعطیل است. او در منزل است.
- آیا خانه ی شما از اینجا دور است؟
- نه، خانه ی ما از اینجا دور نیست، نزدیک است.
- شما دانشجوی سال چندم هستید؟
- من دانشجوی سال اول دانشکده ی خاورشناسی هستم.
- خواهراتان به چه کاری مشغولند؟
- خواهر بزرگم دانشجوی سال چهارم دانشگاه پزشکی و خواهر کوچکم دانش آموز دبیرستان است.

– از دیدار شما خیلی خوشحالم.  
– لطف شما زیاد.  
– سلامت باشید. خدا حافظ شما.

## واژه ها

عزیز *aziz – aziz*  
سلام *salom – salom*  
سلام علیکم *salom ‘alayko ‘m – salom alaykum*  
حال *hol – hol, ahvol*  
جمهوری *jo ‘mhuri – respublika*  
متشکرم *mo ‘tashakeram – rahmat*  
از لطف شما *az lo ‘tf sho ‘mo – sizning iltifotingizdan*  
متشکرم *mo ‘tashakkeram – rahmat, tashakkur*  
حالا *holo – hozir, endi*  
روز تعطیل *ruz-e ta ‘til – dam olish kuni*  
منزل *manzel – uy, manzil*  
دور *dur – uzoq, olis*  
نزدیک *nazdik – yaqin*  
چندم *chando ‘m – nechanchi*  
سال *sol – yil, yosh, kurs*  
چندم سال *sol-e chando ‘m – nechanchi kurs*  
دانش آموز *doneshomuz – maktab o‘quvchisi*  
دیدار *didor – ko‘rishish, uchrashish*  
پزشکی *pezeshki – meditsina, tibbiyot*  
دبیرستان *dabireston – o‘rta maktab*  
تا *to – gacha*  
تا دیدار *to didor – ko‘rishguncha*  
خوشحالم *xo ‘shholam – xursandman*  
سلامت باشید *salomat boshid – sog‘ bo‘ling*  
خدا حافظ *xo ‘do hofez – xayr*  
عضو *o ‘zv – a‘zo*  
حزب *hezb – partiya*  
پرچم *parcham – bayroq*

## Grammatik izoh

**Egalik affikslari** ضمائر متصل *zamoyer-e mo ‘ttasel*

Fors tilida egalik, mansublikni ifodalash uchun otlarga quyidagi egalik affikslari qo‘shiladi.

Shaxslar	مفرد	جمع
I shaxs	م - am	مان - emon
II shaxs	ت - at	تان - eton
III shaxs	ش - ash	شان - eshon

Egalik affikslari otlarning oxiriga qo‘shilib, predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

دوست *dust* – (do‘st) so‘zining turlanishi

مفرد	جمع
دوستم <i>dustam</i> – do‘stim	دوستمان <i>dustemon</i> – do‘stimiz
دوستت <i>dustat</i> – do‘sting	دوستتان <i>dusteton</i> – do‘stingiz
دوستش <i>dustash</i> – do‘sti	دوستشان <i>dusteshon</i> – do‘stlari

Egalik affikslari o‘z oldidagi so‘z bilan birga bir so‘z tarzida talaffuz qilinadi. Egalik affikslariga urg‘u tushmaydi. Urg‘u egalik affikslaridan oldingi bo‘g‘inga tushadi. Masalan:

دستم <i>dastam</i> – qo‘lim	حالمان <i>holemon</i> – ahvolimiz
کيفم <i>kifam</i> – portfelim	مادرتان <i>modareton</i> – onangiz

### Egalik affikslarining imlosi

1. So‘z *o-e* qisqa unlisi yoki *o-i* cho‘ziq unlisi bilan tugagan bo‘lsa, egalik affikslari oldidan uchchala shaxsning birlik shaklida *alif*, ko‘plikda esa *hamza* belgisi qo‘yiladi. Hamza belgisi odatda yozuvda tushib qoladi. Talaffuzda birlik shaklda ot bilan egalik affikslari orasida kichik pauza, ko‘plikda esa bir *y* tovushi orttiriladi. Masalan:

خانه *xone* – (uy) so‘zining turlanishi

مفرد	جمع
خانه ام <i>xone-am</i> – uyim	خانه مان <i>xoneyemon</i> – uyimiz
خانه ات <i>xone-at</i> – uying	خانه تان <i>xoneyeton</i> – uyingiz
خانه اش <i>xone-ash</i> – uyi	خانه شان <i>xoneyeshon</i> – uylari

پيشانی *pishone* – (peshona) so‘zining turlanishi

مفرد

پيشانی ام (پيشانيم) <i>pishoni-yam</i> – peshonam
پيشانی ات (پيشانیت) <i>pishoniyat</i> – peshonang
پيشانی اش (پيشانیش) <i>pishoniyash</i> – peshonasi

## جمع

پیشانی مان *pishoniyemon* – peshonamiz  
 پیشانی تان *pishoniyeton* – peshonangiz  
 پیشانی شان *pishoniyeshon* – peshonalari

2. So‘z *-o* yoki *-u* cho‘ziq unlisi bilan tugagan bo‘lsa, egalik affikslari oldidan bir *-y* orttiriladi.

رو *ru* – (yuz) so‘zining turlanishi

### مفرد

رويم *ruyam* – yuzim  
 رويت *ruyat* – yuzing  
 رویش *ruyash* – yuzi

### جمع

رويماں *ruyemon* – yuzimiz  
 رويتان *ruyeton* – yuzingiz  
 رویشان *ruyeshon* – yuzlari

## Egalik affikslari jadvali

Undoshlardan so‘ng		-e qisqa va -i cho‘ziq unlisidan so‘ng		-o yoki -u cho‘ziq unlisidan so‘ng	
مفرد	جمع	مفرد	جمع	مفرد	جمع
م-am	مان-emon	ا-am	مان-yemon	يم-yam	يمان-yemon
ت-at	تان-eton	ا-at	تان-yeton	يت-yat	يتان-yeton
ش-ash	شان-eshon	ا-ash	شان-yeshon	يش-yash	یشان-yeshon

Izofiy birikmali gaplarda egalik affikslari birikmaning oxirgi so‘ziga qo‘shiladi. Masalan:

مداد سیاهت کجاست؟ *medod-e siyohat ko‘jo ast?* – Qora qalaming qayerda?

مدادسیاهم روی میز است. *medod-e siyoham ru-ye miz ast.* – Qora qalamim stolning ustida.

اسم پسر کوچک همسایه تان چیست؟ *esm-e pesar-e kuchek-e hamsoyeyeton chist?* – Qo‘shningizni kichik o‘g‘lining ismi nima?

اسم پسر کوچک همسایه مان صابر است. *esm-e pesar-e kuchek-e hamsoyeyemon sober ast.* – Qo‘shnimizning kichik o‘g‘lining ismi – Sobir.

**1- topshiriq.** Quyidagi so‘zlarga egalik affikslari qo‘shib turlang.

لباس *lebos* – kiyim

همسایه *hamsoye* – qo‘shni

خواهر *xohar* – opa-singil

شانه *shone* – taroq

بینی *bini* – burun

ابرو *abru* – qosh

حال *hol* – ahvol

صدا *sedo* – ovoz, tovush

پا *po* – oyoq

عمو *amu* – amaki

## 2- topshiriq. Quyidagi birikmalarni yod oling.

روز تعطیل *ruz-e ta'til* – Dam olish kuni  
از دیدار شما خیلی خوشوقتم *az didor-e sho 'mo xeyli xo 'shvaqdam* –  
Sizni ko'rishdan juda xursandman  
لطف شما زیاد *lo 'tf sho 'mo ziyod* – Iltifotingiz uchun rahmat.  
؟ اسم خانواده ی شما چیست؟ *esm-e xonevode-ye sho 'mo chist?* – Fami-  
liyangiz nima?  
؟ شما اهل کجایی؟ *sho 'mo ahl-e ko 'jo-yid?* – Siz qayerliksiz?  
جمهوری ازبکستان *jo 'mhuri-ye o 'zbakeston* – O'zbekiston  
Respublikasi.  
جمهوری اسلامی ایران *jo 'mhuri-ye eslomi-ye eron* – Eron Islom  
Respublikasi.

## 3- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Ismingiz nima? Ismim Farrux. Gazetam eski. Shahrimiz go'zal. Portfelim stolning ustida. Qo'shnimiz yozuvchidir. Uyimiz uzoq. Salomatligingiz qanday? Rahmat, salomatligim yaxshi. Do'stingizni ahvoli qanday? Do'stimning ahvoli yaxshi emas, onasi kasal. (Uning) kitoblari qayerda? (Uning) kitoblari stolning ustida. Uying qayerda? Uyim Furqat ko'chasida. (Uning) onasi qayerda? Uning onasi fabrikada. (Uning) qizi fakultetning yaxshi talabalaridan biri. Dam olish kuni biz hammamiz uydamiz. Ukangiz nechanchi kurs talabasi? Ukam talaba emas, u o'rta maktab o'quvchisi. O'rtog'imizning otasi Xalq demokratik partiyasining a'zovidir. Ko'k qalaming qayerda? Ko'k qalamim uyda. Xayr, salomat bo'ling! Sizni ko'rishdan juda xursandman. (Uning) opasi yuridik fakultetining 4-kurs talabasi. Familiyangiz nima? Familiyam – Usmonov. Bizning fors tili o'qituvchimiz eronlikdir. Fakultetimiz devoriy gazetasining nomi "O'zbekiston sharqshunosi". Uyingizning eshik va derazasi ochiq. Otangiz kim? Otam O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zovidir. Respublikamiz qishloq xo'jaligi juda boydir.

## 4- topshiriq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling va izofa imlosiga ahamiyat bering.

پدرم مهندس است. پدرتان مهندس نیست، پزشک است. حالش خوب نیست، او بیمار است. مادر و پدرم هر دو دانشیارند. خواهر بزرگش چه کاره است؟ خواهر بزرگش هم پزشک است. برادر کوچکم دانش آموز است. او دانش آموز دبیرستان است. این مرد همسایه ی ما است. همسایه مان اهل سمرقند است. زبان فارسی خیلی

شیرین است. تو دانشجویی. برادران هم دانشجو است. وطن ما ازبکستان است. وطن فرخ ایران است. من اهل ازبکستان و فرخ اهل ایران است. این پرچم است. این پرچم دولتی جمهوری ازبکستان است. آن پرچم جمهوری اسلامی ایران است. کشور ایران همسایه ی ما است. من دانشجو هستم. شما دانشجوی کدام دانشگاهید؟ من دانشجوی دانشگاه خاورشناسی هستم. خواهر من دانشجوی دانشگاه طب است. احمد و فرخ دانشجویان زبان و ادبیات هستند. کیف شما کجا است؟ کیف روی میز است. دوستان کجاست؟ دوستم در خانه است. خانه تان کجاست؟ خانه مان در خیابان بابر است. دانشیار زبان فارسی ما ایرانی است. شما ایرانی اید؟ خیر، من ایرانی نیستم، من ازبکم. شهر ما تاشکند است. شهر تاشکند خیلی بزرگ و زیباست. نمگان شهر گلهاست.

### 5- topshiriq. Savollarga javob bering.

خانه تان از دانشکده دور است؟ نام خانوادگی تان چیست؟ اسمتان چیست؟ کتاب زبان فارسی تان کجاست؟ آیا آموزگار او ایرانی است؟ مداد سرختان کجاست؟ آیا خواهر بزرگتان پزشک است؟ احمد حالت چطور است؟ تو دانشجوی کدام دانشکده ای؟ تو دانشجوی دانشکده ی خاورشناسی هستی؟ شما با این دختر آشناید؟ شما کیستید؟ کارگر یا مهندسید؟ امروز دوشنبه است؟ مادر و پدرتان کجایند؟

### 6- topshiriq. She'ni yod oling va undagi egalik affikslarini aniqlang.

#### کتاب خوب

دانا و خوش بیانم	من یار مهربانم
با آنکه بی زبانم	گویم سخن فراوان
من یار پند دانم	پندت دهم فراوان
با سود و بی زیانم	من دوستی هنرمند
من یار مهربانم	از من میاش غافل

#### واژه ها

یار *yor* – do'st  
 خوش بیان *xo 'shbayon* – xushsuhbat, chiroyli bayon etuvchi  
 فراوان *farovon* – ko'p, mo'l  
 سخن *so 'xan* – so'z, gap  
 با آنکه *bo onke* – garchi  
 پند *pand* – pand, nasihat  
 سود *sud* – foyda  
 زیان *ziyon* – ziyon, zarar  
 غافل *g 'ofel* – g'ofil, bexabar

### 7- topshiriq. Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 7-tamrinni tarjima qiling va chiroyli qilib ko'chirib yozing.

فصلها و روزها

- یک سال مرکب از چند فصل است؟
- یک سال مرکب از چهار فصل است. نام فصلها از این قرار است: بهار، تابستان، پاییز و زمستان.
- یک فصل چند ماه است؟
- یک فصل سه ماه است.
- یک سال چند ماه است؟
- یک سال دوازده ماه است. ماه های سال از این قرار است: ژانویه، فوریه، مارس، آوریل، مه، ژوئن، ژوئیه، اوت، سپتامبر، اکتبر، نوامبر، دسامبر.
- یک هفته هفت روز است. روزهای هفته چنینند: شنبه، یکشنبه، دوشنبه، سه شنبه، چهارشنبه، پنجشنبه، جمعه (آدینه).
- یک شبانه روز بیست و چهار ساعت است.
- یک ساعت شصت دقیقه و یک دقیقه شصت ثانیه است.
- امروز چه روزی است؟
- امروز چهارشنبه است.
- اول ماه سپتامبر جشن استقلال جمهوری ازبکستان است.
- بیست و یکم ماه مارس جشن نوروز است.
- اول ماه اکتبر روز دانشیاران و دانش آموزان است.
- روز پذیرش قانون اساسی ازبکستان هشتم دسامبر است.

واژه ها

az in qaror ast – شنبه روز	shaboneruz – sutka, bir shundan iborat
mo 'rakkab – iborat, murakkab	do 'shambe – dushanba
fasl – فصل	yekshambe – yakshanba
bahor – بهار	sehambe – seshanba
tobeston – تابستان	chahorshambe – chorshanba
poyiz – پاییز	panjshambe – payshanba
zemeston – زمستان	jo 'm'e – juma
moh – ماه	soat – ساعت
j: onviye – ژانویه	daqiqe – دقیقه
fevriye – فوریه	soniye – sekund, soniya
mors – مارس	emruz – امروز
ovril – آوریل	jashn – جشن
me – مه	esteqlol – استقلال
j: uan – ژوئن	shambe – شنبه
j: uiye – ژوئیه	chando 'm – چنم
ut – اوت	omuzgor – آموزگار



سپتامر *septombr* – sentabr  
 اکتبر *o'kto'br* – oktabr  
 نوامبر *navombr* – noyabr  
 دسامبر *desombr* – dekabr  
 هفته *hafte* – hafta  
 روز *ruz* – kun  
 قانون اساسی *qonun-e asosiy* –  
 Konstitutsiya

نوروز *no'uruz* – navro'z  
 پذیرش *paziresh* – qabul qilish  
 اول *avval* – birinchi, avval  
 روز تولد *ruz-e tavallo'd* – tug'ilgan kun  
 پرچم *parcham* – bayroq  
 سرود *so'rud* – gimn, madhiya  
 استقلال یافتن *esteqlol yoftan* – mustaqil-  
 likka erishmoq

## Miqdor sonlar

## اعداد اصلی *a'dod-e asli*

### Birliklar

1. یک <i>yek</i>	۱	11. یازده <i>yozdah</i>	۱۱
2. دو <i>do'</i>	۲	12. دوازده <i>davozdah</i>	۱۲
3. سه <i>se</i>	۳	13. سیزده <i>sizdah</i>	۱۳
4. چهار <i>chahor</i>	۴	14. چهارده <i>chahordah</i>	۱۴
5. پنج <i>panj</i>	۵	15. پانزده <i>ponzdah</i>	۱۵
6. شش <i>shesh</i>	۶	16. شانزده <i>shonzdah</i>	۱۶
7. هفت <i>haft</i>	۷	17. هفده <i>hefdah</i>	۱۷
8. هشت <i>hasht</i>	۸	18. هجده <i>hejdah</i>	۱۸
9. نه <i>no'h</i>	۹	19. نوزده <i>muzdah</i>	۱۹
10. ده <i>dah</i>	۱۰		

### O'nliklar

10. ده <i>dah</i>	۱۰	60. شصت <i>shast</i>	۶۰
20. بیست <i>bist</i>	۲۰	70. هفتاد <i>haftod</i>	۷۰
30. سی <i>si</i>	۳۰	80. هشتاد <i>hashtod</i>	۸۰
40. چهل <i>chehel</i>	۴۰	90. نود <i>navad</i>	۹۰
50. پنجاه <i>panjoh</i>	۵۰		

### Yuzliklar

100. صد <i>sad</i>	۱۰۰	600. ششصد <i>sheshsad</i>	۶۰۰
200. دویست <i>devist</i>	۲۰۰	700. هفتصد <i>haftsad</i>	۷۰۰
300. سیصد <i>sisad</i>	۳۰۰	800. هشتصد <i>hashtsad</i>	۸۰۰
400. چهارصد <i>chahorsad</i>	۴۰۰	900. نهصد <i>no'hsad</i>	۹۰۰
500. پانصد <i>ponsad</i>	۵۰۰		

### Mingliklar

1000. هزار <i>hezor</i>	۱۰۰۰	3000. سه هزار <i>se hezor</i>	۳۰۰۰
2000. دو هزار <i>do'hezor</i>	۲۰۰۰	4000. چهار هزار <i>chahor hezor</i>	۴۰۰۰

Yigirmadan yuqori bo‘lgan sonlar (o‘nliklar, yuzliklar va mingliklar) bir-birlari bilan و – o‘ bog‘lovchisi orqali bog‘lanib, murakkab son hosil qiladilar. و – o‘ bog‘lovchisi talaffuzda o‘z oldidagi songa qo‘shilib, – o‘ tarzida talaffuz qilinadi, yozuvda esa ajratilgan holda yoziladi. Fors tilida ham murakkab sonlar tartibi va ularning yozilishi o‘zbek tilidagidek. 1425628 – ya’ni oldin million, so‘ng ming, yuz va o‘nlik, nihoyat birliklar keladi. Masalan:

بیست و پنج *bist-o‘ panj* – 25

سیصد و چهل و هفت *sisad-o‘ chehel-o‘ haft* – 347

شش هزار و پانصد و سی و یک *shesh hezor-o‘ ponsad-o‘ si-o‘ yek* – 6531

Murakkab son tarkibidagi har bir son mustaqil urg‘uga egadirlar. Masalan:

هفتصد و نود و چهار هزار و هفتصد و نود و چهار *hezor– o‘ haftsad-o‘ navad-o‘ chahor – 1794*

### Tartib sonlar اعداد ترتیبی *a‘dod-e tartibi*

Fors tilida tartib sonlar quyidagicha yasaladi:

1. Sanoq sonlar oxiriga م – o‘m qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan:

چهار *chahor* – to‘rt

هفت *haft* – yetti

ده *dah* – o‘n

بیست و پنج *bist-o‘ panj* – yigirma besh

چهارم *chahoro‘m* – to‘rtinchi

هفتم *hafto‘m* – yettinchi

دهم *daho‘m* – o‘ninchi

بیست و پنجم *bist-o‘ panjo‘m* – yigirma beshinchi

دو *do‘* – ikki, سه *se* – uch, سی *si* – o‘ttiz sonlaridan tartib son yasashda quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

دو *do‘* – ikki

سه *se* – uch

سی *si* – o‘ttiz

دوم *do‘vvo‘m* – ikkinchi

سوم *sevvo‘m* – uchinchi

سیزدهم *siyo‘m* – o‘ttizinchi

Tartib sonda urg‘u doim م – o‘m qo‘shimchasiga tushadi.

نهم *no‘ho‘m* – to‘qqizinchi

هجدهم *hejdaho‘m* – o‘n sakkizinchi

چهل و ششم *chehel – o‘ shesho‘m* – qirq oltinchi.

2. Son oxiriga مین ' – o'min qo'shimchasini qo'shish orqali ham yasaladi.

مین ' – o'min qo'shimchasi م – o'm ga nisbatan kam ishlatilib, asosan adabiy tilda uchraydi.

پنج <i>panj</i> – besh	پنجمین <i>panjo'min</i> – beshinchi
هفت <i>haft</i> – yetti	هفتمین <i>hafto'min</i> – yettinchi
چهل <i>chehel</i> – qirq	چهلیمین <i>chehelo'min</i> – qirqinchi

3. Fors tilida یکم *yeko'm* – birinchi tartib soni bilan bir qatorda shu sonning arabcha ekvivalenti اول *avval* so'zi ko'p ishlatiladi. Masalan:

اول درس *dars-e avval* – birinchi dars

Shu bilan birga, fors tilida boshqa arab sonlari ham uchraydi.

ثانی *soni* – ikkinchi

ثالث *soles* – uchinchi va hokazo.

Murakkab sonlarda م – o'm va مین ' – o'min qo'shimchalari sonning oxirgi qismiga qo'shiladi.

یک هزار و نهصد و شصت و سوم *yek hezor-o' no'hsad-o' shast-o' sevvo'm* – bir ming to'qqiz yuz oltmish uchunchi

چهل و پنجمین *chehel-o' panjo'min* – qirq beshinchi

## م – o'm va مین ' – o'min qo'shimchalari yordami bilan yasalgan tartib sonlarning sintaktik xususiyatlari

1. م – o'm qo'shimchasi orqali yasalgan tartib sonlar gapda aniqlovchi vazifasini bajarib, o'zidan oldin kelgan so'z bilan izofa orqali bog'lanadi. Masalan:

درس هشتم *dars-e hashto'm* – sakkizinchi dars

روز سوم *ruz-e sevvo'm* – uchinchi kun

طبقه ی پنجم *tabaqe-ye panjo'm* – beshinchi qavat

سال چهارم *sol-e chahoro'm* – to'rtinchi kurs ( yil ).

2. مین ' – o'min qo'shimchasi bilan yasalgan tartib sonlar ham gapda aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. Lekin bu tartib sonlar o'zi aniqlagan so'zdan oldin kelib, u bilan izofa orqali emas, balki oddiy bitishuv orqali bog'lanadi. Masalan:

پانزدهمین سال استقلال جمهوری ازبکستان *ponzdaho 'min sol-e esteqlol-e jo 'mho 'ri-ye o 'zbekiston* – O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining o'n besh yilligi.

Taqqoslang:

شماره ی پانزدهم *sho 'more-ye ponzdaho 'm*

پانزدهمین شماره *ponzdaho 'min sho 'more*

Ikki holatda ham bu jumlar o'n beshinchi nomer deb tarjima qilinadi.

– *o 'min* qo'shimchasi bilan yasalgan tartib son dan so'ng vaqtni bildiruvchi *sol* (yil) so'zi kelgan paytda, ikkala so'z birikib, biror voqea yoki hodisaning bo'lib o'tganiga ma'lum vaqt to'lganligini bildiruvchi ma'no ham anglashiladi. Masalan:

زنده باد بیستمین سال انجمن هنرپیشگان ازبکستان *zende bod bisto 'min sol-e anjo 'man-e ho 'narpishegon-e o 'zbekiston* – Yashasin O'zbekiston san'atkorlari anjumanining yigirma yilligi.

## Fors tilida yil, oy va kunlarning ifoda etilishi

1. Yilni ifodalash uchun *sol* so'zi yil miqdorini ko'rsatuvchi son oldiga qo'yilib, o'zaro izofa orqali bog'lanadi. Masalan:

سال هزار و نهصد و شصت و هفت *sol- e hezor-o' no 'hsad-o' shast-o' haft* – 1967- yil.

O'zbek tilida yil miqdorini bildirgan so'z tartib son shaklida keladi, lekin fors tilida esa yil miqdorini bildirgan so'z tartib son qo'shimchasini qabul qilmay, doimo sanoq son shaklida bo'ladi. Yilni bildirgan so'z birikmalariga *milodi* (yevropa kalendari hisobida) yoki *hijri* (musulmon kalendari hisobida) so'zlari qo'shilib kelishi mumkin. Bu holda *milodi* va *hijri* so'zlari yilni bildirgan birikmaga izofa orqali bog'lanib keladi. Masalan:

سال هزار و هفت صد و بیست و یک میلادی *sol-e hezor-o' haftsad-o' bist-o' yek-i milodi* – 1721- milodiy yili

سال هزار و سیصد و نه هجری *sol-e hezor-o' sisad-o' no 'h-e hejri* – 1309-hijriy yili

Eron Islom Respublikasida barcha diniy marosimlar va bayramlar (hayitlar, ro'za tutish va hokazolar) *hijri* kalendar hisobida olib boriladi. *hijri* yili hisobida yil oylari 29 kundan iborat bo'lgan-

ligi uchun diniy marosimlar har yili milodiy yilining turli vaqtiga to'g'ri keladi.

## 2. Oy kunlari (chislo) quyidagicha ifodalanadi:

امروز چندم ماه است؟ *emruz chando 'm-e moh ast?* – Bugun oying nechanchi kuni? yoki Bugun nechanchi chislo?

امروز بیست و پنجم ماه سپتامبر است. *emruz bist-o' panjo 'm-e moh-e septombr ast* – Bugun yigirma beshinchi sentabr.

## 3. Hafta kunlari quyidagicha ifodalanadi:

امروز چه روزی است؟ *emruz che ruz-i ast?* – Bugun haftaning qaysi kuni?

امروز چهارشنبه است. *emruz chahorshambe ast* – Bugun chorshanba.

## 1- topshiriq. Quyidagi raqamlarni so'z bilan yozing.

۳، ۵، ۴، ۹، ۸، ۲۰، ۱۷، ۲۳، ۴۸، ۱۹۵۲، ۴۰۰۸، ۶۱۳، ۷۹۸۲، ۱۰۱، ۹۶، ۴۰، ۲۰۳، ۵۸۷.

## 2- topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli sonlarni qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.

...روز پذیرش قانون اساسی ازبکستان است.	...جشن نوروز است.
...پذیرش پرچم دولتی ازبکستان است.	روز تولد فرخ... است.
...پذیرش سرود دولتی ازبکستان است.	...روز تولد من است.
...روز دانشیاران و آموزگاران است.	روز...دانشگاه تعطیل است.
...روز اول سال نو مردم ایران است.	...روز آخر هفته است.
...روز اول سال نو مردم ازبکستان است.	...روز اول هفته است.

## 3- topshiriq. Quyidagi iboralarni yod oling.

قانون اساسی ازبکستان *qonun-e asosiy-e o'zbekiston* – O'zbekiston Konstitutsiyasi

پرچم دولتی ازبکستان *parcham-e do'ulati-ye o'zbekiston* – O'zbekiston davlat bayrog'i

سرود دولتی ازبکستان *so'rud-e do'ulati-ye o'zbekiston* – O'zbekiston davlat madhiyasi

## 4- topshiriq. Savollarni o'qing va ularga javob qaytaring.

– اول سپتامبر چه روزی است؟  
– امروز چندم ماه است؟

- آیا امروز چهارشنبه است؟
- امروز هوا چگونه است؟
- یک سال مرکب از چند فصل و یک فصل مرکب از چند ماه است؟
- نام ماههای سال چیست؟
- در تاپستان هوا چگونه است؟
- یک ساعت چند دقیقه است؟
- نام روزهای هفته چیست؟
- روز بین المللی زنان چندم ماه است؟
- در جمهوری ازبکستان چه روزی روز تعطیل است؟
- در ایران چه روزی روز تعطیل است؟
- جشن نوروز چه روزی است؟
- چه روزی تولد خواهرتان است؟
- چه روزی روز تولد شما است؟
- چه روزی پذیرش قانون اساسی ازبکستان است؟

## 5- topshiriq. Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bugun oyning qaysi kuni? (Bugun nechanchi chislo?) Bugun dekabr oyining 12- kuni (Bugun 12- dekabr). Bugun haftaning qaysi kuni? Bugun yakshanba. Yakshanba kuni O'zbekiston xalqining dam olish kunidir. Eron mamlakatida dam olish kuni jumadir. Bugun fevral oyining 13- kunidir (Bugun 13- fevraldir). Sizning tug'ilgan kuningiz qaysi kun? Bugun Navro'z bayramidir. Uning akasini tug'ilgan kuni 8- sentabrdir.

## O'ninchi dars

## درس دهم

### حکایت

از افلاطون پرسیدند که طی چند سال سفر دریا کردی در دریا چه عجایبی دیدی؟  
گفت: عجب همین بود که از دریا سالم به ساحل رسیدم.

### واژه ها

حکایت *hekoyat* – hikoya

افلاطون *aflatun* – Aflatun

پرسیدن *po'rsidan* – so'ramoq

طی *tey-ye* – mobaynida, davomida

چند *chand* – bir necha

دن سفر *safar kardan* – safar qilmoq, sayohat qilmoq

دریا *daryo* – dengiz  
 عجایب *'ajoyeb* – ajoyib  
 دیدن *didan* – ko'rmoq  
 گفتن *go'ftan* – demoq, aytmoq  
 عجب *'ajab* – ajablanarli  
 همین *hamin* – shu, mana shu  
 بودن *budan* – bo'lmoq, emoaq  
 ساحل *sohel* – sohil, qirg'oq  
 رسیدن *rasidan* – yetmoq, yetib kelmoq  
 بعد *ba'd* – so'ng, keyin  
 صبح *so'bh* – ertalab  
 غروب *g'o'rub* – kech, quyosh botishi  
 صبحانه *so'bhane* – nonushta, ertalabki ovqat

## GRAMMATIK IZOH

### Fe'l فعل *fe'l*

#### Fe'lning noaniq shakli

Fe'lning son, shaxs va zamon ma'nosini bildirmaydigan shakli fe'lning noaniq shakli deyiladi.

Fors tilida fe'llarning noaniq shakli har doim ن – *an* bilan tugagan bo'ladi. Masalan:

رفتن <i>raftan</i> – bormoq	دادن <i>dodan</i> – bermoq
پرسیدن <i>po'rsidan</i> – so'ramoq	آوردن <i>ovardan</i> – keltirmoq
گفتن <i>go'ftan</i> – aytmoq, demoq	خوردن <i>xo'rdan</i> – yemoq, ichmoq

#### Fe'llarning tarkibi

Fors tilidagi fe'llar o'zlarining tuzilishi jihatidan sodda, prefiksli va qo'shma bo'ladi.

1. Bir so'zdan tashkil topgan fe'llar soda fe'llar deyiladi. Masalan:

دیدن <i>didan</i> – ko'rmoq	آمدن <i>omadan</i> – kelmoq
گرفتن <i>gereftan</i> – olmoq	کردن <i>kardan</i> – qilmoq

2. Sodda fe'l va affiks (old qo'shimcha) yordami bilan yasalgan fe'llar prefiksli fe'llar deyiladi. Masalan:

برگشتن *bar-gashtan* – qaytmoq  
 در آوردن *dar-ovardan* – chiqarmoq

فرا گرفتن *faro-gereftan* – o‘rganmoq  
فرو رفتن *fo‘ru-raftan* – cho‘kmoq

3. Ot (yoki sifat hamda boshqa so‘z birikmalari) va ko‘makchi fe‘l yordami bilan yasalgan fe‘llar qo‘shma fe‘llar deyiladi.

Qo‘shma fe‘l tarkibiga kirgan sodda fe‘llar asosan o‘zlarining leksik ma‘nolarini yo‘qotib, ko‘makchi fe‘l vazifasini bajaradilar. Masalan:

کار <i>kor</i> – ish	کار کردن <i>kor kardan</i> – ishlamoq
استراحت <i>esterohat</i> – dam	استراحت کردن <i>esterohat kardan</i> – dam olmoq
قسم <i>qasam</i> – qasam	قسم خوردن <i>qasam xo‘rdan</i> – qasam ichmoq
جشن <i>jashn</i> – bayram	جشن گرفتن <i>jashn gereftan</i> – bayram qilmoq
تولد <i>tavallo‘d</i> – tug‘ilish	تولد یافتن <i>tavallo‘d yoftan</i> – tug‘ilmoq

Fors tilida ot va ko‘makchi fe‘l birikuvi orqali fe‘l yasash juda mahsuldor bo‘lib, fors tili fe‘llarining asosiy miqdorini tashkil qiladi.

### Fe‘l negizlari ریشه ی افعال *rishe-ye af‘ol*

Fors tilida fe‘lning ikkita negizi bor:

- 1) o‘tgan zamon fe‘l negizi,
- 2) hozirgi zamon fe‘l negizi.

### O‘tgan zamon fe‘l negizining yasalishi

O‘tgan zamon fe‘l negizi fe‘lning noaniq shaklidan ن – *an* qismini olib tashlash orqali yasaladi. Masalan:

رفتن <i>raftan</i>	رفت <i>raft</i>
دیدن <i>didan</i>	دید <i>did</i>
آمدن <i>omadan</i>	آمد <i>omad</i>
بودن <i>budan</i>	بود <i>bud</i>
برگشتن <i>bar-gashtan</i>	برگشت <i>bar-gasht</i>
فرا گرفتن <i>faro-gereftan</i>	فرا گرفت <i>faro-gereft</i>
کار کردن <i>kor kardan</i>	کار کرد <i>kor kard</i>
جشن گرفتن <i>jashn gereftan</i>	جشن گرفت <i>jashn gereft</i>

### O‘tgan zamon fe‘li ماضی مطلق *mozi-ye mo‘tlaq*

O‘tgan zamon aniq fe‘li ish-harakatni o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi.



## O'tgan zamon aniq fe'lining yasalihi va tuslanishi

O'tgan zamon aniq fe'li o'tgan zamon fe'l negiziga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.

Shaxslar	مفرد	جمع
I shaxs	م - am	یم - im
II shaxs	ی - i	ید - id
III shaxs	--	ند - and

O'tgan zamon fe'lining III shaxs birlik shakli o'tgan zamon fe'l negizi shakliga to'g'ri keladi.

Fe'ning tuslanishida urg'u shaxs-son qo'shimchalariga tushadi.

دیدن *didan* – (ko'rmoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

من دیدم *man didam* – Men ko'rdim.

تو دیدی *to' didi* – Sen ko'rding.

او دید *u did* – U ko'rди.

جمع

ما دیدیم *mo didim* – Biz ko'rdik.

شما دیدید *sho'mo didid* – Siz ko'rdingiz.

آنها دیدند *onho didand* – Ular ko'rdilar.

برگشتن *bar-gashtan* – (qaytmoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

من برگشتم *man bar-gashtam* – Men qaytdim.

تو برگشتی *to' bar-gashti* – Sen qaytding.

او برگشت *u bar-gasht* – U qaytdi.

جمع

ما برگشتیم *mo bar-gashtim* – Biz qaytdik.

شما برگشتید *sho'mo bar-gashtid* – Siz qaytdingiz.

آنها برگشتند *onho bar-gashtand* – Ular qaytdilar.

کار کردن *kor kardan* – (ishlamoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

من کار کردم *man kor kardam* – Men ishladim.

تو کار کردی *to' kor kardi* – Sen ishlading.

او کار کرد *u kor kard* – U ishladi.

## جمع

ما کار کردیم *mo kor kardim* – Biz ishladik.

شما کار کردید *sho 'mo kor kardid* – Siz ishladingiz.

آنها کار کردند *onho kor kardand* – Ular ishladilar.

## O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakli

O'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shakli fe'l oldiga نه *na* – inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi. Bunda asosiy kuchli urg'u inkor yuklamasiga tushadi, ikkinchi kuchsiz urg'u esa shaxs-son qo'shimchalarida bo'ladi. Masalan:

رفت *raftan* – (bormoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

## مفرد

من نرفتم *man naraftam* – Men bormadim.

تو نرفتی *to 'narafti* – Sen bormading.

او نرفت *u naraft* – U bormadi.

## جمع

ما نرفتیم *mo naraftim* – Biz bormadik.

شما نرفتید *sho 'mo naraftid* – Siz bormadingiz.

آنها نرفتند *onho naraftand* – Ular bormadilar.

Prefiksli va qo'shma fe'llarda نه *na* – inkor yuklamasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi.

فرا گرفتن *faro-gereftan* – (o'rganmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

## مفرد

من فرا نگرفتم *man faro nagereftam* – Men o'rganmadim.

تو فرا نگرفتی *to 'faro nagerefti* – Sen o'rganmading.

او فرا نگرفت *u faro nagereft* – U o'rganmadi.

## جمع

ما فرا نگرفتیم *mo faro nagereftim* – Biz o'rganmadik.

شما فرا نگرفتید *sho 'mo faro nagereftid* – Siz o'rganmadingiz.

آنها فرا نگرفتند *onho faro nagereftand* – Ular o'rganmadilar.

استراحت کردن *esterohat kardan* – (dam olmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

من استراحت نکردم *man esterohat nakardam* – Men dam olmadim.  
تو استراحت نکردی *to ' esterohat nakardi* – Sen dam olmadingiz.  
او استراحت نکرد *u esterohat nakard* – U dam olmadi.

جمع

ما استراحت نکردیم *mo esterohat nakardim* – Biz dam olmadik.  
شما استراحت نکردید *sho 'mo esterohat nakardid* – Siz dam olmadingiz.  
آنها استراحت نکردند *onho esterohat nakardand* – Ular dam olmadilar.

### Inkor yuklamosining imlosi

1. *o* cho'ziq unlisi bilan boshlangan fe'llarning bo'lishsiz shaklida *نه* – *na* inkor yuklamosidan so'ng bir *ی-y* orttirilib yoziladi. Yozuvda alif ustidagi madda belgisi tushib qoladi.

آمدن *omadan* – (kelmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

من نیامدم *man nayomadam* – Men kelmadim.  
تو نیامدی *to ' nayomadi* – Sen kelmading.  
او نیامد *u nayomad* – U kelmadi.

جمع

ما نیامدیم *mo nayomadim* – Biz kelmadik.  
شما نیامدید *sho 'mo nayomadid* – Siz kelmadingiz.  
آنها نیامدند *onho nayomadand* – Ular kelmadilar.

2. *a* yoki *o* ' qisqa unlisi bilan boshlangan fe'llarning bo'lishsiz shaklida *نه* – *na* inkor yuklamosidan so'ng, *ی-y* orttirilib, fe'l boshidagi alif tushib qoladi.

افتادن *o'ftodan* – (yiqilmoq) fe'lining bo'lishsiz shaklda tuslanishi

مفرد

من نیفتادم *man nayo'ftodam* – Men yiqilmadim.  
تو نیفتادی *to ' nayo'ftodi* – Sen yiqilmading.  
او نیفتاد *u nayo'ftod* – U yiqilmadi.

ما نيفتاديم *mo nayo 'ftodim* – Biz yiqilmadik.

شما نيفتاديد *sho 'mo nayo 'ftodid* – Siz yiqilmadingiz.

آنها نيفتادند *onho nayo 'ftodand* – Ular yiqilmadilar.

## Fors tilida kelishiklarning ifodalanishi

Fors tilida kelishik kategoriyasi yo'qdir. Otlarning o'zaro sintaktik munosabatlari izofa, ko'makchi va predloglar (old ko'makchilari) orqali ifoda etiladi.

### Predloglar حروف اضافه *ho 'ruf-e ezofe*

Fors tilida predloglar o'zlarining tarkibiga ko'ra 3 qismga bo'linadilar:

- 1) asosiy predloglar,
- 2) izofali predloglar,
- 3) murakkab predloglar.

Asosiy predloglar fors tilida juda mahsuldor bo'lib, kelishik munosabatlarini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadilar. Asosiy predloglar quyidagilar:

1) به *be* predlogi otlarning oldida qo'yilib, harakatning yo'nalish o'rni, harakat yo'nalgan shaxs kabi ma'nolarni bildiradi va o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigi anglatgan asosiy ma'nolarga to'g'ri keladi. به *be* predlogi ot bilan ba'zan qo'shilib va ko'pincha ayrim holda yoziladi. Masalan:

من به دانشگاه آمدم. *man be doneshgoh omadam* – Men universitetga keldim.

احمد به کتابخانه رفت. *Ahmad be ketobxone raft* – Ahmad kutubxonaga ketdi.

**Eslatma.** به *be* predlogi آن – *on* این – *in* ko'rsatish olmoshlari hamda او *u* kishilik olmoshiga qo'shilganda, ikki xil shaklda yozilishi mumkin:

آن به <i>be on</i>	yoki	بد آن <i>bedon</i>
این به <i>be in</i>	yoki	بدین <i>bedin</i>
او به <i>be u</i>	yoki	بدو <i>bedu</i>

2) *dar* predlogi otlarning oldiga qo'yilib, ish va harakat sodir bo'lgan o'rinni, vaqtni bildiradi va o'zbek tilida o'rin-payt kelishigi anglatgan asosiy ma'nolarga mos keladi. Masalan:

*dar xone ki hast?* – Uyda kim bor?

*diruz man tamom-e ruz dar ketobxone budam* – Kecha men butun kun kutubxonada bo'ldim.

*aflotun tey-ye chand sol dar daryo safar kard* – Aflotun bir necha yil mobaynida dengizda safar qildi.

*dar on vaqt mo javon budim* – U vaqtda biz yosh edik.

3) *az* predlogi otlarning oldida kelib, turli ma'nolarni ifoda etishi mumkin. Lekin asosiy ma'nosi o'zbek tilidagi chiqish keli-shigi anglatgan ma'nolarga mos keladi. *az* predlogi orqali angla-shiladigan ma'no ish-harakatning boshlanish o'rni, payti va umuman chiqish joyini bildiradi. Misollar:

*man az dustam nome gereftam* – Men do's-timdan xat oldim.

*sho'mo az ko'jo omadid? man az shahr-e bo'xoro omadam* – Siz qayerdan keldingiz? Men Bo'xoro shahridan keldim.

*az aflotun po'rsidand ke...* – Aflotundan so'ra-dilarki...

*xone-yemon az doneshgoh dur nist* – Uyi-miz institutdan uzoq emas.

*az soat-e panj mo'ntazer-e sho'mo hastam* – Soat beshdan buyon sizni kutyapman.

4) *bo* predlogi otlarning oldida kelib, birgalik, hamkorlik, qurol, vosita ma'nolarini anglatadi va asosan o'zbek tilidagi *bilan* ko'mak-chisi orqali anglashiladigan ma'nolarni bildiradi. Masalan:

*man bo pedaram dar osoyeshgoh esterohat kardam* – Men otam bilan sanatoriyada dam oldim.

*u bo dast eshore kard* – U qo'li bilan ishora qildi.

*mo bo in mard oshno hastim* – Biz bu kishi bilan tanishmiz.

*dustam bo o'to'bus be shahr-e samarqand raft* – Do'stim avtobus bilan Samarqand shahriga ketdi.

*barodar-e kuchekam numero bo medod navesht.* – Ukam xatni qalam bilan yozdi.

5) *to* predlogi otlarning oldida kelib, harakatning yoʻnalishi-dagi eng soʻnggi oʻrinni hamda vaqt bildiruvchi soʻzlar bilan kelganda, vaqt chegarasini anglatadi. Oʻzbek tilidagi *qadar* koʻmakchisi yoki *-gacha* qoʻshimchasi anglatgan maʼnolarni bildiradi.

*man to varzeshgoh piyode raftam* – Man stadiyongacha piyoda bordim.

*jalase to soat-e panj edome dosht* – Majlis beshga qadar davom etdi.

6) *baroye* predlogi otlarning oldiga qoʻyilib, ish-harakatning maqsad va sababini bildiradi. Oʻzbek tilida uchun koʻmakchisining asosiy maʼnolari va baʼzan *-ga* affiksi maʼnosiga mos keladigan maʼnoni anglatadi. Masalan:

*in cherogʻ baroye man nist, baroye toʻst* – Bu chirogʻ men uchun emas, sen uchundir.

*baroye didan-e dustam be manzesh raftam* – Doʻstimni koʻrish uchun uyiga bordim.

*pedaram az iron baroye man chand jild ketob-e forsi ovard* – Otam menga Erondan bir nechta forscha kitob olib keldi.

7) *bar* predlogi asosan klassik manbalarda, poetik asarlarda va qisman hozirgi fors tilida uchraydi. Bu predlog ish-harakatning biror predmet ustida sodir boʻlishini yoki u tomon yoʻnalishini bildiradi.

*nobino-yi sabu bar dush va charogʻ dar dast dar bozor roh miraft* – Bir koʻr (odam) elkasida koʻza va qoʻlida chirogʻ (bilan) bozorda ketardi.

*bo chub bar sarash zad* – Kaltak bilan boshiga urdi.

*doʻrud bar shenavondegon-e geromi-ye rodyoʻ-ye toshkand* – Hurmatli Toshkent radio tinglovchilariga salom.

## را *ro* koʻmakchisi

را *ro* koʻmakchisi otlarning oxirida kelib, ularga qoʻshilgan va ayrim holda yoziladi. Masalan:

این کتاب را خواندم. *in ketobro xondam* – Bu kitobni o‘qidim.  
ساعت را کوک کردم. *soatro kuk kardam* – Soatni buradim.

Hozirgi fors tilida *ro* ko‘makchisining asosiy ma‘nosi vositasiz to‘ldiruvchini ifodalashdir. *ro* ko‘makchisi orqali ifodalangan bu ma‘no o‘zbek tilidagi tushum kelishigi orqali ifodalanadigan ma‘noga to‘g‘ri keladi. Masalan:

دیروز من برادر شمارا دیدم. *diruz man barodar-e sho‘moro didam* – Kecha men akangizni ko‘rdim.

دانشجو تخته را پاک کرد. *doneshju taxtero pok kard* – Talaba doskani artdi.

لوغت را از کتابخانه آوردم. *lo‘g‘atro az ketobxone ovardam* – Lug‘atni kutubxonadan keltirdim.

شما کتاب دستور زبان فارسی را خریدید؟ *sho‘mo ketob-e dastur-e zabor-e forsiro xaridid?* – Siz fors tili grammatikasi kitobini sotib oldingizmi?

*ro* ko‘makchisi I va II shaxs birlikdagi kishilik olmoshlari bilan birga kelganda, ko‘pincha ularning ikkinchi harfi tushib qoladi. Qolgan qismi esa *ro* ko‘makchisiga qo‘shilgan holda yoziladi. Masalan:

ما = من + را *maro*

ترا = تو + را *to‘ro*

Bu hol o‘zbek tilidagi tushum kelishigi qabul qilgan olmoshlarga o‘xshaydi:

Men + ni = meni

Sen + ni = seni

### **Predloglar va *ro* ko‘makchisining izofiy birikmada ishlatilishi**

Izofiy birikmada yoki izofiy zanjirli gaplarda predlog doimo izofiy birikmaning boshida va *ro* ko‘makchisi esa izofiy birikmaning oxirida keladi. Masalan:

نویسندگان تاجیکستان به پایتخت جمهوری ازبکستان تشریف آوردند. *navisandegon-e tojikeston be poytaxt-e jo‘mhuri-ye o‘zbekeston tashrif ovardand* – Tojikiston yozuvchilari O‘zbekiston respublikasining poytaxtiga tashrif buyurishdi.

*mo bo doneshjuyon-e sho'be-ye arabi-ye doneshgoh-e xovarshenosi be teotr raf-tim* – Biz Sharqshunoslik institutining arab bo'limi talabalari bilan teatrga bordik.

*in ketobro az ketob-xone-ye markazi-ye farhangeston-e 'olum gereftam* – Bu kitobni Fan-lar akademiyasining asosiy kutubxonasi-dan oldim.

*mo zaban-e forsiro hanuz xub namidonim* – Biz hanuzgacha fors tilini yaxshi bilmaymiz.

*man doston-e navisande-ye mashur-e eronro tarjo'me kardam* – Men Eronning mashhur yozuv-chisining hikoyasini tarjima qildim.

**1- topshiriq.** Quyidagi fe'llarning ma'nosi va yozilishini esda saq-lang. Ularni yod oling.

پرسیدن *po'rsidan* – so'ramoq

رفتن *raftan* – bormoq, ketmoq

گفتن *go'ftan* – aytmoq, demoq

دادن *dodan* – bermoq

خوردن *xo'rdan* – yemoq, ichmoq

آمدن *omadan* – kelmoq

آوردن *ovardan* – keltirmoq

خریدن *xaridan* – sotib olmoq

گرفتن *gereftan* – olmoq

دیدن *didan* – ko'rmoq

**2- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni o'tgan zamon aniq fe'lining bo'-lishli shaklida tuslang.

نوشتن *naveshtan* – yozmoq, آوردن *ovardan* – keltirmoq, بر داشتن *bar-doshtan* – (ko'tarib) olmoq, استراحت کردن *esterohat kardan* – dam olmoq, حاضر کردن *hozer kardan* – tayyorlamoq.

**3- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni o'tgan zamon aniq fe'lining bo'-lishsiz shaklida tuslang.

گفتن *go'ftan* – aytmoq, demoq, کردن *kardan* – qilmoq, انداختن *andoxtan* – irg'itmoq.

**4- topshiriq.** Yuqoridagi hikoyaning mazmunini so'zlab bering.

**5- topshiriq.** Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Men Navoiyning “Xamsa” sini sotib oldim. Ahmad bu qalamni menga berdi. Men do'stim bilan teatrga bordim. Bizning uyga mehmonlar kelishdi. Otam menga aytdi. O'qituvchi talabadan so'radi. Sen unga nima keltirding? Bu injener senga nima dedi? Bugun biz olti soat ishladik. Sen uni ko'rdingmi? Yo'q, men uni ko'rmadim. Biz kecha stadiongga bordik. O'rtoq Hasanov bugun fakultetga kelmadi. Talaba bo'r keltirdi. U kecha kasal edi. Siz uni



qayerda ko'rdingiz? Siz bu maqolani o'qidingizmi? Ha, men bu maqolani o'qidim. Bugun biz universitetga bormadik. O'qituvchi mendan so'ramadi. Siz bugun dam oldingizmi? Yo'q, men bugun dam olmadim. Men akangni teatrda ko'rdim. Ular bu yozuvchining kitobini sotib oldilar. Sen meni qayerda ko'rding? Men seni istirohat bog'ida ko'rdim. Otangiz qayerdan keldi? Otam Buxorodan keldi.

## 6- topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing va tarjima qiling.

احمد به دوست خود نامه نوشت. مادرم از بازار آمد. برادرت به تو چه داد؟ برادرم به من مداد و قلم داد. تو از مغازه ی کتابفروشی چه خریدی؟ من از مغازه ی کتابفروشی رمان "روزهای گذشته" عبدالله قادری را خریدم. امروز در دانشکده احمدرا دیدی؟ نخیر، ندیدم. او امروز سر درس نیامد. برادرتان به تو چه گفت؟ امروز دانشیار از تو پرسید؟ بله، از من موضوع درس را پرسید. پدرت از سفر برای تو چیزی آورد؟ یک کتاب فارسی آورد. امروز صبح صبحانه خوردید؟ نه، نخوردم. دیروز زیاد کار کردم و هیچ استراحت نکردم. تو امروز چه کاری کردی؟ هیچ کاری نکردم. بعد از درس کجا رفتی؟ بعد از درس به کتابخانه رفتم و درس های خودرا حاضر کردم. خواهرم به مادرم کمک کرد. تو به دانشکده یا اتوبوس آمدی یا با مترو؟ با مترو. از صبح تا غروب کار کردم و بعد از آن استراحت کردم. شما این نامه را با قلم نوشتید یا با مداد؟ با قلم. این داستان را از اول تا آخر خواندم و بعد آن را ترجمه کردم. شما درس فردا را حاضر کردید؟ بله، من درس فردا را حاضر کردم.

## 7- topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli predloglarni qo'yib, jummalarni ko'chirib yozing.

من احمدرا ... باغ ملی دیدم. او دیروز ... دانشکده نیامد. پدرم دیروز ... شهر فرغانه آمد. من ... برادر بزرگم ... سینما رفتم. او ... دانشیار خوب جواب داد. دانشیار ... جواب او راضی بود. امروز دانشیار ... من نرسید. من ... دانشکده پیاده آمدم. رفیقم ... اتوبوس آمد. امروز ... دوستم نامه گرفتم. مادرم ... من یک جفت کفش خرید. خواهرت ... تو چه گفت؟ ... شهر تاشکند عمارتهای چند طبقه ای زیاد است. خواهرم ... مادرم ... باغ استراحت رفتند. من این متن را ... زبان فارسی ... زبان ازبکی ترجمه کردم. من ... او قلم دادم و او ... من مداد داد. پدرم ... صبح زود ... شام ... باغ کار کرد. دوستم ... من فرهنگ فارسی خودرا داد. دیروز من ... برادر بزرگم ... کتابخانه رفتم و درسهای خودرا ... فردا حاضر کردیم. مادرم از مغازه ی شیرینی فروشی شیرینی ها خرید و ... خانه آورد. دیروز من ... دوستم حسن به مغازه ی کتابفروشی رفتم. روز دوشنبه درس را حاضر کردم و بعد ... برادرم ... تائر رفتم. پدرم ... مادرم ... استراحت ... آسایشگاه رفتند.

## حکایت،

روزی شاعر فقیری پیش مرد ثروتمندی رفت و چنان نزدیک او نشست که میان آنها یک وجب فاصله بود. مرد ثروتمند از این کار خشمگین شد و از شاعر پرسید که میان تو و خر چه تفاوت است؟ گفت: یک وجب. مرد ثروتمند از این جواب خجل شد و عذر خواست.

## واژه ها

شاعر *sho'er* – shoirفقیر *faqir* – kambag'alمرد ثروتمند *sarvatmand* – boyچنان *cho non* – shundayنزدیک *nazdik* – yaqinنشستن *neshastan* – o'tirmoqخواستن *xostan* – xohlamoqخجل شدن *xejel sho'dan* – xijolat

bo'lmoq

وجب *vajab* – qarichفاصله *fosele* – tafovut, farqمیان *miyon* – o'rta, aroخر *xar* – eshakچه *che* – qanday, qanaqaپیش *pish* – old, oldiعذر خواستن *o'zr xostan* – uzr so'ramoqخشمگین شدن *xashmg'in sho'dan* –

g'azablanmoq, achchiqlanmoq

## GRAMMATIK IZOH

## yo-ye yai va وحدت yo-ye vahdat یای نکره

Fors tilida biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko'rsatish uchun ularga noaniqlik va birlik belgisi *yo* qo'shilib, *i* deb talaffuz qilinadi. Bu *yo* fors grammatikasida یای وحدت *yo-ye vahdat* yoki یای نکره *yo-ye nakare* deyiladi.

Birlik va noaniqlik belgisi *yo* hech vaqt urg'u qabul qilmaydi. Urg'u uning oldidagi bo'g'inga tushadi. Masalan:

کارگر *korgar* – ishchi کارگری *korgar-i* (qandaydir noma'lum) bir ishchiروز *ruz* – kun روزی *ruz-i* – bir kun, bir kuniکتاب *ketob* – kitob کتابی *ketob-i* – (qandaydir) bir kitob

## ning imlosi یای وحدت و یای نکره

1. Undosh bilan tugagan so'zlarda *yo* harfi bevosita otlarning oxiriga qo'shiladi. Masalan:

دختر *do'xtar* – qiz bolaمیز *miz* – stolدختری *do'xtar-i* (qandaydir) bir qizمیزی *miz-i* (qandaydir) bir stol

2. *o* yoki *u* cho'ziq unililari bilan tugagan so'zlarda *yo* harfi oldidan bir *yo* orttirilib yoziladi. Masalan:

صددا <i>sedo</i> – tovush	صدایی <i>sedo-yi</i> (qandaydir) bir tovush
دانشجو <i>doneshju</i> – talaba	دانشجویی <i>doneshju-iy</i> (qandaydir) bir talaba

3. *e* qisqa unlisi bilan tugagan soʻzlarda *ی* harfi oldidan bir alif orttirilib yoziladi. Masalan:

نویسنده <i>navisande</i> – yozuvchi	نویسنده ای <i>navisande-i</i> – (qandaydir) bir yozuvchi
مجله <i>majalle</i> – jurnal	مجله ای <i>majalle-i</i> – (qandaydir) bir jurnal
نامه <i>nome</i> – xat	نامه ای <i>nome-i</i> – (qandaydir) bir xat

### ning izofiy birikmada ishlatilishi

Izofiy birikmada birlik va noaniqlik belgisi *ی* – *i* asosan birikma oxiridagi soʻzga qoʻshiladi. Masalan:

کتاب خوب <i>ketob-e xub</i> – yaxshi kitob
کتاب خوبی <i>ketob-e xub-i</i> – (qandaydir) bir yaxshi kitob
شاعر فقیر <i>sho'er-e faqir</i> – kambagʻal shoir
شاعر فقیری <i>sho'er-e faqir-i</i> bir kambagʻal shoir

Baʼzan birlik va noaniqlik *ی* *yo* si birikmaning birinchi soʻziga – aniqlanmishga qoʻshilib kelishi mumkin. Masalan:

میز نو <i>miz-e no'u</i> – yangi stol
میزی نو <i>miz-i no'u</i> – (qandaydir) bir yangi stol
دختر جوان <i>do'xtar-e javon</i> – yosh qiz
دختری جوان <i>do'xtar-i javon</i> – (qandaydir) bir yosh qiz

### ning ishlatilishi

*ی* ning asosiy vazifasi birlik va noaniqlikni bildirishdir.

Fors tilida *ی* ning gapda ishlatilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

*ی* otlarga qoʻshilib, birlikni ifodalaydi va miqdoriy jihatdan gap bir predmet yoki bir shaxs haqida ketayotganligini, maʼno predmetning soniga qaratilganini koʻrsatadi. Masalan:

کارگران در این کارخانه روزی شش ساعت کار کرده و هفته ای دو روز استراحت می کنند. *korgaron dar in korxone ruz-i shesh soat kor karde va hafte-i do' ruz esterohat miko'nand* – Ishchilar bu korxonada bir kunda olti soat ishlab, bir haftada ikki kun dam oladilar.

Yuqorida keltirilgan misollarda روزی *ruz-i*, هفته ای *hafte-i*, so‘zlari یای وحدت qabul qilib kelgan bo‘lib, gap aynan *bir kun, bir hafta* haqida borayotganligini ko‘rsatadi.

ه ای *esa* predmet yoki shaxsning noaniqligini, gap noma’lum bir predmet yoki shaxs haqida borayotganligini bildiradi. Masalan:

پادشاهی به شکار رفت. *podshoh-i be shekor raft* – (Qandaydir) bir podshoh ovga chiqdi.

شخصی از افلاتون پرسید. *shaxs-i az aflatun po‘rsid* – (Qandaydir) bir kishi Aflotundan so‘radi.

دختری آمد و نامه ای به او داد. *do‘xtar-i omad va nome-i be u dod* – (Qandaydir) bir qiz keldi va unga xat tashlab (berib) ketdi.

Bu misollarda پادشاهی *podshoh-i*, شخصی *shaxs-i*, دختری *do‘xtar-i*, نامه ای *nome-i* so‘zlari یای نکره qabul qilib kelgandır.

Bundan tashqari, noaniqlik belgisi *چه i* *che* so‘roq olmoshidan keyin kelgan so‘zga qo‘shilib, biror predmet haqida ma’lumotga ega bo‘lish yoki taajjub va hayajonni izhor qilish ma’nolarini bildiradi.

*چه che* so‘roq olmoshi “qanday”, “qaysi”, “qanaqa” deb tarjima qilinadi.

Odatda bu xildagi gaplar mazmunidan so‘roq anglashigan bo‘ladi va so‘roq intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Masalan:

این چه کتابی است؟ *in che ketob-i ast?* – Bu qanaqa (nima) kitob?

امروز چه روزی است؟ *emruz che ruz-i ast?* – Bugun qaysi kun?

عجب! این چه سخنی است؟ *‘ajab, in che so‘xan-i-st* – Ajab, bu qanaqa gap!

## Izofali predloglar

Fors tilida mustaqil ma’noga ega bo‘lgan ba’zi bir ot va ravishlar predlog vazifasida ham kelishi mumkin. Bu so‘zlar predlog bo‘lib kelganda, o‘zlarining mustaqil ma’nolarini yo‘qotib, ko‘makchi so‘z anglatgan grammatik ma’nomi bajaradilar va doimo o‘zidan keyin kelgan so‘zga izofa orqali birikib keladilar. Izofali predloglar fors tilida 20 dan ortiq bo‘lib, gapda asosiy predloglar orqali ifodalangan ma’nolarni konkretlash, ular orasidagi munosabatni yana ham aniqroq ko‘rsatish uchun xizmat qiladilar. Masalan:

رو *ru* (yuz) so‘zi gapda ot sifatida o‘zining mustaqil leksik ma’nosiga ega bo‘lishi bilan birga, leksik ma’nosini yo‘qotib ko‘makchi vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan:

*ru-ye u zibo ast* – Uning yuzi chiroyli.  
*ru-ye miz pok ast* – Stolning yuzi (usti) toza.

Bu ikki misolda *ru* soʻzi oʻz leksik maʼnosida kelgan otdir.

*ketob ru-ye miz ast* – Kitob stolning ustidadir.  
*kifro ru-ye miz goʻzoshtam* – Portfelni stolning ustiga qoʻydim.  
*medod ru-ye miz bud* – Qalam stolning ustida edi.

Misollarning uchchallasida ham *ru* soʻzi koʻmakchi soʻz vazifasida kelib, oʻrin, yoʻnalish maʼnolarini ifoda etgandir. Bu misollarda *ru* bilan birga yozilishi kerak boʻlgan *be* va *dar* predloglari tushib qolgan, chunki izofali predloglar oʻrin va yoʻnalish maʼnolarini bildirganlarida, oʻrin va yoʻnalish maʼnolarini anglatuvchi predloglar tushib qoladi. Ularning maʼnosi esa feʼlning maʼnosidan kelib chiqadi. Bu holni barcha izofali predloglarda kuza-tish mumkin.

Izofali predloglarning koʻp uchraydiganlari quyidagilar:

1. *pish* – *old*. Bu soʻz predlog vazifasida kelganda *oldida*, *oldiga* degan maʼnolarni anglatadi. Masalan:

*shaxs-i pish-e navisande-i omad* – Bir kishi bir yozuvchining oldiga keldi.

*shoʻer-e faqir-i pish-e odam-e sarvatmand-i raft* – Bir kambagʻal shoir bir boy odamning oldiga bordi.

*man pish-e doneshyor budam* – Men oʻqituvchining oldida edim (boʻldim).

2. *pahlu* – *yon*. Predlog boʻlib kelganda *yonida*, *yoniga* degan maʼnolarni anglatadi. Masalan:

*man dar jalase pahlu-ye dustam neshastam* – Majlisda doʻstimning yoniga oʻtirdim.

*pahlu-ye doneshgoh-e mo magʻoze-ye lebosfoʻrushi qaror dorad* – Institutimizning yonida kiyimlar magazini joylashgan.

3. *zir* – *ost*, *tag*. Bu soʻz predlog boʻlib kelganda *ostida*, *tagida*, *ostiga*, *tagiga* degan maʼnolarni anglatadi. Masalan:

*zir-e ashaʼe-ye oftob hame chiz deraxshon bud* – Oftob shuʼlasi ostida hamma narsa yaltirar edi.

.درختی پنهان کرد *chupon-i pul-e xo'dro zir-e deraxt-i penhon kard* – Bir cho'pon o'z pulini daraxt ostiga yashirdi.

4. نزد *nazd* – *old, yon*. Predlog bo'lib kelganda *yonida, oldida, yoniga, oldiga* degan ma'nolarni anglatadi. Masalan:

.روزی زن ملا نصرالدین پلو یخت و انرا با دیگ نزد ملا گذاشت *ruz-i zan-e mo'llo po'lo'u po'xt va onro bo dig nazd-e mo'llo go'zasht* – Bir kuni Mulla Nasriddinning xotini palov pishirdi va uni qozon bilan Mullaning oldiga qo'ydi.  
.نزد او کسی نبود *nazd-e u kas-i nabud* – Uning oldida hech kim yo'q edi.

5. سر *sar* – *bosh*. Bu so'z predlog bo'lib kelganda, o'z leksik ma'nosini butunlay yo'qotib, faqat o'rin va yo'nalish ma'nolarini anglatadi. Masalan:

.دانشجویان سر درس بودند *doneshjuyon sar-e dars budand* – Talabalar darsda edilar.  
.ما سر جای خود نشستیم *mo sar-e jo-ye xo'd neshastim* – Biz o'z joyimizga o'tirdik.

6. بالا *bolo* – *tepa, yuqori*. Predlog bo'lib kelganda *tepasida, yuqorisida, tepasiga, yuqorisiga* degan ma'nolarni anglatadi.  
.مرغی بالای درخت نشست *mo'rg'-i bolo-ye deraxt neshast* – Daraxtning ustiga bir qush qo'ndi.  
.تو بالای کوه اهویی پدیدار شد *bolo-ye kuh-i ohu-yi padidor sho'd* – Tog'ning ustida bir kiyik ko'rindi.

7. میان *miyon* va بین *beyn* o'rta, ora. Ular predlog bo'lib kelganlarida *o'rtada, orada, o'rtaga, oraga* degan ma'nolarni bildiradi. Masalan:

.بین آنها پزشک هم بود *beyn-e onho pezeshk ham bud* – Ular orasida vrach ham bor edi.  
.بین دو پنجره نقشه ایران آویزان است *beyn-e do' panjare naqshe-ye iron ovizon ast* – Ikki deraza orasida Eron xaritasi osilgandir.  
.میان دو عمارت باغ زیبایی موجود است *miyon-e do' emorat bog'-e zibo-yi mo'ujud ast* – Ikki imorat orasida bir chiroyli bog' bor.

Bulardan tashqari *aqab* orqa, *pey* iz, *tu* – *ich, ichkari*, *birun* – *tashqari, sirt*, *barobar* – *qarama-qarshi* so'zlari ham izofali predlog vazifasida kelishlari mumkin.

Shunday qilib, izofali predloglar asosiy predloglarga nisbatan keng va abstrakt ma'noni anglatadilar. Agar asosiy predloglar biror predmetni o'rni yoki yo'nalishini ifodalasa, izofali predloglar shu o'rin yoki yo'nalish predmetning qaysi tomoniga qaratilganini bildiradi. Masalan:

روی میز *ru-ye miz* – stolning ustida, stolning ustiga;  
 زیر میز *zir-e miz* – stolning tagida, stolning tagiga;  
 سر میز *sar-e miz* – stolning yonida, stolning yoniga;  
 پشت میز *po'sht-e miz* – stolning orqasida, stolning orqasiga;  
 بین دو میز *beyn-e do' miz* – ikki stol orasida, ikki stol orasiga va hokazo.

### خود *xo'd o'zlik olmoshi*

Fors tilida خود *xo'd o'zlik olmoshi* gapda mustaqil holda hamda biror otga izofa orqali birikib keladi.

خود *xo'd o'zlik olmoshi* mustaqil holda ko'pincha egalik qo'shimchalari bilan birga keladi. Masalan:

Shaxslar	مفرد	جمع
I shaxs	خودم <i>xo'dam</i> – o'zim	خودمان <i>xo'demon</i> – o'zimiz
II shaxs	خودت <i>xo'dat</i> – o'zing	خودتان <i>xo'deton</i> – o'zingiz
III shaxs	خودش <i>xo'dash</i> – o'zi	خودشان <i>xo'deshon</i> – o'zlari

Misollar:

این مقاله را خودم نوشتم. *in maqolero xo'dam navesh tam* – Bu maqolani o'zim yozdim.

او خودش به خانه ی ما آمد. *u xo'dash be xone-ye mo omad* – U o'zi bizning uyga keldi.

این متن را خودمان ترجمه کردیم. *in matnro xo'demon tarjo'me kardim* – Bu matnni o'zimiz tarjima qildik.

خود *xo'd o'zlik olmoshi* biror otga izofa orqali birikib, gapda aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

من کتاب خود را به او دادم. *man ketob-e xo'dro be u dodam* – Men o'z kitobimni unga berdim.

احمد با دوست خود به خانه ی ما آمد. *ahmad bo dust-e xo'd be xone-ye mo omad* – Ahmad o'z do'sti bilan bizning uyimizga keldi.

کارگران کارخانه کار خود را تمام کردند و به خانه ی خود رفتند. *korgaron-e kor-xone kor-e xo'dro tamom kardand va be xone-ye xo'd raftand* – Zavod ishchilari o'z ishlarini tugatdilar va o'z uylariga ketdilar.

تو درس خود را حاضر کردی؟ *to 'dars-e xo'dro hozer kardi?* – Sen o'z darsingni tayyorladingmi?

**1- topshiriq.** Quyidagi fe'llarning yozilishi va talaffuzini o'rganing.

نشستن <i>neshastan</i> – o'tirmoq	آوردن <i>ovardan</i> – keltirmoq
پرسیدن <i>po'rsidan</i> – so'ramoq	گرفتن <i>gereftan</i> – olmoq
رفتن <i>raftan</i> – bormoq	دادن <i>dodan</i> – bermoq
آمدن <i>omadan</i> – kelmoq	نوشتن <i>naveshtan</i> – yozmoq

**2- topshiriq.** Quyidagi so'zlarga birlik va noaniqlik belgisi qo'yib yozing va ularni o'qing. Bunda *ی-yo* ning talaffuzi va imlosiga ahamiyat bering.

آشنا، دانشجو، هنرپیشه، روزنامه، کاغذ، صندلی، پزشک، دریا، ساعت، میز، دانشکده.

**3- topshiriq.** Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib, barcha shaxslarda tuslang.

خانه، قلم، ساعت، دوست، پاه، رو.

**4- topshiriq.** Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Men akamning oldiga bordim. Sen o'z otangga nima deding? Bugun u darsga kelmadi. Talabalar o'z kitoblarini stolning ustiga qo'ydilar. Bizning fakultet yonida bir chiroyli bog' joylashgan. U o'z ismini menga aytmadi. Kecha biz mashhur shoirning oldida bo'ldik. Bu imoratning ostida oshxona joylashgan. Bir kishi bozorda mendan sening ismingni so'radi. Otam o'z portfelidan bir jurnal chiqardi. Bu cho'ponning uyi tog'ning tepasida joylashgandir. Bir ota o'z o'g'liga dedi. Talaba o'qituvchiga nima javob berdi? Kecha sizning o'g'lingiz o'z o'rtog'i bilan birga mening oldimga keldi. Bir kambag'al odam daraxtning tagiga o'tirdi. O'rtog'imning javobidan men ham xijolat bo'ldim. Bu shoir o'z she'rini o'qib berdi. Men akamning oldiga o'tirdim. Bu maqolani o'zing yozdingmi? Ha, bu maqolani o'zim yozdim. Bola o'z otasidan uzr so'radi. Bu qanaqa jurnal? Bu "Saodat" jurnalidir. Singlim o'z portfelini stolning ustiga qo'ydi. Kecha men bir yaxshi kitob sotib oldim. Uyning o'rtasida stol va 2 ta stul bor edi.

**5- topshiriq.** Savollarga javob bering.

– چه کسی پیش آدم ثروتمند رفت؟

– شاعر فقیر پیش چه کسی رفت؟



- آیا تروتمند از این رفتار خشمگین شد؟  
 – تروتمند از شاعر چه پرسید؟  
 – شاعر به تروتمند چه جواب داد؟  
 – تروتمند از جواب شاعر چه حالتی پیدا کرد؟  
 – تروتمند از چه کسی عذر خواست؟

**6- topshiriq. Matnni mustaqil o‘qing, lug‘atdan foydalanib tarjima qiling hamda sodda va qo‘shma fe’llarni aniqlang.**

فرمانده بزرگ میخائیل کوتوزوف

در سال هزار و هشتصد و دوازده ناپلئون امپراتور فرانسه به خاک، روسیه حمله کرد. تعداد افراد ارتش فرانسه از ارتش روسیه بیشتر بود. در آغاز ارتش روسیه عقب نشینی کرد. ناپلئون تا نزدیکی مسکو رسید. در آن زمان پادشاه روسیه الکساندر اول بود. او کوتوزوف را به فرماندهی کل ارتش تعیین کرد. میخائیل کوتوزوف فرمانده ماهر و دلیری بود و سربازان او را دوست داشتند.

در نزدیکی مسکو دهکده ای بنام بارادینو بود. کوتوزوف در نزدیکی این دهکده لشکرهای روس را جمع کرد. هشتم سپتامبر سال هزار و هشتصد و دوازده موقعی که لشکران فرانسه به اینجا رسیدند بین ارتش روس و فرانسه جنگ در گرفت.

صحنه ی جنگ میدان بارادینو بود. روسها با شجاعت حمله دشمن را دفع کردند. سه ماه پس از نبرد بارادینو به فرماندهی کوتوزوف لشکریان روس پیشروی آغاز نمودند و لشکریان ناپلئون عقب نشینی کردند. آنها در راه توپ و اسلحه ی خود را از دست می دادند و دچار سرما و گرسنگی شدند. در نوامبر سال هزار و هشتصد و دوازده خاک روسیه از دشمن آزاد شد.

واژه ها

فرمانده *farmondeh* – qo‘mondon

فرانسه *feronse* – Fransiya

خاک *xok* – tuproq, yer

حمله کردن *hamle kardan* – hujum qilmoq

تعداد *te‘dod* – miqdor, son

اسلحه *aslahe* – qurol, aslaha

ارتش *artesh* – armiya, qo‘shin

دهکده *dehkade* – qishloq

بیشتر *bishtar* – ko‘proq

بنام *be nom-e* – nomida, nomidagi

دلیر *delir* – qo‘rqmas, botir

سرباز *sarboz* – soldat, askar

گرسنگی *go‘resnegi* – ochlik

سرما *sarmo* – sovuq

داشتن *dust doshtan* – sevmoq, yaxshi ko‘rmoq  
 کردن نشینی *‘aqabneshini kardan* – orqaga chekinmoq  
 کل *ko‘ll* – hamma, butun, bosh, umumiy  
 کردن تعیین *tain kardan* – tayinlamoq  
 با شجاعت *bo shejoat* – shijoatli, shijoat bilan  
 دفع کردن *daf’ kardan* – qaytarmoq  
 به فرماندهی *be farmondehi-ye* – qo‘mondonligida  
 پیشتر *pishtar* – olg‘a, ilgari  
 از پس *pas az* – ...dan so‘ng, ...dan keyin  
 (کردن) آغاز نمودن *og‘oz namudan (kardan)* – boshlamoq  
 از دست دادن *az dast dodan* – qo‘ldan bermoq, yo‘qotmoq  
 دچار شدن *do‘chor sho‘dan* – duchor bo‘lmoq, yo‘liqmoq  
 جمع کردن *jam’ kardan* – to‘plamoq, yig‘moq  
 جنگ در گرفتن *jang dar gereftan* – jang boshlanmoq  
 هتل *ho‘tel* – mehmonxona  
 گلابی *go‘lobi* – nok  
 اتاق *o‘toq* – uy, xona

**7- topshiriq.** Quyidagi dialoglarni o‘qing, imlosini aniq-  
 lang va uni aytib bering.

- اینجا کجا ست؟ – دانشکده است.
- چه دانشکده ای؟ – دانشکده ی خاورشناسی.
- اینجا کجا ست؟ – اتاق است.
- چه اتاقی؟ – اتاق زبان فارسی است.
- اینجا کجا ست؟ – کتابخانه است.
- چه کتابخانه ای؟ – کتابخانه ی دانشگاه.
- این چه میدانی است؟ – میدان استقلال است.
- این چه بنایی است؟ – این بنای هتل است.
- چه هتلی است؟ – هتل چهار سو.
- این چه درختی است؟ – درخت ...یپ.
- آن چه میوه ای است؟ – گلابی است.
- این چه خیابانی است؟ – خیابان پوشکین است.
- آنجا چه دانشکده ای است؟ – دانشکده ی تاریخ است. اینجا ورزشگاه است.
- چه ورزشگاهی است؟ – ورزشگاه پخته کار است.
- این چه صدایی است؟ – صدای بلبل است.

**8- topshiriq.** Quyidagi savollarga forscha javob bering. Javobingizni daftaringizga yozing.

- Bu qaysi ko'cha?	- Bu qanaqa qiz?
- Bu qaysi fakultet?	- Bugun qaysi kun?
- U qanaqa gazeta?	- Bu qanaqa imorat?
- U qanaqa jurnal?	- Bu qanaqa idora?
- Bu yer qayer?	- Bu qanaqa soat?
- Siz qayerliksiz?	- U qanaqa hayvon?
- Bu qanaqa meva?	- Bu qaysi xona?

**9- topshiriq.** Quyidagi izofali predloglarining har biriga 3 tadan gap tuzing.

زیر، پہلوی، سر، روی، نزد، پیش، بالای.

## O'n ikkinchi dars

## درس دوازدهم

### من هر روز چه کارهای انجام می دهم

من هر روز صبح ساعت هفت از خواب بیدار می شوم. اول در حیاط ورزش می کنم. بعد دست و رویم را با صابون می شویم و دندانهایم را با گرد یا خمیر دندان مسواک می زنم. پس از آن لباسم را می پوشم و ساعت هفت و نیم سر میز غذا خوری می نشینم. پس از صرف صبحانه کیف خود را بر می دارم و از خانه بیرون می روم. ساعت هشت صبح سوار اتوبوس برقی می شوم و بعد از بیست دقیقه به دانشکده می رسم و از اتوبوس برقی پیاده می شوم. ساعت هشت و نیم زنگ می زند و من با رفقای خود داخل کلاس درس می شوم و سر جای خود می نشینم. درس شروع می شود. بعد از یک ساعت و بیست دقیقه تنفس می شود. هنگام تنفس ما استراحت می کنیم. بعضی ها صحبت می کنند. ساعت دو بعد از ظهر درس ما تمام می شود. بعد از پایان درس بعضی از دانشجویان به منزل و برخی به کتابخانه می روند. من همیشه بعد از درس به کتابخانه ی مرکزی دانشگاه می روم و در آنجا روزنامه و مجله های تازه می خوانم و درس را برای فردا حاضر می کنم. ساعت شش یا هفت بعد از ظهر به منزل بر می گردم. در خانه شام می خورم. سپس استراحت می کنم، به رادیو گوش می دهم یا کتاب ادبی می خوانم. عصر روزهای تعطیل با مادر یا پدرم به تئاتر یا سینما می روم. ساعت یازده شب می خوابم و باین ترتیب برنامه ی روزانه ی من تمام می شود.

### واژه ها

کردن *kardan* (کن *ko 'n*) – qilmoq

صبح *so'bh* – tong, ertalab

شدن *sho'dan* (شو *sho'u*) – bo'lmoq, aylanmoq

بيدار شدن *bidor sho 'dan* – uyg'onmoq  
 حيايط *hayot* – hovli  
 ورزش کردن *varzesh kardan* – badantarbiya qilmoq, sport bilan shug'ullanmoq  
 سپس *sepas* – so'ng, keyin, so'ngra  
 دست *dast* – qo'l  
 صابون *sobun* – sovun  
 شستن *sho 'stan* (شو *shu*) – yuvmoq  
 دندان *dandon* – tish  
 گرد دندان *gard-e dandon* – tish poroshogi  
 خمير دندان *xamir-e dandon* – tish pastasi  
 مسواک زدن *mesvok zadan* – tish tozalamoq  
 لباس *lebos* – kiyim  
 پوشیدن *pushidan* (پوش *push*) – kiymoq  
 میز غذا خوری *miz-e g 'azoxo 'ri* – ovqatlanish stoli  
 نشستن *neshastan* (نشین *neshin*) – o'tirmoq  
 صبحانه خوردن *so 'bhone xo 'rdan* – nonushta qilmoq  
 شام خوردن *shom xo 'rdan* – kechki ovqatni yemoq  
 بر داشتن *bar- doshtan* (بر دار *bar- dor*) – ko'tarmoq  
 انجام دادن *anjom dodan* – bajarmoq, ado etmoq  
 بیرون رفتن *birun raftan* – chiqmoq (tashqariga)  
 سوار شدن *savor sho 'dan* – minmoq, o'tirmoq, chiqmoq  
 اتوبوس برقی *o 'to 'bus-e barqi* – trolleybus  
 پیاده شدن *piyode sho 'dan* – . . . dan tushmoq, yayov bo'lmoq  
 زنگ *zang* – qo'ng'iroq  
 زنگ زدن *zang zadan* – qo'ng'iroq chalmoq  
 رفقا *ro 'faqo* – o'rtoqlar (*birligi* – رفيق)  
 داخل شدن *doxel sho 'dan* – kirmoq  
 شروع شدن *sho 'ru' sho 'dan* – boshlanmoq  
 تمام شدن *tamom sho 'dan* – tamom bo'lmoq, tugamoq  
 تنفس *tanaffo 's* – tanaffus  
 صحبت کردن *so 'hbat kardan* – suhbatlashmoq  
 بعضی *ba 'zi* – ba'zi  
 برخی *barxi* – ba'zi bir  
 ظهر *zo 'hr* – tush payti, kunning yarmi  
 پایان *poyon* – tugash, oxiri  
 هنگام *hengom* – payt, vaqt  
 همیشه *hamishe* – hamisha, har vaqt  
 بعد از پایان درس *ba 'd az poyon-e dars* – dars tugagandan so'ng

فردا *fardo* – ertaga

برگشتن *bar-gashtan* (بر گرد *bar-gard*) – qaytmoq

رادیو *rodyo* – radio

تلویزیون *televizyun* – televizor

دادن گوش *gush dodan* – quloq solmoq, eshitmoq

پدر و مادر *pedar-o* – *modar* – ota-ona

عصر *asr* – kech, kechqurun, kechki payt

برنامه ی روزانه *barnome-ye ruzone* – kun tartibi, kundalik

خوابیدن *xobidan* (خواب *xob*) – uxlamoq

پس از صرف صبحانه *pas az sarf-e so'bhone* – nonushtadan so'ng

## GRAMMATIK IZOH

### Hozirgi zamon fe'l negizining yasalishi

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, fors tilida har bir fe'l o'tgan zamon va hozirgi zamon fe'l negiziga egadir.

O'tgan zamon fe'l negizi oddiy yo'l bilan, ya'ni fe'lning noaniq shaklidan ن – *an* qismini olib tashlash orqali yasaladi. Hozirgi zamon fe'l negizining yasalishi esa birmuncha murakkab bo'lib, ma'lum bir qoidaga bo'ysunmagan holda yasaladi. Masalan:

رفتن *raftan* – رو *ro* 'u (bormoq)

آمدن *omadan* – ا *o* (kelmoq)

نشستن *neshastan* – نشین *neshin* (o'tirmoq)

دادن *dodan* – ده *deh* (bermoq)

شدن *sho'dan* – شو *sho* 'u (bo'lmoq, aylanmoq)

خواندن *xondan* – خوان *xon* (o'qimoq)

دیدن *didan* – بین *bin* (ko'rmoq)

کردن *kardan* – کن *ko* 'n (qilmoq)

شستن *sho'stan* – شو *shu* (yuvmoq)

زدن *zadan* – زد *zan* (urmoq)

پوشیدن *pushidan* – پوش *push* (kiymoq)

خوردن *xo'rdan* – خور *xo* 'r (yemoq, ichmoq)

برگشتن *bar-gashtan* – بر گرد *bar-gard* (qaytmoq)

برداشتن *bar-doshtan* – بر دار *bar-dor* (ko'tarmoq)

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, fe'llarning hozirgi zamon negizining yasalishini faqat ularni takrorlash, yodlash va mashq qilish orqali o'zlashtirish mumkin. Odatda, darslik va lug'atlarda fe'lning noaniq shakli bilan bir qatorda ularning hozirgi za-

mon fe'l negizi ham beriladi. Mazkur darslikda ham fors tilida ko'p ishlatiladigan fe'llar va ularning hozirgi zamon fe'l negizlari kitob oxirida ilova shaklida berilgan.

## Hozirgi-kelasi zamon fe'li

مضارع اخباری *mo'zore'-e axbori*

Hozirgi-kelasi zamon fe'li hozirgi zamon fe'l negizi oldiga *می mi* – old qo'shimchasi va oxiriga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.

### Shaxs-son qo'shimchalari

Shaxslar	مفرد	جمع
I shaxs	م – <i>am</i>	یم – <i>im</i>
II shaxs	ی – <i>i</i>	ید – <i>id</i>
III shaxs	د – <i>ad</i>	ند – <i>and</i>

Jadvaldan ko'rinadiki, hozirgi-kelasi zamonda ishlatiladigan shaxs-son qo'shimchalari o'tgan zamon fe'lida ishlatiladigan shaxs-son qo'shimchalaridan faqat III shaxs birlikda farq qiladi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining tuslanishida *urg'u می mi* – old qo'shimchasiga tushadi.

خواندن *xondan* – خوان *xon* (o'qimoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

من می خوانم *man mixonam* – Men o'qiyapman, o'qiyman.

تو می خوانی *to' mixoni* – Sen o'qiyapsan, o'qiysan.

او می خواند *u mixonad* – U o'qiyapti, o'qiydi.

جمع

ما می خوانیم *mo mixonim* – Biz o'qiyapmiz, o'qiymiz.

شما می خوانید *sho'mo mixonid* – Siz o'qiyapsiz, o'qiysiz.

آنها می خوانند *onho mixonand* – Ular o'qiyaptilar, o'qiydilar.

Prefiksli va qo'shma fe'llarda *می mi* – old qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi.

برگشتن *bar-gashtan* – بر گرد *bar-gard* (qaytmoq)  
prefiksli fe'lining tuslanishi

مفرد

من بر می گردم *man bar-migardam* – Men qaytyapman, qaytaman.  
تو بر می گردی *to ' bar-migardi* – Sen qaytyapsan, qaytasan.  
او بر می گردد *u bar-migardad* – U qaytyapti, qaytadi.

جمع

ما بر می گردیم *mo bar-migardim* – Biz qaytyapmiz, qaytamiz.  
شما بر می گردید *sho 'mo bar-migardid* – Siz qaytyapsiz, qaytasiz.  
آنها بر می گردند *onho bar-migardand* – Ular qaytyaptilar, qaytadilar.

کار کردن *kor kardan* – کار کن *kor ko'n* (ishlamoq) qo'shma  
fe'lining tuslanishi

مفرد

من کار می کنم *man kor miko 'nam* – Men ishlayapman, ishlayman.  
تو کار می کنی *to ' kor miko 'ni* – Sen ishlayapsan, ishlaysan.  
او کار می کند *u kor miko 'nad* – U ishlayapti, ishlaydi.

جمع

ما کار می کنیم *mo kor miko 'nim* – Biz ishlayapmiz, ishlaymiz.  
شما کار می کنید *sho 'mo kor miko 'nid* – Siz ishlayapsiz, ishlaysiz.  
آنها کار می کنند *onho kor miko 'nand* – Ular ishlayaptilar, ishlaydilar.

Hozirgi-kelasi zamon fe'l negizi diftong *o'u* bilan tugagan bo'lsa, unga shaxs-son qo'shimchalari qo'shilganda *av* deb talaffuz etiladi. Masalan:

رفتن *raftan* fe'lining negizi رو *ro'u* bo'lib, tushlanganda رو *rav*;  
شدن *sho'dan* fe'lining negizi شو *sho'u* bo'lib, tushlanganda شو *shav*  
deb o'qiladi.

رفتن *raftan* – رو *ro'u* (bormoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

من می روم *man miravam* – Men boryapman, ketaman.  
تو می روی *to ' miravi* – Sen boryapsan, ketasan.  
او می رود *u miravad* – U boryapti, boradi.

## جمع

ما می رویم *mo miravim* – Biz boryapmiz, ketamiz.  
شما می روید *sho 'mo miravid* – Siz boryapsiz, ketasiz.  
آنها می روند *onho miravand* – Ular boryaptilar, ketadilar.

Hozirgi-kelasi zamon fe'l negizi cho'ziq unli *o* و *u* bilan tugagan bo'lsa, shaxs-son qo'shimchalari oldidan I shaxs birlik va III shaxs birlik va ko'plikda bir *o*-yo qolgan shaxslarda esa shaxs-son qo'shimchalari oldidan bir *o* hamza belgisi orttirilib yoziladi. Hozirgi fors tilida *o* hamza belgisi *o*-yo shaklida yoziladi.

آمدن *omadan* – *o* (kelmoq) fe'lining tuslanishi

## مفرد

من می آیم *man mioyam* – Men kelyapman, kelaman.  
تو می آیی (می آئی) *to 'mioyi* – Sen kelyapsan, kelasan.  
او می آید *u mioyad* – U kelyapti, keladi.

## جمع

ما می آییم (می آئیم) *mo mioyim* – Biz kelyapmiz, kelamiz.  
شما می آیید (می آئید) *sho 'mo miyoid* – Siz kelyapsiz, kelasiz.  
آنها می آیند *onho mioyand* – Ular kelyaptilar, keladilar.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli *mi* – old qo'shimchasi oldiga urg'uli *na* – inkor yuklomasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:

من نمی روم *man namiravam* – Men bormayman.  
او بر نمی گردد *u bar namigardad* – U qaytmaydi.  
ما سیگار نمی کشیم *mo sigor namikeshim* – Biz papiros chekmaymiz.  
من استراحت نمی کنم *man esterohat namiko 'nam* – Men dam olmayman.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Ish-harakatning hozir, gapirib turgan paytning o'zida bajari-  
layotganini bildiradi. Masalan:

تو چه کار می کنی؟ من روزنامه می خوانم. *to 'che kor miko 'ni? man ruznome mixonam* – Sen nima ish qilyapsan? – Men gazeta o'qiyapman.  
دانشجو به دانشجو جواب می دهد. *doneshju be doneshyor javob midehad* –  
Talaba o'qituvchiga javob beryapti.



*holo mo matnro az zaban-e forsi be zaban azbaki tarjome mi kanim.*  
*zabon-e forsi be zabon-e o'zbeki tarjo'me miko'nim* – Hozir biz matnni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilyapmiz.

2. Ish-harakatning umuman, doimiy bo'lib turishini anglatadi.  
Masalan:

*pedaram dar korxone-ye mo-shinsozi kor miko'nad* – Otam mashinasozlik zavodida ishlaydi.

*man dar doneshgoh-e xovarshenosi tahsil miko'nam* – Men Sharqsunoslik institutida o'qiyman.

*mo har ruz so'bh varzesh miko'nim* – Biz har kuni ertalab badantariya qilamiz.

*u dar xiyobon-e navoiy zendegi miko'nad* – U Navoiy ko'chasida yashaydi.

*zamin do'ur-e xo'rshid migardad* – Yer quyosh atrofida aylanadi.

3. Kelasi zamon ma'nosini anglatib, ish-harakatni kelasi zamon-da bajarilishini bildiradi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bu ma'nosini ifodalash uchun odatda ish-harakatni kelajakda bajarilishiga ishora qiluvchi payt hollari ishlatiladi.

*man fardo be doneshkade namioyam* – Men ertaga fakultetga kelmayman.

*darsemon soat-e se tamom mishavad* – Darsimiz soat uchda tamom bo'ladi.

*ba'd az do'soat modaram az kor bar-migardad* – Ikki soatdan so'ng onam ishdan qaytadi.

Ba'zan she'riyatda yoki folklor xarakteridagi asarlarda hozirgi-kelasi zamon fe'lining old qo'shimchasi *mi* tushib qolishi mumkin.

*dono donad va po'rsad nodon nado-nad va napo'rsad* – Biladigan biladi va so'raydi, bilmaydigan bilmaydi va so'ramaydi. (Maqol).

*az nik nik oyad, az bad bad oyad* – Yaxshidan-yaxshi keladi, yomondan-yomon keladi. (Maqol).

Qoidaga muvofiq shunday bo'lishi kerak edi:

*dono midonad va mi-po'rsad nodon namidonad va namipo'rsad.*

*az nik nik mioyad, az bad bad mioyad.*

مرا دردیست اندر دل	<i>maro dardist andar del</i>
اگر گویم زبان سوزد	<i>agar guyam zaban suzad</i>
و گر پنهان کنم ترسم	<i>va gar penhon ko 'nam tarsam</i>
که مغز استخوان سوزد	<i>ke mag 'z – e o 'stexon suzad</i>

Yuragimda bir dardim bor.  
 Agar aytsam tilim kuyadi.  
 Va agar yashirsam, qo'rqamanki.  
 Suyagimni mag'zi kuyadi.

Bu ruboiyda ham سوزد *suzad*, ترسم *tarsam*, fe'llari می سوزد *misuzad*, می ترسم *mitarsam* shakllarida yozilishi kerak edi.

Fors tilida پس از *pas az* birikmalari paytni bildirib, biror ish-harakat yo hodisani ikkinchi bir ish-harakatdan avval yoki so'ng bajarilishini ko'rsatadi. Masalan:

ما همیشه قبل از خوردن غذا دست خود را با صابون می شوئیم. *mo hamishe qabl az xo 'rdan-e g 'azo dast-e xo 'dro bo sobun mishuyim* – Biz hamisha ovqat yeyishdan avval qo'limizni sovun bilan yuvamiz.

دانشجویان شعبه ی ما پیش از شروع درس ورزش می کنند. *doneshjuyon-e sho 'be '-ye mo so 'bh pish az sho 'ru '-e dars varzesh miko 'nand* – Bizning bo'lim talabalari ertalab darsdan avval badantarbiya qiladilar.

ما امروز بعد از درس به مغازه ی کتابفروشی می روئیم. *mo emruz ba 'd az dars be mag 'oze-ye ketobfo 'rushu miravim* – Bugun biz darsdan so'ng kitob magaziniga boramiz.

من هر روز صبح سوار اتوبوس می شوم و پس از بیست دقیقه به دانشگاه می رسم. *man har ruz so 'bh savor-e o 'to 'bus mishavam va pas az bist daqiqe be doneshgoh mirasam* – Men har kuni ertalab avtobusga o'tiraman va yigirma daqiqadan so'ng institutga yetib kelaman.

Bu birliklardan قبل از *qabl az* bilan پیش از *pish az* va بعد از *ba 'd az* bilan پس از *pas az* o'zaro sinonimik birikmalardir.

## Qo'shma fe'llarning kontakt va distant holati

Gapda qo'shma fe'llarning ot qismi ko'makchi fe'l bilan yonmayon kelib, ular orasida gapning boshqa bo'laklari bo'lmasa, bu holat qo'shma fe'lning kontakt holati deyiladi. Masalan:

ما ورزش می کنیم. *mo varzesh miko 'nim* – Biz badantarbiya qilamiz.  
دانشجویان صحبت می کنند. *doneshjuyon so 'hbat miko 'nand* – Talabalar suhbatlashyaptilar.

Qo'shma fe'lining ot qismi bilan ko'makchi fe'li bir-biridan ajralib, orasida gapning boshqa bo'laklari kelgan bo'lsa, bu holat qo'shma fe'lining distant holati deyiladi. Qo'shma fe'lining distant holatida fe'lining ot qismidan to ko'makchi fe'lgacha bo'lgan so'zlarning barchasi o'zaro izofiy bog'lanishda bo'ladilar.

Fors tilida ba'zi fe'llargina distant holatda ishlatilishi mumkin. Ular ichida ko'p uchraydiganlari quyidagilar:

سوار شدن *savor sho 'dan* – minmoq, o'tirmoq, chiqmoq  
داخل شدن *doxel sho 'dan* – kirmoq  
مشغول شدن *mashg'ul sho 'dan* – mashg'ul bo'lmoq, shug'ullanmoq.

Misollar:

من سوار اسب شدم. *man savor-e asb sho 'dam* – Men otga mindim.  
ملا نصر الدین سوار خر شد. *mo 'llo nasriddin savor-e xar sho 'd* – Mulla Nasriddin eshakka mindi.  
ما هر روز سوار اتوبوس برقی می شویم. *mo har ruz savor-e o'to 'bus-e barqi mishavim* – Biz har kuni trolleybusga o'tiramiz (chiqamiz).  
هیئت نمایندگی افغانستان سوار هواپیما شد. *heyat-e namoyandegi-ye afg 'ones-ton savor-e havopeymo sho 'd* – Afg'oniston delegatsiyasi samolyotga chiqdi.  
دانشجویان داخل کلاس درس شدند. *doneshjuyon doxel-e kelos-e dars sho 'dand* – Talabalar auditoriyaga kirdilar.  
کسی داخل اتاق شد. *kas-i doxel-e o'toq sho 'd* – Kimdir uyga kirdi.  
ما مشغول خواندن کتاب فارسی هستیم. *mo mashg'ul-e xondan-e ketob-e forsi hastim* – Biz fors tili kitobini o'qish bilan mashg'ulmiz.  
ما شما آمدید من مشغول صحبت با دوستم بودم. *vaqti-ke sho 'mo omadid man mashg'ul-e so 'hbat bo dustam budam* – Siz kelgan paytda, men do'stim bilan suhbatlashayotgan edim.

Yuqoridagi jumalarning ko'pida jo'nalish ma'nosi anglashilsada, lekin jo'nalishni ifodalovchi *be* predlogi qatnashmaydi. Bu fe'l birikmalari kontakt holda ham uchraydi.

دانشجویان به کلاس داخل شدند. *doneshjuyon be kelos doxel sho 'dand* – Talabalar auditoriyaga kirdilar.

من به اتوبوس سوار شدم. *man be o'to'bus savor sho'dam* – Men avtobusga chiqdim (o'tirdim).

ما به خواندن کتاب مشغول شدیم. *mo b xondan-e ketob mashg'ul sho'dim* – Biz kitob o'qish bilan mashg'ul bo'ldik.

**1- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni hozirgi-kelasi zamonning bo'lishli shaklida tuslang.

دانستن *donestan* – دان *don* (bilmoq)

گفتن *go'ftan* – گو *gu* (aytmoq)

برداشتن *bar-doshtan* – بر دار *bar-dor* (ko'tarmoq)

گوش دادن *gush dodan* – گوش ده *gush deh* (quloq solmoq)

**2- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni hozirgi-kelasi zamonning bo'lishsiz shaklida tuslang.

خواستن *xostan* – خواه *xoh* (xohlamoq)

نشستن *neshastan* – نشین *neshin* (o'tirmoq)

ورزش کردن *varzesh kardan* – ورزش کن *varzesh ko'n* (badantarbiya qilmoq)

**3- topshiriq.** Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Darsdan so'ng siz qayerga borasiz? Darsdan so'ng men uyga boraman, o'rtog'im kutubxonaga boradi. Fakultetda Ahmadni ko'rdingizmi? Yo'q, u bugun darsga kelmadi. Bugun men darsga bormayman, boshim og'riyapti. Siz kechqurun qayerga borasiz? Bizning uyimiz institutdan uzoq emas. Men har kuni institutga piyoda kelaman. Sen bilasanmi, u kim? Yo'q, bilmayman. O'rtog'imning otasi zavodda ishlaydi. Fors tili darsi boshlandi. O'qituvchi sinfga kirdi. Men Eron yozuvchisi Sodiq Hidoyatning hikoyasini sotib oldim. Navbatchi har kuni ertalab doskani tozalaydi. Doska artadigan latta qayerda? Stolning ustida. Sen qayerga ketayapsan? Men kutubxonaga ketayapman. Siz yozda qayerga borasiz? Men yozda dam olish uchun Samarqand shahriga boraman. Seshanba kuni men akangizni oldida bo'ldim. U sizga salom aytdi. Men har kuni ertalab nonushtadan oldin badantarbiya qilaman. U senga nima deyapti? Uch yildan so'ng men institutni tamom qilaman. Akam fors tilini yaxshi biladi. Biz har kuni olti soat dars o'qiyimiz. O'qituvchi bugun mendan so'ramadi. Men trolleybusga o'tirmayman, piyoda boraman. Biz har kuni qo'limizni sovun bilan yuvamiz. Filologiya fakultetida dars tushdan so'ng boshlanadi. Fors tili kitobingizni kimga berdingiz? Fors tili kitobimni o'rtog'imga berdim.

#### 4- topshiriq. Quyidagi dialoglarni tarjima qiling.

- سلام علیکم فرخ.
- علیکم السلام صابر.
- دالت چطور است؟
- متشکرم، بد نیست.
- احوال تو چطور است؟
- متشکرم، احوال من هم خوب است.
- کجا می روی؟
- به دانشگاه می روم.
- در تاشکند دانشگاه های مهم زیادند، کدام دانشگاه؟
- دانشگاه خاورشناسی دولتی تاشکند.
- آنجا چه می کنی؟
- می روم سر درس.
- مگر تو دانشجویی؟
- بله، چهار ماه است که دانشجوی دانشگاه هستم.
- در کدام شعبه درس می خوانی؟
- در شعبه ی فارسی.
- می گویند، زبان فارسی اسان است؟
- بله، آنقدر مشکل نیست، تلفظش خیلی شیرین است.
- غیر از زبان فارسی چه زبان هایی می خوانید؟
- غیر از زبان فارسی زبان های عربی و انگلیسی یاد می گیریم.

#### 5- topshiriq. O'z kun tartibingizni fors tilida yozib bering.

#### 6- topshiriq. Maqollarni tarjima qiling va yod oling.

*kuh be kuh namirasad odam be odam mirasad.*

*so 'xan-e rost talx mishavad.* سخن راست تلخ می شود.

*bor-e kaj be manzel namirasad.* بار کج به منزل نمی رسد.

*bo yek go 'l bahor namishavad.* با یک گل بهار نمی شود.

*tashne dar xob ob mibinad.* تشنه در خواب آب می بیند.

*kuzegar az kuze-ye shekaste ob mixo 'rad.* کوزه گر از کوزه ی شکسته آب می خورد.

#### Lug'at

کوه *kuh* – tog'

سخن *so 'xan* – so'z

راست *rost* – to'g'ri, rost

تلخ *talx* – achchiq

کوزه *kuze* – ko'za

شکسته *shekaste* – singan

بار *bor* – yuk

کج *kaj* – egri

خواب *xob* – uyqu, tush

آب *ob* – suv

7- **topshiriq.** Quyidagi hikoyani o‘qing, tarjima qiling va fe’ll-larning shaklini aniqlang.

### حکایت

شېب مهتابی دو نفر مست به مردی بر خوردند. ماه را به او نشان دادند و پرسیدند: رفیق اینکه روی آسمان می بینی ماه است یا ستاره؟ آن شخص چون دید هوا پس است گفت: ببخشید بنده اهل این ولایت نیستم.

### Lug‘at

مهتابی *mahtobi* – oydin

شېب مهتابی *shab-e mahtobi* – oydin kecha

ستاره *setore* – yulduz

بنده *bande* – men; qul

ببخشید *bebaxshid* – kechirasiz

نشان دادن *neshon dodan* – ko‘rsatmoq

چون *chun* – paytda, vaqtda

هوا پس است *havo pas ast* – noqulay, o‘ng‘aysiz sharoit

اهل *ahl* – odam, aholi, ahli.

8- **topshiriq.** Qavs ichida berilgan fe’llarni tegishli zamon va shaxslarga qo‘yib, ularni ko‘chirib yozing.

دانشیار سر درس به چه زبانی با شما (صحبت کردن)؟ ما سر درس زبان فارسی جمله ها را از زبان فارسی به ازبکی (ترجمه کردن). تو هر روز صبح ساعت چند از خواب (بیدار شدن)؟ تو چه کتابی (خواندن)؟ تو در دانشگاه چه زبانهایی (یاد گرفتن)؟ مادران چه ساعتی از کار (برگشتن)؟ من در دانشگاه خاورشناسی دولتی تاشکند (تحصیل کردن). برادر بزرگم در دانشکده ادبیات (درس خواندن). پدرم همیشه با اتوبوس سر کار (رفتن). هر روز من قبل از صرف صبحانه دست خود را با صابون (شستن). در دانشگاه ما درس ساعت هشت و نیم (شروع شدن). غیر از زبان فارسی دانشجویان شعبه ی ما زبانهای عربی و انگلیسی هم (یاد گرفتن). این دانشجو را هر روز در سالن قرانت (دیدن). هر روز من بعد از صرف ناهار در حیاط (گردش کردن). من این کتاب را فردا (خواندن) و پس از آن به تو (دادن). امروز او را کجا (دیدن). پدرتان کجا (کار کردن).

9- **topshiriq.** Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 8-tamrinni chiroyli qilib ko‘chirib yozing. So‘ng uni tarjima qiling.

## گفتگو

- حسن، تو هر روز صبح چه ساعتی از خواب بیدار می شوی؟
- معمولا ساعت هفت و گاهی ساعت هفت و نیم.
- بعد چه می کنی؟
- بعد ورزش می کنم، دست و روی خود را می شویم و صبحانه می خورم.
- ساعت چند به دانشگاه می روی؟
- ساعت هشت از خانه بیرون می شوم و بعد از بیست دقیقه به دانشگاه می رسم.
- تا دانشگاه با اتوبوس می روی یا با مترو؟
- با مترو.
- چرا با اتوبوس نمی روی؟
- دانشگاه از خانه ی ما دور است. مترو خیلی تند می رود و زود به دانشگاه می رساند.
- درستان چه ساعتی شروع می شود؟
- ساعت هشت و نیم.
- هر روز چند ساعت درس می خوانید؟
- سه یا چهار ساعت.
- اتاق درستان در طبقه ی چندم است؟
- در طبقه ی هفتم.
- در دانشگاه شما آسانسور هست؟
- بله، استادان و دانشجویان به وسیله آسانسور به طبقه ی هفتم بالا می روند.
- درس اول شما چه درسی است؟
- درس زبان فارسی است.
- تنفس چند دقیقه است؟
- ده دقیقه.
- موقع تنفس ما استراحت می کنیم و کشیک پنجره ها را باز می کند و هوای اتاق عوض می شود.
- درستان چه ساعتی تمام می شود؟
- ساعت یک و نیم.
- بعد از درس کجا می روید؟
- بعد از درس به متروسوار می شوم و به خانه می آیم.
- پدر و مادرم هم ساعت شش یا شش و نیم از سر کار بر می گردند. بعد ما همه سر میز غذاخوری می نشینیم و شام می خوریم.

معمولا *ma'mulan* – odatda  
 دور *dur* – uzoq, olis  
 طبقه *tabaqe* – qavat  
 آسانسور *osonsur* – lift  
 بالا رفتن *bolo raftan* – ko'tarilmoq  
 موقع *mo'uve'* – vaqt, payt  
 باز کردن *boz kardan* – ochmoq  
 عوض کردن *'avaz kardan* – almashtirmoq  
 تند *to'nd* – tez  
 رساندن *rasondan* (رسان) *rason*) yetkazmoq.

## Vaqtning ifodalanishi

### Vaqtning soat orqali ifoda etilishi

Vaqt ساعت *soat* so'zining son bilan birikuvi orqali ifoda etiladi. Bu birikmada soat miqdorini bildiruvchi so'z oldin, ساعت *soat* so'zi esa undan keyin keladi va چند ساعت؟ *chand soat?* – necha soat? degan savolga javob bo'ladi. Masalan:

ساعت شش *shesh soat* – olti soat  
 شما امروز چند ساعت درس دارید؟ *sho 'mo emruz chand soat dars dorid?* – Bugun necha soat darsingiz bor?  
 امروز شش ساعت درس داریم. *emruz shesh soat dars dorim* – Bugun olti soat darsimiz bor.

ساعت *soat* so'zi gapda ega va miqdorni bildiruvchi so'z kesim bo'lib kelganda, miqdorni bildiruvchi so'z kesimlikni ifodalovchi است *ast* bog'lamasini qabul qilib, egadan so'ng keladi va چند ساعت است؟ *soat chand ast?* – soat necha? degan savolga javob bo'ladi. Masalan:

حالا ساعت چند است؟ *holo soat chand ast?* – Hozir soat necha?  
 حالا ساعت پنج است. *holo soat panj ast.* – Hozir soat besh.

Vaqtning muayyan bir paytini ifoda etish uchun avval ساعت *soat* so'zi, so'ng miqdorni bildiruvchi so'z kelib, bir-birlari bilan izofa orqali birikadilar va ساعت چند؟ *soat-e chand?* – soat nechada? چه ساعتی؟ *che soat-i?* – qaysi vaqtda? کی؟ *key?* – qachon? degan savollarga javob bo'ladi.

ساعت چند می آید؟ *soat-e chand mioyid?* – Soat nechada kelasiz?



*dar doneshgoh-e sho 'mo dars soat-e chand sho 'ru' mishavad?* – Institutingizda dars soat nechada boshlanadi?

*dar doneshgoh-e mo dars soat-e no 'h sho 'ru' mishavad* – Institutimizda dars soat to'qqizda boshlanadi.

Soat nechada? Qachon? savollariga javob bo'lib kelgan bu birikma o'zbek tilida o'rin-payt kelishigining belgisi – *da* qo'shimchasi orqali ifoda etilsa, fors tilida esa izofa orqali beriladi. Masalan:

O'zbekchada

Soat to'rtida

Soat o'nda

Forschada

*soat-e chahor* ساعت چهار

*soat-e dah* ساعت ده

Vaqtning ma'lum paytini aniqroq ko'rsatish uchun ko'pincha *so 'bh* – (ertalab), *ba 'd az zo 'hr* – (tushdan so'ng), *asr* – (kech, kechqurun), *shab* – (kechasi, kech), *do 'ro 'st* – (rosa, xuddi) kabi so'zlar ham ishlatiladi. Bu so'zlardan faqat *do 'ro 'st* so'zi vaqtning ifodalovchi birikma boshida, qolganlari esa birikma oxirida kelib, u bilan izofa orqali bog'lanadilar. Masalan:

*do 'ro 'st soat-e panj* – Rosa soat beshda.

*soat-e haft-e so 'bh* – Ertalab soat yettida.

*soat-e hast-e shab* – Kech soat sakkizda.

*soat-e chahor-e ba 'd az zo 'hr* – Tushdan so'ng to'rtida.

### Vaqtning soat va daqiqa orqali ifodalanishi

Vaqtning soat va daqiqa orqali ifoda etish uchun avval *soat*, so'ng daqiqa miqdorini bildirilgan so'z keladi.

Bu birikmada soat miqdori va daqiqa miqdori *o ' bog'lovchisi* orqali bog'lanib keladi. Masalan:

*soat panj-o ' dah daqiqe ast* – Soat beshdan o'n daqiqa o'tdi.

Agar vaqt miqdori 30 dan kam bo'lsa, soat miqdoridan so'ng shu soat miqdoridan o'tgan daqiqa miqdori keladi. Masalan:

*soat chahor-o ' bist daqiqe ast* – Soat to'rt-dan yigirma daqiqa o'tdi.

*soat haft-o' sizdah daqiqe ast* – Soat yettidan o'n uch daqiqa o'tdi.

Agar daqiqa miqdori 15 bo'lsa, 15 so'zi o'rniga ko'pincha ربع *ro 'b'* (chorak) so'zi ishlatiladi. Masalan:

*soat davozdah-o' ro 'b' ast* – Soat o'n ikkidan chorak o'tdi.

*soat shesh-o' ro 'b' ast* – Soat oltidan chorak o'tdi.

Agar daqiqa miqdori 30 bo'lsa, 30 so'zi o'rnida نیم *nim* (yarim) so'zi ishlatiladi. Masalan:

*soat hasht-o' nim ast* – Soat sakkiz yarim.

*soat yek-o' nim ast* – Soat bir yarim.

Agar daqiqa miqdori 30 dan oshiq bo'lsa, soat miqdoridan so'ng soat miqdoriga yetishmagan daqiqa miqdori hamda birikma oxiriga (kam) so'zi qo'yiladi.

*soat chahor-o' dah daqiqe kam ast* – Soat o'n daqiqa kam to'rt.

*soat no 'h - o' ro 'b' kam ast* – Soat chorakam to'qqiz.

Vaqt bo'lagini ifodalovchi bu birikmada o'zbek tilidagi ana shunday birikma tartibining aksini ko'ramiz. Ya'ni, o'zbek tilida avval daqiqa miqdori, so'ng soat miqdori ko'rsatilsa, fors tilida aksincha, avval soat, so'ng daqiqa miqdori ifoda etiladi.

### O'zbek tilida

Soat yigirma daqiqa kam yetti

### Fors tilida

Soat haft-o' bist daqiqe kam ast

**Eslatma!** ربع *ro 'b'* va نیم *nim* so'zlari o'zbek tilidagidek ko'proq xalq tiliga oid bo'lib, adabiy tilda asosan پانزده دقیقه *ponzdah daqiqe* (o'n besh daqiqa) va سی دقیقه *si daqiqe* (o'ttiz daqiqa) birikmalari ishlatiladi. Masalan:

*soat dah-o' ponzdah daqiqe ast* – Soat o'ndan o'n besh daqiqa o'tdi.

*soat do '-o' si daqiqe ast* – Soat ikkidan o'ttiz daqiqa o'tdi.


## ساعت چنر است!



ساعت هفت و بیست و پنج دقیقه است



ساعت درت چهار است



ساعت زورج است



ساعت دو ده دقیقه است



ساعت پنج و سی دقیقه است



ساعت یک و نیم است

**1- topshiriq.** Quyidagi birikma va iboralarni yod oling va ular yordamida 20 ta gap tuzing.

ساعت مچی *soat-e mo'chi* – qo'l soati

ساعت بغلی *soat-e bag'ali* – yon soati

ساعت دیواری *soat-e divori* – devor soati

ساعت رومیزی *soat-e rumizi* – stol soati

ساعت شماطه دار *soat-e shammotedor* – budilnik

ساعتم عقب است *soatam 'aqab ast* – soatim orqada

ساعتم جلو است *soatam jelo'u ast* – soatim oldinda

ساعتم در شبانه روز... دقیقه عقب می ماند. *soatam da shaboneruz ... daqiqa 'aqab mimonad* – Soatim sutkada . . . daqiqa orqada qoladi.

ساعتم در شبانه روز... دقیقه جلو میرود. *soatam dar shaboneruz ... daqiqa jelo'u miravad* – Soatim sutkada . . . daqiqa oldin ketadi.

ساعتم خراب شده است *soatam xarob sho'de ast* – soatim (to'xtab) buzilib qolibdi

کوک کردن *kuk kardan* – (soatni) buramoq

ساعت خود را کوک کردم *soat-e xo'dro kuk kardam* – Soatimni buradim.

فراموش کردم ساعت را کوک کنم *faromush kardam soatamro kuk ko'nam* – Soatimni burash esdan chiqibdi.

**2- topshiriq.** Vaqt ifodalangan ibora va birikmalarni forschaga tarjima qiling.

Soat o'n bir. Soat ikkidan o'n daqiqa o'tdi. Soat sakkizdan besh daqiqa o'tganda. Ertalab soat yetti yarimda. Rosa soat to'qqizda. Tushdan so'ng soat to'rtida. Soat chorakam o'n ikki. Soat o'n sakkiz daqiqa kam olti. Kech soat o'nda. Soat yigirma daqiqa kam o'n ikki. Tushdan so'ng soat uchda. Soat birdan yigirma yetti daqiqa o'tdi. Soat o'n besh daqiqa kam sakkiz. Tushdan so'ng soat chorakam beshda. Ertalab soat yigirma daqiqa kam sakkizda. Soat besh daqiqa kam ikki.

**3- topshiriq.** Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Men ertalab soat sakkiz yarimda uydan chiqaman va o'n besh daqiqadan so'ng fakultetga yetib kelaman. Men kutubxonaga ket-yapman, kech soat yettida qaytaman. Yigirma daqiqadan so'ng darsimiz boshlanadi. Tarix fakultetida dars tushdan so'ng soat ikkida boshlanadi. Ertalab soat nechada nonushta qilasan? Men ertalab chorakam sakkizda nonushta qilaman. Uyingizdan fakultetgacha necha daqiqali yo'l? Bizning fakultetda lift yo'q, tepaga piyoda chiqamiz. Darsimiz soat to'qqizda boshlanadi va bir-u yigirmada tugaydi. Bu qanaqa soat? Bu qo'l soati. U devor soati. Soatim kuniga 5 daqiqa oldinda ketadi. Soatimni har kuni ertalab burayman. Bugun soatimni burash esimdan chiqibdi. Soatim to'xtab qolibdi.

**4- topshiriq.** Savollarga og'zaki shaklda javob bering.

- ساعت چند نوع است؟
- این چه ساعتی است؟
- شما چه ساعتی دارید؟
- آیا شما ساعت مچی دارید؟
- ساعتتان شبانه روز چند دقیقه عقب می ماند (جلو می رود)؟
- حالا ساعت چند است؟
- روزی چند ساعت درس می خوانید؟
- درستان ساعت چند شروع می شود؟
- روزهای تعطیل به چه کاری مشغول می شوید؟
- در ایران چه روزی روز تعطیل است؟
- یک ماه چند روز است؟
- یک سال چند ماه است؟
- یکشنبه چه روزی است؟
- هر روز ساعت چند از خواب بیدار می شوید؟

– از منزل شما تا دانشکده چند دقیقه راه است؟  
– پدرتان ساعت چند از سر کار بر می گردد؟

**5- topshiriq.** Hikoyani o‘qing va tarjima qiling. Hikoya yuzasidan bir nechta savol tuzing va savollaringizga o‘rtog‘ingizdan javob oling.

### حکایت

روزی پادشاه ظالمی تنها از شهر بیرون رفت. شخصی را دید. از او پرسید: پادشاه این ملک چطور است؟ ظالم یا عادل؟ گفت: بسیار ظالم است. پادشاه گفت: مرا می شناسی؟ گفت: خیر، نمی شناسم. گفت: من پادشاه این ملک هستم. آن مرد ترسید و پرسید: میدانی من کیستم؟ پادشاه گفت: خیر، نمی دانم. گفت: من پسر فلان تاجر و هر ماه سه روز دیوانه می شوم. امروز یکی از آن سه روز است. پادشاه خندید و چیزی به او نگفت.

### واژه ها

تنها *tanho* – yolg‘iz, bir o‘zi  
 بیرون رفتن *birun raftan* – tashqariga chiqmoq  
 دیدن *didan* (بین *bin*) – ko‘rmoq  
 پرسیدن *po‘rsidan* (پرس *po‘rs*) – so‘ramoq  
 ملک *mo‘lk* – mamlakat  
 عادل *odel* – adolatli, odil  
 ظالم *zolem* – zolim  
 شناختن *shenoxtan* (شناس *shenos*) – tanimoq, bilmoq  
 ترسیدن *tarsidan* (ترس *tars*) – qo‘rqmoq  
 تاجر *tojer* – savdogar  
 دیوانه شدن *divone sho‘dan* – devona bo‘lmoq, aql dan ozmoq  
 خندیدن *xandidan* -- (خند *xand*) – kulmoq

**6- topshiriq.** Quyidagi birikmalarni o‘qing va tarjima qiling.

ساعت ۷ صبح است.	ساعت ۹ و ۱۰ دقیقه است.
ساعت ۱۰ و ربع است.	ساعت ۵ و ۱۵ دقیقه است.
ساعت ۸ و ربع کم است.	ساعت ۷ و نیم است.
ساعت ۶ و ده دقیقه کم است.	ساعت ۳ و بیست دقیقه است.
ساعت ۸ و ۲۵ دقیقه است.	ساعت ۱۱ و ۱۵ دقیقه کم است.
ساعت ۳ بعد از ظهر.	ساعت ۸ و ۲۰ دقیقه است.
	ساعت ۶ عصر.

## 7- topshiriq. Savollarga yozma shaklda javob qaytaring.

- حالا ساعت چند است؟
- چه ساعتی به دانشگاه می آید؟
- به چه وسیله ای به دانشگاه می آید؟
- از خانه ی شما تا دانشگاه چند دقیقه راه است؟
- ساعت اول چه درسی دارید؟
- شما بعد از درس به خانه می روید یا به تالار مطالعه؟
- دانشکده ی شما در طبقه ی چندم قرار دارد؟
- در دانشکده چه زبانهایی یاد می گیرید؟
- آیا دانشیار زبان فارسی تان ایرانی است؟
- معمولاً شما ساعت چند ناهار می خورید؟
- دانشگاه شما اساتوسور دارد؟
- دانشگاه شما چند طبقه ای است؟
- غیر از زبان فارسی چه زبانهایی یاد می گیرید؟
- مادرتان ساعت چند از سر کار بر می گردد؟

### Lug‘at

یاد گرفتن *yod gereftan* – o‘rganmoq

وسیله *vasile* – vosita

راه *roh* – yo‘l

تالار مطالعه *tolor-e mo‘tola‘e* – o‘qish zali

ناهار خوردن *nohor xo‘rdan* – tushlik qilmoq

## O‘n to‘rtinchi dars

## درس چهاردهم

### خانواده ی ما

خانواده ی ما عبارت از شش نفر است. من، پدر و مادر، دو برادر بزرگ و یک خواهر کوچک دارم. پدرم در انستیتوی ریاضیات فرهنگستان علوم از پاکستان کارمند علمی است. مادرم آموزگار است و در یکی از دبیرستانهای تاشکند تدریس می کند. یکی از برادران بزرگم مهندس است و با زن و دختر چهار ساله خود در شهر فرغانه زندگی می کند. برادر دیگرم در اداره ی نشریات روزنامه ی صدای ازبکستان مشغول کار است. او هنوز جوان است و زن ندارد. خواهر کوچکم دوازده سال دارد. او در دبیرستان تحصیل می کند. دختر برانرم به کودکستان میرود. خانه ی ما در خیابان فرقت قرار دارد. خانه ی ما سه اتاقه است. من دانشجو هستم و هجده سال دارم. با مادر و پدر و خواهر کوچکم در این خانه زندگی می کنم. یک اتاق مال من است. اتاق دیگر مال خواهرم است. اتاق من کوچک ولی خیلی روشن است و دو پنجره ی بزرگ دارد. من در اتاق خود میز تحریر، ساعت دیواری، قفسه ی کتاب، تختخواب و دو

صندلی دارم. در طرف راست دیوار اطاقم عکس مادرم و طرف چپ نقشه ی ایران آویزان است. در قفسه ی کتاب من کتابهای فارسی، عربی، انگلیسی، روسی و ازبکی وجود دارد. من چند تا رفیق و دوست دارم. آنها روز های تعطیل پیش من می آیند و ما با هم به سینما یا برای تماشای مسابقه های فوتبال به ورزشگاه می رویم. پشت خانه ی ما باغی است که درختان پرسیاه دارد. روز های تابستان هنگامی که هوا گرم می شود اغلب ما در این باغ زیر درختها استراحت می کنیم.

ما پدر و مادر خود را احترام می گذاریم و آنها را خیلی دوست داریم. در شهر تاشکند قوم و خویش هم داریم. آنها به کارهای گوناگون مشغولند. آنها بعضی روزها به خانه ی ما می آیند یا مارا به مهمانی به خانه ی خود دعوت می کنند. یکی از خویشان ما اتومبیل سواری دارد. او تابستان روزهای تعطیل مارا بیرون شهر می برد و ما تمام روز را در آنجا به گردش و هواخوری می گذرانیم.

### واژه ها

خانه *xonevode* – oila

ریاضیات *riyoziyot* – matematika

آموزگار *omuzgor* – maktab o'qituvchisi

زندگی کردن *zandegi kardan* – yashamoq

هنوز *hanuz* – hali, hali ham, hanuz

میز تحریر *miz-e tahrir* – yozuv stoli

قفسه ی کتاب *qafase-ye ketob* – kitob javoni

تختخواب *taxtexob* – karavot

راست *rost* – o'ng, to'g'ri, rost

طرف راست *taraf-e rost* – o'ng tomon

طرف چپ *taraf-e chap* – chap tomon

عکس *aks* – surat, rasm, aks

نقشه *naqshe* – xarita

آویزان است *ovizon ast* – osilgan, osig'lig'

انگلیسی *englisi* – inglizcha

روسی *rusi* – ruscha

ازبکی *o'zbeki* – o'zbekcha

مطالعه کردن *mo'tola'e kardan* – mutolaa qilmoq, o'qimoq

چندین *chandin* – bir qancha, bir necha

باهم *boham* – birga

فرهنگ *farhang* – lug'at

فرهنگ فارسی به روسی *farhang-e forsi be rusi* – forscha-ruscha lug'at

مسابقه ی فوتبال *mo'sobaqe-ye futbol* – futbol musobaqasi, futbol o'yini

پرسیاه *po'rsoye* – soyali, salqin

هنگامی که *hengomi ke* – . . . gan vaqtda, . . . gan paytda

گذرانیدن *go'zaronidan* – o'tkazmoq

خویش *qo'um-o' xish* – qarindosh  
 گوناگون *gunogun* – har xil, turli  
 اغلب *ag'lab* – ko'p, ko'pincha  
 دعوت کردن *da'vat kardan* – chaqirmoq, taklif etmoq  
 دعوت کردن به مهمانی *be mehmoni da'vat kardan* – mehmondorchilikka taklif etmoq  
 اتومبیل سواری *o'to'mo'bil-e savori* – yengil mashina  
 بیرون شهر *birun-e shahr* – shahar tashqarisi  
 تمام *tamom* – butun, hamma  
 هوا خوری *havoxo'ri* – havo olmoq, sayohat qilmoq  
 احترام گذاشتن *ehterom go'zoshtan* – hurmat qilmoq, e'zozlamoq  
 دوست داشتن *dust doshtan* – sevmoq, yaxshi ko'rmoq

## GRAMMATIK IZOH

### داشتن *doshtan* (دار *dor ega bo'lmoq, bor bo'lmoq*) fe'li haqida

Fors tilida hamma fe'llar hozirgi-kelasi zamonda tuslanganda *می* *mi* old qo'simchasini qabul qiladilar, ammo داشتن fe'li bundan mustasno bo'lib, hozirgi-kelasi zamonda tuslanganda *می* old qo'simchasini qabul qilmay, hozirgi zamon negizi (دار *dor*) ga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi va o'zbek tiliga *bor* so'zi hamda fe'l ifodalagan tegishlilikni bildiruvchi so'zga egalik qo'shimchalarini qo'shib tarjima qilinadi. Ma'no jihatdan rus tilidagi *imeti* fe'liga to'g'ri keladi.

#### مفرد

من کتاب دارم *man ketob doram* – Mening kitobim bor.  
 تو کتاب داری *to' ketob dori* – Sening kitobing bor.  
 او کتاب دارد *u ketob dorad* – Uning kitobi bor.

#### جمع

ما کتاب داریم *mo ketob dorim* – Bizning kitobimiz bor.  
 شما کتاب دارید *sho'mo ketob dorid* – Sizning kitobingiz bor.  
 آنها کتاب دارند *onho ketob dorand* – Ularning kitobi bor.

داشتن fe'lining hozirgi-kelasi zamon bo'lishsiz shakli *نه* *na* – inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:

من کتاب ندارم *man ketob nadoram* – Mening kitobim yo'q.  
 او وقت ندارد *u vaqt nadorad* – Uning vaqti yo'q.



ما امروز درس زبان فارسی نداریم. *mo emruz dars-e zabon-e forsi nadorim* – Bugun bizning fors tilidan darsimiz yo‘q.

داشتن *fe’lining bo’lishsiz shaklida urg’u na* – inkor yuklamasiga tushadi.

داشتن *fe’li qo’shma fe’l tarkibida ko’makchi fe’l vazifasida kel-sa, mi* old qo’shimchasini qabul qilib kelishi ham mumkin.

Masalan:

ما ميهن خود را خيلي دوست می داریم. *mo mihan-e xo’dro xeyli dust midorim* – Biz o‘z vatanimizni juda sevamiz.

## Yoshning ifodalanishi

Fors tilida kishining yoshi *sol* (yil, yosh) so‘zining *doshtan fe’li* bilan birikuvi orqali ifoda etiladi. Masalan:

من بیست سال دارم. *man bist sol doram* – Men yigirma yoshdaman.

برادر بزرگم سی سال دارد. *barodar-e bo’zo’rgam si sol dorad* – Akam o‘ttiz yoshda.

پدرم پنجاه و هفت سال دارد. *pedaram panjoh-o’ haft sol dorad* – Otam ellik yetti yoshda.

Necha yoshda ekanligini bilmoq uchun *sol* va *doshtan* *birikmasi oldiga chand* (necha) so‘roq olmoshi qo‘yiladi.

شما چند سال دارید؟ *sho’mo chand sol dorid?* – Siz necha yoshdasiz?

تو چند سال داری؟ *to’ chand sol dori?* – Sen necha yoshdasan?

او چند سال دارد؟ *u chand sol dorad?* – U necha yoshda?

خواهرتان چند سال دارد؟ *xohareton chand sol dorad?* – Opangiz necha yoshda?

*sol* so‘ziga *-e* qo‘shimchasini qo‘shish orqali undan nisbiy sifat yasaladi va o‘zbek tiliga *yashar, yillik* deb tarjima qilinadi.

Masalan:

پنج ساله *panjsole* – besh yillik, besh yashar

شصت ساله *shastsole* – oltmish yillik, oltmish yashar

دختر هفت ساله *do’xtar-e haftsole* – yetti yashar qiz

برنامه پنج ساله *barnome-ye panjsole* – besh yillik reja

برادر بزرگم دختر سه ساله دارد. *barodar-e bo’zo’rgam do’xtar-e sesole dorad* – Akamning uch yashar qizi bor.

## **ی- i qo‘shimchasini olgan دیگر digar va یک yek so‘zlarining ma‘nosi**

ی- i qo‘shimchasini qo‘shish orqali gapda qayd etilgan predmet yoki shaxslardan birini ajratib ko‘rsatish ma‘nosi ifodalanadi:

دیگر digari – boshqasi

یکی yeki – biri

Masalan:

من دو خواهر بزرگ دارم. یکی پزشک است و در بیمارستان کار می کند و دیگری آموزگار است و در یکی از دبیرستانهای تاشکند تدریس می کند.

*man do‘ xohar-e bo‘zo‘rg doram. yeki pezeshk ast va dar bimoreston kor miko‘nad va digari omuzgor ast va dar yeki az dabirestonho-ye toshkand tadrīs miko‘nad* – Mening ikkita opam bor. Biri vrach va kasalxonada ishlaydi. Boshqa biri o‘qituvchi va Toshkent maktablaridan birida dars beradi.

## **Egalikning ifodalanishi (davomi)**

Fors tilida egalik ma‘nosi oldingi darslarda qayd etilgan egalik affiksalaridan tashqari مال *mol* so‘zi yoki از آن *az on* birikmasi bilan ham ifoda etiladi.

مال *mol* so‘zi yoki از آن *az on* birikmasi ot, ko‘pincha olmoshlar oldidan kelib, ular bilan izofa orqali bog‘lanadi. O‘zbek tiliga egalikning bu shakli – *niki* affiksi orqali tarjima qilinadi. Masalan:

از آن من *az on-e man* – meniki

از آن تو *az on-e to‘* – seniki

از آن او *az on-e u* – uniki

از آن ما *az on-e mo* – bizniki

از آن شما *az on-e shomo* – sizniki

از آن آنها *az on-e onho* – ularniki

*in kif az on-e man ast* – Bu portfel meniki.

*in ketob az on-e kist?* – Bu kitob kimniki?

*in ketob az on-e ahmad ast* – Bu kitob Ahmadniki.

از آن *az on* birikmasi bilan مال *mol* so‘zi o‘zaro sinonim bo‘lib, مال *mol* so‘zi ko‘proq og‘zaki xalq tilida va از آن *az on* adabiy tilda ishlatiladi.

*in ketob mol-e man ast* – Bu kitob meniki.

.تام ثروتهای کشور مال مردم است. *tamom-e sarvatho-ye keshvar mol-e mardo'm ast* – Mamlakatning barcha boyliklari xalqnikidir (xalq mulkidir).

.این پالتو مال خواهرم است. *in polto' mol-e xoharam ast* – Bu palto opamniki.

## 1- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Mening forscha kitobim bor. Siz necha yoshdasiz? Men yigirma bir yoshdaman. Onangiz necha yoshda? Bu lug‘at akamniki. Opamning olti yashar qizi bor. U hali maktabga bormaydi. Mening akam o‘z oilasi bilan Buxoro shahrida yashaydi. Uning ikkita o‘g‘li bor: biri o‘n bir yoshda, ikkinchisi besh yoshda. Katta o‘g‘li maktab o‘quvchisidir. Sizning vaqtingiz bormi? Uning vaqti yo‘q. Fakultetimiz kutubxonasida arabcha, forscha, hindcha, inglizcha va ruscha kitoblar bor. O‘zbekiston Respublikasida turli millat vakillari yashaydi. Bu talaba arab tilini yaxshi biladi. O‘rtog‘imning otasi Toshkent zavodlaridan birida ishlaydi. Mening soatim yo‘q, lekin akamning soati bor. Bu auditoriyaning doskasi, kitob shkafi, stol va stullari bor. Mening ikkita lug‘at kitobim bor: biri forscha-ruscha va ikkinchisi ruscha-o‘zbekcha. Bizning qarindoshlarimizdan biri Moskva shahrida yashaydi. Sizning ukangiz maktabga boradimi? Men sharq fakultetida fors tilini o‘rganaman. Sizning xonangizda nimalar bor? Mening xonamda ikki deraza, pechka va eshik bor. Siz dam olish kunlari qayerga borasiz? Men dam olish kunlari o‘rtoqlarim bilan yengil mashinaga o‘tirib, dam olish uchun shahar tashqarisiga chiqaman. Mening ikki do‘stim bor: biri tibbiyot institutida o‘qiydi, ikkinchisi (boshqasi) universitetning tarix fakultetida o‘qiydi. Ulardan biri shaharda yashaydi, boshqasi qishloqda yashaydi.

## 2- topshiriq. Quyidagi terminlarni yod oling va ular ishtirokida 15 ta gap tuzing.

خانواده *xonevode* – oila

برادر بزرگ *barodar-e bo‘zo‘rg* – aka

برادر کوچک *barodar-e kuchek* – uka

خواهر بزرگ *xohar-e bo‘zo‘rg* – opa

خواهر کوچک *xohar-e kuchek* – singil

پدر و مادر *pedar-o‘modar* – ota-ona

دوشیزه *dushize* – qiz bola (bo‘yiga yetgan)

پسر *pesar* – o‘g‘il, o‘g‘il bola

بزرگ پدر *pedar-bo 'zo 'rg* – buva, bobo  
 بزرگ مادر *modar-bo 'zo 'rg* – buvi  
 خاله *xole* – xola  
 عمه *ame* – amma  
 عمو *amu* – amaki  
 دایی *doyi* – tog'a  
 زن *zan* – xotin, ayol kishi  
 مرد *mard* – erkak, erkak kishi  
 شوهر *shou 'har* – er  
 عروس *arus* – kelin  
 داماد *domod* – kuyov  
 خویش *xish* – qarindosh, o'z  
 زبان مادری *zabon-e modari* – ona tili  
 برادر تتی *barodar-e tani* – tug'ishgan aka-uka  
 خواهر تتی *xohar-e tani* – tug'ishgan opa-singil  
 تولد یافتن *tavallo 'd yoftan* – tug'ilmoq  
 زاییدن *zoyidan* – tug'moq  
 مجرد *mo 'jarrad* – bo'ydoq, uylanmagan  
 متاهل *mo 'taahhel* – uylangan, oilali

**3- topshiriq.** Quyidagi latifani o'qing, tarjima qiling va *doshtan* fe'li gapda qaysi ma'noda kelganini aytib bering.

### لطیفه

از ملا نصرالدین پرسیدند: چند سال داری؟ گفت: چهل سال دارم. بعد از ده سال پرسیدند که چند سال داری؟ جواب داد: چهل. گفتند: تو ده سال قبل گفتی چهل سال دارم. حالا هم می گویی چهل سال. ملا گفت: حرف مرد یکوست. اگر هزار سال بعد هم بررسی خواهیم گفت چهل سال.

### Lug'at

حالا *holo* – hozir, endi  
 حرف *harf* – so'z, gap  
 یکیست *yek-ist* – bitta bo'ladi  
 خواهم *xoham go 'ft* – aytaman, aytajakman  
 قبل *qabl* – ilgari, avval  
 پیرسید *bepo 'rsid* – so'rasangiz

**4- topshiriq.** Maqollarni tarjima qiling va yod oling.

*divor mush dorad, mush gush dorad.*  
 دیوار موش دارد، موش گوش دارد.  
*yek dast sedo nadorad.*  
 یک دست صدا ندارد.

*doshtam doshtam hesab nist*, داشتتم داشتتم حساب نیست  
*doram doram hesab ast*, دارم دارم حساب است.  
*sabr talx ast va likan bar-e shirin dorad*, صبر تلخ است و لیکن بر شیرین دارد.  
*sir az hol-e go' resne xabar nadorad*, سیر از حال گرسنه خبر ندارد.  
*salom bo 'zo 'rg-o' kuchek nadorad*, سلام بزرگ و کوچک ندارد.

### Lug'at

<i>mush</i> – sichqon	موش <i>gush</i> – quloq
<i>likan</i> – lekin	لیکن <i>shirin</i> – shirin
<i>sir</i> – to'q (qorni)	سیر <i>go' resne</i> – och (qorni)
<i>hol</i> – hol, ahvol	حاله <i>xabar</i> – xabar, xabardor
<i>bar</i> – meva, hosil	بر

### 5- topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

- |                                   |                                 |
|-----------------------------------|---------------------------------|
| – خانہ ی شما چند اتاق دارد؟       | – اعضای خانواده شما چند نفرند؟  |
| – خواهرتان چند فرزند دارد؟        | – تو چند برادر و خواهر داری؟    |
| – برادر تو چند سال دارد؟          | – تو برادر یا خواهر داری؟       |
| – خواهرتان شوهر دارد؟             | – خواهر بزرگ تو چند سال دارد؟   |
| – برادر کوچکش چند سال دارد؟       | – برادرتان زن دارد؟             |
| – برادر و خواهرتان چه کاره هستند؟ | – تو چند سال داری؟              |
| – این کتاب مال کیست؟              | – این چه کتابی است؟             |
| – این قلم از آن شماست؟            | – آن مجله مال کیست؟             |
| – اسم پسر شما چیست؟               | – پدرتان کجا کار می کند؟        |
|                                   | – آیا این کتاب فارسی مال شماست؟ |

### 6- topshiriq. Quyidagi jummlarni o'qing va tarjima qiling.

- |                                  |                                  |
|----------------------------------|----------------------------------|
| برادر بزرگم ۲۳ سال دارد.         | من ۱۹ سال دارم.                  |
| خواهر بزرگم ۳۰ سال دارد.         | خواهر کوچکم ۱۰ سال دارد.         |
| پدرم ۵۴ سال دارد.                | مادرم ۵۰ سال دارد.               |
| آن کیف مال استاد است.            | احمد و فاطمه زن و شوهرند.        |
| آن اطاق مال من است.              | این صندلی مال من است.            |
| آن دانشجو کتاب زبان فارسی ندارد. | اطاق دیگر مال خواهرم است.        |
| حسن و لاله خواهر و برادرند.      | مرغ دو پا دارد و لیکن دست ندارد. |
| دوستم نه خواهر دارد و نه برادر.  | من هم خواهر دارم و هم برادر.     |
- دانشکده ی ما چند شعبه دارد: شعبه ی تاریخ، شعبه ی اقتصاد، شعبه ی ادبیات،  
 شعبه ی زبانهای اروپایی، شعبه ی زبانهای شرقی و غیره.

## 7- topshiriq. Quyidagi gaplarga savol tuzing.

### میهن ما

کشور ما ازبکستان است.  
پایتخت کشور ازبکستان شهر تاشکند است.  
ما با خانواده ی خود در شهر تاشکند زندگی می کنیم.  
ازبکستان میهن ما است.  
کشور ما شهرها و روستاهای بسیاری دارد.  
بعضی از مردم کشور در شهر و بعضی ها در روستاها زندگی می کنند.  
ما هر جا که زندگی می کنیم، آن میهن ماست.  
ما میهن خود را دوست داریم و به آن احترام می گذاریم.  
دوست داشتن میهن نشانه ی ایمان است.  
پرچم کشور ایران سه رنگ دارد.  
رنگ بالای پرچم ایران سبز است.  
رنگ وسط پرچم ایران سفید است.  
رنگ پایین پرچم ایران سرخ است.

## 8- topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

پرچم دولتی جمهوری ازبکستان چند رنگ دارد؟  
بالای پرچم ازبکستان چه رنگی دارد؟  
وسط پرچم ازبکستان چه رنگی دارد؟  
پایین پرچم ازبکستان چه رنگی دارد؟

## 9- topshiriq. O‘zingiz va oilangiz haqida forsha so‘zlab bering.

## O‘n beshinchi dars

## درس پانزدهم

### گفتگو

– شما کجا تحصیل می کنید؟  
– من در دانشکده ی خاوره، ناسی تحصیل می کنم.  
– شما در دانشکده چه زبانهایی می آموزید؟  
– ما در دانشکده زبانهای خارجی می آموزیم.  
– شما به زبان فارسی حرف می زنید؟  
– بله، من به زبان فارسی حرف می زنم.  
– شما با چه کسی به زبان فارسی حرف می زنید؟  
– ما با دانشیار خود به زبان فارسی حرف می زنیم.

- شما به زبان فارسی خوب صحبت می کنید؟
- نخیر، هنوز ما به زبان فارسی خوب صحبت نمی کنیم.
- شما دیگر چه زبانهایی یاد می گیرید؟
- ما زبانهای عربی، انگلیسی و روسی را هم یاد می گیریم.
- شما کتابهایی به زبانهای خارجی دارید؟
- بله، من پنج جلد کتاب فارسی و چند جلد کتاب عربی و انگلیسی دارم.
- این چه کتابی است؟
- این دستور زبان فارسی است.
- شما هر روز چند ساعت درس دارید؟
- ما هر روز شش ساعت درس داریم.
- درستان کی تمام می شود؟
- درسمان ساعت سه بعد از ظهر تمام می شود.
- تو چه کتابی خریدی؟
- من کتاب رباعیات عمر خیام را خریدم.
- شما کجا ناهار می خورید؟
- من در ناهارخوری دانشگاه ناهار می خورم.
- شما پس از صرف ناهار کجا می روید؟
- من پس از صرف ناهار به کتابخانه می روم.
- چرا دیروز پیش من نیامدید؟
- من دیروز وقت نداشتم امروز میایم.
- پس فردا کجا می روید؟
- پس فردا به مغازه ی کتابفروشی می روم.
- دانشکده ی شما میدان ورزشی دارد؟
- بله، دانشکده ی ما میدان ورزشی دارد.
- چرا شما پریروز سر درس نیامدید؟
- من پریروز مریض بودم.
- شما در جلسه ی علمی دانشجویان سخنرانی کردید؟
- بله، من در جلسه ی علمی دانشجویان سخنرانی کردم.
- تالار جلسات دانشکده کجا قرار دارد؟
- تالار جلسات دانشکده در طبقه ی سوم قرار دارد.

### واژه ها

تأسیل کردن *tahsil kardan* – o'qimoq (o'quv yurtida)  
 آموختن *omuxtan* (آموز) *omuz* – o'rganmoq, o'rgatmoq  
 یاد گرفتن *yod gereftan* – o'rganmoq  
 خارجی *xoreji* – chet, xorijiy  
 حرف زدن *harf zadan* – gapirmoq, so'zlammoq  
 گفتگو کردن *go'fto'gu kardan* – gaplashmoq, so'zlashmoq  
 دستور زبان *dastur-e zabon* – grammatika

مغازه *mag'oze* – magazin  
 کتابفروشی مغازه *mag'oze-ye ketobfiroshchi* – kitob magazini  
 کی *key* – qachon  
 چرا *chero* – nega, nima uchun  
 شناختن *shenoxtan* (شناس *shenos*) – tanimoq  
 رباعیات *ro'boiyot* – ruboiylar  
 عمر خیام *'omar xayyom* – Umar Xayyom  
 ناهار خوردن *nohor xo'rdan* – tushlik qilmoq, ovqatlanmoq  
 ناهار خوری *nohorxo'ri* – oshxona  
 دیروز *diruz* – kecha  
 پریروز *pariruz* – avvalgi kun, o'tgan kun  
 فردا *fardo* – ertangi kun  
 پس فردا *pasfardo* – indinga, indin  
 مریض *mariz* – kasal  
 بودن *budan* (باش *bosh*) – emoq, bo'lmoq  
 جلسه *jalase* – majlis  
 علمی *'elmi* – ilmiy  
 سخنرانی *so'xanroni* – nutq, ma'ruza  
 سخنرانی کردن *so'xanroni kardan* – nutq so'zlamok, ma'ruza qilmoq  
 تالار *tolor* – zal  
 سالن *solo'n* – zal  
 سالن ورزش *solo'n-e varzesh* – sportzal  
 شطرنج *shatranj* – shaxmat  
 شطرنج بازی کردن *shatranj bozi kardan* – shaxmat o'ynamoq

## GRAMMATIK IZOH

### نسبت یای *yo-ye nesbat*

Fors tilida otlarga *-i* qo'shimchasini qo'shish orqali ulardan nisbiy sifat yasaladi. Bu *-i* fors grammatikasida *یای نسبت yo-ye nesbat* deyiladi.

*یای نسبت yo-ye nesbat* i deb o'qilib, doimo urg'u bilan talaffuz etiladi. Masalan:

دیوار *divor* – devor

ایران *iron* – Eron

تابستان *tobeston* – yoz

زمستان *zemeston* – qish

امروز *emruz* – bugun

فارس *fors* – fors

دیواری *divori* – devoriy

ایرانی *ironi* – Eronlik

تابستانی *tobestoni* – yozgi

زمستانی *zemestoni* – qishki

امروزی *emruzi* – bugungi

فارسی *forsi* – forsiy



اقتصاد *eqtesod* – iqtisod

اقتصادی *eqtesodi* – iqtisodiy

علم *elm* – ilmi

علمی *elmi* – ilmiy

دولت *do'ulat* – davlat

دولتی *do'ulati* – davlat, davlatga oid

Misollar:

روزنامه ی دیواری *ruznome-ye divori* – devoriy gazeta

زبان فارسی *zabon-e forsi* – forsi tili

مسئله ی اقتصادی *mas'ale-ye eqtesodi* – iqtisodiy masala

جلسه ی علمی *jalase-ye elmi* – ilmiy konferensiya

دانشگاه دولتی *doneshgoh-e do'ulati* – davlat universiteti

ko'pincha biror tilni ifoda etishda yoki biror shaxsni kelib chiqish joyini ko'rsatishda ishlatiladi. Masalan:

عرب *'arab* عربی *'arabi* زبان عربی *zabon-e arabi* – arab tili

آلمان *olmon* آلمانی *olmoni* زبان آلمانی *zabon-e olmoni* – nemis tili

ترک *to'rk* ترکی *to'rki* زبان ترکی *zabon-e to'rki* – turk tili

فارس *fors* فارسی *forsi* زبان فارسی *zabon-e forsi* – forsi tili

yoki:

ایران *Iron* ایرانی *ironi* – eronlik

شیراز *Shiroz* شیرازی *shirozi* – sherozlik

سمرقند *Samarqand* سمرقندی *samarqandi* – samarqandlik

مشهد *Mashhad* مشهدی *mashhadi* – mashhadlik

Shoir yoki olimning taxallusi ham shu usulda yasaladi. Masalan:

شیرازی سعدی *sa'di-ye shirozi* – Sa'diy Sheroziy

عبد الرزاق سمرقندی *'abd-o'r-razzoq-e samarqandi* – Abdurazzoq Samarqandiy

### yo – ye nesbat ning imlosi

1. Agar so'z cho'ziq unli *o* yoki *u* bilan tugagan bo'lsa, *-y* harfi oldidan yana bir *yo* yoziladi. Masalan:

نوا <i>navo</i> – navo, kuy	نوابی <i>navoyi</i> – navoli, navoga oid
بکو <i>boku</i> – Boku	بکویی <i>bokuyi</i> – bokulik
صحرا <i>sahro</i> – sahro	صحرای <i>sahroyi</i> – sahrolik, sahroga oid

2. Agar so'z qisqa unli *-e* bilan tugagan bo'lsa, ba'zi so'zlarda *yo-ye nesbat* oldidan bir *-g* va ba'zi so'zlarda esa bir *alif* orttirilib yoziladi.

yo-ye nesbat oldidan گ-گ orttirilgan vaqtda, yozuvda so‘z oxiridagi e-e tushib qolsa ham, talaffuzda saqlanadi. Masalan:

خانه *xone* – uy                      خانگی *xonegi* – uyga oid  
 نان خانگی *non-e xonegi* – uy noni  
 نقره *no‘qre* – kumush      نقره ای *no‘qrei* – kumushga oid  
 مدال نقره ای *medol-e no‘qrei* – kumush medal

3. -o, -e va -i unilari bilan tugagan ayrim so‘zlar yo-ye nesbat qabul qilganda, so‘z oxiridagi tovush assimilyatsiyaga uchrab, -i oldidan bir -v tovushi orttiriladi. Masalan:

شورا *sho‘ro* – kengash      شوروی *sho‘ravi* – kengashga oid  
 معنی *ma‘ni* – ma‘no      معنوی *ma‘navi* – ma‘naviy  
 فرانسه *feronse* – Fransiya      فرانسوی *feronsavi* – Fransiya oid  
 شورای عالی *sho‘ro-ye oli* – Oliy kengash  
 ثروتهای مادی و معنوی *sarvatho-ye moddi va ma‘navi* – moddiy va ma‘naviy boyliklar  
 زبان فرانسوی *zabon-e feronsavi* – fransuz tili

## Payt holi

Payt holi kesimdan anglashilgan ish-harakatning qay paytda bajarilishini bildiruvchi ikkinchi darajali bo‘lakdir. Fors tilida payt holi vazifasida ko‘p ishlatiladigan so‘zlar quyidagilar:

1. Kunni bildiruvchi so‘zlar:

امروز *emruz* – bugun                      دیروز *diruz* – kecha  
 پریروز *pariruz* – avvalgi kun      فردا *fardo* – ertaga  
 پس فردا *pasfardo* – indinga

2. Kun bo‘lagini bildiruvchi so‘zlar:

صبح *so‘bh* – ertalab                      ظهر *zo‘hr* – tush payti, kunduz kuni  
 عصر *asr* – kechqurun      شام *shom* – kech, shom payti  
 شب *shab* – kechasi                      دیشب *dishab* – kecha kechasi  
 پریشب *parishab* – o‘tgan kuni kechasi

3. Yil va oylarni bildiruvchi so‘zlar:

امسال *emsol* – bu yil, shu yil  
 پارسال *porsol* – o‘tgan yili  
 سال گذشته *sol-e go‘zashte* – o‘tgan yili  
 سال آینده *sol-e oyande* – kelasi yili



چند *chand* olmoshi noaniq ma'noda ba'zan *in* qo'shimchasini qabul qilib keladi va *bir necha, bir qancha* deb tarjima qilinadi. Masalan:

من چندین کتاب فارسی و عربی دارم *man chandin ketob-e forsi va arabi doram* – Mening bir qancha forscha va arabcha kitobim bor.

چندین دانشجو، روشنفکر، پزشک و کارگر در پنبه چینی شرکت داشتند. *chandin doneshju, ro'ushanfekar, pezeshek va korgar dar panbechini sherkat doshtand* – Bir necha talaba, ziyoli, vrach va ishchi paxta terimida ishtirok etdilar.

چند *chand* va چندین *chandin* olmoshlaridan so'ng kelgan so'zlar fors tilida doimo birlik shaklida keladi.

ما چند کیلو سیب خریدیم *mo chand kilu sib xaridim* – Biz bir necha kilo olma sotib oldik.

چندین دانشجو در تالار جمع شدند. *chandin doneshju dar talor jam'shondand* – Zalga bir necha talaba yig'ildi.

## گفتگو کردن *go'fto'gu kardan* harf zadan حرف زدن fe'llari haqida

Fors tilida حرف زدن *harf zadan* va گفتگو کردن *go'fto'gu kardan* fe'llari biror tilda *gapirmoq, so'zlamoq, gaplashmoq, so'zlashmoq* ma'nolarini anglatib keladi. Bunda so'zlashish vositasini bildirgan so'z زبان *zabon* (til) doimo *be* predlogini qabul qilib keladi. Masalan:

من به زبان فارسی خوب حرف می زنم. *man be zabon-e forsi xub harf mizanam* – Men fors tilida yaxshi so'zlashaman.

شما به زبان عربی حرف می زنید؟ *sho'mo be zabon-e arabi harf mizanid?* – Siz arab tilida so'zlashasizmi?

او با دانشیار خود به کدام زبان گفتگو می کند؟ *u bo doneshyor-e xo'd be ko'dom zabon go'fto'gu miko'nad?* – U o'z o'qituvchisi bilan qaysi tilda gaplashadi?

او با دانشیار خود به زبان ازبکی گفتگو می کند. *u bo doneshyor-e xo'd be zabon-e o'zbaki go'fto'gu miko'nad* – U o'z o'qituvchisi bilan o'zbek tilida so'zlashadi.

### 1- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Siz qayerda o'qiyasiz? Men chet tillar institutida o'qiyman. Siz qaysi tillarni o'rganasiz? Biz ingliz va fransuz tillarini o'rganamiz. Siz qaysi tilda yaxshi gaplashasiz? Men ingliz tilida yaxshi gap-

lashaman. Sizning ona tilingiz qaysi til? Mening ona tilim o‘zbek tili. Yana qaysi tilda gaplashasiz? Yana rus tilida gaplashaman. Sen qanday lug‘at sotib olding? Men ruscha-inglizcha lug‘at sotib oldim. Bugun kechqurun qayerda ovqatlanasan? Men bugun kechqurun tog‘amning uyida ovqatlanaman. Akangiz hozir nima qilyapti? Akam hozir Sa‘diyning “Guliston”ini o‘qiyapti. Siz universitetni qachon tamom qilasiz? Men universitetni to‘rt yildan keyin tamom qilaman. Siz uyda onangiz bilan qaysi tilda so‘zlashasiz? Men uyda onam bilan o‘zbek tilida so‘zlashaman. Ukangiz nonushta qilib bo‘lganidan so‘ng nima ish qiladi? Ukam nonushta qilib bo‘lgandan so‘ng maktabga boradi. Nega kecha mening oldimga kelmadingiz? Kecha vaqtim bo‘lmadi. Kecha siz uydamingiz? Yo‘q, kecha men mehmonda edim. Bu kishini taniysizmi? Bu kishi mening xolamning o‘g‘li. U hozir o‘rta maktabda dars beradi. Bu qiz qayerlik? Bu qiz eronlik. Siz qayerliksiz? Men samarqandlikman. Ulardan biri mening akamdir. Nega haligacha mehmonlar kelishmayapti? Mehmonlar 20 daqiqadan keyin kelishadi. Bizning o‘qituvchimiz o‘z oilasi bilan to‘rtinchi qavatda yashaydi. Ertaga universitetning majlislar zalida ilmiy konferensiya boshlanadi. Unda bizning o‘qituvchimiz ham ma‘ruza qiladi. Fakultetda talabalarning ilmiy konferensiyasi yigirma beshinchi aprelda boshlanadi.

**2- topshiriq.** Nuqtalar o‘ruiga tegishli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

من به زبان فارسی حرف ... . برادر شما کجا تحصیل ...؟ شما در دانشکده چه زبانهایی یاد...؟ خواهر کوچکم در دبیرستان درس ... . درس ما بعد از بیست دقیقه آغاز... . آنها زبان عربی را یاد... . ما در موقع درس با دانشیار خود به زبان فارسی گفتگو ... . امروز شما ناهار...؟ این دستور زبان فارسی از آن ...؟ من امروز کشیک ... . این کتاب را از معاززه ی کتابفروشی ... . ما دانشجویان دانشکده ی زبانهای خارجی ... . برادر بزرگم ساعت هفت صبح از خواب ... . پدرم سیگار ... . من دیروز ناخوش ... . ما همیشه شبها به رادیو گوش ... . دوستم به او به زبان انگلیسی جواب ... . من هر روز صبح سوار اتوبوس ... . عموی من با خانواده ی خود در طبقه ی سوم زندگی ... . ساعت هشت صبح زنگ ... . و دانشیار داخل کلاس ... . من در جلسه ی علمی دانشجویان سخنرانی ... . دوستم مرا به خاتمه ی خود دعوت ... . من هر روز پانزده دقیقه ورزش ... . برادر کوچکم شطرنج بازی را خیلی دوست ... .

**3- topshiriq.** Quyidagi so‘zlardan nisbiy sifat yasang va ularning har birini qatnashtirib bittadan gap tuzing.

سمرقند *samarqand* – Samarqand

چوب *chub* – yog‘och

مادر *modar* – ona

ادب *adab* – adab

ابریشم *abrisho 'm – ipak*

ورزش *varzesh – sport*

حزب *hezb – partiya*

تاریخ *to 'rix – tarix*

پشم *pashm – jun*

برق *barq – elektr, chaqmoq*

#### 4- topshiriq. Savollarga javob bering.

شما کجا تحصیل می کنید؟ شما به زبان فارسی حرف می زنید؟ شما دیگر چه زبان‌هایی می دانید؟ در خانه با مادر و پدر خود به کدام زبان حرف می زنید؟ زبان مادری شما چه زبانی است؟ شما در کدام شعبه درس می خوانید؟ در کدام شعبه زبان عربی را یاد می گیرند؟ شما دستور زبان فارسی دارید؟ شما چه کتابهایی به زبان خارجی دارید؟ فردا بعد از پایان درس کجا می روید؟ درس شما کی شروع می شود؟ چرا دیروز سر درس نیامدید؟ شما کجا زندگی می کنید؟ پدرتان کی به مسکو می رود؟ دانشکده ی شما تالار ورزش دارد؟ در دانشکده از زبانهای خارجی چه زبان‌هایی می آموزند؟ در موقع تعطیلات تاپستانی شما کجا می روید؟ کی شما مرا به خانه ی خود دعوت می کنید؟ در جاسه ی علمی دانشجویان سخنرانی می کنید؟ برادران در کدام دانشکده تحصیل می کند؟ در دانشگاه شما چه زبان‌هایی یاد می گیرند؟ آیا زبان انگلیسی را هم یاد می گیرند؟ شما به زبان عربی حرف می زنید؟ دیگر به کدام زبانها گفتگو می کنید؟ آیا شما ایرانی هستید؟ این چه زبانی است؟ در ایران به کدام زبان حرف می زنند؟ شما فارسی می دانید؟ شما بزبان ازبکی حرف می زنید؟ دیگر چه زبان‌هایی می دانید؟ در شعبه ی شما چند دانشجو تحصیل می کند؟ چند دانشجو به زبان فارسی خوب گفتگو می کند؟

#### 5- topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing, tarjima qiling va isticmoliy imlosini aniqlang.

معذرت می خواهم اقا، این بنای زیبا و چند طبقه ای چه بنایی است؟ آن بنا هتل ازبکستان است. این چه خیابانی است؟ این خیابان شهرسبز است. از اینجا خیابان امیر تیمور دور است؟ نه، آنقدر دور نیست، تقریباً بیست دقیقه راه است. هتل چهارسو کجا قرار دارد؟ در میدان چهارسو. مثل اینکه شما اهل تاشکند نیستید، خارجی هستید؟ بله، من ایرانی هستم و در ایران زندگی می کنم. در تاشکند ایرانیان زیادند. بله، اقا. دوست شما هم ایرانی است؟ خیر، او اهل ایران نیست پاکستانی است. متشکرم، اطف شما زیاد.

#### 6- topshiriq. Quyidagi hikoyani o'qing va hikoya yuzasidan bir necha savol tuzing.

##### عرعر خر

روزی همسایه ی ملا نصرالدین پیش او آمد و الاغ او را امانت خواست. ملا گفت: الاغ در خانه نیست. پسر من سوار شده به بازار رفته است. در این هنگام صدای عرعر خر بلند شد. همسایه گفت: شما می گوید که الاغ در خانه نیست، پس صدای عرعر چیست؟ ملا خشمگین شده گفت: عجب آدم کم عقلی هستی. حرف مرا باور نمی کنی و عرعر الاغ را باور می کنی.

7- **topshiriq.** Quyidagi she'ri o'qing, tarjima qiling va yod oling. She'r o'qish qoidasini o'rganing.

### انار

دسته به دسته	صد دانه یا قوت
یکجا نشسته	با نظم و ترتیب
خوش رنگ و رخشان	هر دانه ای هست
در سینه ی آن	قلب سفیدی
پیچیده با هم	یا قوتهارا
پروردگارم	در پوششی نرم
نامش انار است	سرخ است و زیبا
هم آبدار است	هم ترش و شیرین

مصطفی زماندوست

### Lug'at

- خواهم *mo 'azerat mixoham* – kechirasiz, uzr  
 تقریباً *taqriban* – taxminan  
 هتل *ho 'tel* – mehmonxona  
 زیاد *lo 'tf-e sho 'mo ziyod* – iltifotingiz uchun rahmat  
 با نظم و ترتیب *bo nazm-o' tartib* – tartibli ravishda  
 نشسته *neshaste* – o'tirgan, joylashgan  
 خوش رنگ *xo 'shrang* – chiroyli, rangdor  
 رخشان *raxshon* – yaltiroq, yaltiragan  
 قلب *qalb* – qalb, yurak  
 سینه *sine* – ko'krak  
 پیچیده *pichide* – terilgan  
 با هم *bo ham* – birga  
 پوست *pust* – po'st  
 نرم *narm* – yumshoq  
 پوشش *pushesh* – qoplog', po'st  
 پروردگار *parvardegor* – parvardigor, yaratuvchi, boquvchi, to'yg'azuvchi  
 ترش *to 'rsh* – nordon, chuchuk  
 آبدار *abdor* – suvli  
 دانستن *donestan* (دان *don*) – bilmoq  
 سیرت *sirat* – ichki (qiyofa)  
 صورت *surat* – tashqi (qiyofa)  
 باور کردن *bovar kardan* – ishonmoq  
 خشمگین شدن *xashmgin sho 'dan* – g'azablanmoq, achchiqlanmoq

## 8- topshiriq. Quyidagi payt bildiruvchi so‘zlarni yod oling.

امروز *emruz* – bugun, دیروز *diruz* – kecha, پیروز *pariruz* –  
avvalgi kun فردا *fardo* – ertaga, پس فردا *pasfardo* – indinga, صبح *so‘bh* –  
ertalab, ظهر *zo‘hr* – tush payti, kunduz kuni, عصر *asr* – kechqurun,  
asr payti, شام *shom* – kech, shom payti, شب *shab* – kechasi, tun, دیشب  
*dishab* – kecha kechasi, پریشب *parishab* – o‘tgan kuni kechasi, سال  
*sol* – yil, امسال *emsol* – bu yil, shu yil, پارسال *porsol* – o‘tgan yili, سال  
*sol-e go‘zashte* – o‘tgan yili, سال آینده *sol-e oyande* – kelasi yili,  
ماه گذشته *moh-e go‘zashte* – o‘tgan oy, ماه آینده *moh-e oyande* – kelasi  
oy, قرن *qarn* – asr, زمستان *zemeston* – qish, بهار *bahor* – bahor, تابستان  
*tobeston* – yoz, پاییز *poyiz* – kuz.

9- topshiriq. Kitob oxirida berilgan kalligrafik mashqlardan 9-  
tamrinni ko‘chirib yozing.

## O‘n oltinchi dars

## درس شانزدهم

### درس زبان فارسی

ساعت هشت و نیم صبح است. زنگ می زنند. ما داخل کلاس درس می شویم و سر  
جای خود می نشینیم. کشیک تخته پاک کن را تر می کند و گچ می آورد. حالا درس  
زبان فارسی است. ما کتاب درس زبان فارسی و دفتر هایمان را از کیف بر می داریم و  
منتظر دانشیار می شویم. دانشیار زبان فارسی وارد کلاس درس می شود و ما همه از  
جای خود بلند می شویم و به دانشیار سلام می دهیم. سپس با اجازه ی دانشیار سر جای  
خود می نشینیم. بعد دانشیار رو به دانشجویان کرده می گوید:

درس گذشته را حاضر کردید؟

دانشجویان – بله، ما درس گذشته را حاضر کردیم ولی یک جمله را نفهمیدیم،  
خواهش می کنیم برای ما دو باره توضیح دهید.

دانشیار – کدام جمله را نفهمیدید، به من نشان دهید.

دانشجویان – در صفحه ی بیست و نهم است.

دانشیار دو باره توضیح می دهد و می پرسد: متوجه شدید؟

دانشجویان – بله، متوجه شدیم.

دانشیار رو به رفیق یوسفوف کرده می گوید: خواهش می کنم، موضوع درس بیست  
و نهم را باز گو کنید. رفیق یوسفوف موضوع درس بیست و نهم را باز گو می کند.  
سپس رو به رفیق جمالوف نموده می گوید: شما متن همین درس را بخوانید و به زبان  
از یکی ترجمه کنید.

دانشیار – حالا نرس امروز را شروع می کنیم. درس جدید ما در صفحه ی سی و  
یکم است. کتابهای خود را بردارید و این صفحه را باز کنید.

دانشجویان – کتابهای خود را باز کرده و صفحه ی ۳۱ را پیدا می کنند. و منتظر  
دستور دانشیار می شوند.



دانشیار – رفقا، موضوع درس امروز "حروف اضافه" است. دانشیار موضوع را توضیح می دهد بعد می گوید: من حالا متن را برای شما یک بار می خوانم، شما با دقت گوش دهید. دانشیار متن را می خواند و همه گوش می دهند.

سپس دانشیار می گوید: رفیق عمروف، اکنون شما بیاورید پای تخته، برای حروف اضافه چند مثال بنویسید. رفیق عمروف پای تخته می رود و چند مثال برای حروف اضافه می نویسد. دانشیار از دانشجویان می پرسد: درست است؟ دانشجویان پاسخ می دهند: بله، درست است.

دانشیار – خیلی خوب، بنشینید.

دانشیار – رفیق جلالوف، شما بفرمایید همین جمله را روی تخته بنویسید. دانشیار دیکته می کند و جلالوف جمله را روی تخته می نویسد. دانشیار از دانشجویان می پرسد: رفقا، رفیق جلالوف درست نوشت؟

دانشجویان – خیر، درست نیست. دانشیار رو به رفیق محمودوف نموده می پرسد: شما بگویند، کجای جمله درست نیست؟

محمودوف: در کلمه ی "پنبه" بجای حرف "م" حرف "ن" باید نوشت.

دانشیار – درست است، بروید پای تخته و همین کلمه را اصلاح کنید.

دانشیار – حالا زنگ می زنند. رفقا، در منزل این متن را چند بار بخوانید، تمرینهای پنجاه و دوم و پنجاه و سوم را رو نویسی کنید. تمرین اول را کتبی و تمرین دوم را شفاهی به زبان ازبکی ترجمه کنید. درس آینده دیکته می باشد. خواهش می کنم، لغات تازه را یاد بگیرید و قواعد گذشته ی دستور زبان را تکرار کنید.

## واژه ها

کشیک *keshik* – navbatchi

زنگ زدن *zang zadan* – qo'ng'iroq chalinmoq (chalmoq)

تخته پاک کن *taxte pok ko 'n* – doska artadigan latta

تر *tar* – ho'l, nam

تر کردن *tar kardan* – ho'llamoq

کتاب درسی *ketob-e darsi* – darslik

منتظر شدن *mo 'ntazer sho 'dan* – kutmoq

وارد شدن *vored sho 'dan* – kirmoq

بر خاستن *bar-xiz* (برخیز) *bar-xiz* – o'rindan turmoq

سلام کردن *salom kardan* – salom bermoq

اجازه *ejoze* – ruksat, ijizat

سر جای *sar-e joy* – o'ringa, joyga

... کرده *ru be...karde* – ...ga qarab

گذشته *go 'zashte* – o'tgan

تکرار کردن *tekror kardan* – qaytarmoq, takrorlamoq

عبارات *eborot* – iboralar, jumalalar

فهمیدن *fahmidan* – tushunmoq

خواهش کردن *xohesh kardan* – iltimos qilmoq, istamoq

دو باره *do ' bore – yana, tag'in, ikki marta*  
 توضیح *to 'uzih – izoh, bayon*  
 جواب دادن *javob dodan – javob bermoq*  
 نگاه کردن *negoh kardan – qaramoq, boqmoq*  
 کافیت *kofist – yetarli*  
 ادامه *edome – davom*  
 دادن توضیح *to 'uzih dodan – tushuntirib bermoq*  
 نشان دادن *neshon dodan – ko'rsatmoq*  
 صفحه *safhe – bet, sahifa*  
 ملقت شدن *mo 'ltafet sho 'dan – tushunmoq, fahmlamoq*  
 بفرماید *befarmoid – marhamat, marhamat qiling*  
 موضوع *mo 'uzu' – tema, mavzu*  
 نقل کردن *naql kardan – so'zlab bermoq, hikoya qilmoq*  
 باز گو کردن *bozgu kardan – aytib bermoq, so'zlab bermoq*  
 متن *matn – tekst, matn*  
 حالا *holo – endi, hozir*  
 شروع کردن *sho 'ru' kardan – boshlamoq*  
 تازه *toze – yangi*  
 دستور *dastur – qo'llanma, ko'rsatma*  
 رفقا *ro 'faqo – o'rtoqlar (birligi rafiq)*  
 اضافه حروف *xo 'ruf-e ezofe – predloglar*  
 بیان کردن *bayon kardan – bayon qilmoq, tushuntirmoq*  
 بار *bor – marta*  
 جدید *jadid – yangi*  
 موقع *mo 'uqe – vaqt, payt*  
 تمرین *tamrin – mashq*  
 رو نویسی کردن *runavisi kardan – ko'chirib yozmoq*  
 کتبی *katbi – yozma*  
 شفاهی *shefohi – og'zaki*  
 آخر *oxer – oxir, nihoyat*  
 حالا *holo – endi, hozir*  
 دیکته *dikte – diktant*  
 دیکته کردن *dikte kardan – diktovka qilmoq*  
 قواید *qavo 'ed – qoidalar*  
 مثال *mesol – misol*  
 درست *do 'ro 'st – to'g'ri*  
 کلمه *kaleme – so'z*  
 باید نوشت *boyad navesht – yozish kerak*  
 اصلاح کردن *esloh kardan – tuzatmoq*

دیر *dir* – kech

روشن کردن *ro'ushan kardan* – yoqmoq

خاموش کردن *xomush kardan* – o'chirmoq

گذاشتن *go'zoshtan* (گذار *go'zor*) – qo'ymoq

پوشیدن *pushidan* (پوش *push*) – kiymoq

## GRAMMATIK IZOH

### Buyruq mayli وجه امری *vajh-e amri*

Fors tilida buyruq mayli buyurish, iltimos ma'nolarini ifodalaydi. Bunda nutq ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi.

Buyruq maylining birlik shakli fe'lining hozirgi zamon negiziga *be* – old qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Masalan:

رفتن *raftan*

رو *ro'u*

برو *bero'u* – bor, ket

خواندن *xondan*

خوان *xon*

بخوان *bexon* – o'qi

نوشتن *naveshtan*

نویس *navis*

بنویس *benavis* – yoz

Buyruq shaklining ko'plik shakli birlik shakliga *id* shaxs – son qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:

برو *bero'u* – bor, ket

بروید *beravid* – boring, keting

بنویس *benavis* – yoz

بنویسید *benavisid* – yozing

Agar hozirgi zamon fe'l negizi *o* yoki *u* cho'ziq unlisi bilan tugagan bo'lsa, buyruq maylining ko'plik shaklida shaxs-son qo'shimchasi oldidan bir *yo* orttirilib yoziladi. Masalan:

گفتن *go'ftan*

گو *gu*

بگو *begu*

بگویید *beguyid* – ayting

فرمودن *farmudan*

فرما *farmo*

بفرما *befarmo*

بفرمایید *befarmoyid* –

buyuring

Buyruq maylida *urg'u* *be* – old qo'shimchasiga tushadi. Masalan:  
*avval bechesh ba'd begu ke binamak ast* – Avval tatib ko'r, so'ng tuzsiz ekan degin. (Maqol).

Shuningdek, xalq tilida va maqol-masallarda *be* – old qo'shimchasi tushib qolishi mumkin. Masalan:

*oheste ro'u hamishe ro'u* – Sekin yur – hamisha yur. ( Sekin yursang ham doim yur).

Prefiksli fe'llardan buyruq mayli yasalganda به *be* – old qo'shimchasi ko'pincha tushib qoladi. Shakl jihatidan fe'ning hozirgi zamon negiziga mos keladi. Masalan:

بر گشتن *bar-gashtan* – qaytmoq

بر گرد *bar-gard* – qayt

بر خاستن *bar-xostan* – turmoq

بر خیز *bar-xiz* – tur

بر گردید *bar-gardid* – qayting

بر خیزید *bar-xizid* – turing

Qo'shma fe'llardan buyruq mayli yasalganda به *be* – old qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Masalan:

کار کردن *kor kardan* – ishlamoq

کار بکن *kor beko'n* – ishla

ادامه دادن *edome dodan* – davom ettirmoq

ادامه بده *edome bedeh* – davom ettir

کار بکنید *kor beko'nid* – ishlang

ادامه بدهید *edome bedehid* – davom ettiring

Qo'shma fe'llarda به *be* – old qo'shimchasi ba'zan tushib qoladi. Masalan:

استراحت کن *esterohat ko'n* – dam ol

استراحت کنید *esterohat ko'nid* – dam oling

Urg'u prefiksli fe'llarning prefiksiga, qo'shma fe'llarda esa uning ot qismida kelgan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

حرف بزنید *harf bezanid* – gapiring, so'zlang

بر خیزید *bar-xizid* – o'rningizdan turing

Klassik adabiyotlarda ba'zan buyruq ma'nosini ifodalash uchun به *be* o'rniga می *mi* – old qo'shimchasini ishlatish hollari ham uchraydi. Masalan:

می کوش به هر ورق که خوانی

تا معنی آن تمام دانی (نظامی)

*mikush be har varaq ke xoni,*

*to ma'ni-ye on tamom doni*

Har bir varaqni o'qir ekansan, uning ma'nosini butunlay tushunib yetishga harakat qil.

Buyruq maylining bo'lishsiz shakli به *be* – old qo'shimchasini tushib qolishi va uning o'rniga نه *na* – inkor yuklamasining qo'yi-lishi orqali yasaladi. Masalan:

بگو *begu* – ayt  
بروید *beravid* – boring

نگو *nagu* – aytma  
نروید *naravid* – bormang

Prefiksli yoki qo'shma fe'lllarda *na*-inkor yuklamasi prefiks yoki otga emas, ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Masalan:

بر خیز *bar-xiz* – tur  
بر دار *bar-dor* – ko'tar, ol  
جواب بده *javob bedeh* – javob ber

بر نخیز *bar-naxiz* – turma  
بر ندار *bar-nador* – ko'tarma, olma  
جواب نده *javob nadeh* – javob berma

Ba'zan buyruqni kuchaytirish uchun *na*-o'rninga *ma*-inkor yuklamasi ham ishlatiladi. Inkorning bu shakli ko'proq pand-nasihat ma'nolaridagi maqollar va poetik asarlarda uchraydi. Masalan:

آنجا که نمک خوردی نمکدان مشکن *onjo ke namak xo'r di namakdon mashekan* – Tuz yegan yeringda tuzdonni sindirma. (Maqol).

کار امروز را به فردا مگذار *kor-e emruzro be fardo mago'zor* – Bugungi ishni ertaga qoldirma. (Maqol).

Sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning bo'lishsiz shaklida urg'u doimo *na*- va *ma*-inkor yuklamalariga tushadi.

Agar fe'l cho'ziq unli *o* bilan boshlangan bo'lsa, *be*-old qo'shimchasi yoki *na*-inkor yuklamasi ketidan bir *y*-y orttirilib yoziladi. Masalan:

آمدن *omadan* – (kelmoq) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi *o*:

بیا *beyo* – kel  
بیاید *beyoyid* – keling

نیا *nayo* – kelma  
نیاید *nayoyid* – kelmang

آوردن *ovardan* – (keltirmoq) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi *o*var:

بیاور *beyovar* – keltir  
بیاورید *beyovarid* – keltiring

بیاور *nayovar* – keltirma  
بیاورید *nayovarid* – keltirmang

Agar fe'l *a* yoki *o* qisqa unlisi bilan boshlangan bo'lsa, unga *be*-old qo'shimchasi yoki *na*-inkor yuklamasi qo'shilganda, yozuvda alif harfi tushib qoladi va uning o'rninga bir *y*-y qo'yiladi. Masalan:

انداختن *andoxtan* – (tashlamoq) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi *o*ndaz:

بینداز *beyandoz* – tashla  
بیندازید *beyandozid* – tashlang

نینداز *nayandoz* – tashlama  
نیندازید *nayandozid* – tashlamang

افتادن *o'ftodan* – (yiqilmoq) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi *o*'ft:

بیفت *beyo 'ft* – yiqil

بیفتید *beyo 'ftid* – yiqiling

بودن *budan* – (bo'lmoq, emoq) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi

باش *bosh*:

Bu fe'ldan buyruq mayli *be*–old qo'shimchasi qo'shilmay yasaladi. Masalan:

باش *bosh* – bo'l

باش *salomat bosh* – sog'

bo'l

باشید *boshid* – bo'ling

باشید *salomat boshid* – sog'

bo'ling

داشتن *doshtan* – (ega bo'lmoq) fe'lining buyruq shakli alohida xususiyatga ega bo'lib, fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi *doshte* bilan بودن *budan* fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi باش *bosh* ning birikuvchi orqali yasaladi. Masalan:

داشتنه باش *doshte bosh* – ega bo'l

نداشته باش *nadoshte bosh* – ega bo'lma

داشتنه باشید *doshte boshid* – ega bo'ling

نداشته باشید *nadoshte boshid* – ega bo'lmang

*hamishe* *be خاطر داشته باشید که شما جوانان بناکننده ی جامعه نو هستید. xoter doshte boshid ke sho 'mo javonon-e bano ko 'nande-ye joma 'e-ye no 'u hastid* – Hamisha yodingizda bo'lsinki, siz yangi jamiyat quruvchi yoshlarsiz.

Agar داشتن *doshtan* fe'li qo'shma yoki prefiksli fe'l tarkibida ko'makchi fe'l bo'lib kelsa, uning buyruq shakli umumiy qoidaga ko'ra yasaladi. Masalan:

داشتن دوست *dust doshtan* – (sevmog) fe'lining hozirgi zamon fe'l negizi دار دوست *dust dor*:

دوست بدار *dust bedor* – sev

دوست بدارید *dust bedorid* – seving

دوست ندار *dust nador* – sevma

دوست ندارید *dust nadorid* – sevmang

*mihan-e xo 'dro hamishe dust bedorid* – O'z Vataningizni hamisha seving.

## Leksik izoh

1. متوجه شدن *fahmidan* (hozirgi zamon fe'l negizi فهم *fahm*) va *mo 'tavajjeh sho 'dan* fe'llari bir-biriga sinonim bo'lib, *tushunmoq*,

*anglamoq* ma'nolarini bildiradi. متوجه شدن *mo'tavajjeh sho'dan* ko'proq adabiy tilda va فهمیدن *fahmidan* asosan xalq tilida ishlatiladi.

2. جواب *po'rsesh* so'ziga سوال *so'ol* va پاسخ *poso'x* so'ziga *javob* sinonimdir. Bulardan پرسش va پاسخ so'zlari fors tili qoidalari asosida yasalgan bo'lib, asosan adabiy tilda, سوال *so'ol* va جواب *javob* so'zlari esa arabcha so'zlar bo'lib, ko'proq xalq tilida ishlatiladi.

3. بفرمایید *befarmoyid* (marhamat, marhamat qiling, buyuring) so'zi فرمودن *farmudan* (hozirgi zamon fe'l negizi فرما *farmo*) fe'lining II shaxs ko'plikdagi buyruq shaklidir. Ammo u, ko'pincha, buyruq fe'li ma'nosidan tashqari hollarda ham ishlatiladi:

بفرمایید پای تخته *befarmoyid po-ye taxte* – doskaga marhamat qiling (chiqing).

4. روی تخته *ru-ye taxte* – doskaning yuziga, yuzida degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tiliga *doskaga, doskada* deb tarjima qilindi. Masalan:

این جمله را روی تخته بنویسید. *in jo'mle-ro ru-ye taxte benavisid* – Bu jumlaning doskaga yozing.

5. پای تخته *po-ye taxte* – *doska yoniga, yonida* degan ma'noga ega bo'lib, o'zbek tiliga *doskaga* deb tarjima qilinadi.

پای تخته برآید *po-ye taxte beravid* – doskaga chiqing.

بفرمایید پای تخته *befarmoyid po-ye taxte* – doskaga marhamat qiling (chiqing).

6. سر جای *sar-e joy* birikmasi o'rinda, o'ringa degan ma'nolarni bildiradi. سر *sar* so'zining asl ma'nosi *bosh* bo'lib, bu yerda predlog vazifasini bajarib kelgan. Masalan:

سر جای خود بنشینید. *sar-e jo-ye xo'd beneshinid* – O'ringizga o'tiring.

7. رفقا *ro'faqo* – o'rtoqlar so'zi رفیق *rafiq* – o'rtoq so'zidan arab grammatik qoidasi asosida yasalgan ko'plik shaklidir.

### 1- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Kutubxonadan 2 ta forscha-ruscha lug'at keltiring. Marhamat, kitobingizni oling. Javob bering, o'tgan darsning mavzusi nima edi? Iltimos qilaman, ertaga bizning uyga keling. Ertaga ishim bor, o'zingiz keling. Bu mashqni doskaga yozing. 20- mashqni daftaringizga ko'chirib yozing. U senga nima javob berdi? O'z daftar va kitob-

laringizni oling va stolning ustiga qo‘ying. Siz yangi darsni tushundigizmi? Doskaga marhamat qiling va bu jumlanı yozing. Fors tili darsida kitob o‘qiyimiz, mashq yozamiz va fors tilida so‘zlashamiz. Marhamat, o‘rningizdan turing va javob bering. Bu hikoyani o‘qing va predloqlarning ma‘nosini aytib bering. Fors tili o‘qituvchimiz fors tilini juda yaxshi biladi. Biz uni sevamiz.

## 2- topshiriq. Quyidagi fe‘llardan buyruq shakli yasang.

خوابیدن – uxlamoq	نشستن – o‘tirmoq
فرا گرفتن – o‘rganmoq	شروع کردن – boshlamoq
ادامه دادن – davom ettirmoq	نشان دادن – ko‘rsatmoq

## 3- topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli predloqlarnı qo‘yib, gaplarnı ko‘chirib yozing.

دیروز من ... تئاتر رفتم. او ... زبان فارسی حرف نمی زند. رفیق عثمانف همین جمله را ... تخته نوشت. این متن را ... زبان فارسی ... زبان ازبکی ترجمه کنید. ما هر روز ساعت هفت و نیم صبح ... خواب بیدار می شویم. برادر بزرگم ... خانواده ی خود ... خیابان پوشکین زندگی می کند. وقتی که زنگ می زنند دانشجویان ... جای خود قرار می گیرند. چرا تو دیروز ... من نیامدی؟ ما قبل ... آغاز درس کتابهای خود را ... کیف در میاوریم و ... میز می گذاریم. دانشیار ... تو چه پرسیدی؟ پدرم امروز ... شهر فرغانه بر می گردد. این نامه را من ... قلم نوشتم. برادر کوچکم ... دبیرستان درس می خواند. چرا تو ... او عذر نخواستی؟ پدرم ... دو جلد کتاب فارسی آورد. دانشیار رو ... من کرده گفتم: بفرمایید ... تخته. ما ... جا بر خاستیم و ... دانشیار سلام دادیم. تو کی ... سینما رفتی؟ کیف من ... میز است. رفیق معروف این حکایت را ... صدای بلند بخوانید! ما ... دانشیار پاسخ دادیم. ما هر روز عصر ... رادیو گوش می دهیم. خانواده ی خواهر بزرگم ... پنج نفر عبارت است. همسایه ی ما همیشه بعد از کار ... پدرم شطرنج بازی می کند. دیروز من ... دوستم ... مغازه ی کتابفروشی رفتم. شما ... کجا آمدید؟ من ... منزل امدم.

## 4- topshiriq. Maqollarnı daftaringizga ko‘chirib yozing, tarjima qiling va yod oling.

از نو کیسه، قرص نکن وقتی که کردی خرج نکن.  
از آن مترس که های و هو دارد،  
از آن بترس که سر به تو دارد.  
درد خود را پیش دردمندان بگو.  
بد مکن که بد افتی، چاه مکن که خود افتی.

## 5- topshiriq. Aforizmlarnı to‘g‘ri o‘qishga o‘rganing va ularni yod oling.

مبین که می گوید بین چه می گوید.



میزار موری که دانه کش است  
 که جان دارد و جان شیرین و خوش است. (فردوسی)  
 بی خبر بر خوان کس مهمان مشو  
 مهمانت، گر رسد پنهان مشو. (فریدالدین عطار)

## Lug‘at

چشیدن *cheshidan* (چش *chesh*) – *tatimoq*  
 کنندن *kandan* (کن *kan*) – *qazimoq, kovlamoq*  
 چه *chah va choh* – *chuqur, quduq*  
 کشیدن *kashidan* (کش *kash*) – *tortmoq, tashimoq, chekmoq*  
 دانه کش *donekash* – *don tashuvchi*  
 پنهان شدن *penhon sho‘dan* – *yashirinmoq*  
 ترسیدن *tarsidan* (ترس *tars*) – *qo‘rqmoq*  
 نو کیسه *no‘u kisse* – *yangi boyigan odam*  
 های و هو *ho-yu hu* – *shaldir-shuldur, baqirib-chaqirib*  
 سر به تو *sar be tu* – *pismiql*

**6- topshiriq.** Quyidagi gaplarni o‘qing, tarjima qiling va buyruq maylidagi fe’llarni aniqlang.

کتاب و دفتر های خود را از کیف در آورید و روی میز بگذارید.  
 احمد، فردا ساعت سه پیش من بیا، با تو کار دارم.  
 این کتاب را بخوانید و به من پس بدهید.  
 روزهای تعطیل بیشتر بخوابید.  
 زودتر به خانه برگرد.  
 متن این درس را بخوانید و آن را کتباً ترجمه کنید.  
 امروز هوا سرد است. پالتو خود را بپوشید.  
 خواهش می کنم، پنجره را باز کنید.  
 خواهش می کنم، با صدای بلند حرف نزنید.  
 اینجا سیگار نکشید.  
 اگر سرتان درد می کند پیش پزشک بروید.  
 فردا به خانه ی ما بیا به تئاتر می رویم.  
 خواهش می کنم حرف نزنید.  
 بفرمایید، پهلوی من بنشینید.  
 خواهش می کنم، تخته ی سیاه را پاک کنید.  
 خواهش می کنم، چراغ را خاموش کنید.  
 تلویزیون را روشن کنید.  
 زود باش، وقت دیر است.  
 تخته پاک کن را تر کن.

## 7- topshiriq. Quyidagi hikoyani o'qing, tarjima qiling va buyruq shaklidagi fe'llarni aniqlang.

### دزد اسب

مرد دهقانی اسب خوبی داشت. شبی همان اسب را از طویله ی او دزدیدند. دهقان در جستجوی اسب به آن طرف و این طرف می رفت. در راه کسی را دید که بر اسب او سوار است. دهقان جلو او را گرفت و فریاد کرد که اسب مال من است. سوار گفت: شما اشتباه می کنید. اسب مال من است. دهقان فوراً قبا ی خود را از تن در آورده بر سر اسب انداخت و از سوار پرسید: اگر اسب مال تو است بگو بپریم کدام چشمش کور است؟ سوار کمی فکر کرده گفت: چشم چپ. دهقان گفت: چشم چپش کور نیست. سوار گفت: آری، آری من اشتباه کردم چشم راستش کور است. بعد از این دهقان قبا ی خود را از سر اسب برداشت و به مردمی که آنجا جمع شده بودند رو کرده گفت: ای مردم ببینید که چشمهای اسب هیچکدام کور نیست. حاضرین از این پیش آمد خندیدند. بدین طریق دروغ دزد معلم شد. اسب را به صاحبش دادند و دزد را به زندان بردند.

### Lug'at

طویله *tavile* – otxona

جستجو *jo'sto'ju* – qidirish, axtarish

دزد *do'zd* – o'g'ri

سوار *savor* – otliq, minish

فوراً *fo'uran* – tezda, zudlik bilan

قبا *qabo* – to'n, chopon

آری *ori* – ha

راست *rost* – o'ng

هیچکدام *hichko'dom* – hech biri

حاضرین *hozirin* – hozir bo'lganlar

پیش آمد *pishomad* – voqea, hodisa

بدین طریق *bedin tariq* – shu tarzda, shu yo'l bilan

## O'n ettinchi dars

## درس هفدهم

### فروشگاه مرکزی پوشاک

دیروز روز تعطیل بود. من با پدرم برای خرید لباس و چیزهای لازم به فروشگاه مرکزی پوشاک رفتم. این مغازه خیلی بزرگ و چند طبقه است. طبقه ی آن چندین شعبه دارد. در این شعبه ها کالاهای گوناگون، لباسها و کفشهای مردانه، زنانه و بچگانه می فروشند. وقتی که ما وارد مغازه شدیم پدرم به من گفت: می خواهم برای تو پالتوی زمستانی و کفش، برای خواهرت دستکش و شال گردن و برای خودم پیراهن و یک دست کت و شلوار بخرم. ما اول مغازه را تماشا کردیم و از کالاهای آن دیدن کردیم. در

مغازه مشتری زیاد بود و هر یکی از آنها مشغول خرید چیزی بود. در طبقه ی اول پدرم دو پیراهن برای خود انتخاب کرد و خرید. در شعبه ی دیگر این طبقه برای پدرم یک کراوات راه راه و برای من دو دستمال و یک جفت جوراب خریدیم. بعد رفتیم به طبقه ی دوم. طبقه ی دوم هم چند قسمت داشت: یکی شعبه ی کفش زنانه و دیگری شعبه ی کفش مردانه و سومی شعبه ی کفش بچگانه بود. ما به شعبه ی کفش مردانه رفتیم. پدرم بفروشنده گفت: خواهش می کنم، یک جفت کفش سیاه رنگ به ما نشان دهید. فروشنده برای من یک جفت کفش آورد و من آن را پوشیدیم. این کفش برای پای من قدری تنگ بود. از فروشنده خواهش کردیم که کفش دیگری به ما نشان دهد. کفش دوم اندازه ی پای من بود. از آن کفش خوشم آمد و آن را خریدیم. سپس برای خریدن پالتو به طبقه ی چهارم رفتیم و شروع به انتخاب پالتوی زمستانی کردیم. فروشنده یک پالتوی زمستانی برایم آورد و به ما نشان داد ولی از آن خوشمان نیامد. خواهش کردیم که پالتوی دیگری بیاورد. فروشنده فوراً پالتویی آورد. از آن خیلی خوشمان آمد و پدرم قیمتش را از فروشنده پرسید و پول آن را پرداخت. بعد رفتیم به شعبه ی کت و شلوار. پدرم برای خود یک دست کت و شلوار قهوه ای رنگ خرید. در طبقه ی سوم فروشگاه برای خواهرم دستکش چرمی و شال گردن ابریشمی خریدیم. بعد از خرید چیزهای لازم از مغازه بیرون رفتیم و به منزل برگشتیم. مادر و خواهرم از خرید ما خیلی خوششان آمد.

## واژه ها

مغازه مرکزی *fo 'rushgoh-e markazi* – markaziy univermag  
 پوشاک *pushok* – kiyim, kiyim-kechak  
 کالا *kolo* – tovar, mol  
 کفش *kafsh* – oyoq kiyimi, poyabzal  
 فروختن *fo 'ruxtan* (فروش *fo 'rush*) – sotmoq  
 دستکش *dastkash* – qo'loqop  
 گردن *gardan* – bo'yin  
 شال گردن *shol-e gardan* – sharf  
 پیراهن *pirohan* – ko'ylak  
 شلوار *shalvor* – shim  
 کت و شلوار *ko 't-o 'shalvor* – kostum-shim  
 دیدن کردن *didan kardan* – tomosha qilib ko'rmoq, aylanib ko'rmoq  
 مشتری *mo 'shtari* – xaridor, sotib oluvchi  
 کراوات *krovot* – galstuk  
 انتخاب کردن *entexob kardan* – tanlamoq, saylamoq  
 دستمال *dastmol* – dastro'mol  
 جوراب *jurob* – paypoq  
 ویژه *vij:e* – maxsus, alohida  
 فروشنده *fo 'rushande* – sotuvchi  
 قدری *qadri* – biroz, ozgina  
 تنگ *tang* – tor  
 اندازه *andoze* – razmer, o'lchov, daraja

خوش آمدن *xush omdan* – yoqmoq, xush kelmoq  
 پرداختن *pardoxtan* (پرداز *pardoz*) – to‘lamoq  
 قهوه ای رنگ *qahveirang* – qahvarang, jigarrang  
 هدایا *hadoyo* – sovg‘alar, hadyalar (birligi هديه *hadye*)  
 ایریشم *abrisho‘m* – ipak  
 بیرون شدن *birun sho‘dan* – chiqmoq (tashqariga)

## GRAMMATIK IZOH

### Fe‘lning shart-istak mayli مضارع التزامی *mo‘zore‘-e eltezomi*

Fe‘lning shart-istak mayli ikki zamonda keladi:

- 1) Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli,
- 2) O‘tgan zamon shart-istak mayli.

#### Hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli

Fors tili grammatikasida مضارع التزامی *mo‘zore‘-e eltezomi* deb atalgan bu fe‘l shakli rus tilida nashr etilgan ko‘pgina fors tili darslik va grammatikalarida “aorist” deb nomlanadi. Bu grammatik kategoriya shart-istak mayli deb atalsa ham, gapda shart va istakdan boshqa yana bir qancha ma’nolarni anglatib keladi.

Agar hozirgi-kelasi zamon fe‘li biror ish-harakatning bajarilishi aniq ekanligini ko‘rsatsa, مضارع التزامی ish-harakat ma’lum shart, istak, imkon, zaruriyat, majburiyat orqali amalga oshishi yoki uning bajarilishi gumon ekanligini bildiradi.

مضارع التزامی hozirgi zamon fe‘l negiziga shaxs-son qo‘shimchalari va به *be* – old qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. مضارع التزامی shakl jihatdan hozirgi-kelasi zamonga o‘xshagan bo‘lib, می *mi* – old qo‘shimchasi o‘rniga به *be* – old qo‘shimchasi qo‘yiladi, xolos.

نوشتن *naveshtan* – (yozmoq) fe‘lining tuslanishi

مفرد

I shaxs	بنویسم	<i>benavisam</i>	– yozsam, yozay
II shaxs	بنویسی	<i>benavisi</i>	– yozsang
III shaxs	بنویسد	<i>benavisad</i>	– yozsa, yozsin



## Bo'lishsiz shaklda

مفرد

I shaxs	نگویم	<i>naguyam</i>	– aytmasam, aytmay
II shaxs	نگویی	<i>naguyi</i>	– aytmasang
III shaxs	نگوید	<i>naguyad</i>	– aytmasa, aytmasin

جمع

I shaxs	نگویم	<i>naguyim</i>	– aytmasak, aytmaylik
II shaxs	نگوید	<i>naguyid</i>	– aytmasangiz
III shaxs	نگویند	<i>naguyand</i>	– aytmasalar, aytmasinlar

Qo'shma va prefiksli fe'llarning bo'lishsiz shakli ham shu tarzda yasaladi. Masalan:

کار بکنم	<i>kor beko 'nam</i>	بر خیزم	<i>bar-xizam</i>
کار نکنم	<i>kor nako 'nam</i>	بر نخیزم	<i>bar-naxizam</i>

مضارع التزامی ning bo'lishsiz shaklida fe'lning sodda, prefiksli yoki qo'shma fe'l bo'lishligidan qat'i nazar, urg'u نه *na* – inkor yuklamasiga tushadi.

مضارع التزامی asosan:

- 1) Orzu-istak bildirgan sodda gaplarda;
- 2) Modal fe'llar va modal so'zlardan so'ng;
- 3) Maqsad ergash gapda;
- 4) To'ldiruvchi ergash gapda;
- 5) Shart ergash gaplarda ishlatiladi.

Bundan tashqari *پیش از اینکه pish az in-ke*, *قبل از اینکه qabl az in-ke*, (. . .dan avval, . . .dan ilgari); *پس از آنکه pas az on-ke*, *بعد از آنکه ba'd az on-ke* (. . .dan keyin, . . .dan so'ng); *بی آنکه bi on-ke*, *بدون اینکه bedun-e in-ke* (. . .masdan) bog'lovchilaridan so'ng kelgan gapning kesimi ham مضارع التزامی shaklida bo'ladi.

مضارع التزامی orzu-istak ma'nosini bildirgan gaplarda ish-harakatning bajarilishi gumon ekanligini ko'rsatadi. Bunda gap ko'pincha so'roq ma'nosini bildiradi. Masalan:

؟این متن را بخوانم *in matnro bexonam* – Bu matnni o'qiymi?

؟فردا پیش تو بیایم *fardo pish-e to' beyoyam* – Ertaga sening oldingga kelaymi?

؟پنجره را باز بکند *panjarero boz beko 'nad* – Derazani ochsinmi?

Ba'zi hollarda به *be* – old qo'shimchasi tushib qolishi ham mumkin. Masalan:

چه کنم، کجا روم و درد خود را به که گویم؟ *che ko 'nam, ko 'jo ravam va dard-e xo 'dro be ke guyam?* – Qayerga boray, nima qilay va dardimni kimga aytay?

## Modal fe'llar va modal so'zlar

Fors tilida asosan 3 ta modal fe'l bor:

خواستن *xostan* خوا *xoh* – xohlamoq, istamoq

توانستن *tavonestan* توان *tavon* – qodir bo'lmoq, qila olmoq

بایستن *boyestan* بای *boy* – kerak bo'lmoq, zarur bo'lmoq

Bu mustaqil leksik ma'nodagi fe'llar gapda qo'shimcha modal ma'noni anglatib keladilar. Bu holda yuqoridagi modal fe'llar o'zlarining asosiy leksik ma'nolarini yo'qotib, yetakchi fe'lning ma'nosiga qo'shimcha ma'no beradilar.

Gapda modal fe'l yetakchi fe'l bilan birga semantik jihatdan bir butunlikni tashkil qiladi. Modal fe'llardan so'ng kelgan yetakchi fe'l doimo مضارع التزامی shaklida bo'ladi.

1. خواستن *xostan* ( خوا *xoh* ) modal fe'li yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatni bajarishga xohish, istak borligini bildiradi. Masalan:

من می خواهم فردا به تئاتر بروم. *man mixoham fardo be teotr beravam* – Men ertaga teatrga bormoqchiman.

دوستم می خواهد زبان فارسی را یاد بگیرد. *dustam mixohad zabon-e forsiro yod begirad* – Do'stim fors tilini o'rganmoqchi (o'rganishni istaydi).

Modal fe'llar gapda bevosita egadan so'ng, yetakchi fe'l esa jumla oxirida kelib, har ikkalasi ham ega bilan shaxs va sonda moslashadi.

### مفرد

من می خواهم این کتاب را بخوانم *man mixoham in ketobro bexonam* – Men bu kitobni o'qimoqchiman.

تو می خواهی این کتاب را بخوانی *to ' mixohi in ketobro bexoni* – Sen bu kitobni o'qimoqchisan.

او می خواهد این کتاب را بخواند *u mixohad in ketobro bexonad* – U bu kitobni o'qimoqchi.

## جمع

*mo mixohim in ketobro bexonim* – Biz bu kitobni o‘qimoqchimiz.

*sho‘mo mixohid in ketobro bexonid* – Siz bu kitobni o‘qimoqchisiz.

*onho mixohand in ketobro bexonand* – Ular bu kitobni o‘qimoqchilar.

2. *tavonestan* (توان *tavon*) modal fe’li yetakchi fe’ldan anglashilgan ish-harakatni bajara olishni, bajarishga qodirlikni, shu ishni bajara olishlikka imkon borligini bildiradi. Masalan:

*man mitavonam be zabon-e forsi harf bezanam* – Men fors tilida so‘zlasha olaman.

*u mitavonad in jo‘mlero be forsi tarjo‘me beko‘nad* – U bu jumlaning forschaga tarjima qila oladi.

3. *boyestan* (بای *boy*) modal fe’li yetakchi fe’ldan anglashilgan ish-harakatni bajarish kerakligini, zarurligini bildiradi. Masalan:

*mo boyad soat-e chahor be varzeshgoh beravim* – Biz soat to‘rtida stadiongaga borishimiz kerak.

*u boyad injo beyoyad* – U bu yerga kelishi kerak.

Modal ma’nodagi fe’llarning bo‘lishsiz shaklida *na* – inkor yuklamasi modal fe’lga qo‘shiladi. Masalan:

*man holo namixoham shatranjbozi beko‘nam* – Men hozir shaxmat o‘ynashni istamayman (shaxmat o‘ynashga xohishim yo‘q).

*chero to‘ namixohi nohor bexo‘ri* – Nega sen ovqatlanishni xohlamayapsan?

*emruz man namitavonam sar-e dars beyoyam* – Men bugun darsga kela olmayman.

*to‘ naboyad in korro beko‘ni* – Sen bu ishni qilish kerak emas.

*(bormoq)* fe’lining modal fe’llar bilan tuslanishi.

### مفرد

*bormoqchiman.* – bormoqchimiz.

*bormoqchisan.* – bormoqchisiz.

*bormoqchi.* – bormoqchilar.

### جمع

*bormoqchimiz.* – bormoqchimiz.

*bormoqchisiz.* – bormoqchisiz.

*bormoqchilar.* – bormoqchilar.



**مفرد**

bora olaman. می توانم بروم.  
 bora olasan. می توانی بروی.  
 bora oladi. می تواند برود.

**جمع**

bora olamiz. می توانیم برویم.  
 bora olasiz. می توانید بروید.  
 bora oladilar. می توانند بروند.

**مفرد**

borishim kerak. باید بروم.  
 borishing kerak. باید بروی.  
 borishi kerak. باید برود.

**جمع**

borishimiz kerak. باید برویم.  
 borishingiz kerak. باید بروید.  
 borishlari kerak. باید بروند.

Modal fe'llar gapdagi ma'nolariga qarab o'tgan zamon shakllarida ham kelishlari mumkin. Masalan:

*mixostam uro bebinam* – Uni ko'rmoqchi edim. می خواستم اورا ببینم.  
*to'che mixosti beguyi* – Sen nima demoqchi eding? تو چه خواستی بگویی؟

*boyestan* modal fe'lidan anglashilgan ma'no o'tgan zamon-ga oid bo'lsa, bu fe'lning shaxs va sonda o'zgarmaydigan **بایستی** *boyisti*, **بایست** *boyist*,

*miboyisti*, **بایستی** *miboyisti*, **بایست** *miboyist* shakllari qo'llanadi. Masalan:

*onho miboyisti soat-e do' beyoyand* – Ular soat ikkida kelishlari kerak edi. آنها می بایستی ساعت دو بیایند.

Ba'zan *boyestan* modal fe'lining **باید** *boyad* va **بایستی** *boyisti* shakllaridan keyin kelgan etakchi fe'l o'tgan zamon davom fe'li shaklida ham kelishi mumkin. Masalan:

*mo boyesti dar hayot-e doneshgoh jam' misho'dim* – Biz institutning hovlisida yig'ilishimiz kerak edi. ما بایستی در حیاط دانشگاه جمع می شدیم. Lekin bu ma'nodagi gaplarda **بایستی** *boyesti jam' misho'dim* birikmasi o'rnida ko'pincha yetakchi fe'l **مضارع التزامی** shaklida qo'llanadi. Masalan:

*mo boyesti dar hayot-e doneshgoh jam' beshavim* – Biz institutning hovlisida yig'ilishimiz kerak edi. ما بایستی در حیاط دانشگاه جمع بشویم.

**Eslatma!** Ba'zan **باید** *boyad* ning sinonimi sifatida **بایست** *boyist*, **بایستی** *boyisti* shakllari ham ishlatiladi. Masalan:

*boyad beyoyad*, **باید** *boyad beyoyad*, **بایست** *boyest beyoyad*, **بایستی** *boyesti beyoyad* birikmalarining har uchchalasi ham **kelishi kerak** deb tarjima qilinadi.

Fors tilida yana modal ma'noni anglatadigan bir necha fe'l, so'z va so'z birikmalari mavjuddir. Bunday so'zlar odatda gap boshida kelib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqada bo'lmaydilar.

Quyidagi modal so'zlarga ahamiyat bering:

شاید *shoyad* – ehtimol, balki, shoyad

ممکن است *mo'mken ast* – mumkin, ehtimol

ممکن نیست *mo'mken nist* – mumkin emas

احتمال دارد *ehtemol dorad* – ehtimol, ehtimolki, balki

احتمال نمی رود *ehtemol namiravad* – bo'lishi mumkin emas

Bu modal so'zdan keyin kelgan gapning kesimi doimo مضارع التزامی shaklida bo'ladi. Masalan:

هوا سرد است شاید برف بیارد. *havo sard ast shoyad barf beborad* – Havo sovuq, ehtimol qor yog'ar.

ممکن است بعد از چند ماه کار علمی خود را پایان برساند. *mo'mken ast ba'd az chand moh kor-e 'elmi-ye xo'dro be poyon berasonad* – Bir necha oydan keyin o'z ilmiy ishini tamom qilishi mumkin.

ممکن نیست او هر روز درس خود را حاضر نکند. *mo'mken nist u har ruz dars-e xo'dro hozer nako'nad* – U har kuni darsini tayyorlamasligi mumkin emas.

احتمال دارد موقع تعطیلات زمستانی به شهر دوشنبه برویم. *ehtemol dorad mo'uge'e ta'tilot-e zemestoni be shahr-e dushanbe beravim* – Ehtimol, qishki ta'til vaqtida Dushanba shahriga borarmiz.

احتمال نمی رود تا فردا او را ببینم. *ehtemol namiravad to fardo uro bebinam* – Ertagacha uni ko'rishim ehtimoldan uzoq (uni ko'rmasam kerak).

مضارع التزامی ning ergash gaplarda ishlatilishi haqida keyingi darslarda, ergash gaplar bahsida aytib o'tamiz.

## خوش آمدن *xo'sh omdan fe'lining tuslanishidagi xususiyatlar*

*xo'sh omdan* qo'shma fe'li *yoqmoq* deb tarjima qilinadi va tuslanishda quyidagi ikki xususiyatga ega bo'ladi:

1. خوش آمدن *xo'sh omdan fe'li* tuslanganda, qo'shma fe'lining ot qismi خوش *xo'sh egalik affikslarini qabul qilib, ko'makchi fe'li omdan* esa doimo III shaxs birlik shaklida keladi.

*omadan* ko'makchi fe'li gapning ma'nosiga qarab turli zamon shaklida kelishi mumkin. Masalan:

خوشم آمد *xo'sham omd* – menga yoqdi.

خوشم می آید *xo'sham miyoyad* – menga yoqadi, menga yoqyapti.

2. خوش آمدن *xo 'sh omdan* qo'shma fe'li boshqargan to'ldiruvchi, yani yoqish obyekti bo'lgan so'z *از az* predlogini qabul qilib keladi. Masalan:

### مفرد

از این فیلم خوشم آمد. *az in film xo 'sham omd* – Bu film menga yoqdi.

از این فیلم خوشتان آمد. *az in film xo 'shat omd* – Bu film senga yoqdi.

از این فیلم خوشش آمد. *az in film xo 'shash omd* – Bu film unga yoqdi.

### جمع

از این فیلم خوشمان آمد. *az in film xo 'shemon omd* – Bu film bizga yoqdi.

از این فیلم خوشتان آمد. *az in film xo 'sheton omd* – Bu film sizga yoqdi.

از این فیلم خوششان آمد. *az in film xo 'sheshon omd* – Bu film ularga yoqdi.

*xo 'sh omdan* fe'lining tuslanishida *urg'u* qo'shma fe'ning ot qismiga tushadi.

از این قلم خوشم آمد. *az in qalam xo 'sham omd* – Bu ruchka menga yoqdi.

از این پیراهن خوشتان می آید؟ *az in pirohan xo 'sheton miyoyad* – Bu ko'ylak sizga yoqadimi?

از زبان فارسی خیلی خوشم می آید. *az zaban-e forsi xeyli xo 'sham miyoyad* – Fors tili menga juda yoqadi.

*xo 'sh omdan* fe'lining bo'lishsiz shakli *نه na* – inkor yuklamasini ko'makchi fe'lga qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bunda *urg'u* *نه na* – inkor yuklamasiga tushadi.

از جواب او خوشم نیامد. *az javob-e u xo 'sham nayomad* – Uning javobi menga yoqmadi.

از این حرف خوشش نیامد. *az in harf xo 'shash nayomad* – Bu gap unga yoqmadi.

### انه – one suffiksi haqida

Fors tilida *انه* – *one* suffiksi otlarga qo'shilib, ulardan nisbiy sifat yasaydi. Masalan:

زن *zan* – ayol, xotin    زنانه *zanone* – ayollarga tegishli, ayollarga xos

لباس زنانه *lebos-e zanone* – ayollar kiyimi

مرد *mard* – erkak    مردانه *mardone* – erkaklarga tegishli, erkaklarga xos

کفش مردانه *kafsh-e mardone* – erkaklar poyabzali

## didan kardan fe'li haqida didan کردن

didan kardan qo'shma fe'li o'zbek tilida (bir narsani) tomosha qilib ko'rmoq, aylanib ko'rmoq, tomosha qilmoq degan ma'nolarni bildiradi.

Gapda didan کردن qo'shma fe'li boshqargan to'ldiruvchi, ya'ni ko'rish obyekti bo'lgan so'z az az predlogi bilan keladi. Masalan:

*namoyandegon-e namoyandegon-xoreji az muze va teotrho-ye toshkand didan kardand* – Chet el delegatlari Toshkentning muzey va teatrlarini tomosha qildilar.

*diruz man bo xoharam az namoyeshgoh-e san'ati-ye eron didan kardim* – Kecha men singlim bilan Eron sanoat ko'rgazmasini aylanib tomosha qildik.

1- topshiriq. Quyidagi fe'llarni muzarac tazami shaklida tuslang.

فرا گرفتن آمدن حرف زدن دیدن

2- topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

- دیروز شما با پدرتان کجا رفتید؟
- آن فروشگاه چگونه بود؟
- در طبقات فروشگاه چه چیزهایی می فروشند؟
- وقتی که شما وارد مغازه شدید پدرتان به شما چه گفت؟
- در مغازه مشتریان مشغول چه کاری بودند؟
- در طبقه ی اول پدرتان چه چیزی خرید؟
- در شعبه ی دیگر طبقه ی اول شما چه خریدید؟
- در طبقه ی دوم چه چیزهایی فروخته می شود؟
- در شعبه ی کشفروشی پدرتان به فروشنده چه گفت؟
- فروشنده برای شما چه چیزی آورد؟
- شما برای خرید پالتو کجا رفتید؟
- در طبقه ی چهارم چه چیزی را انتخاب کردید؟
- از پالتوی زمستانی خوشتان آمد یا نه؟
- بعد از خرید چیزهای لازم شما چه کردید؟
- از خرید شما مادرتان خوش آمد یا نه؟
- عصر آن روز شما مشغول چه کاری بودید؟
- روز تعطیل شما چطور گذشت؟

3- topshiriq. Quyidagi jummalarda qavs ichida berilgan خوش آمدن fe'lini kerakli shaxs va sonlarga qo'yib ko'chirib yozing.

من از این کراوات (خوش آمدن). تو از این کفش (خوش آمدن)؟ تو از رنگ کفش (خوش نیامدن)؟ خواهرتان چرا از شال گردن ابریشمی (خوش نیامدن)؟ من از موسیقی

ایرانی خیلی (خوش آمدن). مادرم از هدیه ی من (خوش آمدن). آیا، از این شلوار (خوش آمدن)؟ از کدام شهر تشکند بیشتر (خوش آمدن)؟ از موزه ی صنعتی ازبکستان (خوش آمدن)؟ از خرید من (خوش نیامدن). از این دستکش برادرت (خوش آمدن)؟ مادرم از پالتوی من (خوش نیامدن). از کیفتان (خوش آمدن). از کدام اتاق بیشتر (خوش آمدن)؟ از اتاق من یا از اتاق برادرم. از کدام زبان بیشتر (خوش آمدن)؟ از زبان فارسی یا عربی؟ چرا از این پیراهن (خوش نیامدن)؟ چرا از کلاه من (خوش نیامدن)؟ از این فیلم (خوش آمدن)؟ نخیر، از این فیلم (خوش نیامدن). از کدام فصلهای سال بیشتر (خوش آمدن)؟ از فصل بهار بیشتر (خوش آمدن).

#### 4- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Men bu kitobni sotib olmoqchiman. Biz ertaga teatrga bormoqchimiz. Siz arab tilida so‘zlasha olasizmi? Men yangi arab filmi ko‘rmoqchiman. Choy quyaymi? Men ketishim kerak. Men rus va fors tillarida gaplasha olaman. Darsdan so‘ng qayerga bormoqchisiz? Men magazindan 1 ta galstuk va 2 ta sharf sotib olmoqchiman. Otam singlim uchun bir juft ayollar tuflisini sotib olmoqchi. Ular “Toshkent” mehmonxonasida yashaydilar. Men bu maqolani tarjima qila olmayman. Do‘stim Eron yozuvchisining bu hikoyasini o‘zbekchaga tarjima qilmoqchi. O‘qituvchilar va maktab o‘quvchilari istirohat bog‘iga borishmoqchi. Kelasi yili o‘rtog‘im Samarqand shahriga bormoqchi. Men albatta uni ko‘rishim kerak. Sen kutubxonadan qanaqa kitob olmoqchisan? Siz qanaqa jurnal sotib olmoqchisiz? U ikki kundan keyin ilmiy ishini tamom qilmoqchi. Biz o‘z o‘qituvchimiz bilan fors tilida gaplasha olamiz. Siz forscha gaze-tangizni menga bera olasizmi? Sizga O‘zbekistonning qaysi shaharlari yoqadi? Bugun biznikiga Farg‘onadan qarindoshlar kelishmoqchi. Men uni fakultetda ko‘ra olmadim. O‘z lug‘atimni senga beraymi? Men bugun sizni uyga taklif qila olmayman. Bizning fors tili o‘qituvchimiz Umar Xayyom ruboiylarini o‘zbek tiliga tarjima qilmoqchi. Siz fors tilida so‘zlashishni istaysizmi? Nega stadionga borishni istamaysiz? Senga bu kitobni bera olmayman. Ular menga telefon qilishmoqchi. Men radio eshitmoqchiman. Amakim futbol o‘yinini ko‘rmoqchi. Siz bu qo‘lyozmani o‘qiy olasizmi? Yoq, men bu qo‘l yozmani o‘qiy olmayman.

#### 5- topshiriq. Qavs ichidagi fe’llarni tegishli shaxs va sonlarga qo‘yib gaplarni ko‘chirib yozing.

من می خواهم ترا (دیدن). پدرم می تواند این نسخه خطی را (خواندن). او فردا باید پیش من (آمدن). ما نمی توانیم به زبان انگلیسی (حرف زدن). دوستم نمی خواهد امروز به ورزشگاه (رفتن). او می خواهد مارا به خانه خود (دعوت کردن). برادر بزرگم

می خواهد زبان عربی را (یاد گرفتن). آیا شما می توانید لغت خود را به من (دادن)؟ من می خواهم از شما چیزی (پرسیدن). آنها هنوز نمی توانند به زبان فارسی (پاسخ دادن). شما نباید این کار را (کردن). تو خیلی خسته شدی، تو باید (استراحت کردن). او می خواهد این کفش را (خریدن). شاید فردا هوا گرم (شدن). احتمال می رود او از این دستکش (خوش آمدن). تو خواستی کجا (رفتن)؟ من خواستم به مغازه ی کتابفروشی (رفتن). شما چه خواستید (گفتن)؟ من خواستم از شما چیزی (پرسیدن). او چه چیزی می خواست (خریدن)؟ او می خواست یک دست پیراهن ابریشمی و کراوات راه راه (خریدن). ببخشید، من نتوانستم دیروز به شما (تلفن کردن). او هم باید این داستان را (خواندن). تو می توانی فردا ساعت پنج پیش من (آمدن). پیش از حرکت ما باید کمی (استراحت کردن). او باید از برادرم نامه (گرفتن). من می خواستم (آمدن) ولی نتوانستم. اگر شما می خواهید به ایران (رفتن) باید زبان فارسی را خوب (یاد گرفتن). سر درس همه ی دانشجویان باید به زبان فارسی (حرف زدن). احتمال می رود فردا باران (باریدن). ممکن است آنها بعد از دو هفته (برگشتن). احتمال نمی رود از این پالتو (خوش آمدن).

**6- topshiriq.** Qavs ichida berilgan modal fe'llarni tegishli shaxs va son shakliga qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

من (توانستن) بوسیله این اتوبوس به مرکز شهر برسم؟ تو (خواستن) از موزه و پارکهای شهر دیدن کنی؟ ما (بایستن) هر روز صبح ده‌پانزده دقیقه ورزش کنیم. شما (توانستن) کفش تازه ی خود را به من نشان بدهید؟ من (توانستن) با شما برای هواخوری به اطراف شهر بروم. او (نتوانستن) این متن را بدون فرهنگ ترجمه نکند. من (خواستن) شمارا به تئاتر دعوت کنم. او (خواستن) برای خود یک دست کت و شلوار بخرد. تو (بایستن) این کار را دیروز می کردی. ما (خواستن) روز تعطیل به ماهی گیری برویم. من دیروز (نتوانستن) پیش او بیایم چونکه وقت نداشتم. پدرم (توانستن) این نسخه خطی را بخواند. او (بایستن) فردا پیش من بیاید. ما (نتوانستن) به زبان انگلیسی حرف بزنیم. دوستم (نخواستن) امروز به ورزشگاه برود. آیا شما (توانستن) لغت خود را به من بدهید؟ برای آنکه زبان فارسی را خوب بدانیم (بایستن) زیاد کار نکنیم. من (خواستن) کمی استراحت کنم. اگر (خواستن) سر درس دیر نکنی (بایستن) ساعت هفت صبح از خواب بر خیزی.

**7- topshiriq.** Quyidagi birikma va jumalarni fors tiliga tarjima qiling.

Havo sovib ketdi. Oynani yopaymi? Mayli, u ham kelsin (kela qolsin). Kech bo'ldi, televizorni yoqaymi? Bu jumla juda qiyin. Sizga yordam beraymi? Havo bulut, yomg'ir yog'sa kerak. Bugun dam olish kuni. Do'stim biznikiga kelsa kerak. Qorong'i tushdi, chiroqni yoqaymi? Bu tufli senga yoqdimi? Ha, juda yoqdi. Men uni sotib olmoqchiman.

Ehtimol, tushdan so'ng havo ochilib ketar. Bizning uyga kel, kinoga boramiz. Umid qilamanki, u bu jumlanı to'g'ri tarjima qılsa kerak. Bu jumlanı taxtaga yozaymı? Yoq, avval jumlanı o'qi, tarjima qil, so'ng taxtaga yoz. Ahmad, sen taxtaga chiq, xatolarnı tuzat.

**8- topshiriq.** Quyidagi matnnı o'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling va fe'l shakllarını aniqlang.

- خواهش می کنم بفرمایید با چه وسیله ای می توانم به مرکز شهر بروم؟
- شما می توانید به وسیله ی اتوبوس برقی خط یک به مرکز شهر بروید.
- خواهش می کنم بفرمایید ایستگاه اتوبوس برقی کجاست؟
- ایستگاه اتوبوس برقی طرف چپ خیابان است.
- لطفاً بفرمایید اتوبوس خط بیست و پنج کجا می رود؟
- اتوبوس خط بیست و پنج به فرودگاه می رود.
- این چه خیابانی است؟
- این خیابان پوشکین است.
- قیمت بلیط اتوبوس برقی چند است؟
- قیمت بلیط اتوبوس برقی بیست صوم است.
- خواهش می کنم قبلاً بگویید که کی باید پیاده شوم؟
- شما باید بعد از سه ایستگاه پیاده شوید.
- ببخشید، شما در ایستگاه بعدی پیاده می شوید؟
- بله، من در ایستگاه بعدی پیاده می شوم.
- شما با کدام اتوبوس برقی به دانشگاه می روید؟
- من با اتوبوس برقی خط چهار به دانشگاه می روم؟
- این چه ایستگاهی است؟
- این ایستگاه بیرونی است.
- آیا شما سوار تراموای می شوید؟
- نخیر، من تا دانشگاه پیاده می روم.
- من راه را گم کردم، لطفاً بفرمایید چطور می توانم به نمایشگاه آثار هنری بروم؟
- الان بروید به طرف راست، بعد از مغازه ی کتابفروشی بطرف چپ بپیچید، پس از رفتن دویست متر بنای دو طبقه ای چشم می خورد، همان نمایشگاه آثار هنری است.
- متشکرم، از کمک شما ممنونم.

**9- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o'qing va aorist shaklida kelgan fe'llarnı aniqlang.

کسی پیش کاتبی رفت و گفت: نامه ای برای من بنویس. کاتب گفت: پای من درد می کند. آن شخص گفت: من نخواستم ترا جایی بفرستم که چنین عذر می آوری. گفت: این حرف تو راست است ولی هر وقت برای کسی نامه ای می نویسم، مرا دعوت می کنند که آن را بخوانم، زیرا که دیگری خط مرا نمی تواند بخواند.

## Lug‘at

درد کردن *dard kardan* – og‘rimoq  
فرستادن *ferestodan* (فرست *ferest*) – yubormoq  
عذر آوردن *o‘zr ovardan* – uzr so‘ramoq, uzr keltirmoq  
دعوت کردن *da‘vat kardan* – taklif qilmoq, chaqirmoq  
زیرا که *ziroke* – chunki

## O‘n sakkizinchi dars

## درس هجدهم

### ماکیان و تخم طلا

ماکیانی در خانه ی صاحبش تخم طلایی گذاشت. صاحب او چون تخم طلا را دید پنداشت که شکم ماکیان پر از طلا است. به این امید سر ماکیان را برید که تمام طلا را یکمرتبه از شکم ماکیان بیرون نماید. همینکه ماکیان را کشت و شکمش را پاره کرد دید چیزی نیست. پشیمان شد ولی این پشیمانی و تأسف سودی نبخشید. پند بزرگان: کیسه ی پر طمع همیشه خالی است.

### واژه ها

ماکیان *mokiyon* – tovuq  
تخم *to‘xm* – tuxum  
صاحب *soheb* – xo‘jayin, ega  
گذاشتن *go‘zoshtan* (گذا *go‘zor*) – qo‘ymoq  
پنداشتن *pandoshtan* (پندا *pandor*) – o‘ylamoq, xayol qilmoq  
بریدن *bo‘ridan* (بر *bo‘r*) – kesmoq, so‘ymoq  
شکم *shekam* – qorin  
امید *o‘mid* – umid, ishonch  
یکمرتبه *yekmartabe* – birdan, bir yo‘la  
نمودن *namudan* (نما *namo*) – ko‘rsatmoq, ko‘rinmoq  
بیرون نمودن *birun namudan* – chiqarmoq, chiqarib olmoq  
کشتن *ko‘shdan* (کش *ko‘sh*) – o‘ldirmoq  
پاره کردن *pore kardan* – yirtmoq, yormoq  
پشیمان شدن *pashimon sho‘dan* – pushaymon bo‘lmoq  
تأسف *ta‘asso‘f* – afsus, achinish  
سودی نبخشید *sudi nabaxshid* – foyda keltirmadi  
پند *pand* – pand-nasihath  
کیسه *kise* – cho‘ntak  
طمع *tama‘* – ochko‘zlik, xasislik, tamagirlik  
خالی *xoli* – bo‘sh, quruq



## GRAMMATIK IZOH

### Maqsad ergash gap

Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning maqsadini bildirib keladi.

Ergash gap bosh gap bilan *ke* تا, *to* آنکه برای *baroye on-ke*, برای اینکه *baroye in-ke* ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali bog'lanadi.

Agar o'zbek tilida avval maqsad ergash gap, keyin bosh gap kelsa, fors tilida aksincha, avval bosh gap, so'ng maqsad ergash gap keladi va ergash gapning kesimi doimo مضارع التزامی shaklida bo'ladi. Bunda *ke* تا, *to* bog'lovchilari doimo bosh gapdan so'ng keladi. Masalan:

*man be mag'oze-ye ketobfo'rushi raftam ke ro'bo'iyot-e omar xayyomro bexaram* – Men Umar Xayyom ruboiylarini sotib olish uchun kitob magaziniga bordim.

*u panjarero boz kard to havo-ye o'toq avaz shavad* – Uyning havosi almashsin deb, u derazani ochdi.

*onho har ruz varzesh miko'nand baroye on-ke solem boshand* – Ular sog'lom bo'layin deb, har kuni badantarbiya qiladilar.

*ke* تا, *to* آنکه برای *baroye on-ke*, برای اینکه *baroye in-ke* bog'lovchilari sinonim bo'lib, birining o'rnida ikkinchisi ishlatilishi mumkin. Bular orasida *ke*, ko'proq uchraydi.

### To'ldiruvchi ergash gap

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapning kesimini to'ldirib keladi. To'ldiruvchi ergash gap odatda bosh gapdan keyin kelib, u bilan *ke*, ergashtiruvchi bog'lovchisi orqali bog'lanadi. Masalan:

*hame midonand ke jo'mhuri-ye o'zbekeston tarafdor-e so'lh-e poydor ast* – Hamma biladiki, O'zbekiston Respublikasi mustahkam tinchlik tarafdoridir.

*ma'lum sho'd ke u diruz noxo'sh nabud* – Ma'lum bo'ldiki, u kecha kasal bo'lmagan.

## Leksik izoh

1. چیز *chiz* (narsa) so‘zi aniqsizlik belgisi *-yo* ni qabul qilganda چیزی shaklida ishlatilib, gapda kesim bo‘lishli shaklda kelsa, *bir narsa* va bo‘lishsiz shaklda kelsa, *hech narsa* deb tarjima qilinadi. Masalan:

. او برای من چیزی آورد *u baroye man chizi ovard* – U menga bir narsa olib keldi.

. او برای من چیزی نیاورد *u baroye man chizi nayovard* – U menga hech narsa olib kelmadi.

. آنها از مغازه چیزی خریدند *onho az mag‘oze chizi xaridand* – Ular magazindan bir narsa sotib oldilar.

. آنها از مغازه چیزی نخریدند *onho az mag‘oze chizi naxaridand* – Ular magazindan hech narsa sotib olmadilar.

2. *po‘r* so‘zi *to‘la, ser, ko‘p* degan leksik ma‘nolarga ega bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan birikkanda quyidagi ma‘nolarni bildiradi:

a) Ot yoki otlashgan so‘zlar oldida kelib, *ko‘p, to‘la, farovonlik* ma‘nolarini bildirgan sifat yasaydi. Masalan:

آب <i>ob</i> – suv	پر آب <i>po‘r-ob</i> – suvli, sersuv
نور <i>nur</i> – nur	پر نور <i>po‘r-nur</i> – nurli

b) *po‘r* so‘zi *az* predlogi bilan birga kelganda, biror narsa bilan to‘lalikni bildiradi. Masalan:

. کیشه اش پر از سیب بود *kiseash po‘r az sib bud* – Cho‘ntagi olma bilan to‘la edi.

. او پنداشت که شکم ماکیان پر از طلاست *u pendosht ke shekam-e mokiyon po‘r az telo-st* – U tovuqning qorni tilla bilan to‘la, deb o‘yladi.

### 1- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

U xat yozish uchun qog‘oz keltirdi. Men do‘stimni ko‘rish uchun keldim. U javob berish uchun o‘rnidan turdi. Navbatchi tekstni tarjima qilish uchun kutubxonadan lug‘at keltirdi. Men undan kech soat ettida kelishini iltimos qildim. Biz tushlik ovqat yeyish uchun oshxonaga bordik. Onamga sharf sotib olay deb, sovg‘alar magaziniga bordim. Fors tilini o‘rganish uchun sharq fakultetiga o‘qishga kirdik. Oybekning “Navoiy” romanini sotib olish uchun kitob magaziniga bordim. Dam olish kuni shahar tashqarisiga chiqdik. Arab tilini o‘rganay deb, arabcha lug‘at va arab tili grammatikasini sotib oldim. Onam olma sotib olish uchun meni bozorga yubordi. Dars

tayyorlash uchun kutubxonaga bordim. Tog‘amning og‘li universitetda o‘qish uchun Toshkent shahriga keldi. Ukam mendan kechirim so‘rash uchun keldi. Do‘stim o‘z maqolasini yozish uchun kutubxonadan bir nechta kitob oldi. Men bu jumlani yozish uchun doskaga chiqdim. Biz ma‘ruza eshitish uchun zalga kirdik. Hijolat bo‘lmasin deb, bu gapni unga aytmadim. O‘zbekiston tarixiy yodgorliklarini ko‘rish uchun Samarqand shahriga bordim. Futbol o‘yinini ko‘rish uchun stadionga bordik.

## 2- topshiriq. Savollarga javob bering.

- ماکیان در خانه ی صاحبش چه گذاشت؟
- ماکیان در کجا تخم طلا گذاشت؟
- صاحب ماکیان چون تخم طلا را دید چه پنداشت؟
- صاحب ماکیان چه کرد؟
- به چه امید سر ماکیان را برید؟
- همین که ماکیان را کشت و شکمش را پاره کرد چه دید؟
- در شکم ماکیان طلا بود یا نه؟
- چرا صاحب ماکیان از کشتن ماکیان پشیمان شد؟
- آیا این پشیمانی و تأسف سودی بخشید؟
- بزرگان چه گفته اند؟
- چرا کیسه ی پر طمع خالی است؟

3- topshiriq. O‘tilgan darslarda berilgan leksik materialdan foydalanib, maqsad va to‘ldiruvchi ergash gaplarga 10 tadan gap tuzing.

4- topshiriq. Matnni o‘qing, o‘zbekchaga tarjima qiling, maqsad va to‘ldiruvchi ergash gaplarni aniqlang.

این لغت را به او دادم که او هم از آن لغت استفاده کند.  
 من به مادرم کمک کردم تا مادرم خسته نشود.  
 دانشجو تخته پاک کن را تر کرد تا تخته را پاک کند.  
 دانشجویان و استادان در تالار جمع شدند برای اینکه به گزارش رئیس دانشگاه گوش دهند.

من به خانه ی دوستم آمدم برای آنکه او را به سینما دعوت کنم.  
 کشیک پنجره ی کلاس را باز کرد تا هوای کلاس عوض شود.  
 احمد از کتابخانه لغت فارسی به از یکی آورد که این متن را ترجمه کند.  
 من فردا به خانه ی تو می آیم تا درس فردا را باهم حاضر کنیم.  
 او از خواب زودتر بیدار شد تا سر درس دیر نکند.  
 دانشیار واژه های تازه را روی تخته نوشت که دانشجویان یاد بگیرند.  
 من دیدم که او به خانه داخل شد.  
 او از من خواهش کرد که این کتاب را به کسی ندهم.

مگر او به تو نگفت که امروز درس ساعت هشت و نیم شروع می شود؟  
 دخترم گفت که زبان فارسی شیرین است و آن را خیلی دوست دارم.  
 احمد مگر نمی دانست که من مریضم و سر درس نمی آیم.

**5- topshiriq.** Quyidagi maqollarni o‘qing, yod oling, maqsad va to‘ldiruvchi ergash gaplarni aniqlang.

آمدم که ابرویش را درست کنم چشمش را در آوردم.  
 در را زدم تا دیوار بشوند.  
 از آن مترس که های و هو دارد از آن بترس که سر به تو دارد.  
 رنج بکش تا به گنج برسی.  
 اگر خواهی که راز تو دشمن نداند به دوست خود مگو.

### Lug‘at

ابرو *abru* – qosh  
 در آوردن *dar* – *ovardan* – o‘yib chiqarmoq  
 های و هو دارد *ho-yo* – *hu dorad* – shaldir-shuldur qilib yuradigan  
 شنیدن *shenidan* – eshitmoq  
 در زدن *dar zadan* – eshik qoqmoq  
 سر به تو *sar be tu* – boshi ichida, pismi ( odam )  
 رنج کشیدن *ranj keshidan* – zahmat chekmoq, qiynalmoq  
 گنج *ganj* – xazina  
 راز *roz* – sir, roz

**6- topshiriq.** Matnni o‘qing va o‘zbekchaga tarjima qiling.

### همکار عزیز

گدایی در خانه ای رفت و گفت:  
 – برای رضای خدا یک مقدار پول به من بدهید، نان بخرم. صاحب خانه از داخل  
 خانه صدا زد:  
 – نداریم.  
 – پس یک تکه نان به من بدهید.  
 – نداریم.  
 – یک لقمه غذای شب مانده به من بدهید.  
 – نداریم.  
 – کمی میوه به من بدهید.  
 – نداریم.  
 – پس یک قطره آب به من بدهید.  
 – نداریم.  
 – پس بابا چرا معطلی، تو هم بیا با هم برویم گدایی!

## Lug'at

همکار *hamkor* – birga ishlovchi, hamkor  
برای رضای خدا *baro-ye rezo-ye xo 'do* – xudo haqi  
یک مقدار *yek miqdor* – ozgina  
صدا زدن *sedo zadan* – qichqirmoq, chaqirmoq  
تکه *teke* – burda, parcha  
صاحب خانه *soheb-e xone* – uy egasi  
داخل *doxel* – ichkari  
لقمه *lo 'qme* – osham, bir yeyishlik  
غذای شب مانده *g 'azo-ye shab monde* – kechagi qolgan ovqat  
کمی *kami* – ozgina  
قطره *qatre* – tomchi, qatra  
بابا *bobo* – amaki, bobo  
معطلی *mo 'attali* – to'xtab turibsan, bekor qarab o'tiribsan

**7- topshiriq.** Quyidagi fe'llarning hozirgi zamon negizini kitob oxirida berilgan ilovadan toping va ularni yod oling.

آوردن <i>ovardan</i>	خریدن <i>xaridan</i>	فرستادن <i>ferestodan</i>
شنیدن <i>shenidan</i>	شستن <i>sho 'stan</i>	شدن <i>sho 'dan</i>
گذاشتن <i>go 'zoshtan</i>	بردن <i>bo 'rdan</i>	گذشتن <i>go 'zashtan</i>
گفتن <i>go 'ftan</i>	نمودن <i>namudan</i>	بریدن <i>bo 'ridan</i>
دیدن <i>didan</i>	رسیدن <i>rasidan</i>	گرفتن <i>gereftan</i>
ساختن <i>soxtan</i>	سوختن <i>suxtan</i>	زدن <i>zadan</i>
خوابیدن <i>xobidan</i>	کاشتن <i>koshtan</i>	دانستن <i>donestan</i>

**8- topshiriq.** Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli zamonga qo'yib jumalarni ko'chirib yozing.

دانشجویان بعد از درس به تالار قرائت رفتند تا درس فردا را (حاضر کردن).  
برای آنکه این مقاله را (ترجمه کردن) او از لغت فارسی به روسی استفاده کرد. دوستم  
به خانه ی ما آمد که به من روز تولدم را (تبریک گفتن). من فرهنگ خود را به تو  
می دهم تا تو هم از آن (استفاده کردن). برای آنکه دانشجویان زبان فارسی را خوب  
(دانستن) باید بیشتر با استاد خود به زبان فارسی گفتگو کنند. من پیش تو می آیم برای  
آنکه درس فردا را باهم (حاضر کردن). خواهرم هسته داخل اطاق شد تا بچه هارا  
(بیدار نکردن). برای آنکه سالم (بودن) هر روز صبح ورزش بکنید. دیروز به مغازه ی  
هدایا رفتم تا برای مادرم شال گردن (خریدن). برای آنکه مادرم (خسته شده شدن) در شستن  
ظروف ها به او کمک کردم. زود از خواب بیدار شدم برای اینکه سر درس (دیر  
کردن). دانشیار موضوع درس را دو باره توضیح داد تا دانشجویان درس را بهتر  
(فهمیدن). تو هم بیا به منزل تا با هم به گردش برویم. من به شهر سمرقند رفتم تا از آثار  
تاریخی آن شهر را (دیدن کردن).

## چوپان دروغگو

چوپان جوانی بسیار دروغ می گفت و همیشه به دروغ فریاد می کرد که به من کمک کنید و گوسفندانم را از چنگال گرگ رها کنید. مردم از هر طرف با چوب و تفنگ به کمک او می رفتند و چون نزدیک می شدند می دیدند که چوپان دروغ گفته است. سپس مردم رنجیده پی کار خود می رفتند. اتفاقاً شبی چند گرگ به گوسفندان او حمله کردند. بیچاره چوپان هر چه داد می زد و مردم را به کمک می خواند هیچ کس به دادش نمی رسید زیرا آنها خیال می کردند که چوپان باز دروغ می گوید. در نتیجه گرگها چندین رأس از گوسفندان او را دریدند و خودش را هم هلاک کردند.

## واژه ها

عاقبت *oqibat – oqibat, natija*

دروغگو *do 'rug 'gu – yolg'onchi*

چوپان *chupon – cho'pon*

جوان *javon – yosh, yigit*

دروغ *do 'rug ' – yolg'on*

به دروغ فریاد کردن *be do 'rug' faryod kardan – yolg'ondan faryod ko'tarmoq*

کمک کردن *ko 'mak kardan – yordam qilmoq, yordam bermoq*

گوسفند *gusfand – qo'y*

چنگال *changol – changal*

رها کردن *raho kardan – qutqarmoq, ozod qilmoq*

چوب *chub – kaltak, yog'och, tayoq*

تفنگ *to 'fang – miltiq*

رنجیدن *ranjidan – xafa bo'lmoq, ranjimoq*

رنجیده *ranjide – xafa bo'lib*

اتفاقاً *ettefoqan – to'satdan*

گرگ *go 'rg – bo'ri*

داد زدن *dod zadan – dodlamoq, baqirmoq*

کس *kas – kishi, odam*

هیچ کس *hich kas – hech kim*

زیرا *ziro – chunki*

رأس *ra's – bosh*

دریدن *daridan (در dar) – yirtmoq, pora-pora qilmoq*

## GRAMMATIK IZOH

### O'tgan zamon davom fe'li ماضی استمراری *mozi-ye estemrori*

O'tgan zamon davom fe'li ish-harakatning o'tgan zamonda boshlanib, tugallanmaganligini yoki harakatning takroriy ravishda bajarilib kelganligini bildiradi.

O'tgan zamon davom fe'li o'tgan zamon fe'l negizi oldiga می *mi* – old qo'shimchasi va oxiriga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: رفتن *raftan* – (bormoq) fe'lining o'tgan zamon negizi رفت *raft* bo'lib, tuslanganda quyidagi shakllarda bo'ladi.

#### مفرد

من می رفتم *man miraftam* – Men borar edim, borardim.

تو می رفتی *to ' mirafti* – Sen borar eding, borarding.

او می رفت *u miraft* – U borar edi, borardi.

#### جمع

ما می رفتیم *mo miraftim* – Biz borar edik, borardik.

شما می رفتید *sho 'mo miraftid* – Siz borar edingiz, borardingiz.

آنها می رفتند *onho miraftand* – Ular borar edilar, borardilar.

O'tgan zamon davom fe'lida urg'u ikkita bo'lib, asosiy kuchli urg'u می *mi* – old qo'shimchasiga va ikkinchi kuchsizroq urg'u shaxs-son qo'shimchalariga tushadi.

Prefiksli va qo'shma fe'llarda می *mi* – old qo'shimchasi ko'makchi fe'lga qo'shiladi.

برگشتن *bar-gashtan* – qaytmoq

بر می گشتم *bar-migashtam* – qaytar edim

گردش کردن *gardesh kardan* – aylanib yurmoq

گردش می کردم *gardesh mikardam* – aylanib yurar edim

#### Misollar:

چوپان جوانی بسیار دروغ می گفت. *chupon-e javoni besyor do 'rug 'mi-go 'ft* – Bir yosh cho'pon ko'p yolg'on gapirar edi.

روزهای تابستان بیرون شهر می رفتیم و در آنجا استراحت می کردیم. *ruzho-ye toboston birun-e shahr miraftim va dar onjo esterohat mikardim* – Yoz kunlari shahardan tashqariga chiqardik va u yerda dam olardik.

وقتی که رفیقم آمد من نامه می نوشتم. *vaqti ke rafiqam omad man nome minaveshtam* – O'rtog'im kelgan vaqtda, men xat yozayotgan edim (yozar edim).

O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shakli bo'lishli shakli-dagi *می mi* – old qo'shimchasi oldiga *نه na* – inkor yuklamasini keltirish orqali yasaladi.

*نمی رفتم namiraftam* – bormas edim, bormasdim

*نمی دیدیم namididim* – ko'rmas edik, ko'rmasdik

*بر نمی گشت bar-namigasht* – qaytmas edi, qaytmasdi

*سیگار نمی کشید sigor namikashid* – papiros chekmas edi, chekmasdi

O'tgan zamon davom fe'lining bo'lishsiz shaklida urg'u *نه na* – inkor yuklamasiga o'tadi. Masalan:

*نمی خواندم namixondam* – O'qimas edim.

*او کار نمی کرد u kor namikard* – U ishlamas edi.

## Numerativlar

Fors tilida miqdor bildiruvchi sonlar odatda numerativ deb ataluvchi yordamchi so'zlar bilan qo'llanib, predmetning son-miqdori nechtaligini, donasini anglatadi. Numerativlar son va sanaluvchi predmetlar nomini bildirgan so'zlar orasiga qo'yiladi. Numerativlardan so'ng izofa qo'yilmaydi. Fors tilida predmetlarning ma'nosiga qarab turli numerativlar ishlatiladi. Quyida biz ularning ba'zilarini ko'rsatib o'tamiz.

1. Uy-ro'zg'or va boshqa predmetlar uchun *تا to* ( ta, dona ):

*دو تا میز do 'to miz* – ikkita stol

*پنج تا مداد panj to medod* – beshta qalam

2. Insonlar uchun *نفر nafar, تن tan* ( jon, kishi):

*چهار نفر دانشجو chahor nafar doneshju* – to'rtta (to'rt nafar) talaba

*سه تن دختر se tan do'xtar* – uchta qiz

*نفر nafar* va *تن tan* numerativlari sanaluvchi predmetsiz ham ishlatilishi mumkin. Bu holda ular numerativlik xususiyatini yo'qotib, mustaqil so'z ma'nosiga ega bo'ladi.

*خانواده ی ما مرکب از پنج نفر است. xonevode-ye mo mo'rakkab az panj nafar ast* – Bizning oilamiz besh kishidan iborat.

*چهار نفر از دانشجویان در باره ی این موضوع سخنرانی کردند. chahor nafar az doneshjuyon dar bore-ye in mo'uzu so'xanroni kardand* – Talabalardan to'rt kishi shu mavzuda ma'ruza qildilar.



3. Hayvonlar uchun رأس *ra's* (bosh):

ده رأس گوسفند *dah ra's gusfand* – o'n bosh qo'y  
هفت رأس گاو *haft ra's gov* – yetti bosh sigir

4. Har turli mashinalar, stanok va avtomobillar uchun دستگاه *dastgoh* (stanok):

چهل دستگاه اتومبیل باری *chehel dastgoh o'to'mo'bil-e bori* – 40 dona yuk tashiydigan avtomobil.

5. Juft predmet uchun جفت *jo'ft*:

یک جفت جوراب *yek jo'ft jurob* – bir juft paypoq  
دو جفت کفش *do' jo'ft kafsh* – ikki juft poyabzal

6. Ba'zi kiyimlar uchun دست *dast* (dona, qo'l):

یک دست کت و شلوار *yek dast ko't-o' shalvor* – bitta kostum-shim  
دو دست پیراهن *do' dast pirohan* – ikkita ko'ylak

7. Kema, paroxod va samolyotlar uchun فرود *farvand*:

چهار فرود کشتی *chahor farvand kashti* – to'rtta kema  
پنج فرود هواپیما *panj farvand havopeymo* – beshta samolyot

8. Uy va imoratlar uchun باب *bob* (eshik):

هشت باب خانه *hasht bob xone* – sakkizta uy

9. Kitoblar uchun جلد *jeld* (jild, dona):

سه جلد کتاب *se jild ketob* – Uch jild kitob.

10. Boshqa ko'pgina predmetlar uchun دانه *done* (dona):

پنج دانه سیب *panj done sib* – besh dona olma  
ده دانه قلم *dah done qalam* – o'n dona ruchka

## Leksik izoh

به دروغ *be do'rug'* – *be* predlogi orqali yasalgan ravish bo'lib, o'zbek tiliga *yolg'ondan* deb tarjima qilinadi.

به دروغ گفت *be do'rug' go'ft* – *yolg'ondan* aytdi.

**1- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni o'tgan zamon davom fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shaklida tuslang.

خواستن *xostan* – xohlamoq      آوردن *ovardan* – keltirmoq  
 بر خاستن *bar-xostan* – turmoq      حاضر کردن *hozer kardan* – tayyorlamoq

## 2- topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

U yaxshi javob berar edi. O‘tgan yili har hafta kinoga borar edik. Men o‘z darslarimni hamisha kutubxonada tayyorlar edim. Talabalar dars boshlangunga qadar badantarbiya qilar edilar. Do‘stim darsdan so‘ng hamisha oldimga kelar edi. U fors tilida juda ko‘p kitob o‘qir edi. Uning gaplari qiziqarli edi, suhbatlari menga juda yoqar edi. U hamisha Hofiz g‘azallarini zavq bilan o‘qir edi. U bolalarga o‘z sarguzashtlarini aytib berar edi. Har yili yozda opam bolalari bilan bizning bog‘da dam olishar edi. Yusuf bir nimalarni o‘ylar va nimalarnidir qog‘ozga tushirar edi. Men kechqurunlari otam bilan istirohat bog‘ida aylanib yurishni yaxshi ko‘rar edim. O‘rtog‘imning otasi har kuni ertalab “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasini sotib olar va uni diqqat bilan o‘qir edi. U kelgan paytda, men dars tayyorlayotgan edim. Ahmad har kuni uyqudan soat yetti yarimda turar edi, bugun soat sakkizda turdi.

## 3- topshiriq. Numerativlar ishtirokida bir nechta gap tuzing.

4- topshiriq. Hozirgi zamon negizi orqali yasalgan quyidagi so‘zlarni kitob oxirida berilgan “Fe‘llar” ilovasidan foydalanib, tahlil qiling va ularning ma‘nosini aniqlang. Masalan: کتابخان ketobxon, کتاب *ketob* + خواندن *xondan* (o‘qimoq) fe‘lining hozirgi zamon negizi خوان *xon* ning qo‘shilishi orqali yasalgan.

جهانگیر	موسیقی دان	جامه دوز
کف گیر	سیاست دان	کفش دوز
دل افروز	ساعت ساز	دور بین
آتش افروز	ماشین ساز	خود بین
شطرنج باز	رهنما	رهبر
قمارباز	قطب نما	دلبر
غزلخوان	ادبیات شناس	زحمتکش
نمازخوان	زبان شناس	آیکش
دروغگو	چای فروش	دوستدار
دعاگو	گوشت فروش	پول دار

**5- topshiriq.** Matnni o‘qing, tarjima qiling va o‘tgan zamon davom fe’li hamda numerativlarni aniqlang.

پدر بزرگم حکایت کرد که او در جوانی زیر دست یکی از ثروتمندان خدمت می کرد. آن ثروتمند ده باب خانه و باغ وسیع داشت. خانواده ی ما از پنج نفر عبارت بود. من، پدر و مادر و دو خواهر کوچک هم داشتم. ما همه در فقر و گرسنگی زندگی می کردیم. در اطاق خود جز یک نمذ کهنه چیز دیگری نداشتیم. آن ثروتمند پنج نفر نوکر داشت. پدر بزرگم یکی از آنها بود. غیر از این او بیش از دویست رأس گوسفند، پنجاه رأس گاو و سی رأس اسب و چندین رأس بز داشت. بعد از انقلاب در دهکده ما کلخوز بوجود آمد. من در کلخوز کار می کردم. کلخوز ما خیلی ثروتمند بود. در آن علاوه بر حیوانات اهلی بیش از پانزده دستگاه تراکتور و نزدیک چهل دستگاه اتومبیل باری و سواری و دو فروند هواپیمای کشاورزی و چندین ماشین دیگر موجود بود.

**6- topshiriq.** Gaplarni o‘qing va o‘tgan zamon davom fe’lini aniqlang.

دیروز وقتی که احمد پیش من آمد، من درسهایم را حاضر می کردم. من می دانستم که درس اول زبان فارسی است. برادرم هر روز زود از خواب بیدار می شد و ورزش می کرد. وقتی که مادرم به خانه برگشت من تلویزیون تماشا می کردم. من نمی دانستم که زبان عربی اینقدر مشکل است. وقتی که من تلویزیون تماشا می کردم چراغ خاموش شد. وقتی که من وارد کلاس شدم دانشجویمان صحبت می کردند و مرا ننیدند. هر روز او پیاده به دانشکده می آمد، امروز سوار اتوبوس شد. وقتی که من در دانشگاه تحصیل می کردم، خواهرم در شهر سمرقند زندگی می کرد.

**7- topshiriq.** Qavs ichidagi fe’llarni tegishli zamonlarga qo‘yib gaplarni ko‘chirib yozing.

امروز روز تعطیل است، پدرم ساعت هشت از خواب (بیدار شدن)، روزهای دیگر ساعت هفت از خواب (بیدار شدن).  
وقتی که خواهرم به خانه (برگشتن)، ما (شام خوردن).  
برادر و خواهرم هر روز ساعت هفت و نیم از خانه (بیرون رفتن) و بعد از بیست دقیقه به دانشکده (آمدن).  
دانشجویمان هر روز پیش از آغاز درس کتاب و دفترهایشان را از کیف (در آوردن) و روی میز (گذاشتن).  
وقتی که دوستانم پیش من آمد، من درس فردارا (حاضر کردن).  
سال گذشته آب هوای تاشکند خیلی سرد (بودن).  
برادرم چهار سال در دانشگاه، زبان فارسی را (یاد گرفتن) و حالا زبان فارسی را خوب (دانستن).

اگر دوستم به من کمک (نکردن)، من کار خود را (انجام ندادن).  
درس دوم ما زبان عربی (بودن).

8- **topshiriq.** Quyidagi hikoyani o'qing, tarjima qiling va hikoyadagi barcha fe'l shakllarining zamonini aytib bering.

### حکایت،

پادشاه با وزیر خرما می خورد و هسته خرما را پیش وزیر می انداخت. چون تمام خرما را خوردند پادشاه به وزیر گفت: خیای پرخور هستی که هسته خرما را بسیار پیش تو است. وزیر گفت: ای پادشاه پرخور آنهایی هستند که نه خرما باقی گذاشتند نه هسته.

### Lug'at

هسته *haste* – danak, urug'

انداختن *andoxtan* – tashlamoq, irg'itmoq

پرخور *po'rxo'r* – yeb to'yimas, tomoqxo'r

باقی گذاشتن *boqi go'zoshtan* – qoldirmoq

## Yigirmanchi dars

## درس بیستم

### روپاه دم کنده

روپاهی به دام صیادی افتاد. برای خلاصی خود ناچار از دم خود در گذشت، دم را کند و گریخت. با خود میاندیشید که عیب خود را چگونه بپوشاند که رفا او را به بی دمی طعنه نزنند. پس چند روپاه را بدور خود جمع کرد و گفت:

– این دم برای ما هیچ فایده و سودی ندارد بجز اینکه بار سنگینی می کشیم، تا بحال هیچ منفعتی از دم ندیدیم. روپاهی از آن میان گفت.  
– آه که بیدمی چه درد بی دوائی است. آسوده باش، اگر تو هم دم داشتی هر گز این سخن را نمی گفتی.

### پند و حکمت

بزرگی سراسر بگفتار نیست، دو صد گفته چون نیم کردار نیست.

باد آورده را باد می برد.

دست شکسته و بال گردن است.

داشته آید بکار گرچه بود زهر مار.

از خانه ی سوخته هر چه بر آید سود است.

## واژه ها

- دام *dom* – tuzoq, dom  
خلاصی *xalosi* – qutqarish, ozod qilish  
کندن *kandan* – uzmoq, yulmoq  
دم کنده *do 'mkande* – dumi uzilgan  
پوشانیدن *pushonidan* – bekitmoq, yashirmoq  
طعنه زدن *ta 'na zadan* – ta'na qilmoq  
دور *do 'ur* – atrof, tevarak  
به دور خود جمع کردن *be do 'ur-e xo 'd jam' kardan* – o'z atrofiga to'plamoq  
بجز اینکه *be jo 'z-e inke* – . . . dan boshqa  
سنگین *sangin* – og'ir  
تا بحال *to be hol* – shu kunga qadar, hozirgacha  
آسوده *osude* – tinch, osuda  
هرگز *hargez* – hech vaqt, hech qachon  
سراسر *sarosar* – hamma, butun, butunlay  
گفتار *go 'ftor* – so'z, gap  
کردار *kerdor* – (qilingan) ish  
وبال *vabol* – gunoh, uvol, yuk  
بر آمدن *bar-omadan* – chiqmoq, ko'tarilmoq

## GRAMMATIK IZOH

### Sifatdosh

Fe'llik va sifatlik xususiyatlarini anglatuvchi fe'l shakli sifatdosh deyiladi.

Sifatdoshning fe'llik xususiyati uning zamon tushunchasini ifodalashi, fe'llar singari bo'lishli va bo'lishsiz shakllarda kelishi hamda fe'l kabi nisbat bilan tuslanishidir. Sifatdoshning sifatlik xususiyati sifat kabi predmetning belgisini anglatib kelishidir. Bunda sifatdosh ot oldida kelib u bilan izofa orqali birikadi va gapda aniqlovchi vazifasini bajarib keladi.

### O'tgan zamon sifatdoshi

O'tgan zamon sifatdoshi o'tgan zamon fe'l negiziga *o* – *e* affiksini qo'shish orqali yasaladi.

O'tgan zamon sifatdoshi aniq va majhul nisbatda bo'lishi mumkin. O'timsiz fe'llardan aniq va o'timli fe'llardan majhul nisbat ma'nolaridagi sifatdoshlar yasaladi.

## O'timsiz fe'llardan yasalgan sifatdoshlar

آمدن <i>omadan</i> – kelmoq	آمد <i>omad</i>	آمده <i>omade</i> – kelgan
ترسیدن <i>tarsidan</i> – qo'rqmoq	ترسید <i>tarsid</i>	ترسیده <i>tarside</i> – qo'rqqan
نشستن <i>neshastan</i> – o'tirmoq	نشست <i>neshast</i>	نشسته <i>neshaste</i> – o'tirgan
مردن <i>mo'rdan</i> – o'lmoq	مرد <i>mo'rd</i>	مرده <i>mo'rde</i> – o'lgan
رفتن <i>raftan</i> – bormoq	رفت <i>raft</i>	رفته <i>rafte</i> – borgan
گذشتن <i>go'zashtan</i> – o'tmoq	گذشت <i>go'zasht</i>	گذشته <i>go'zashte</i> – o'tgan

## O'timli fe'llardan yasalgan sifatdoshlar

خواندن <i>xondan</i> – o'qimoq	خواند <i>xond</i>	خوانده <i>xonde</i> – o'qilgan
نوشتن <i>naveshtan</i> – yozmoq	نوشت <i>navesh</i>	نوشته <i>naveshte</i> – yozilgan
شستن <i>sho'stan</i> – yuvmoq	شست <i>sho'st</i>	شسته <i>sho'ste</i> – yuvilgan
گفتن <i>go'ftan</i> – aytmoq	گفت <i>go'ft</i>	گفته <i>go'fte</i> – aytilgan
بریدن <i>bo'ridan</i> – kesmoq	برید <i>bo'rid</i>	بریده <i>bo'ride</i> – kesilgan
خریدن <i>xaridan</i> – sotib olmoq	خرید <i>xarid</i>	خریده <i>xaride</i> – sotib olingan

Ba'zi fe'llar bir vaqtda ham o'timli, ham o'timsiz bo'lishi mumkin. Masalan:

شکستن *shekastan* – sinmoq va sindirmoq  
آموختن *omuxtan* – o'rganmoq va o'rgatmoq  
ریختن *rixtan* – quymoq va quyilmoq

Bu fe'llardan yasalgan sifatdoshlar gapning mazmuniga qarab aniq yoki majhul nisbat ma'nosini anglatishi mumkin.

شکسته *shekaste* – singan va sindirilgan  
آموخته *omuxte* – o'rgangan va o'rgatilgan  
ریخته *rixte* – quygan va quyilgan

Sifatdoshda urg'u sifatdosh oxiridagi *o* – *e* affiksiga tushadi.  
O'tgan zamon sifatdoshi gapda:

1. Aniqlovchi bo'lib keladi:

گذشته سال *sol-e go'zashte* – o'tgan yili  
دانشجوی نشسته *doneshju-ye neshaste* – o'tirgan talaba  
خوراکهای نخسته *xo'rokho-ye napo'xte* – pishirilmagan taomlar

2. Ba'zi bir sifatdoshlar otlashib, otdan hech qanday farq qilmay, otga xos bo'lgan butun morfologik belgilarni qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarda ishlatiladi. Masalan:

دیده *dide* – ko'rilgan, ko'z

گفته *go'fte* – aytilgan, so'z, gap

مرده *mo'rde* – o'lgan, o'lik

Misollar:

من گذشته ی خود را برای او نقل کردم. *man go'zashte-ye xo'dro baro-ye u naql kardam* – Men o'z o'tmishimni unga aytib berdim.

از گذشته ی من خوشش آمد. *az go'zashte-ye man xo'shsh omad* – Mening o'tmishim unga yoqdi.

3. O'tgan zamon sifatdoshi ba'zi bir otlar bilan birikib, predmetning belgisini bildiruvchi murakkab sifatdosh yasaydi:

پزشک کار آزموده *pezeshk-e kor-ozmude* – (ish sinagan) tajribali vrach

مترجم سال خورده *mo'tarjem-e sol-xo'rde* – yoshi o'tgan (keksa) tarjimon

معلم نور رسیده *mo'allem-e no'u raside* – yangi kelgan o'qituvchi

کشورهای نورسته *keshvarho-ye no'u ro'ste* – yangi mustaqillikka erishgan mamlakatlar.

**1- topshiriq.** Yuqoridagi روپاه دم کنده hikoyasi yuzasidan bir necha savol tuzing.

**2- topshiriq.** Dars tekstida berilgan pand va hikmatlarni yod oling hamda ularda uchragan sifatdoshlarni qaysi fe'ldan yasalganini aytib bering.

**3- topshiriq.** Quyidagi birikma va gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

O'qilgan hikoya. Singan qalam. O'tgan oy. Qo'rqan odam. Qaytib kelgan talaba. Ko'tarilgan yuk. Yiqilgan bola. Ko'rilgan film. Sotib olingan tufli. Ichilgan suv. Berilgan javob. Borgan kishi. Vrach bo'lgan qiz. Tushungan talaba. Aytilgan so'z. Yuvilgan ko'y-lak. Ishlagan dehqon. Yotgan kasal. O'tilgan dars. Yozilgan xat.

Kelgan qiz mening singlim. O'qilgan kitoblarimni stolning ustiga qo'ydim. Men Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini

sotib oldim. Ilon chaqqan dehqon vrachning oldiga keldi. Men o'zimning forscha yozuvlarimni otamga ko'rsatdim. Sizning aytganingiz to'g'ri. Olingan xatga javob yozdim. Javob bergan talaba o'z joyiga o'tirdi. Akam bu paltoni kiyimlar magazinidan sotib oldi. Yangi sotib olingan kitoblarimni o'rtog'imga ko'rsatdim.

**4- topshiriq.** Quyidagi maqollarni daftaringizga ko'chirib yozing va sifatoshlarning ma'nosini aniqlang.

کوزه گر از کوزه ی شکسته آب می خورد. *kuzegar az kuze-ye shekaste ob mixo'rad.*

سخن گفته و تیر انداخته باز نگردد. *so'xan-e go'fte va tir-e andoxte boz nagardad.*

ارزان یافته خوار باشد. *arzon yofte xor boshad.*

آش نخورده و دهان سوخته. *osh naxo'rde va dahon suxte.*

خفته را خفته کی کند بیدار. *xo'ftero xo'fte key ko'nad bedor.*

خود افتاده نگرید. *xo'd o'ftode nageryad.*

داشته آید به کار گرچه بود زهر مار. *doshte oyad be kor garche bo'vad zahr-e mor*

آب ندیده موزه را نکشید. *ob nadide muzero nakashid.*

تاجر ترسیده و لرزیده جان، در جهان نه سود بیند و نه زیان. *tojer-e tarside va larzide jon dar jahon na sud binad na ziyon.*

**5- topshiriq.** Fors va o'zbek tillari uchun mushtarak bo'lgan quyidagi so'zlarning yasalishini tahlil qiling va ularning yasalishidagi farqlarni aniqlang.

ساختمان

سازمان

**6- topshiriq.** Quyidagi so'zlarda کار *kor* so'zining ma'nosini aniqlang.

بی کار، پنبه کار، شاهکار، سر کار، شفاکار، غله کار، جامه کار.

### Lug'at

تیر *tir* – o'q

انداختن *andoxtan* – otmoq

باز گشتن *boz-gashtan* – qaytmoq

افتادن *o'ftodan* – yiqilmoq

یافتن *yoftan* – topmoq

دهان *dahon* – og'iz



سوختن *suxtan* – kuydirmoq, kuymoq  
 خفتن *xo'ftan* – uxlamoq  
 کی *key* – qachon  
 گریستن *geristan* – yig'lamoq  
 مار *mor* – ilon  
 موزه *muze* – etik

**7- topshiriq.** Tagiga chizilgan so'zlarni ularga antonim bo'lgan so'zlar bilan almashtirib, jummalarni ko'chirib yozing.

او خیلی تند راه می رود.  
 خانه ی ما زیبا و بزرگ است.  
 دانشیار زبان فارسی ما پیر است.  
 حسن به زبان فارسی خوب حرف می زند.  
 امروز درسمان بعد از ظهر شروع می شود.  
 برادر کوچکم لباس کهنه ی خود را پوشید و به دبیرستان رفت.  
 من چراغ اتاق را روشن کردم.  
 مادرم غذای شیرینی حاضر کرد و آن را روی میز گذاشت.  
 خواهرم در را باز کرد.  
 امروز هوا سرد است.  
 احمد هیچ وقت دروغ نمی گوید.  
 خانه ی ما از دانشگاه دور است.

**8- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o'qing, tarjima qiling va undagi fe'l zamonlarini aniqlang.

### خرگوش فروختن ملا

ملا در باغ می گذشت، اتفاقاً خرگوشی از جلوی او عبور می کرد. ملا او را گرفته به توبره انداخت و سرش را بسته به خانه برد. در بین راه فکر می کرد حیوان به این قشنگی که تا بحال ندیده ام و بسیار پر قیمت است، می شود آن را به دولت‌مندان به قیمت خوبی فروخت. پس با عجله به خانه آمد و به زنش سپرد که سر توبره را باز نکند تا او رفته چند نفر بولدار را بیاورد و آن را نشان داده به قیمت خوبی بفروشد. زن ملا پس از بیرون رفتن او به فکر افتاد که باید بداند چیزی که ملا آرزو دارد و به قیمت گران بفروشد چیست. به این خیال سر توبره را باز کرد. همین که سر توبره را باز کرد خرگوش بیرون جست و فرار کرد. زن از ترس ملا ظرف جو را برداشته به میان توبره گذاشت و سرش را بست. پس از ساعتی ملا چند نفر از تجار بولدار را همراه کرده به خانه آمد و آنها را به اتاق برد. سپس سر توبره را باز کرده ظرف جو را در وسط توبره دید. ملا که از حیرت دهانش باز مانده بود و نمی دانست چه بکند گفت: آقایان این ظرف را اگر سه بار با جو یر کنید یک من می شود.

## Lug‘at

خرگوش *xargush* – quyon

عبور کردن *o‘bur kardan* – (kesib) o‘tmoq, bosib o‘tmoq

توبره *tubre* – to‘rva

عجله *bo ajale* – shoshib, tezlik bilan

فرار کردن *feror kardan* – qochib ketmoq

جو *jo‘u* – arpa

ظرف *zarf* – idish

تجار *to‘jgor* – savdogarlar (birligi – *tojer*)

وسط *vasat* – o‘rta

من *man* – man (og‘irlik birligi)

## Yigirma birinchi dars

## درس بیست و یکم

### دو رفیق

دو رفیق در میان جنگلی می رفتند. خرسی آنها را دید و به آنها حمله کرد. یکی از آنها همینکه خرس را دید از هول جان گریخت و از درختی بالا رفت که خود را نجات دهد. دیگری که مجال گریختن نیافت خود را به زمین انداخت و مانند مرده وانمود کرد. خرس پیش او آمده قدری سر و گوشش را بوییده خیال کرد که مرده است و از او دور شد. همینکه خرس از چشم پنهان شد او از زمین بر خاسته سر و روی خود را تکان داد. اولی هم از بالای درخت پایین آمده خنده کنان پرسید:

– رفیق چه شد؟ گویا بسیار ترسیدی؟ خرس به گوشت چه گفت؟

– خرس گفت: پست ترین آدمها کسی است که رفیق خود را در روز سختی گذاشته

و بگریزد.

### واژه ها

جنگل *jangal* – o‘rmon

خرس *xers* – ayiq

هول *ho‘ul* – qo‘rqinch

گریختن *go‘rixtan* ( *go‘riz* گریز ) – qochmoq

نجات دادن *nejot dodan* – qutqarmoq

مجال *majol* – imkon, iloj, majol

افتادن *o‘ftodan* ( *o‘ft* افت ) – yiqilmoq, yiqilib tushmoq

*xo‘dro monand-e mo‘rde vonamud kard* –

*o‘zini o‘likka soldi, o‘zini o‘lik qilib ko‘rsatdi*

بوییدن *buyidan* ( *bu* بو ) – hidlamoq

پنهان شدن *penhon sho‘dan* – yashirinmoq, bekinmoq

takon dodan – rostlamoq, silkitmoq  
 خندیدن *xandidan* (خند *xand*) – kulmoq  
 پست ترین *pasttarin* – eng past, eng pastkash  
 سخت *saxt* – qattiq, og‘ir, qiyin  
 گذاشتن *go‘zoshtan* (گذار *go‘zor*) – qo‘ymoq  
 پائین آمدن *poyin omadan* – pastga tushmoq

## GRAMMATIK IZOH

### O‘tgan zamon ravishdoshi *vajh-e vasfi*

Fors tilida o‘tgan zamon ravishdoshi uchun maxsus grammatik shakl yo‘q. O‘tgan zamon sifatdoshi shakli bir vaqtda ravishdosh uchun ham qo‘llanadi.

Bu shaklning sifatdosh yoki ravishdosh ekanligi uning gapda bajargan vazifa va ma‘nolariga qarab belgilanadi.

Fors tilida o‘tgan zamon ravishdoshi asosan ergash gap tarkibida kesim vazifasida kelib, paytni ifodalaydi va bosh gap kesimi orqali anglashilgan ish-harakat va holatdan oldinroq bo‘lib o‘tgan ish-harakatni bildiradi. O‘zbek tilidagi *-ib*, *-b* qo‘shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlarning payt bildirgan ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. Masalan:

*u har ruz az xob bidor sho‘de ponzdah daqiqe varzesh miko‘nad* – U har kuni uyqudan turib, 15 daqiqa badantarbiya qiladi.

*u pish-e man omade go‘fi ke man namitavonam be shabneshini beravam* – U mening oldimga kelib, kechaga bora olmasligini aytdi.

*mo toboston-e sol-e go‘zashte be shahr-e shiroz rafte az osor-e torixi-ye onjo didan namudim* – O‘tgan yili yozda Sheroz shahriga borib, u yerning tarixiy yodgorliklarini tomosha qildik.

Ba‘zan kesimi ravishdosh bilan ifodalangan gap bosh gap bilan biriktiruvchi *va* bog‘lovchisi orqali bog‘lanishi ham mumkin. Bu turdagi qo‘shma gap o‘zbek tiliga ravishdosh yoki teng bog‘langan qo‘shma gap orqali tarjima qilinadi. Masalan:

*mo savor-e o‘to‘bus sho‘de va ba‘d az bist daqiqe be manzel rasidim* – Biz avtobusga o‘tirib, 20 daqiqadan so‘ng manzilga yetib keldik yoki biz avtobusga o‘tirdik va 20 daqiqadan so‘ng manzilga yetib keldik.

O'tgan zamon ravishdoshining bo'lishsiz shakli ravishdosh oldiga *na* – inkor yuklamasini keltirish orqali yasaladi. Masalan:

*mo bo u mo 'loqot nakarde be xone bar-gashtim* – Biz u bilan uchrashmay, uyga qaytdik.

*u in ketobro naxonde namitavonad kor-e ilmi-ye xo'dro benavisad* – Bu kitobni o'qimay, u o'z ilmiy ishini yoza olmaydi.

## Payt ergash gap

Payt ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning paytini, qay vaqtda bajarilganini bildiradi va *key?* *che vaqt?* *dar che vaqt?* (qachon, qaysi paytda?) savollariga javob bo'ladi.

Payt ergash gap bosh gapga *chun* *vaqti-ke*, *ke*, *hangomi-ke*, *hamin-ke*, *be mahz-e in-ke*, *to*, *to-ke*, *pas az on-ke*, *ba'd az on-ke*, *pish az on-ke*, *qabl az on-ke* kabi bo'glovchilar orqali bog'lanadi.

Bu ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'nolari o'zbek tilida quyidagi vositalar orqali beriladi.

1. *chun*, *vaqti-ke*, *ke*, *hangomi-ke*, bog'lovchilari o'zbek tiliga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifat-doshlar yordamida yoki o'tgan zamon sifatdoshidan so'ng *vaqt-da*, *paytda*, *chog'ida* kabi so'zlarni keltirish yo'li bilan beriladi. Bu to'rt bog'lovchidan *chun*, *vaqti-ke*, *hangomi-ke*, asosan ergashgan qo'shma gapning boshida va *ke* bog'lovchisi esa bosh gap bilan ergash gap o'rtasida keladi. *ke* bog'lovchisi hech vaqt gap boshida kelmaydi.

Payt ergash gap asosan bosh gapdan oldin, ba'zi hollarda bosh gapdan so'ng keladi. Masalan:

*vaqti-ke man omadam dar-e xone boz bud* – Men kelganimda, uyning eshigi ochiq edi.

*mo'uvei-ke doneshyor doxel kelos-e dars mishavad doneshjuyon az jo-ye xo'd bar-mixizand va be u salom midehand* – O'qituvchi autidoriyaga kirgan vaqtda, talabalar o'z joylaridan turadilar va unga salom beradilar.

*hengomi-ke in matno tarjo 'me mikardam ma'ni-ye chand kalemero nafahmidam* – Bu matni tarjima qilayotgan paytimda, bir necha so'zning ma'nosiga tushunmadim.

*soat-e do'ba'd az nime-ye shab bud ke man korho-ye xo'dro tamom kardam* – Men o'z ishlarimni tamom qilgan paytda, soat kechasi ikki edi.

2. *hamin-ke, be mahz-e in-ke* bog'lovchilari bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bevosita ergash gapdan so'ng, shu vaqtning o'zidayoq bajarilishini ko'rsatadi.

*hamin-ke, be mahz-e in-ke*, bog'lovchilari o'zbek tiliga egalik qo'shimchalari olgan harakat nomini bildiruvchi otlar hamda *bilan* bog'lovchisi yordamida yoki *-gach* qo'shimchali ravishdoshlar orqali beriladi.

Masalan:

*hamin-ke xers az cheshm penhon sho'd u az bolo-ye daraxt poyin omad* – Ayiq ko'zdan yo'qolgach (yo'qolishi bilan), u daraxt ustidan pastga tushdi.

*be mahz-e in-ke be kenor-e daryo rasidim boron borid* – Dengiz qirg'og'iga yetishimiz bilan yomg'ir yog'ib yubordi.

3. *to, to-ke* bog'lovchilari – *guncha* affiksi yordamida yasalgan ravishdosh yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasi olgan sitatdosh va undan so'ng *qadar* so'zini keltirish orqali tarjima qilinadi.

*to, to-ke* bog'lovchilari bilan bog'langan qo'shma gapda bosh gap va ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakat o'tgan zamonga oid bo'lsa, bosh va ergash gapning kesimi o'tgan zamon fe'l shakllaridan birida keladi. Masalan:

*to havo sard nasho'd man polto -ye zemestoni naxaridam* – Sovuq tushmaguncha, men qishki palto sotib olmadim.

Agar bosh va payt ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakat kelasi zamonga oid bo'lsa, ergash gapning kesimi مضارع التزامی shaklida, bosh gapning kesimi esa hozirgi-kelasi zamon yoki aniq kelasi zamon fe'li shaklida keladi.

*to man in mas'alero hal nako'nam az injo naxoham raft* – Bu masalani hal qilmaguncha, bu yerdan ketmayman.

*to bache gerye nako'nad modarash be u shir namidehad* – Bola yig'lamaguncha, onasi unga sut bermaydi. (Maqol).

4. *pas az on-ke*, *ba'd az on-ke*, *pish az on-ke*, *qabl az on-ke* bog'lovchilari ergash gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bosh gap kesimi ifoda etgan ish-harakatdan oldin yoki keyin bajarilishini bildiradi. Bu bog'lovchilarning ma'nosi o'zbek tilida chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshlardan so'ng *keyin*, so'ng yoki harakat nomini bildirgan otlardan so'ng *avval*, *ilgari* so'zlarini keltirish orqali ifoda etiladi. Masalan:

*pas az on-ke do'ure-ye dabirestonro tamom kardam vored-e doneshgoh-e xovarshenosi sho'dam* – O'rta maktabni tamom qilgandan so'ng, sharqshunoslik institutiga kirdim.

بعد از آنکه رئیس دانشگاه سخنرانی خود را تمام کرد دانشجویان سوالهایی از او کردند. *ba'd az on-ke ra'is-e doneshgoh so'xanroni-ye xo'dro tamom kard doneshjuyon su'olho-i az u kardand* – Institut rektori o'z nutqini tugatgandan so'ng, talabalar unga savollar berishdi.

*pish az on-ke be teotr beravam leboshoye xo'dro avaz kardam* – Teatrga borishdan oldin, o'z kiyimlarimni almashtirdim.

قبل از آنکه پیش من بیاید تلفن کرد. *qabl az on-ke pish-e man beyoyad telfo'n kard* – Mening oldimga kelishdan oldin, telefon qildi.

*pish az on-ke*, *ba'd az on-ke*, *pas az on-ke*, *qabl az on-ke* bog'lovchilaridan so'ng kelgan payt ergash gapda ish-harakat kelasi zamonga oid bo'lsa uning kesimi مضارع التزامی fe'l shaklida keladi. Masalan:

*pas az on-ke u beyoyad man miravam* – U kelgandan so'ng, men ketaman.

قبل از آنکه پیش دوستم بروم به او تلفن می کنم. *qabl az on-ke pish-e dustam beravam be u telfo'n miko'nam* – Do'stimning oldiga borishdan avval, unga telefon qilaman.

Yuqoridagi bog‘lovchilar garchi o‘zlarining ma‘nolari jihatidan bir necha guruhlarga bo‘lingan bo‘lsalar ham, ularning ko‘pchiligi o‘zaro o‘rin almashishi va jumlaning ma‘nosiga qarab payt bildirgan hamma vositalar orqali tarjima qilinishi mumkin.

### 1- topshiriq. Quyidagi savollarga forsha javob bering.

- (۱) دو رفیق کجا رفتند؟
- (۲) وقتی که خرس آنها را دید چه کرد؟
- (۳) همین که آنها خرس را دیدند از هول جان گریخته چه کردند؟
- (۴) خرس پیش او آمده چه خیال کرد؟
- (۵) همین که خرس از چشم پنهان شد رفیقان چه کردند؟
- (۶) رفیق اول از رفیق خود چه پرسید؟
- (۷) خرس به گوش رفیق او چه گفت؟
- (۸) پستترین مردان چه کسی هستند؟

### 2- topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

U ayol o‘rtog‘imning onasi edi. Otam magazinga borib, bir oq ko‘ylak sotib oldi. Biz “O‘tkan kunlar” filmi ko‘rib, uning mazmunini fors tili o‘qituvchisiga aytib berdik. Biz stadionga borib, futbol o‘yinini tomosha qilmoqchimiz. Bir qiz kelib, bu xatni senga berib qo‘yishni iltimos qildi. Men o‘qishni tamomlab, ishlash uchun Samarqand Davlat universitetiga bormoqchiman. Onam meni uzoqdan ko‘rib, oldimga keldi. O‘rtog‘imga telefon qilib, uni kinoga taklif qildim. Men kitob magaziniga borib, Oybekning “Navoiy” romanini sotib oldim. O‘qituvchimiz biznikiga kelib, otam bilan suhbatlashdi. U portfelini olib, uydan chiqib ketdi. Avtobusga o‘tirib, institutga yetib keldim. Uyqudan turib, yuz va qo‘llarimni sovun bilan yuvdim va ovqatlanishga o‘tirdim.

Bahor kelishi bilan, havo isib ketdi. Biz teatrdan qaytgan vaqtimizda, soat to‘qqizdan yigirma minut o‘tgan edi. Men kelishim bilan, darsga qo‘ng‘iroq chalindi. Otam mashinasozlik korxonasida ishlagan vaqtida, men 12 yoshda edim. Kino tugashi bilan, uyga qaytdik. Bu kitobni o‘qib bo‘lishim bilan uni senga qaytarib bera-man. Yoz kelishi bilan, kunlar isib ketdi. Sen kelguncha, men o‘z ishlarimni tamom qilaman. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirgan vaqtda, men kasal edim. Dars tugashi bilan, auditoriyadan chiqib ketdik. Uyga kelishim bilan senga telefon qilaman. Yomg‘ir tinishi bilan, ko‘chaga chiqdim. O‘qituvchi kelishi bilan dars boshlandi.

Uyqudan turgach avval badantarbiya qilaman, so'ng qo'l yuzimni yuvib nonushta qilaman. Hamma talaba va o'qituvchilar yig'ilgach, majlis boshlandi. Uy vazifasini bajarib bo'lgach, dam olish uchun o'rtog'imning uyiga bordim.

**3- topshiriq.** Quyidagi payt ergash gaplarga ergashtiruvchi bog'lovchilarni qo'yib, ularni ko'chirib yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

(۱) ... زنگ می زنند ما داخل کلاس درس می شویم. (۲) ... همه جمع شدند جلسه آغاز شد. (۳) ... سردم می شود پهلو ی بخاری می نشینم. (۴) ... دانشیار داخل کلاس درس بشود ما کتاب و دفترهای خود را از کیف بیرون می آوریم. (۵) ... ناهار بخورم باید به کتابخانه بروم. (۶) ... من آمدم او به رفیق خود نامه می نوشت. (۷) ... پیش من آمد تلفن کرد. (۸) ... از خانه بیرون شدم مادرم از من پرسید که چه ساعتی باز می گردی؟ (۹) ... هنرپیشگان افغانستان به شهر تاشکند آمدند من در شهر نبودم و بدین سبب نتوانستم در کنسرت آنان شرکت کنم. (۱۰) ... به خانه برگشتم همه مشغول کارهای خود بودند. (۱۱) خواهرم ... سال سوم دانشکده ی طب را تمام کرد برای ادامه ی تحصیل به شهر مسکو رفت. (۱۲) ... خسته می شوم یک یا دو ساعت استراحت می کنم و می خوابم. (۱۳) ... صبح شد ما باز روانه ی راه شدیم.

**4- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o'qing, tarjima qiling va o'tgan zamon ravishdoshini aniqlang.

### لباس كهنه و نو

ملا نصرالدین روزی لباس كهنه ی خود را پوشید و به ضیافتی رفت. کسی به او اعتیایی نکرد و جای خوبی نداد. ملا آهسته از آنجا بیرون آمده به خانه ی خود رفت و لباس نو پوشیده باز آمد. در این وقت صاحب خانه با احترام کامل از او پذیرایی کرد. چون سفره ی ناهار را گسترده، ملا آستین لباس را به غذا نزدیک کرده گفت که بخور. حاضرین تعجب کرده سببش را پرسیدند. ملا گفت: چون شما از اشخاصی که دارای لباس خوب باشید با احترام پذیرایی می کنید، پس غذا خوردن هم به عهده ی لباس است.

**5- topshiriq.** She'rni o'qing, tarjima qiling va ergashtiruvchi bog'lovchilarni aniqlang.

### مهر مادر

گویند مرا چو زاد مادر  
یستان به دهن گرفتن آموخت  
شبها بر گاهواره ی من  
بیدار نشست و خفتن آموخت



لبخند نهاد بر لب، من  
 بر غنچه ی گل شکفتن آموخت  
 دستم بگرفت و پا بپا برد  
 تا شیوه ی راه رفتن آموخت  
 یک حرف و دو حرف بر زبانه  
 الفاظ نهاد و گفتن آموخت  
 پس هستی من ز هستی اوست  
 تا هستم و هستت دارمش دوست  
 ( ایرج میرزا )

**6- topshiriq.** Quyidagi maqollarni tarjima qiling, ma'nolarini aniqlang va ularni yod oling.

- ۱) تا ریشه در آب است امید ثمری هست.
- ۲) مار تا راست نشود به سوراخ نمی رود.
- ۳) آشپز که دو تا شد آش یا شور می شود یا بی نمک.
- ۴) تا نباشد چیز کی مردم نگویند چیزها.
- ۵) آب ندیده موزه را نکشید.

**7- topshiriq.** Hikoyani o'qing, tarjima qiling va ravishdoshlarni aniqlang.

### دزد در چاه

یک روز پسر ملا نصرالدین بر سر چاه آب آمده به درون آن نگاه کرد. همین که عکس خود را در ته چاه دید گمان کرد که آدم بیگانه ای در آنجاست. پیش مادرش آمده گفت: در چاه دزد هست. مادرش سر چاه آمد و نگاه کرده گفت: راست می گویی، نزد او زنی هم هست.

### Lug'at

زادن *zodan*, زاییدن *zoyidan* (زا *zo*) – tug'moq  
 پستان *peston* – ko'krak  
 گاوآره *gohvora* – beshik, belanchak  
 بردن *bo'rdan* (بر *bar*) – olib bormoq, olib ketmoq  
 شیوه *shive* – usul, qoida  
 لبخند *labxand* – kulgi, tabassum  
 شکفتن *sheko'ftan* (شکف *sheko'f*) – ochilmoq  
 الفاظ *alfoz* (لفظ *birligi*) – tovush, so'zlashish  
 دارمش دوست *doram-ash dust* – uni sevaman  
 ریشه *rishe* – ildiz, o'zak  
 نهان *nehodan* (نه *neh*) – qo'yimoq

چیزک *chizak* – *kichkina*, *mayda narsa*

سوراخ *surox* – *in*, *teshik*

موزه *muze* – *etik*

دزد *do 'zd* – *o'g'ri*

چاه *choh* – *quduq*

درون *do 'run* – *ich*, *ichi*, *ichkari*

ته *tah* – *tag*, *tagi*

سر *sar* – *bosh*

گمان کردن *go 'mon kardan* – . . . *deb o'ylamoq*, *gumon qilmoq*

## Yigirma ikkinchi dars

## درس بیست و دوم

### جشن شعر و ادب در ازبکستان

در تاشکند جشن مرسومی شعر و ادب برگزار گردید. در این جشن با شکوه عده ی زیادی از شعرا، ادیبان، منقدین، هنرمندان، رجال اجتماعی و دانشمندان شرکت کردند. نویسندگان جمهوری ازبکستان در این مجلس با خوانندگان آثار خویش از نزدیک آشنا شده و با دوستان ادبیات ملاقات نمودند. هر یک از نویسندگان در باره ی نوشته های خود بیاناتی ایراد کردند و خوانندگان نیز سؤالاتی پیرامون آثار آنها مطرح نمودند. نویسندگان در زمینه ی خلاقیت های ادبی خود برای آینده و در باره ی قهرمانان آثار آتی خویش سخن گفتند. عصر آن روز شرکت کنندگان جشن شعر و ادب از تلویزیون تاشکند سخنرانی کردند. گوینده ی تلویزیون نخست رشته سخنرا به شاعر مردمی ازبکستان عبدالله عاروف داد. عبدالله عاروف برخی از اشعار خود را برای تماشاگران برنامه ی ادبی تلویزیون قرائت کرد. این شعر توجه هر شنونده ای را به خود جلب می کرد.

مراکز فروش کتاب نیز در تاشکند بسیار دیدنی بود. فروشندگان با جنب و جوش خارق العاده ای سر گرم کار بودند. داخل مغازه های کتابفروشی پر از خریدار بود. بسیاری از نویسندگان شخصاً در این مغازه ها حضور داشتند و آثار و نوشته های خود را امضا کرده و در اختیار خریداران می گذاشتند.

در فروشگاه مزبور غیر از آثار نظم و نثر نویسندگان و ادبای گذشته و کنونی از یک ترجمه های آثار برجسته روسی و زبانهای دیگر نیز موجود بود. ترجمه ی ازبکی "افسانه های ایرانی"، "داستانهای صادق هدایت"، "ریاضیات عمر خیام"، "غزلیات حافظ"، "بوستان" و "گلستان" سعدی و غیره در شعبات آثار ادبی خارجی فروشگاه جلب توجه می کرد.

جشن شعر و ادب همه ساله در ازبکستان برگزار می گردد و جز سنن ملی محسوب می شود.

- جشن *jashn* – bayram  
 باشکوه *bo sho 'kuh* – tantanali  
 عده *edde* – miqdor  
 ادب *she 'r-o ' adab* – poeziya, adabiyot  
 مرسوم *marsum* – odat, rasm bo'lib qolgan  
 بر گزار گردیدن *bar-go 'zor gardidan* – o'tkazilmoq, tashkil qilinmoq  
 ادیب *adib* – adib, adabiyotchi  
 منقد *mo 'naqqed* – tanqidchi  
 هنرمند *ho 'narmand* – san'atkor, san'at arbobi  
 رجل *rajo 'l* – kishi, arbob, xodim  
 رجل اجتماعی *rajo 'l-e ejtemoyi* – jamoat arbobi  
 شرکت کردن *sherkat kardan* – qatnashmoq  
 دوستدار ادبیات *dustdor-e adabiyot* – adabiyotni sevuvchi, adabiyot muxlisi  
 ملاقات نمودن *mo 'loqot namudan* – uchrashmoq  
 مطرح نمودن *matrah namudan* – muhokama qilmoq  
 نقشه *naqshe* – reja  
 خلاقیت، خلاق *xalloq, xalloqiyat* – ijod, ijodiy  
 آتی *oti* – kelasi, kelgusi, kelajak  
 سخن گفتن *so 'xan go 'ftan* – so'zlab bermoq, aytib bermoq  
 شرکت کننده *sherkat ko 'nande* – qatnashuvchi, ishtirok etuvchi  
 گوینده *guyande* – diktor, notiq  
 نخست *noxo 'st* – birinchi, avvalgi, bosh  
 رشته *reshte* – ip, soha, navbat  
 تماشاگر *tamoshogar* – tomoshabin, tomosha qiluvchi  
 برنامه *barnome* – dastur, programma  
 قرائت تالار *tolor-e qero 'at* – o'qish zali, qiro'atxona  
 قرائت کردن *qero 'at kardan* – o'qimoq, o'qib bermoq  
 توجه *tavajjo 'h* – fikr, diqqat  
 جنب و جوش *jo 'mb-o '-jush* – katta qiziqish bilan, katta harakat bilan  
 خارق العاده *xoreq-o 'l-ode* – odatdan tashqari, haddan tashqari  
 سرگرم *sargarm* – qiziqish, biror ishni bilib qilish  
 اثر *asar* – asar  
 مقابل *mo 'qobel* – qarama-qarshi, qarshisida

داشتن *ho 'zur doshtan* – hozir bo'ldiq, qatnashmoq

مذکور *mazbur* – qayd qilingan, eslatilgan, mazkur

نظم *nazm* – poeziya, she'riyat

نثر *nasr* – proza, nasr

کنونی *ko 'nuni* – hozirgi, zamonaviy, hozirgi zamon

برجسته *barjaste* – mashhur, atoqli

و غیره *va g 'eyre* – va boshqalar, va hokazo

جزء *jo 'z* – qism, bo'lak

سنن *so 'nan* – urf-odat, sunnat

محسوب شدن *mahsub sho 'dan* – hisoblanmoq

مردم *mardo 'm* – xalq, omma

## GRAMMATIK IZOH

### Hozirgi zamon sifatdoshi *صفت فاعلی sefat-e foili*

Hozirgi zamon sifatdoshi hozirgi zamon fe'l negiziga *نده* – *ande*, *-on*, *-o* affikslarini qo'shish orqali yasaladi.

1) *نده* – *ande* affiksi juda mahsuldor bo'lib, ko'pchilik fe'llardan sifatdosh yasaydi. Bu affiks orqali yasalgan so'zlar sifatdosh deb atalsalar ham, lekin hozirgi zamon fors tilida o'zlarining sifatdoshlik xususiyatlarini yo'qotib, asosan ot vazifasida keladilar. Masalan:

نوشتن <i>naveshtan</i>	نویس <i>navis</i>	نویسنده <i>navisande</i> – yozuvchi
خواندن <i>xondan</i>	خوان <i>xon</i>	خواننده <i>xonande</i> – o'quvchi
شنیدن <i>shenidan</i>	شنو <i>sheno 'u</i>	شنونده <i>shenavande</i> – eshituvchi, tinglovchi
فروختن <i>fo 'ruxtan</i>	فروش <i>fo 'rush</i>	فروشنده <i>fo 'rushande</i> – sotuvchi
شرکت کردن <i>sherkat kardan</i>	شرکت کن <i>sherkat ko 'n</i>	شرکت کننده <i>sherkat ko 'nande</i> – ishtirokchi, qatnashuvchi

Agar hozirgi zamon fe'l negizi cho'ziq unli bilan tugagan bo'lsa, *نده* – *ande* affiksi oldidan bir *ی*-y ortirilib yoziladi. Masalan:

گفتن <i>go 'ftan</i>	گو <i>gu</i>	گوینده <i>guyande</i> – diktor, notiq
نمودن <i>namudan</i>	نما <i>namo</i>	نماینده <i>namoyande</i> – vakil, namoyanda, deputat

نده *ande* affiksi orqali yasalgan sifatdoshlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra ot bo‘lib kelganliklari uchun otlarga xos bo‘lgan butun grammatik belgilarni qabul qiladilar.  
*navisandegon* نویسندهگان جمهوری ازبکستان با خوانندگان آثار خویش ملاقات کردند.  
*navisandegon-e jo ‘mhuri-ye o ‘zbakeston bo xonandegon-e osor-e xish mo ‘loqot kardand* – O‘zbekiston Respublikasi yozuvchilari o‘z asarlari muxlislari bilan uchrashdilar.

2) *-on* affiksi kam mahsul bo‘lib, ba‘zi fe’llardangina sifatdosh yasaydi. Bu affiks orqali yasalgan sifatdoshlar gapda aniqlovchi yoki ravish holi vazifasida keladi. Masalan:

اب روان *ob-e ravon* – oqadigan suv, oqar suv  
 گل خندان *go ‘l-e xandon* – kuladigan gul, xandon gul

Bu ikki misolda روان *ravon* va خندان *xandon* so‘zlari sifatdoshlardir.  
 بچه گریه کنان از اطاق بیرون رفت.  
*bache gerye-ko ‘non az o ‘toq birun raft* – Bola yig‘lab uydan chiqib ketdi.

Bu gapda گریه کنان *gerye-ko ‘non* ravish holi vazifasida kelgandir.

3) *-o* affiksi ham kam mahsul bo‘lib, sanoqli fe’llardangina sifatdosh yasaydi. Bu affiks orqali yasalgan sifatdoshlar fe’l ma’nosida ifoda etilgan belgiga doimiy egalikni bildirib keladi. Masalan:

دیدن <i>didan</i>	بین <i>bin</i>	بینا <i>bin</i> – ko‘ra oladigan
خواندن <i>xondan</i>	خوان <i>xon</i>	خوانا <i>xono</i> – o‘qib bo‘ladigan
شنیدن <i>shenidan</i>	شنو <i>sheno ‘u</i>	شنوا <i>shenavo</i> – eshita oladigan

*-o* affiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ham otlashgan hollarida otlar bajargan butun grammatik vazifalarni bajaradilar. Masalan:

گوش چپش شنوا ولی گوش راستش شنوا نیست.  
*gush-e chapash shenavo vali gush-e rostash shenavo nist* – Chap qulog‘i eshitadi, lekin o‘ng qulog‘i eshitmaydi.

نوبینای در شب تاریک در بازار راه می رفت.  
*nobino-yi dar shab-e torik dar bozor roh miraft* – Bir ko‘r qorong‘i kechada bozorda ketardi.

### یای لیاقت *yo-ye layoqat*

Fors tilida fe’llarning noaniq shakliga urg‘uli bir *-i* affiksi qo‘shilishi mumkin. Bu *-i* ni fors grammatikasida یای لیاقت *yo-ye layoqat* deyiladi. Masalan:

دیدن *didan*  
خوردن *xo'rdan*

دیدنی *didani*  
خوردنی *xo'rdani*

### لیاقت *yo-ye layoqat* ning ishlatilishi va ma'nolari

1) Fe'ning noaniq shakliga qo'shilib, kelasi zamon sifatdoshi yasaydi. Masalan:

؟ آیا آب دریای خزر خوردنی است? – *oyo, ob-e daryo-ye xazar xo'rdani ast?* – Kaspiy dengizining suvini ichsa bo'ladimi?

این فیلم جدید عربی دیدنی است. – *in film-e jaded-e 'arabi didani ast* – Bu yangi arab filmi ko'rishga arzigulik.

شنیدن *shenidan* شنیدنی *shenidani* – eshitishlik, eshitishga arzigulik

موسیقیهای ایرانی خیلی شنیدنی است. – *musiqiho-ye ironi xeyli shenidanist* – Eron musiqalari juda eshitishli

این اثر یک تأثیر فراموش نشدنی در من گذاشت. – *in asar yek ta'sir-e faromush nasho 'dani dar man go'zosht* – Bu asar menda esdan chiqmaydigan bir taasurot qoldirdi.

این حرف گفتنی نیست. – *in harf-e go'ftani nist* – Bu aytadigan gap emas (Bu gapni aytib bo'lmaydi).

حرفهای او شنیدنی است. – *harfho-ye u shenidani ast* – Uni so'zlarini tinglasa arziydi.

دیدنی های شهر تاشکند زیاد است. – *didaniho-ye shahr-e toshkand ziyod ast* – Toshkentda ko'radigan (ko'rishga arzigulik) joylar ko'p.

2) یای لیاقت *yo-ye layoqat* qo'shilgan fe'l shakli *است bog'lamasi* yoki بودن *budan* ko'makchi fe'li bilan turli shaxslarda kelib, ish-harakatni bajarishga bo'lgan istak, xohish hamda zaruriyat va lozimlikni bildiradi. Bu ma'noda kelgan fe'l shakli fors grammatikasida *لازم فعل fe'l-e lozem* – fe'ning lozim shakli deyiladi va o'zbek tiliga istak bildirgan – *moqchi* qo'shimchasi yoki kelasi zamon lozim formasi orqali tarjima qilinadi. Masalan:

من مطالب گفتنی داشتم ولی نگفتم. – *man matoleb-e go'ftani doshtam vali nago'ftam* – Mening aytadigan so'zim bor edi, lekin aytmadim.

ما تابستان به تهران رفتنی هستیم. – *mo tobeston be tehran raftani hastim* – Yozda biz Tehronga ketyapmiz (boradiganmiz).

شلوارم پس از رفو پوشیدنی شد. – *shalvoram pas az ro'fu pushidani sho'd* – Shimimning yirtiq joyi tikilgandan so'ng, kiyiladigan (kiysa bo'ladigan) bo'ldi.

3) یای لیاقت *qo'shilgan fe'ning noaniq shakli شدن sho'dan* ko'makchi fe'li bilan kelganda, biror ish-harakatni bajarish istagi paydo bo'lganini yo shu ish-harakatning amalga oshirish boshlanganligini bildiradi. Masalan:

من رفتی بودم که قطار رسید. *man raftani budam ke qator rasid* – Poyezd kelishi bilan, men jo'naydigan bo'ldim.

بهار که آمد گلها چیدنی شد. *bahor ke omad go'lho chidani sho'd* – Bahor kelishi bilan, gullar teriladigan bo'ldi.

4) یای لیاقت *qo'shilgan fe'llarning noaniq shakllari otlashib, gapda ot bajargan vazifalarda ham kelishi mumkin. Masalan:*

نوشتید *nushidan* – ichmoq

نوشتیدنی *nushidani* – ichimlik

خوردن *xo'rdan* – yemoq

خوردنی *xo'rdani* – yeyimlik, ovqat

پوشیدن *pushidan* – kiymoq

پوشیدنی *pushidani* – kiyimlik

روستن *ro'stan* – o'smoq

روستنی *ro'stani* – o'simlik

### Otlarda son kategoriyasi (davomi)

Fors tilida otlardan ko'plik yasash uchun *ان-on* va *ها-ho* affikslaridan tashqari, arab tilidan kirib kelgan ko'plik affikslari hamda "siniq ko'plik" deb ataluvchi maxsus ko'plik shakllari ham mavjuddir.

Fors tilidagi arab ko'plik affikslari asosan arab tilidan kirib kelgan so'zlarga qo'shiladi va ulardan ko'plik hosil qiladi. Bu affikslar:

1) *ین-in* ko'plik affiksi shaxs nomini bildiruvchi arab so'zlaridan ko'plik yasaydi.

معلم *mo'allem* – o'qituvchi

معلمین *mo'allem-in* – o'qituvchilar

متخصص *mo'taxasses* – mutaxassis

متخصصین *mo'taxasses-in* – mutaxassislar

مالک *molek* – mulkdor

مالکین *molekin* – mulkdorlar

منقذ *mo'naqqed* – tanqidchi

منقذین *mo'naqqed-in* – tanqidchilar

2) *ون-un* ( *یون yun* ) ko'plik affiksi *ی-i* unlisi bilan tugagan shaxs nomini bildiruvchi ba'zi arab so'zlaridan ko'plik yasaydi. Bu affiks fors tilida juda kam uchraydi. Misollar:

انقلابی *enqelobi* – inqilobchi

انقلابیون *enqelobiyun* – inqilobchilar

اعتصابی *e'tesobi* – isyonchi

اعتصابیون *e'tesobiyun* – isyonchilar

روحانی *ruhoni* – ruhoni

روحانیون *ruhoniyun* – ruhoniylar

3) *-ot* ko‘plik affiksi ancha mahsuldor bo‘lib, arab so‘zlaridan ko‘plik hosil qiladi. Misollar:

حيوان <i>heyvon</i> – hayvon	حيوانات <i>heyvonot</i> – hayvonlar
تعليم <i>ta‘lim</i> – ta‘lim, o‘quv	تعليمات <i>ta‘limot</i> – ta‘limlar, o‘quvlar
اطلاع <i>ettelo‘</i> – xabar, ma‘lumot	اطلاعات <i>ettelo‘ot</i> – xabarlar, ma‘lumotlar

Agar so‘z *-e* yoki *-at* bilan tugagan bo‘lsa, *-ot* ko‘plik affiksi bevosita so‘z o‘zagiga qo‘shilib, so‘z oxiridagi *-e* yoki *-at* tushib qoladi. Masalan:

مجلة <i>majalle</i> – jurnal	مجلات <i>majallot</i> – jurnallar
اداره <i>edore</i> – idora	ادارات <i>edorot</i> – idoralar
مقاله <i>maqole</i> – maqola	مقالات <i>maqolot</i> – maqolalar

*-ot* ko‘plik affiksi ba‘zi bir fors so‘zlaridan ham ko‘plik hosil qiladi. Masalan:

باغ <i>bog‘</i> – bog‘	باغات <i>bog‘ot</i> – bog‘lar
ده <i>deh</i> – qishloq	دهات <i>dehot</i> – qishloqlar

*-e* yoki *-i* unlisi bilan tugagan ba‘zi fors so‘zlariga *-ot* ko‘plik affiksining fonetik varianti bo‘lmish *-jot* qo‘shimchasini qo‘shish orqali ko‘plik hosil qilinadi. Bu holda so‘z oxiridagi *-e* yozuvda tushib qoladi. Masalan:

میوه <i>mive</i> – meva	میوجات <i>mivejot</i> – mevalar
کارخانه <i>korxone</i> – fabrika	کارخانجات <i>korxonejot</i> – fabrikalar
روزنامه <i>ruznome</i> – gazeta	روزنامهجات <i>ruznomejot</i> – gazetalar

4) Fors tilida arab ko‘plik affiksalaridan tashqari, ko‘p miqdorda arab “siniq ko‘plik” shakllari ham mavjuddir.

Siniq ko‘plik shakllar arab tiliga xos bo‘lib, so‘zlarning ichki fleksiyalarini o‘zgarishi, qo‘shimcha harflar orttirish orqali hosil qilinadi. Bu yo‘l bilan yasalgan ko‘plik shakldagi so‘zlar fors tiliga tayyor holda, o‘zlarining ko‘plik shakllarida kirib kelgandir. Arab ko‘plik shaklining yasalishi birmuncha murakkab bo‘lgani uchun, odatda lug‘at va darsliklarda so‘zlarning birlik shakli bilan bir qatorda, ularning ko‘plik shakli ham beriladi. Masalan:

رفیق <i>rafiq</i> – o‘rtoq	رفقا <i>ro‘faqo</i> – o‘rtoqlar
وزیر <i>vazir</i> – vazir, ministr	وزرا <i>vo‘zaro</i> – vazirlar, ministrlar
شاعر <i>sho‘er</i> – shoir	شعرا <i>sho‘aro</i> – shoirlar



اديب *adib* – adabiyotchi,  
yozuvchi  
شخص *shaxs* – shaxs, kishi

شعر *she'r* – she'r  
مرکز *markaz* – markaz  
وسيله *vasile* – vosita  
علم *'elm* – ilm, fan  
فن *fann* – fan, texnika  
رجل *rajo'l* – kishi, arbob  
دولت *do'ulat* – davlat  
ملت *mellat* – millat  
جمهوری *jo'mhuri* – respublika  
کتاب *ketob* – kitob  
رسم *rasm* – odat, rasm  
اثر *asar* – asar

ادبا *o'dabo* – adabiyotchilar,  
yozuvchilar  
اشخاص *ashxos* – shaxslar,  
kishilar  
اشعار *ash'or* – she'rlar  
مراکز *marokez* – markazlar  
وسایل *vasoyel* – vositalar  
علوم *'o'lum* – ilmlar, fanlar  
فنون *fo'nun* – fanlar, texnikalar  
رجال *rejol* – kishilar, arboblilar  
دول *do'val* – davlatlar  
ملل *melal* – millatlar  
جماهير *jamohir* – respublikalar  
کتاب *ko'to'b* – kitoblar  
رسوم *ro'sum* – odatlar, rasmlar  
آثار *osor* – asarlar

## Murakkab predloglar

Murakkab predloglar mustaqil ma'noga ega bo'lgan ayrim so'zlarning *dar*, *be*, *az* predloglari bilan birikuvi orqali hosil qilinadi. Murakkab predloglarning ba'zilar izofali va ba'zi birlari izofasiz bo'ladi. Izofali predloglar o'zidan keyingi so'z bilan izofa orqali va izofasiz predloglar izofasiz bog'lanadi.

### Izofali murakkab predloglar

*dar bob-e* – haqida, tog'risida, xususida  
*dar bore-ye* – haqida, tog'risida, xususida  
*dar xo'susi* – haqida, tog'risida, xususida  
*dar atrof-e* – haqida, tog'risida, xususida  
*dar roh-e* – yo'lida  
*be vasile-ye* – orqali, vositasi bilan, bilan  
*be vosete-ye* – orqali, vositasi bilan, bilan

### Izofasiz murakkab predloglar

*roje' be* – haqida, tog'risida  
*oyed be* – haqida, tog'risida  
*g'eyr az* – . . .dan boshqa, . . .dan bo'lak  
*pas az* – . . .dan so'ng, . . .dan keyin

از بعد *ba'd az* – . . . dan so'ng, . . . dan keyin

از پیش *pish az* – . . . dan avval, . . . dan ilgari

از قبل *qabl az* – . . . dan avval, . . . dan ilgari

### Misollar:

*in film dar bore-ye zendegi-ye sa'odatmand-e xalq-e o'zbek hekoye miko'nad* – Bu film o'zbek xalqining baxtli hayoti haqida hikoya qiladi.

*navisandegon dar xo'susi naqsheho-ye xalloq-e xo'd so'xan go'ftand* – Yozuvchilar o'z ijodiy rejaları haqida so'zlab berdilar.

حکیم ابو الفتح عمر بن ابراهیم خیام نیشابوری - فیلسوف، ریاضیدان، منجم، پزشک، شاعر و نویسنده ی بزرگ ایران در اواخر قرن پنجم و اوایل قرن ششم هجری (قرن یازدهم و دوازدهم میلادی) است. خیام در نیشابور به دنیا آمد، اما سال تولد و آغاز زندگی او نا معلوم است.

خیام تنها شاعر نیست. حتی قبل از اینکه شاعر باشد حکیم و طبیب است. هم در ریاضیات و نجوم مهارت دارد و هم از ادب و قرآن بهره مند است. در "خبر و مقاله" تحقیقات تازه می کند و در طب و نجوم هم مطالعات مهم دارد. علاوه بر این او در سال ۴۶۷ هجری (۱۰۷۴ میلادی) تقویم ایران را اصلاح می کند و "نوروز" را که در نیمه ی برج حوت (ماه اسفند) قرار داشت به اول برج حمل می آورد و از این راه "تقویم جلالی" را به وجود می آورد. در حکمت از طرفداران ابن سینا است و کتابهای قانون و سفارا با دقت و تحقیق می خواند و تحلیل می کند. هر چند مقام خیام ورای شاعری او بوده و شهرت او در ایام زندگی و بعد از آن بیشتر در حکمت، طب، نجوم و ریاضیات بوده است. ولی امروزه او را در جهان بیشتر با رباعیات فلسفی لطیفش می شناسند. معلم نیست که خیام شاعری را از چه زمانی شروع کرده و چرا جز رباعی نسروده است.

بدون شک او برای بیان اندیشه ها و افکار ساده و در عین حال سرشار از شور و هیجان خود هیچ قالبی مناسب تر از رباعی نمی توانست بیابد. رباعی به دلیل وزن و آهنگ ضربی خود به خوبی با دف و ساز همراه می شود و به همین سبب از قدیم در مجالس رواج داشته و نفوذ تأثیر آن در ذهن ها بیشتر بوده است.

خیام در رباعیات خود افکار فلسفی خود را به زیبایی بیان می کند. وفات خیام را در سال ۵۰۹ هجری (۱۱۱۵ میلادی) یا ۵۱۴ هجری (۱۱۲۳ میلادی) نوشته اند. ترجمه ها و تحقیقاتی که در باره ی رباعیات خیام به زبانهای مختلف انجام شده فراوان است. در جمهوری ازبکستان رباعیات عمر خیام به زبان ازبکی نیز ترجمه شده است.

## GRAMMATIK IZOH

### *af'ol-e* افعال متعدی و لازم *o'timli va o'timsiz fe'llar* *mo'ta'addi va lozem*

Fe'llar o'zlarining leksik ma'nolariga ko'ra o'timli va o'timsiz bo'ladilar. Fe'llarning o'timli yoki o'timsiz ekanligi harakatning obyektga bo'lgan munosabatiga ko'ra belgilanadi.

O'timli fe'llar (*af'ol-e mo'ta'addi* افعال متعدی) ish-harakatning biror predmetga – obyektga bevosita o'tganligini bildiradi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'zni talab qiladi. Masalan:

o'qimoq – خواندن

Men kitobni (nimani?) o'qidim. – من کتاب را خواندم.

yozmog – نوشتن

Tekstni (nimani?) doskaga yozdim. – متن را روی تخته نوشتم.

ko'rmoq – دیدن

Fakultetda Sobirni (kimni?) ko'rdim. – در دانشکده صابر را دیدم.

O'timsiz fe'llar (افعال لازم *af'ol-e lozem*) da ish-harakat boshqa predmetga – obyektga o'tmaydi va harakatning o'tishi uchun lozim bo'lgan so'zni qabul qilmaydi. Masalan:

آمدن *omadan* – kelmoq  
نشستن *neshastan* – o'tirmoq  
رفتن *raftan* – bormoq  
افتادن *o'ftodan* – yiqilmoq

Fors tilida bir necha fe'llar borki, ular o'zlarining leksik ma'no-lariga ko'ra ham o'timli, ham o'timsiz bo'ladilar. Masalan:

افزودن *afzudan* – ko'paymoq, ko'paytirmoq, ortmoq, orttirmoq  
آموختن *omuxtan* – o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq, orgatmoq  
شکستن *shekastan* – sinmoq, sindirmoq  
اویختن *ovixtan* – osilmoq, osmoq

Misollar:

پارویز شاخه ی درخت را شکست. *parviz shoxe-ye deraxtro shekast* – Parviz daraxt shoxini sindirdi.

از باد شدید شاخه ی درخت شکست. *az bod-e shaded shoxe-ye deraxt shekast* – Qattiq shamoldan daraxtning shoxi sindi.

آب جوش ریخت و دستم را سوخت. *ob-e jush rixt va dastamro suxt* – Qaynoq suv to'kildi va qo'limni kuydirdi.

Ko'pincha o'timli ma'nodagi qo'shma fe'llarning ko'makchi qismini boshqa fe'l bilan almashtirish orqali ulardan o'timsiz fe'l yasaladi. Bu xildagi almashish ko'proq yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'llar orasida sodir bo'ladi. Masalan:

آغاز کردن *og'oz kardan* – boshlamoq  
آغاز شدن *og'oz sho'dan* – boshlanmoq  
آشنا کردن *oshno kardan* – tanishtirmoq  
آشنا شدن *oshno sho'dan* – tanishmoq  
باز کردن *boz kardan* – ochmoq  
باز شدن *boz sho'dan* – ochilmoq  
بیدار کردن *bidor kardan* – uyg'otmoq  
بیدار شدن *bidor sho'dan* – uyg'onmoq  
راضی کردن *rozi kardan* – rozi qilmoq  
راضی شدن *rozi sho'dan* – rozi bo'lmoq

Bulardan tashqari:

دادن پرورش *parvaresh dodan* – tarbiyalamoq  
یافتن پرورش *parvaresh yoftan* – tarbiyalanmoq  
دادن شکست *shekast dodan* – shikast yetkazmoq  
خوردن شکست *shekast xo'rdan* – shikastlanmoq kabi.

## Fe'lining majhul nisbati فعل مجهول *fe'l-e majhul*

Fe'ning majhul nisbati o'zining tuzilishi jihatidan qo'shma fe'l shakliga ega bo'lib, yetakchi fe'l va شدن *sho'dan* ko'makchi fe'lidan tashkil topadi. Majhul nisbatda fe'l tarkibidagi yetakchi fe'l hamma zamon va shaxslarda o'tgan zamon sifatdoshi shaklida va ko'makchi fe'l شدن *sho'dan* esa tegishli zamon va shaxslarda keladi.

Fe'ning majhul shakli faqat o'timli fe'llardangina hosil qilinadi. Masalan:

نوشتن *naveshtan* – yozmoq  
نوشته شد *naveshte sho'd* – yozildi.  
مقاله نوشته شد *maqole naveshte sho'd* – Maqola yozildi.  
فرستادن *ferestodan* – yubormoq  
فرستاده شد *ferestode sho'd* – yuborildi.  
نامه فرستاده شد *nome ferestode sho'd* – Xat yuborildi.

Majhul nisbatdagi fe'llar aniq nisbatdagi fe'llarga xos bo'lgan hamma zamon va mayllarda ishlatilishi mumkin. Masalan:

مقاله نوشته می شود *maqole naveshte mishavad* – Maqola yozilyapti, yoziladi. (hozirgi-kelasi zamon fe'li).  
مقاله نوشته می شد *maqole naveshte misho'd* – Maqola yozilardi (o'tgan zamon davom fe'li).  
مقاله نوشته شده است *maqole naveshte sho'de ast* – Maqola yozilgan (dir). (o'tgan zamon natijali fe'li).  
مقاله نوشته شده بود *maqole naveshte sho'de bud* – Maqola yozilgan edi (uzoq o'tgan zamon fe'li).  
مقاله نوشته خواهد شد *maqole naveshte xohad sho'd* – Maqola yoziladi, yozilajak. (aniq kelasi zamon fe'li).

Majhul nisbatdagi fe'ning bo'lishsiz shakli ko'makchi fe'l شدن *sho'dan* oldiga نه *na*–inkor yuklamasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan:

نامه فرستاده نشد *nome ferestode nasho'd* – Xat yuborilmadi.

Aniq kelasi zamon fe'lining majhul shaklida نه *na*–inkor yuklamasi خواستن *xostan* ko'makchi fe'liga qo'shiladi. Masalan:

بسته ی پستی شما فرستاده نخواهد شد. *baste-ye po'sti-ye sho'mo ferestode naxohad sho'd* – Sizning banderolingiz yuborilmaydi (jo'natilmaydi).

Majhul nisbatdagi fe'lining bo'lishsiz shaklida urg'u yetakchi fe'lining oxirgi bo'g'iniga tushadi. Masalan:

نوشته شد. *naveshte sho'd* – yozildi.

Agar ko'makchi fe'l می *mi* – old qo'shimchasini olgan bo'lsa yoxud شدن *sho'dan* ko'makchi fe'li sifatdosh shaklida kelsa, urg'u ikkita bo'lib, birinchi urg'u yetakchi fe'lga va ikkinchi urg'u sifatdosh shaklidagi ko'makchi fe'l oxiriga yoki می *mi* – old qo'shimchasiga tushadi. Masalan:

نوشته شده بود. *naveshte sho'de bud* – yozilgan edi.

نوشته شده است. *naveshte sho'de ast* – yozilgandir.

نوشته می شود. *naveshte mishavad* – yoziladi.

نوشته می شد. *naveshte misho'd* – yozilardi.

Majhul nisbatdagi fe'lining bo'lishsiz shaklida urg'u ikkita bo'lib, birinchi urg'u yetakchi fe'l oxiriga va ikkinchi urg'u نه *na* – inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

آورده نشد. *ovarde nasho'd* – keltirilmadi.

آورده نشده بود. *ovarde nasho'de bud* – keltirilmagan edi.

Kesimi majhul nisbat bilan ifodalangan gapda grammatik ega ish-harakatni bajaruvchi shaxsni bildirmay, balki boshqa shaxs orqali bajarilgan harakatni o'ziga qabul qiluvchi obyektни bildiradi. Masalan, مقاله نوشته شد. *maqole naveshte sho'd* (maqola yozildi.) misolida asosiy diqqat subyektga emas, obyektga qaratilgandir. Bunda harakatni bajaruvchi subyekt noma'lum bo'lib, subyekt tomonidan bajarilgan harakatni qabul qilgan obyekt – مقاله so'zi grammatik ega vazifasida kelgan. Misollar:

این عمارت های بزرگ و قشنگ طی سال های اخیر ساخته شده است. *in emoratho-ye bo'zo'rg va qashang tey-e solho-ye axir soxte sho'de ast* – Bu muxtasham va chiroyli imoratlar oxirgi yillarda qurilgandir.

این نسخه ی خطی آنقدر روان نوشته شده بود که من آن را به آسانی خواندم. *in no'sxe-ye xatti onqadr ravon naveshte sho'de bud ke man onro be*

*osoni xondam* – Bu qo‘lyozma shu qadar ravon yozilgan ediki, men uni osonlik bilan o‘qidim.

Kesimi majhul nisbatdagi fe‘llardan iborat bo‘lgan gaplarda harakatni bildiruvchi shaxsni ko‘rsatish lozim bo‘lsa, harakatning bajaruvchisi *از طرف az taraf-e* (tomonidan), *به وسیله be vasile-ye*, *به واسطه be vosete-ye*, *توسط tavasso‘t-e* (orqali, vositasi bilan, bilan) kabi murakkab predloglar orqali birikib keladi. Bu xildagi gaplarda harakat obyektiga ega vazifasini o‘taydi. Harakat subyekti murakkab predlog bilan birikib, to‘ldiruvchi vazifasida va majhul nisbatdagi fe‘l esa kesim vazifasida keladi. Misollar:

*doston-e gerdob az taraf-e sodeq hedoyat navesh-te sho‘de ast* – “Gerdob” romani Sodiq Hidoyat tomonidan yozilgandir.

*mehmonon-e mehmanan xaraji diron az taraf-e vazir-e o‘mur-e xoreji paziro‘fte sho‘dand* – Chet ellik mehmonlar kecha Tashqi ishlar vaziri tomonidan qabul qilindilar.

**1- topshiriq.** 30- dars matnini o‘qing, darslik oxirida berilgan lug‘atdan foydalanib tarjima qiling hamda matnda uchragan o‘timli va o‘timsiz fe‘llarni, majhul nisbatdagi fe‘llarni aniqlang.

**2- topshiriq.** Quyidagi fe‘llarni hozirgi-kelasi zamon, aniq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon davom fe‘li, o‘tgan zamon natijali fe‘li shakllarida tuslang.

آوردن *ovardan* – keltirmoq

پختن *po‘xtan* – pishirmoq

ساختن *soxtan* – qurmoq

پذیرفتن *paziro‘ftan* – qabul qilmoq

فرستادن *ferestodan* – yubormoq

**3- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o‘qing, tarjima qiling hamda majhul nisbatdagi fe‘llarni aniqlab, qaysi zamon shaklida kelganini aytib bering.

### دو نقاش

دو نفر نقاش با هم شرط بستند. که هر دو تصویر بکشند تا معلوم گردد کدام یک بهتر می کشد. یکی تصویر انگور کشید و بالای پنجره آویزان کرد. مرغها آمدند و منقار زدند. مردم از استادی آن نقاش تعجب می کردند و به خانه ی نقاش دیگر رفتند و پرسیدند که تصویر تو کجاست؟ گفت: در پشت این پرده. نقاش اول خواست که پرده را بر دارد. چون دست به پرده زد متوجه شد که پرده نیست، دیوار است که روی آن

تصویر پرده کشیده شده است. گفت: من چنین تصویری کشیده ام که مرعها فریفته شدند و تو چنان استادی که نقاش را فریفتی.

## Lug‘at

*tasvir kashidan* – surat chizmoq, rasm solmoq

*shart bastan* – shartlashmoq, shart bog‘lamoq

*ovizon kardan* – osib qo‘ymoq

*menqor zadan* – cho‘qimoq

*mo‘tavajjih sho‘dan* – tushunmoq, anglamoq

### 4- topshiriq. Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Katta Farg‘ona kanali juda qisqa muddatda, ya’ni 45-kun davomida qurildi. Bu olim haqida gazeta va jurnallarda ko‘pgina maqolalar yozilgan. Devor orqasidan uning kulgan ovozi eshitildi. Bizning kolxozda paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladi. Bahor keldi, gullar ochildi. Bu rasm mashhur fransuz rassomi tomonidan chizilgandir. Bugun dars soat sakkiz yarimda boshlanadi. Xat qora siyoh bilan yozilgan edi. Samarqandning bu qadimiy binosi 1416- yilda qurilgan ekan. Oxirgi yillar davomida Toshkentda juda baland imoratlar, keng ko‘priklar qurildi. Bu injener o‘zining yangi ixtirosi uchun “Shuhrat” ordeni bilan mukofotlandi. 1961- yil 12-aprelda Vatanimiz tarixida oltin sahifa ochildi. Bu kuni Yuriy Gagarin dunyoda birinchi marta kosmosga parvoz qildi. Dars matni bir necha marta talabalar tomonidan qayta o‘qildi. Uzoqdan kimningdir yig‘lagan ovozi eshitildi. Eng shirin qovun va tarvuzlar kolxoz bozorida sotiladi. Stolning ustiga turli shirinliklar qo‘yilgan edi. Tun shu qadar qorong‘i ediki, atrofda hech narsa ko‘rinmas edi. Saroyning darvozasi mis va zar bilan qoplangan edi. Bu qo‘lyozma Alisher Navoiy davrida ko‘chirilgan ekan. Eronlik mehmonlar O‘zbekiston Oliy majlisi raisi tomonidan qabul qilindilar.

5- topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing, tarjima qiling va majhul nisbat shaklidagi fe’llarning zamonini aniqlang.

در باغ ملی از یگستان مجسمه ی عایشیر نوایی ساخته شده است.

در باره تاریخ تاشکند اثر های زیادی نوشته شده است.

از دور صدای گریه بچه ای شنیده شد.

در شهر تاشکند هر سال ساختمانهای جدیدی ساخته می شود.

چند روز پیش در باره ی این اثر در روزنامه مقاله ای نوشته شده بود ولی من آن

را هنوز نخوانده ام.

هوا گرم شده است.  
 این کتاب دیگر چاپ نخواهد شد.  
 جمهوری ازبکستان در سال ۱۹۹۱ تشکیل شده است.  
 استقلال جمهوری ازبکستان بیست و یکم ماه دسامبر سال ۱۹۹۱ از طرف ایران  
 بر سمیت شناخته شده است.  
 این نسخه ی خطی قرن دوازدهم رونویسی شده است.  
 اثرهای علیشیر نوایی به زبانهای خارجی ترجمه شده است.  
 در بخارای قدیم در نتیجه ی آتش سوزی بسیاری از کتابهای گرانبهای سامانیان  
 نابود شده است.

**6- topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing, tarjima qiling, o‘timli va o‘timsiz fe’llarni aniqlang.**

از کتاب "راه نو"

پایدار

دختر پاک دلی بر لب رود نشسته بود و ریزش آب و غرش موج هارا تماشا  
 می کرد و با خود می گفت: "ایکاش، این آب زبان داشت و اسراری را که در سینه ی  
 خود دارد، بر من فاش می نمود. ایکاش این آب به من اظهار می کرد که با این جوش و  
 خروش دایمی چه مقصودی دارد و چه راهی می پیماید."

ناگاه از میان امواج صدایی بلند شد و چنین گفت: "ای دختر پاک سرشت! مقصدی  
 که من در پیش دارم عبارت از رسیدن به آرزوی خود یعنی اقیانوس است. هزاران سال  
 است که من این راه را با جوش و خروش می پیمایم تا خود را به آغوش او برسانم و در  
 سینه ی روح پرورش جا گزینم. هیچ چیز مرا از این مقصد و آرزو باز نداشته و نخواهد  
 داشت. انسان ها مجرای مرا بارها تغییر دادند و قسمتی از بیکار مرا در چاه ها و  
 گودالها و حوضها حبس نمودند ولی من از تعقیب مقصد خود چشم نبوشیدم و خسته  
 نشدم. من بخل و حسد را نمی شناسم و همه را سیراب می سازم. من به قوه ی استقامت  
 و پایداری خود، با این قطره های لطیف، خویش کوه هارا شکافتم و سنگهارا خاک کردم  
 و بیابانهارا در نور دیدم.

این سنگپاره که اکنون بر روی آن نشسته و به من تماشا می کنی یکی از آن  
 سنگهاست که من از آغوش کوه ها بر کنده و با خود آورده ام. آیا این نشانی از قدرت و  
 توانایی من نیست؟

اینست آن راز و سری که من در سینه خود پنهان داشتم و اینک آن را پیش تو فاش  
 کردم. برخیز و آنرا در زندگی راهنمای خود ساز!"

**7- topshiriq. Quyidagi so‘zlardan ko‘makchi fe’llar yordamida qo‘shma fe’llar yasang va ularning ma’nosini aytib bering.**

تولد	یاد	متحد	تشکیل
قسم	سیگار	ادامه	آب
زحمت	شرکت	تاسیس	جمع



استراحت	انجام	پرورش	طول
بیرون	دوست	قرار	لذت
آهسته	کمک	داخل	صداها
وارد	آشنا	شکست	آویزان

## O'ttiz birinchi dars

## درس سی و یکم

### شاهراه های آبی زندگی

کشاورزی در خاورزمین از قدیم ایام بستگی به آبیاری داشته است. بدون علت نیست که مردم می گویند: "هر جا آب هست - زندگی هست" و "هر جا که آب تمام می شود، زمین هم تمام می شود". در ازبکستان، سابق آب از طلا هم با ارزش تر و مورد آرزوی تمام مردم بود. شاعران نامی در باره ی آب شعر می سرودند. علیشیر نوایی شاعر بزرگ و دانشمند، سده ی ۱۵ منظومه "فرهاد و شیرین" را که شهرت جهانی یافته است، به اتکا ادبیات عوام بوجود آورده است. فرهاد افسانه ای را که برای مردم آب تهیه کرده است، "پرومته" ی خاورزمین می نامند. اکنون ملت از یک از عطش و بی آبی چندین ساله نجات یافته و آب حیات بخش را بزمین رسانده و میلیونها هکتار زمین بیابان را احیا و مبدل به واحه سبز و خرم کرده است.

دو رود قدیمی آسیای میانه را قطع می کند: آمو دریا (جیحون) و سیردریا («یخون») که طول آنها قریب پنج هزار کیلومتر است. این شریانهای عظیم آبی سالانه بیش از ۸۵ میلیارد متر مکعب آب جریان می دهد. قبلاً از این منابع خیلی کم استفاده می شد و ترعه ها و مجاری آبی و مخازن آب و مراکز تولید نیروی برق وجود نداشت و ۹۸ درصد کلیه ی تأسیسات مخصوص آبیاری از الوار، شاخه ها، نی و شن احداث شده بود. وسیله اصلی رساندن آب به کشتزارها چیزی موسوم به چگیر (چگیریک) یعنی چرخ چوبی بوده که در مدت دو ماه یک هکتار زمین را آبیاری می کرده است.

در سالهای بعد از ۱۹۲۰ نخستین ترعه های بزرگ ساخته شد و گودالهای طبیعی به عنوان مخازن آب مورد استفاده واقع شد. یکی از ساختمانهای بزرگ آن سالها ترعه ی بزرگ فرغانه است. ترعه ی مذکور در سال ۱۹۳۹ بوسیله ی مردم در مدت یک ماه و نیم احداث گردید. یک صد و شصت هزار نفر از شهر نشینان و ساکنین قراء یا بیل و کنگ ترعه ای بعرض ۱۰ تا ۱۵ متر بطول ۲۸۰ کیلومتر حفر نمودند. سد "قویی قاینار" که در راس ترعه ی مذکور ساخته شد یکی از اولین آزمایشهای تنظیم آبریز سد در جهان بطور خود کار بود که بعداً آن بطور تله مکانیک اداره می گردید. این ساختمان به منزله ی سر آغاز عصر کامل جدیدی در توسعه و ترقی آبیاری بود.

حد اکثر توسعه و ترقی آبیاری در جمهوری ازبکستان بعد از سالهای ۱۹۵۰ - ۱۹۶۰ حاصل گردید و احداث ترعه ها و سدها اکنون به طور تکنیکی عملی می شود. در نتیجه سی هزار بنای هیدروتکنیک بوجود آمده و این امر امکان داده است که اراضی زیر کشت تقریباً به سه میلیون و نیم هکتار برسد.

شاهراه های آبی زندگی یعنی ترعه های آبیاری زمین را از عرض و طول قطع کرده است. اگر تمام آنها را در یک خط قرار بدهیم سه برابر خط استوا خواهد شد.

خطوط آبی دائم امتداد می یابد. ترعه " آمو بخارا " نویست کیلومتر به اعماق بیابان قره قم کشیده می شود. به وسیله ی این ترعه آب آمو دریا (دیحوون) با سرعت نویست متر مکعب در ثانیه به بالاتر از سطح آن رودخانه جریان خواهد یافت و امکان خواهد داد که ۱۵۰ هزار هکتار از اراضی بکر علاوه بر اراضی کنونی آباد شود.

ازبکستان در سالهای اخیر پهنه ی عظیمی برای تحقیقات و آزمایش در رشته ی آبیاری شده است. در آنجا شبکه ها و آلات اداره ی تاسیسات آبیاری بوجود آمده و مورد بهره وری قرار می گیرد. طرز جدید آبیاری مرسوم شده است که طبق آن آب نه در ترعه ها بلکه در ناوه های بتونی واقع در سطح زمین جاری می شود و این امر موجب می شود که آب به زمین تراوش نکند و هدر نزود و با املاح خاک آلوده نگردد و شور نشود. در کشتزارهای ازبکستان دستگاه های کامل باران ریزی حرکت می کنند و کف ترعه ها هم با قشری از " پلی اتیلن " پوشیده می شود. ذکر تمام کارها و چیزهای تازه در اقتصاد آبیاری ازبکستان در یک مقاله مختصر دشوار است. کافی است خاطر نشان شود که در رشته ی مذکور سی و پنج هزار نفر از متخصصین بکار اشتغال دارند. در پرچم ازبکستان خط عریض آبی وجود دارد که علامت راه های آبی است.

## GRAMMATIK IZOH

### Fe'ning orttirma nisbati فعل اجبار *fe'l-e ejbor*

Fe'ning orttirma nisbati fe'ning hozirgi zamon negiziga – اندن – *onidan yo* انیدن – *onidan qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.* Masalan:

Fe'ning noaniq shakli	Hozirgi zamon negizi	Orttirma nisbat
خوردن <i>yemoq</i>	خور	خورانیدن <i>yegizmoq</i>
رسیدن <i>yetmoq</i>	رس	رسانیدن <i>yetkazmoq</i>

Fors tilida orttirma nisbat ham o'timli va ham o'timsiz fe'llardan yasalishi mumkin.

1. O'timsiz fe'llardan o'timli ma'noga ega bo'lgan fe'l hosil qilindi. Masalan:

رسیدن – <i>yetmoq</i> (o'timsiz)	رساندن – <i>yetkazmoq</i> (o'timli)
گذشتن – <i>o'tmoq</i> (o'timsiz)	گذرانیدن – <i>o'tkazmoq</i> (o'timli)

Bunday o'timli ma'nodagi fe'llar odatda ra ko'makchisi olgan vositasiz to'ldiruvchini talab qiladi. Masalan:

سalam-e to'ro be u rasondam – Sening salomingni unga yetkazdim

man ruz-e ta'tilro bo xondan-e ketob go'zarondam – Men dam olish kunini kitob o'qish bilan o'tkazdim.

2. O'timli fe'llardan esa yana o'timli fe'l hosil qilish bilan birga, ish-harakatni boshqa subyektga bajartirish, majbur qilish kabi ma'nolarni anglatuvchi fe'l yasaladi. Bu xildagi o'timli fe'llar ikkita to'ldiruvchi talab qilib, biri vositasiz to'ldiruvchi va ikkinchisi *به* *be* predlogi olgan vositali to'ldiruvchidan iborat bo'ladi. Masalan:

خوردن – *yemoq*

خوراندن – *yegizmoq*

او به برادر کوچکش غذا می خوردند. *u be barodar-e kuchekash g'azo mixo'ronad* – U ukasiga ovqat yegizyapti.

چون هوا سرد بود مادر به پسرش لباس زمستانی پوشاند. *chun havo sard bud modar be pesarash lebos-e zemestoni pushond* – Havo sovuq bo'lgani uchun, ona bolasiga qishki kiyim kiygizdi.

Fors tilida ortirma nisbat ba'zi fe'llardangina yasaladi. Shuningdek o'zbek tilida grammatik yo'l bilan yasalgan o'timli ma'no fors tilida leksik yo'l bilan ifoda etiladi. Masalan:

ادامه داشتن *edome doshtan* – davom etmoq (o'timsiz)

ادامه دادن *edome dodan* – davom ettirmoq (o'timli)

مردن *mo'rdan* – o'lmoq (o'timsiz)

کشتن *ko'shtan* – o'ldirmoq (o'timli)

### Yoyiq sodda gapda so'z tartibi

Fors adabiy tilida yoyiq sodda gapda so'zlar ma'lum tartibda keladi, ya'ni gap ega bilan boshlanib, kesim bilan tugaydi. Gapning qolgan bo'laklari esa ega bilan kesim orasida keladi. Faqat payt va o'rin hollari bundan mustasno bo'lib, ko'pincha egadan oldin keladilar.

Yoyiq sodda gapdagi so'z tartibini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Ega, vositasiz to'ldiruvchi, kesim:

دانشجو نامه می نویسد. *doneshju nome minavisad* – Talaba xat yozyapti.

2. Agar gapda ham vositali, ham vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa: a) *را* *ro* ko'makchisi bilan kelgan vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchidan avval; b) *را* *ro* ko'makchisiz kelgan vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchidan keyin keladi:

دانشجو نامه را به دوستش نوشت. *Talaba xatni do'stiga yozdi.*

دانشجو به دوستش نامه نوشت. *Talaba do'stiga xat yozdi.*

3. Payt yoki o‘rin holi, ega, vositasiz to‘ldiruvchi, kesim:

*diruz doneshju sar-i dars nayomad* – Kecha talaba darsga kelmadi.

*dar doneshkade doneshjuyon jam’ sho’dand* – Fakultetda talabalar yig‘ilishdi.

4. Payt holi, o‘rin holi, ega, vositasiz to‘ldiruvchi, kesim:

*diruz dar doneshkade doneshjuyon jam’ sho’dand* – Kecha fakultetda talabalar yig‘ilishdi.

5. Ega va to‘diruvchilarning o‘z aniqlovchilari ham bo‘lishi mumkin. Bunda izofali so‘z birikmasidagi tartib butunlay saqlanadi.

*dar doneshkade-ye xovarshenosi doneshjuyon-e sho’be-ye ironi jam’ sho’dand* – Sharqshunoslik fakultetida Eron bo‘limining talabalari yig‘ilishdi.

Yoyiq sodda gapda so‘z tartibi gapdagi logik urg‘u, ya‘ni, gap stilining xarakteriga ko‘ra birmuncha o‘zgarishi ham mumkin.

**1- topshiriq.** 31-dars matnini o‘qing, darslik oxirida berilgan lug‘atdan foydalanib tarjima qiling hamda orttirma nisbatdagi fe‘l formalarini topib, qaysi fe‘ldan yasalganini aytib bering.

**2- topshiriq.** Quyidagi fe‘llardan orttirma nisbatli fe‘llar yasang va ularning ma‘nosini aytib bering.

<i>ranjidan</i> – xafa bo‘lmoq	<i>tarsidan</i> – qo‘rqmoq
<i>gardidan</i> – aylanmoq	<i>dauidan</i> – yugurmoq
<i>neshastan</i> – o‘tirmoq	

**3- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o‘qing, tarjima qiling va orttirma nisbatdagi fe‘llarni aniqlang.

### یک ریال منفعت

روزی ملا نصرالدین در کنار رودخانه ای نشسته بود. ده نفر رسیده با ملا قرار گذاشتند که آنها را از رود گذرانده برای هر یک نفر یک ریال اجرت بگیرد. ملا قبول کرد و نه نفر را صحیح و سالم به آن طرف رسانید ولی نفر آخر را چون خسته شده بود دیگر نتوانست ببرد و در رودخانه او را از دست ول کرد و آب او را برد. رفقایش فریاد کردند: این چه کاری بود که کردی؟ ملا جواب داد: یک ریال به شما فایده رساندم. اکنون ۹ ریال بدهید پس است و یک ریال منفعت شما می شود.

## Lug'at

اجرت گرفتن *o'jrat gereftan* – xizmat xaqi olmoq

صحیح و سالم *sahih va solem* – sog'-salomat

منفعت *manfa'at* – foyda

ول کردن *vel kardan* – qo'yib yubormoq

**4- topshiriq.** Qavs ichida berilgan fe'llarni tegishli fe'l nisbati shakliga qo'yib ko'chirib yozing.

من از او (رنجیدن). او مرا (رنجیدن). روزهای تعطیلات زمستانی (گذشتن). شما روزهای تعطیلات زمستانی را چطور (گذشتن)؟ دانشجویان درس جدید را (فهمیدن). دانشیار درس جدید را به دانشجویان (فهمیدن). نامه به او (رسیدن). نامه را به او (رسیدن). بچه روی تختخواب (خوابیدن). مادر بچه را روی تختخواب (خوابیدن). اگر من شما را (رنجیدن) ببخشید. نخیر، من از شما هیچ (رنجیدن). آب در سماور (جوشیدن). فرخ آب را در سماور (جوشیدن). او زیر درخت (نشستن). او درخت (نشستن).

**5- topshiriq.** Quyidagi ortirma darajadagi fe'llarni qaysi fe'l-dan yasalganini aniqlang va ular ishtirokida bir necha gap tuzing.

رساندن

گذراندن

فهماندن

خنداندن

خوراندن

پوشاندن

ترساندن

**6- topshiriq.** Quyidagi matnni ifodali o'qing, tarjima qiling, ortirma nisbatdagi fe'llarni aniqlang hamda matn yuzasidan savollar tuzing.

از کتاب "انشاء و نامه نگاری"

**بعد از پایان دوره ی اول متوسطه چه می کنید؟**

من می خواهم بعد از پایان تحصیلات برای خود شغلی انتخاب کنم که بتوانم از آن راه خدمت بزرگتری به هم نوع خویش انجام دهم و چون تحصیلات دوره ی اول متوسطه را برای این منظور کافی نمی دانم در نظر دارم که پس از تکمیل تحصیلات و کسب اطلاعات لازم خود را برای خدمت شریف معلمی حاضر و آماده سازم تا به سهم خود در آموزش و پرورش صحیح فرزندان کشور خویش کوشش کنم و تا سرحد توانایی از جهل عمومی که منشاء تمام بدبختی ها و ناکامی ها است جلو گیری نمایم، به ایشان درس زندگی بیاموزم و آنان را مرد زندگی بار بیاورم. ثمر فضایل اخلاق را به ایشان نشان دهم و آنان را افرادی نیک اندیش و راست کردار و درست گفتار بپرورانم تا پس

از آنکه تحصیلات خود را به پایان رسانیدند افراد با حقیقتی گردند که وجودشان از هر جهت نافع باشد گرچه آنجا این خدمت بسیار طاقت فرسا است و سرمایه ی عمر و زندگی را در آن راه باید صرف کرد و مردم برای آن کمتر پاداشی قابل هستند ولی من این خدمت را برای آن عهده دار نمی شوم که از پاداش آن بر خوردار گردم و مورد تحسین و تقدیر دیگران واقع شوم. من مقام معلمی را بالاتر از آن می دانم که به چنین چیزهایی نظر داشته باشد. بهره ای که هر معلم شرافتمند از کار خود می گیرد همین است که مجاهدات او در راه پروراندن نو نهالان کشور به ثمر برسد و افراد با شخصیتی به جامعه ی خویش تحویل دهد تا منشاء ترقی و پیشرفت آن جامعه باشند. به امید نیل به این آرزو این مقصد را تعقیب می کنم تا خدمت اجتماعی خود را انجام داده باشم.

**7- topshiriq.** Quyidagi matni fors tiliga tarjima qiling.

### **Milliy va zamonaviy bayramlar**

Har bir xalqning asrlar davomida ardoqlab-e'zozlab kelingan o'zlarining bayramlari, urf-odatlari, marosimlari mavjud.

Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib qolgan. Bayramlarda kishilarning diniy urf-odatlari, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy yutuqlari namoyish etiladi.

O'zbek xalqi orasida Navro'z, gul sayili, qovun sayili, hosil bayrami kabi bayramlar keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog'liq bo'lgan Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanib kelmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e'lon qilingan. Bugungi kunda O'zbekistonda quyidagi bayramlar rasmiy bayramlar hisoblanadi:

1- yanvar – Yangi yil bayrami, 14- yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 8- mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21- mart – Navro'z bayrami, 9- may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni, 8- dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun, Ramazon va Qurbon hayitlari va boshqalar.

Bayramlar ichida Navro'z va yangi yil xalqning eng sevimli bayramlari hisoblanadi.

Navro'z bayramida uylar, ko'chalar, bozorlar, hovlilar, qabristonlar tozalanadi. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilinadi. Kasallarni borib ko'riladi. Yosh-u qarilar bir-birlarini Navro'z bayrami bilan tabriklashadi. Katta xalq sayillari, poyga, kurash musobaqalari o'tkaziladi.

Bayramlar kishilar orasida mehr-muhabbat, bir-birlariga g'amxo'rlik, o'zaro hurmat-e'tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

**8- topshiriq.** Quyidagi gaplarni tarjima qiling va ulardagi orttirma nisbat fe'llarini qaysi fe'ldan yasalganini aytib bering.

- (۱) به پدر و مادر خود سلام مرا برسانید.
- من سلام ترا به والدینم رساندم و آنها خیلی خوشحال شدند.
- (۲) برای آنکه بچه سرما نخورد مادرش به او پالتو پوشاند.
- (۳) تعطیلات تابستانی را چطور گذراندید؟  
تعطیلات تابستانی چطور گذشت؟
- (۴) دانشیار موضوع درس را به ما آنقدر خوب فهماند. که ما آنرا هیچ فراموش نخواهیم کرد.
- (۵) دوستم همیشه با شوخی کردن خود مرا می خنداند.
- (۶) مادر به فرزند خود آبگوشت خوراند و بچه سیر شد.
- (۷) او مرا آنقدر ترساند که تمام شب نمی توانستم بخوابم.

## O'ttiz ikkinchi dars

## درس سی و دوم

### بازرس

وقتی که به خانه رسیدم سفته ای به همسرم شیرین نشان دادم و گفتم:

اینهم آخرین سفته!

با چشمانی که از برق نشاط می درخشید گفتم: امشب پس از مدتها سربی قرض بر بالین می گذارم. اگر صد سال دیگر در تهران می ماندم جز اینکه قرض ما زیادتر شود نتیجه ی دیگری نداشت. مهمانان همیشگی نمی گذاشتند حتی ده تومان هم پس انداز کنیم. در همین موقع مهربان پسر کوچکم داخل اتاق دوید و گفت: بابا یک آقا و خانم دم در با شما کار دارند.

نگاهی به همسرم کردم و به طرف در حیاط رفتم. مردی دیدم نسبتاً کوتاه قد تقریباً سی و پنج ساله.

– آقای شاهین شما هستید؟

– بله، خودم هستم.

– این نامه را برادرتان داد. من چندی پیش در شیراز خدمتشان بودم.

ضمن بیان این کلمات پاکتی را به دستم داد. خط برادرم را شناختم آن را گشودم. برادرم آقای "م" را معرفی کرده بود که "... از دوستان صمیمی و همکار قدیم من است. ممکن است برای بازرسی اداره ی قند و شکر به تربت حیدریه بیایند. میل ندارند به خانه رئیس اداره بروند..."

برادرم در پایان نوشته بود: " هر لطفی که به من داری به آقای " م " بکن."

بعد از خواندن نامه نگاه مجددی به آقای بازرس و خانمش که بلندتر از شوهرش بود و بچه دوسه ساله ای در بغل داشت کردم. چند لحظه به سکوت گذشت. ناگهان متوجه شدم که مهمانان تازه از راه رسیده اند و خسته هستند. گفتم:

– بفرمایید خیلی خوش آمدید.  
انهارا به اتاق راهنمایی کردم. شیرین که نامه را خواند آمد و به آنها خوش آمد گفت، سماور را آتش کرد و در کار تهیه ی ناهار شد. آقای بازرس گفت:

– ابتدا از شما خواهش می کنم کسی را از ماموریت من مطلع نکنید چون لا اقل تا چند روز اول باید ناشناس بمانم.

– خاطرتان جمع باشد کسی نخواهد فهمید.  
– راستی کسی هست به گاراژ برود و چه دان مارا بیاورد؟  
– بله، بلیطتان را لطف کنید خودم بیاورم...  
وقتی به خانه آمدم آقای بازرس روی تخت دراز کشیده و خانمش بر بالین کودک خود نشسته بود. معلوم شد کودک آنها در راه بیمار شده و سخت تب دارد. چمدان را در گوشه ی اتاق گذاشتم و به کمک شیرین که در کار پختن برنج و تهیه ی کباب بود رفتم. بر سر سفره، خانم آقای بازرس که از بیماری کودکش اظهار نگرانی می کرد به شوهرش گفت:

من گفتم به این مسافرت نرویم. اگر سر خانه و زندگی خودم بودم می توانستم لا اقل سوپ جوجه ای به این بچه مریض بدهم. شیرین گفت:

– خانم نگران نباشید اینجا هم مثل منزل خودتان است. الان برای بچه سوپ جوجه تهیه می کنم.  
تا بچه مریض بود فقط اقا به قصد انجام کار که ظاهراً مربوط به ماموریت محرمانه بود از منزل خارج می شد و خانم و بچه در منزل می ماندند البته بی آنکه کوچکترین کمکی به همسر بیچاره ی من که همیشه در حال تهیه ی غذا و جارو کردن و ظرف شویی و نظافت بود بکنند. حال بچه کاملاً خوب شد اقا و خانم هوس تماشای گردش در جاهای دیدنی شهر را کردند و من ناچار بودم به عنوان راهنما همراهشان بروم و در ضمن پول درشکه و خرجهای دیگر اغلب با من بود.

در این پانزده روز که از آمدن آنها گذشته بود از دوندگی و تلاش جاتم به لب رسیده بود. شیرین احوالش صد بار از من بدتر بود. باز مبلغی مقروض شدم.  
روز شانزدهم بود که آقای بازرس گفت که بلیط خریده و امروز باید حرکت بکنند. ظرفهای عصر درشکه ای کرایه کردم. آقای بازرس را با خانم و طفل کوچکش به گاراژ رساندم. هوا تاریک می شد که به خانه یر گشتم. در را باز کردم و وارد خانه شدم. پسرم جلوم دوید و گفت: یک آقایی در اتاق منتظر من است. وارد اتاق که شدم مردی از جایش بلند شد و گفت:

– من آقای "م" هستم. نامه ای از برادرتان به عنوان شما داشتم، متأسفانه ده پانزده روز قبل آن را گم کردم.

– شما آقای "م" هستید؟ حتماً برای بازرسی اداره ی قند و شکر آمده اید؟

– بله، بنده بازرس هستم و فردا بر می گردم.

پسرم که پهلوی من ایستاده بود از اتاق بیرون دوید و با صدای بلند گفت:

مامان، یک بازرس دیگر آمده...

به قلم کمال اجتماعی با کمی اختصار



## GRAMMATIK IZOH

### Aniqlovchi ergash gap

Aniqlovchi ergash gap bosh gapning egasini yoki boshqa biror bo'lagini aniqlab keladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan **که** – *ke* bog'lovchisi orqali bog'lanadi. **که** – *ke* bog'lovchisi bosh gapning bevosita aniqlanib kelgan bo'lagidan so'ng qo'yiladi. Odatda aniqlovchi ergash gapda aniqlanib kelayotgan so'z urg'usiz bir **ی** – *i* qabul qilib keladi va bu **ی** – *i* fors grammatikasida **ی** اشاره *yo-ye* *eshore* deyiladi. Masalan:

**شخصی که دیروز پیش شما آمده بود دانشیار ما است.** *shaxs-i ke diruz pish-e sho'mo omade bud doneshyor-e mo-st* – Kecha sizning oldingizga kelgan kishi bizning o'qituvchimiz.

**کتابی که من می خوانم گلستان سعدی است.** *ketob-i ke man mixonam go'leston-e sa'di ast* – Men o'qiyotgan kitob Sa'diyning “Guliston” idir.

**با او صحبت می کند پزشک بیمارستان است.** *shaxs-i ke bo u so'hbat miko'nad pezeshk-e bimareston ast* – U bilan suhbatlashayotgan kishi kasalxona vrachidir.

**شخصی که از او کتاب گرفته اید همسایه ی ما است.** *shaxs-i ke az u ketob gerefte-id hamsoye-ye mo-st* – Siz (undan) kitob olgan kishi bizning qo'shniimizdir.

**دانشجویی که او را در کتابخانه دیده اید دوست من است.** *doneshju-yi ke uro dar ketobxone dide-id dust-e man ast* – Siz kutubxonada ko'rgan talaba – mening do'stim.

Aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z o'z aniqlovchisiga ega bo'lishi ham mumkin. Bu holda **ی** اشاره *izofiy* birikmaning oxiriga qo'yiladi. Masalan:

**دانشیار جوانی که با رئیس دانشکده صحبت می کند از ایران آمده است.** *doneshyor-e javon-i ke bo ra'is-e doneshkade so'hbat miko'nad az iron omade ast* – Fakultet dekani bilan suhbatlashib turgan yosh o'qituvchi Erondan kelgandir.

**بنای بلند و زیبایی که تازه ساخته شده است سالن ورزش است.** *bano-ye bo'land va zibo-yi ke toze soxte sho'de ast salon-e varzesh ast* – Yangi qurilgan baland va chiroyli bino sport zalidir.

Agar aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z **-e** bilan tugagan bo'lsa, **ی** – *i* oldidan bir **ا** – *alif* orttirilib yoziladi. Masalan:

*xone-i ke man dar on zendegi miko'nam se o'toq dorad* – Men yashab turgan uy uch xonadan iborat.

Agar aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z cho'ziq unli bilan tugagan bo'lsa, *ی – i* oldidan bir *ی – yo* orttirilib yoziladi.

*doneshju-yi ke pish-e man omade ast zabon-i forsiro xub midonad* – Mening oldimga kelgan talaba fors tilini yaxshi biladi.

ه اشاره quyidagi hollarda tushib qoladi:

1. Agar aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z qaratqich vazifasida ot yoki olmosh bilan birikib kelgan bo'lsa:

*doneshjuyon-e doneshkade ke injo jam' sho'de-and dar konferons-e 'ilmi so'xanroni xohand kard* – Bu yerga yig'ilgan fakultet talabalari ilmiy konferensiyada ma'ruza qiladilar.

*hamsoye-ye mo ke mariz bud baroye mo'oleje dar bimoreston bastari sho'd* – Kasal bo'lgan bizning qo'shnimiz davolanish uchun kasalxonaga yotdi.

2. Aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z egalik affiksini qabul qilib kelgan bo'lsa:

*xohareton ke dar doneshkade-ye torix tahsil miko'nad ismash chist?* – Tarix fakultetida o'qiyotgan opangizni ismi nima?

3. Aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z atoqli ot bo'lsa:

*dar shahr tashkand ke paitaxt jomhuri-ye o'zbekiston ast emoratho-ye bo'land va xiyobonho-ye vasi' ziyod ast* – O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida baland imoratlar va keng ko'chalar ko'p.

4. Aniqlovchi ergash gap aniqlab kelgan so'z kishilik olmoshi bilan kelsa:

*to'ke cherog' nabini bo cherog' che bini?* – Sen chiroqni ko'rmaysan-ku, chiroq bilan nimani ko'rasan? (Chiroq ko'rmaydigan sen).

**1- topshiriq.** matnini o'qing, darslik oxirida berilgan lug'atdan foydalanib tarjima qiling hamda matnda uchragan aniqlovchi ergash gaplarda **یای اشاره** ning ishlatilishi va tushib qolish hol-larini aniqlang.

**2- topshiriq.** Maqollarni yod oling hamda bosh gap va aniqlovchi ergash gap bo'laklarini aniqlang.

- ۱) چاهی که آب ندارد با آب ریختن آبدار نشود.
- ۲) خری که جو دید گاه نمی خورد.
- ۳) به سری که درد نمی کند دستمال میند.
- ۴) تیری که از کمان دست بر نگرود.
- ۵) کسی که از گرگ بترسد گوسفند نگاه نمی دارد.
- ۶) جایی که عقاب بر بریزد از پشه ی لاغری چه خیزد.
- ۷) جایی که نمک خوردی، نمکدان مشکن.
- ۸) دزدی که در خانه است، یافتنش مشکل است.
- ۹) شمشیری که صیقل نزنند، زنگ بر دارد.
- ۱۰) کسی که گل می خواهد، باید منت خار بکشد.

**3- topshiriq.** Matn va hikoyalarni o'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling va ularda mavjud bo'lgan aniqlovchi ergash gaplar qaysi so'z-larni aniqlab kelganini aytib bering.

### حمله ی مارها

هندوستان را می توان سر زمین مارهای خطرناک دانست. در این کشور که دارای جمعیت زیادی است هر ساله عده ای در اثر نیش زهر آلود مارها از بین میروند. ضمناً در هنگام بهار و تابستان مارهای خطرناک دسته جمعی به دهات حمله برده و مردم ببنوا را که در میان مزارع و باغات بکار مشغولند از پای در می آورند. نوعی از مارهای هندوستان چنان خطرناکند که قادرند با نیش خود کرگدنی را هلاک کنند.

از روزنامه "اطلاعات"

### راست یا چپ

شخصی که ناخوش شده بود نزد دکتر رفت و گفت: پهلوی من درد می کند. دکتر پرسید: کدام پهلویت: راست یا چپ؟ آن شخص پس از فکر زیاد جواب داد: آن پهلو که شب وقت خوابیدن به طرف دیوار واقع می شود.

### قضاوت ملا نصرالدین

روزی ملا نصرالدین در محکمه نشسته بود و یک زن و شوهر که میانشان اختلاف افتاده بود برای شکایت پیش او آمدند. اول مرد شکایتهای خود را کرد و هزار عیب برای زن شمرد. ملا نصرالدین پس از شنیدن تمام سخنانش به او گفت: "تو حق داری". بعد

زن همه ی دلیل های شوهرش را تکذیب کرده در باره ی ظلم های او و بی گناهی خود دلایل آورد و سوگند ها خورد. ملا نصرالدین که به دقت حرفهای او را گوش کرده بود گفت: "تو حق داری". زن ملا که از پشت پرده همه ی گفتگوها را شنیده بود در این موقع وارد محکمه شد و با اعتراض به شوهرش گفت: تو چطور قضاوت می کنی؟ آخر از این دو نفر یکی باید گناهکارتر از دیگری باشد. ملا در مقابل اعتراض زنتس به او گفت: "تو هم حق داری".

#### 4- topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu yerda o'tirgan bola ukamdir. To'rtinchi kursda o'qiyotgan talabalarning bir nechtasi o'z o'qishlarini davom ettirish uchun ikki oydan so'ng Eronga ketadilar. Mening oldimga kelgan talaba eron bo'limida o'qiydi. Oxirgi yillarda Toshkentda qurilayotgan imoratlar juda chiroylidir. Biz tomosha qilgan yodgorlik XV asrga oid ekan. Qishki kanikul vaqtida o'z uylariga ketgan talabalar qaytib keldilar. Bizning fakultetda o'qiydigan o'g'lingiz ikki kundan beri darsga kelmayapti. Men sizga sovg'a qilgan fors tili grammatikasidan foydalanyapsizmi? Paxta rejasini bajargan kolxozchilar paxta quriltoyida qatnashish uchun Toshkent shahriga keldilar. Afg'onistonda yangi qurilgan aeroport har bir yo'lovchining diqqatini o'ziga tortadi. O'rta maktabda fors tili o'rgangan qiz va yigitlar sharq fakultetiga kirish uchun imtihon topshirdilar. Fakultetimizni bitirgan bir necha kishi hozirgi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, Til va adabiyot, Tarix va Falsafa institutlarida ilmiy xodim bo'lib ishlamoqdalar. Yaxshi ma'ruza qilgan talabalar mukofot olishga sazovor bo'ldilar. Men sotib olgan kostum otamga juda yoqdi. Siz bergan kitobni haligacha o'qib bo'lganim yo'q. Yurakdan chiqqan so'z yurakka borib yetadi. Eronga borib kelgan talabalar u mamlakat haqidagi o'z taassurotlarini so'zlab berdilar. Bu korxonada loyhasini ishlagan injener kecha Moskvaga jo'nab ketdi. Sochi shahriga dam olish uchun ketayotgan do'stim men bilan xayrlashgani bizning uyga keldi. Do'stim menga kecha olgan tufisini ko'rsatdi. Men ko'chada 4 yil avval birga o'qigan do'stimni uchratdim. O'qituvchimiz bizga Eronda ko'rib kelgan tarixiy yodgorliklar haqida aytib berdi. Bizning fakultetga ma'ruza qilish uchun kelgan olim ko'p ilmiy maqolalar muallifidir. U Samarqandda ko'rib kelgan tarixiy yodgorliklar ming yillik tarixga egadir. Men kinofestivalda dunyoga mashhur bo'lgan kinoaktrisalarini ko'rdim. Siz o'qiyotgan institut nafaqat O'zbekistonda, balki, butun Markaziy Osiyoda mashhurdir. Siz tarjima qilayotgan asarning muallifi bizning ko'chada yashaydi.

**5- topshiriq.** Quyidagi baytda so‘z oxirida kelgan *ی* larni tahlil qiling va ularning nomlarini aytib bering.

دل آزادی جفا کاری نگاری  
جز آزادی دلم کاری نداری

**6- topshiriq.** Quyidagi bir ma’noga ega bo‘lgan (sinonim) so‘z-larni yod oling.

مشرق - خاور	دیدن کردن - تماشا کردن
فاتح - غالب	مغرب - غرب
خرده - ریزه - کوچک	تالیف کردن - نوشتن
هدف - کام - مقصد	یواش - آهسته
همسر - زن	قیمت - بها - نرخ
پایان - آخر	کبیر - ارشد - بزرگ
جهان - عالم - دنیا	ترقیات - پیشرفت - رشد
پنداشتن - خیال کردن	جوار - همسایه
ابتدا - نخست - اول	قصر - کاخ - سرای
به اخر رساندن - انجام دادن - تمام کردن	پرهیز - امتناع - خودداری
روستایی - دهاتی	به پایان رسیدن - تمام شدن
باستانی - قدیمی	نجات دادن - آزاد کردن
ناخوش - مریض - بیمار	آرام - ساکت
جدید - تازه - نو	دکتر - پزشک
عافل - دانشمند - خردمند	نرسیده - کال
طعام - غذا	باربر - حامل
	مشرتی - خریدار

**7- topshiriq.** Quyidagi aniqlovchi ergash gaplarni tahlil qiling va ularda *ی* یا *ی* اشاره ularda nima uchun ishora etilmaganligini aytib bering.

برادرم که دیروز از مسافرت برگشته است در انجمن دوستی با کشورهای خارجی کار می کند.

تهران که شهر بسیار قشنگ و پر جمعیت است پایتخت کشور ایران است.

زبان فارسی که ما آن را یاد می گیریم خیلی شیرین است.

فرخ که دوست صمیمی من است در تهران زندگی می کند.

دانشگاه خاورشناسی که در تمام آسیای میانه معروف است در شهر تاشکند قرار دارد.

هر خارجی که به شهر تاشکند می آید از بزرگی و قشنگی این شهر تعجب می کند.

ایستگاه اتوبوس که من هر روز با آن به مدرسه می روم از خانه ی ما دور نیست.

شهر تاشکند که من در آن زندگی می کنم روز به روز تغییر می کند و عمارت‌های

جدید و چند طبقه ای ساخته می شود.

خواهرم که شغلش پزشکی است در بیمارستان ناحیه ی ما کار می کند.  
 برادرت که دندان پزشکی است کدام دانشگاه را تمام کرده است؟  
 آن مغازه که تازه باز شده است دارای چند شعبه ی بزرگ است.  
 دانشگاه ما که من در آنجا درس می خوانم چندین دانشکده دارد.  
 مادرش که تازه از سر کار آمده است فوراً به پختن غذا پرداخت.  
 شما که سه سال است زبان فارسی یاد می گیرید باید به فارسی خوب حرف بزنید.

## O'ttiz uchinchi dars

## درس سی و سوم

### شرایط نویسندگی

مهمترین شرط نویسندگی خوب دانستن زبان است و هر چه شخص زبانی را بهتر و کامل تر بداند و بر اصطلاحات و عبارات و لغات و قواعد صرف و نحو آن بصیرتر باشد به همان نسبت نوشته او بهتر می شود. در روزگار گذشته که دانش و هنر در مشرق زمین خاصه در ایران رواج داشت، زبان دانی و فصاحت و لغت شناسی و صرف و نحو و دیگر فنون ادب را شان و شوکتی بود. نویسندگان بزرگ و شاعران عالی مقام نصایح و دستورهای زیادی برای یاد گرفتن صنعت کتابت و فنون نظم و نثر به طالبان علم و ادب داده اند. هر کسی کتب گذشتگان را خوانده باشد می داند که یکی از دستورهای عمده ی آنان در تعلم نویسندگی این بود که می گفتند: «لاب علم و ادب باید چندین کتاب از آثار نویسندگان بزرگ فارسی و تازی را که نمونه ی برجسته و سر مشق درخشان نظم و نثر باشد مکرر بخواند و قطعات بسیار عالی آنها را از بر کند و چندین هزار بیت و صدها قصیده و غزل و قطعه را از حفظ بداند و نیز می گفتند کسی که قلم بدست می گیرد و می خواهد زبان فارسی را فصیح و درست بنویسد لازم است: نخست تا اندازه ای عربی بداند و لغات و قواعد صرفی ثابت و متقن آن زبان را که در فارسی نفوذ زیادی یافته است فرا گیرد. در مرحله ی بعد کتب ادبی فصیح از قبیل کلیله و دمنه و تاریخ بیهقی و گلستان و چهار مقاله ی نظامی سمرقند و سیاست نامه ی خواجه نظام الملک و منشآت قایم مقام و میرزا عبدالوهاب نشاط را به کرات بخواند. همچنین لازم است قواعد زبان فارسی را بخوبی بیاموزد و به اندوخته های منظوم ادبی قرون گذشته که در واقع رکن زبان و ادبیات ماست آگاهی و آشنایی کافی داشته باشد.

غیر از چند شرطی که در بالا ذکر شد دیگر از شرایط عمده ی نویسندگی، داشتن معلومات متفرقه و مخصوصاً آشنا بودن به تاریخ و تاریخ ادبیات و معلومات عمومی دیگر است. البته باید توجه داشت که زبان مانند هر چیز دیگر به مرور زمان تکمیل می شود و یا تغییراتی در آن بوجود می آید ولی در هر حال یاد گرفتن زبان، صحت و فصیح ادبی موقوف به فراگرفتن اصول و قواعد آن و پیروی از کلام نویسندگان بزرگ است و اگر تصرفی در آن بشود باید بروفق روح زبان و ساخت و ریخت آن باشد چنانکه خواص آن را بیسندند و عوام از فهمش در نمانند.

از مجله "کاو" "

## GRAMMATIK IZOH

### O'tgan zamon shart-istak mayli ماضى التزامى *mozi-ye eltizomi*

O'tgan zamon shart-istak mayli fors tilida (*ماضى التزامى mozi-ye eltizomi*) qo'shma fe'l shaklida bo'lib, yetakchi fe'l va بودن *budan* ko'makchi fe'lidan yasaladi. Bu fe'lning tuslanishida yetakchi fe'l o'tgan zamon sifatdoshi shaklida va ko'makchi fe'l hozirgi zamon fe'l negizi (باش) shaklida bo'ladi. Shaxs-son qo'shimchalari esa ko'makchi fe'lga qo'shiladi.

نوشتن (yozmoq) fe'lining tuslanishi

مفرد

I shaxs	نوشته باشم	<i>naveshte bosham</i>	–yozgan bo'lsam
II shaxs	نوشته باشى	<i>naveshte boshi</i>	– yozgan bo'lsang
III shaxs	نوشته باشد	<i>naveshte boshad</i>	– yozgan bo'lsa

جمع

I shaxs	نوشته باشیم	<i>naveshte boshim</i>	– yozgan bo'lsak
II shaxs	نوشته باشید	<i>naveshte boshid</i>	– yozgan bo'lsangiz
III shaxs	نوشته باشند	<i>naveshte boshand</i>	– yozgan bo'lsalar

ماضى التزامى ning tuslanishida urg'u ikkita bo'lib, birinchi urg'u yetakchi fe'lning oxiriga va ikkinchi urg'u esa ko'makchi fe'lning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

ماضى التزامى ning bo'lishsiz shaklida نه *na*–inkor yuklamasi bevosita yetakchi fe'lga qo'shiladi. Masalan:

ننوشته باشم *nanaveshte bosham* – yozmagan bo'lsam  
 ننوشته باشى *nanaveshte boshi* -- yozmagan bo'lsang kabi.

Prefiksli va qo'shma fe'llarda ham ماضى التزامى ning tuslanishi shu tarzda olib boriladi. Masalan:

بر خاسته باشم *bar-xoste bosham* – turgan bo'lsam  
 بر نخاسته باشم *bar-naxoste bosham* – turmagan bo'lsam  
 استراحت کرده باشد *esterohat karde boshad* – dam olgan bo'lsa  
 استراحت نکرده باشد *esterohat nakarde boshad* – dam olmagan bo'lsa

ماضى التزامى ning bo'lishsiz shaklida asosiy urg'u نه *na* – inkor yuklamasiga tushadi.

ish-harakat yoki holatning o'tgan zamonda bajarilishi qat'iy bo'lmay shart, istak, zarur, gumon va shu kabi ma'nolar bilan bog'liq bo'lgan hollarda hamda modal so'zlar va modal fe'l-lardan so'ng ishlatiladi. Masalan:

1. O'tgan zamon shart ergash gapning kesimida:

اگر او آمده باشد به من خبر دهید. *agar u omade boshad be man xabar dehid* – Agar u kelgan bo'lsa, menga xabar bering.

2. بایستن *boyestan* modal fe'lidan so'ng:

جمشید باید از مرخصی برگشته باشد. *jamshid boyad az mo'raxxasi bargashte boshad* – Jamshid otpuskadan qaytgan bo'lsa kerak.

3. شاید *shoyad* va boshqa ehtimollikni bildirgan so'zlardan so'ng:

شاید او هنوز به منزل نرسیده باشد. *shoyad u hanuz be manzel naraside boshad* – U hali uyga yetmagan bo'lsa kerak.

4. احتمال می رود *ehtimol miravad* modal so'zidan so'ng:

احتمال می رود که شب باران باریده باشد. *ehtimol miravad ke shab boron borida boshad* – Balki, kechasi yomg'ir yoqqan bo'lsa kerak.

5. Ba'zan o'tgan zamonga oid bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapning kesimida ishlatiladi:

در ازبکستان کسی پیدا نمی شود که آثار علیشیر نوایی را خوانده باشد. *dar o'zbekiston kas-i peydo namishavad ke osor-e alisher navoyiro naxonde boshad* – O'zbekistonda Alisher Navoiyning asarlarini o'qimagan biror kishi topimasa kerak.

**1- topshiriq.** 32- dars matnini o'qing, darslik oxirida berilgan lug'atdan foydalanib tarjima qiling va ماضی التزامی shaklida kelgan fe'l-larni aniqlang.

**2- topshiriq.** Quyidagi fe'llarni ماضی التزامی shaklida tuslang va ularning har biriga bittadan gap tuzing.

خواندن *xondan* – o'qimoq

داشتن *doshtan* – ega bo'lmoq

برگشتن *bar-gashtan* – qaytmoq

فرا گرفتن *faro-gereftan* – o'rganmoq

تولد یافتن *tavallo'd yoftan* – tug'ilmoq



**3- topshiriq.** Quyidagi hikoyani o‘qing, o‘zbek tiliga tarjima qiling va unda mavjud bo‘lgan fe‘llarni tahlil qilib, qaysi zamon shaklida kelganini aytib bering.

### خروس و روباه

روباهی زیر درختی بود و خروسی با تعدادی مرغ روی شاخه های بلند آن نشسته بود. روباه رو به خروس کرده گفت: خیر تازه را شنیده ای؟ خروس گفت: نه. روباه گفت: تمام حیوانات پس از مشورت با هم صلاح نموده و امروز را عید گرفته اند. تو هم خوبست از درخت پایین بیایی، دوستانه صحبت کنیم و دمی را با هم گذرانیم. خروس روی دو پا بلند شد و گردن کشیده نظری به حوالی و اطراف انداخت. روباه گفت: چه خبر است؟ خروس گفت: خبر آن است که یک جفت سگ به این طرف می آیند. روباه پا به فرار گذاشت. خروس گفت: مگر صلح عمومی نیست؟ کجا می روی؟ روباه گفت: درست است ولی شاید این خبر هنوز به سگها نرسیده باشد.

### Lug‘at

تعدادی *te‘dod-i* – to‘da, bir nechta

مشورت *mashvarat* – maslahat, kengash

عید گرفتن *eyd gerefтан* – hayit qilmoq, bayram qilmoq

حوالی *havoli* – atrof

روی دو پا بلند شدن *ru-ye do‘ po bo‘land sho‘dan* – ikki oyoqda tikka turmoq

پا به فرار گذاشتن *po be feror go‘zoshtan* – qocha boshlamoq

صلح نمودن *so‘lh namudan* – bitim tuzmoq

### 4- topshiriq.

 Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

U hali ishga kelmagan bo‘lsa kerak. U mendan kitob olganiga besh kun bo‘ldi, uni o‘qib bo‘lgan bo‘lsa kerak. Agar kasal bo‘lgan bo‘lsangiz nega vrachga murojaat qilmadingiz? Balki, bu filmni yoshligimda ko‘rgan bo‘lsam kerak. Bu shaharda men ko‘rmagan birorta muzey yo‘q. Nega u shu paytgacha telefon qilmadi, yana biror hodisa ro‘y bergan bo‘lmasin. U hali Moskvadan qaytmagan bo‘lsa kerak. Agar fakultet dekani kelgan bo‘lsa, tezda menga xabar bering. Bizning oramizda Abdulla Qodiriyning “Otkan kunlar” romanini o‘qimagan biror talaba bo‘lmasa kerak. Bu xabar uning qulog‘iga yetgan bo‘lsa, yaxshi ish bo‘lmabdi. Samolyot hali uchmagan bo‘lsa kerak. Agar u tramvay to‘xtash joyida turgan bo‘lsa, unga aytginki, men bugun uning oldiga bora olmayman. Hali soat to‘qqiz bo‘lgani yo‘q, dars boshlanmagan bo‘lsa kerak. U kecha komandirovkadan

qaytgan bo'lishi kerak. U bilan qayerdadir uchrashgan bo'lsam kerak. Bu pomidor va bodringlarni bozordan sotib olgan bo'lsangiz kerak. Balki, amakim bilan bir necha yil ilgari shu maktabda o'qigan bo'lsangiz kerak. U shu vaqtga qadar o'z ilmiy ishini tamom qilma-gan bo'lishi mumkin emas. Ehtimol, bir vaqtlar shu g'orlarda odam-lar yashagan bo'lsa kerak. Yoshligida koptok o'ynamay katta bo'l-gan bola bo'lmasa kerak.

**5- topshiriq.** Quyidagi gaplarda qavs ichida berilgan fe'llarni shart-istak mayli shaklida qo'yib, ularni ko'chirib yozing.

شاید او نامه ی مرا (نگرفتن).  
 ممکن نیست که او سر درس (نیامدن).  
 در تاشکند کمتر خیابانی هست که عمارت تازه ای (نساختن).  
 هوا سرد است. احتمال می رود که بالای کوه برف (باریدن).  
 روزی نیست که او درس خود را حاضر (نکردن).  
 از حسن خبیری نیست؛ شاید او به منزلش (نرسیدن).  
 او ناخوش شده است. شاید (سرما خوردن).  
 ممکن نیست که این حرف را او (گفتن).  
 یادم نیست، ممکن است کتابم را به کسی (دادن).  
 او خیلی دیر آمد، شاید سوار اتوبوس نشده پیاده (آمدن).  
 اگر نسخه خطی این اثر را (پیدا کردن) آن ترجمه می کردم.

**6- topshiriq.** Tilni chuqur bilish yoki yozuvchilik kasbiga ega bo'lish uchun qanday shartlarga amal qilish kerak. O'z fikringizni forscha so'zlab bering.

**7- topshiriq.** Quyidagi o'zbek tili bilan mushtarak bo'lgan so'z-larning yasalishini aniqlang.

setamkash, setamkash, ستم کش	arobekash, arabekash, عرابه کش	dastkash, dastkash, دست کش
ensonparvar, ensonparvar, انسان پرور	adolatparvar, adolatparvar, عدالت پرور	vatanparvar, vatanparvar, وطن پرور
ayoldor, ayoldor, عیال دار	azador, azador, عزه دار	manfa'atdor, manfa'atdor, منفعتدار
ho'sudguy, ho'sudguy, حسودگوی	nasihatguy, nasihatguy, نصیحت گوی	rostguy, rostguy, راست گوی
sartarosh, sartarosh, سر تراش	heykaltarosh, heykaltarosh, هیكل تراش	qalamtarosh, qalamtarosh, قلم تراش
ho'zurbaxsh, ho'zurbaxsh, حضور بخش	elhombaxsh, elhombaxsh, الهام بخش	samarbaxsh, samarbaxsh, ثمر بخش
oshpaz, oshpaz, آشپز	halvopaz, halvopaz, حلواپز	kabobpaz, kabobpaz, کباب پز
jahongard, jahongard, جهانگشته	jahondide, jahondide, جهان دیده	jabrdide, jabrdide, جبر دیده
mirosxo'r, mirosxo'r, میراث خور	sudxo'r, sudxo'r, سودخور	emoratsoz, emoratsoz, عمارتساز
padarko'sh, padarko'sh, پدرکش	odamko'sh, odamko'sh, آدم کش	moshinsoz, moshinsoz, ماشین ساز
qemorboz, qemorboz, قمارباز	shatranjboz, shatranjboz, شطرنج باز	delrabo, delrabo, دل ربا
kisebo'r, kisebo'r, کیسه بر	rahbar, rahbar, رهبر	xo'shnavis, xo'shnavis, خوش نویس

خاک انداز xokandoz, سازنده sozande, خوردنه xo'rande,  
شونده shenavande, تخته پاک کن taxtepokko'n, کننده kashande

**8- topshiriq.** "Kutubxona" matnini o'tilgan leksik va grammatik materiallardan foydalanib tarjima qiling.

### Kutubxona

